

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va  
mavqeyini oshirish – asosiy vazifamizdir”.

**Shavkat Mirzoyoyev**

**“SAN’AT VA MADANIYAT:  
ILMIY-AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK  
ODIMLAR” MAVZUSIDAGI DOKTORANT,  
MUSTAQIL IZLANUVCHILAR, MAGISTRANT  
HAMDA BAKALAVR TALABALARINING  
ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
MATERIALLARI**

**II qism**

Toshkent – 2022

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’at va madaniyat: ilmiy-amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” mavzusidagi doktorant, mustaqil izlanuvchilar, magistrant hamda bakalavr talabalarining ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan san’at va madaniyat sohasi mutaxassisleri, fan o‘qituvchilari, magistratura va bakalavriat talabarlari foydalanishlari mumkin.  
(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir)

**Mas’ul muharrir:**

I.J.Yuldashev, f.f.d., professor, O‘zDSMI rektori

**Tahrir hay’ati:**

S.Jumayev, professor, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

M.Yuldashev, f.f.d., professor, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

M.Dustmurodov, o‘qituvchi, Kengashi kotibi

Z.Norqo‘ziyeva, Iqtidorli talabalar bo‘limi boshlig‘i

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida professor-o‘qituvchilari jamoasi

**Texnik muharrir:**

Bunyodbek Shukurov, talaba

*To‘plam O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Kengashining  
2022-yil 29-apreldagi 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MAQOM TEATRI – MILLAT KO‘ZGUSI

**Doston Haqberdiyev,**  
O‘zDSMI dramatik teatr rejessyorligi  
yo‘nalishi 1-kurs magistri

### **Annotatsiya**

Maqolada maqom san‘atining xalq hayotidagi ahamiyati Marg‘ilon musiqali maqom teatri faoliyati, maqsadi, ijtimoiy vazifalari, sahnalantirilgan va namoyish qilingan asarlar ijrosi misolida ko‘rsatilgan, shuningdek, teatr san‘atida maqomlardan foydalanish istiqbollari xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Musiqali maqom ansambli, maqom va teatr, mumtoz kuylar, teatrlashtirilgan asarlar, milliy ma‘naviyat, Marg‘ilon madaniy muhiti, rejessyor niyati.

### **Annotation**

The article highlights the importance of the art of maqom in the life of the people, the activities, goals, social functions of the Margilan Musical Maqom Theater, the performance of staged and performed works, as well as the prospects for the use of maqom in theatrical art.

**Key words:** Musical maqom ensemble, maqom and theater, classical melodies, theatrical works, national spirituality, Margilan cultural environment, director's intention.

Makom va teatr, bu ulug‘ san‘atlarni nima birlashtiradi? Birlasha oladimi? Bugungi globalashuv davrida, internet va har xil ijtimoiy tarmoqlar taraqqiy etgan bir vaqtda ko‘plab aholi ongida bu ikki san‘atga, ehtiyoji ancha pasaygandek nazarimda. Inson zoti har qachon qalb go‘zalligi, ma‘naviy go‘zallik, fikr go‘zalligi uchun intilib kelgan. Bularsiz dunyoda inson bo‘lib yashab bo‘lmaydi. Qalb esa o‘z-o‘zidan go‘zallashib qolmaydi, buning uchun inson adabiyot, san‘at va musiqaga tinimsiz oshno bo‘lishi, o‘z ruhiy ehtiyojlarini mana shu sehrli dunyo bilan qondirishga intilmog‘i kerak.

Bu esa insondan tinimsiz izlanish va mehnat qilishini talab qiladi. Bu mehnat – xalqning tarixini bilish, ajdodlar merosiga ixlos, milliy va jahon durdona asarlarini mutolaa qilish, kuy- qushiqlar mazmunini bilishga intilish, san‘atkorning dildagi maqsadini his qilishga intilish demakdir. Bu mehnat orqali insonning fikr doirasi kengayib, qalbi kundan-kunga ravshanlashib boradi. Bizning nafsimiz uzoqlashib borayotgan narsalar aslida bizning kamolimizga xizmat qiladi. Kitob, teatr, maqom bularga chinakam do‘st bo‘lganlar, bir umr balki moddiy jihatdan boy bo‘lmasligi mumkin, ammo har qanday xazinadan-da qimmatliroq fikr boyligini, tafakkur boyligini his etib yashaydilar.

SH.M.Mirziyoyev 2019-yil 6-7-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida yana bir bor maqom san‘atini rivojlantirishga alohida to‘xtalib o‘tib, zarur topshiriqlar berishi natijasida 2019-yil 5-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi huzuridagi Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 732-sonli qarori e‘lon qilindi. Mazkur topshiriq va qaror ijrosini ta‘minlash yuzasidan, O‘zbekiston

Respublikasi Madaniyat vazirining 555-sonli buyrug'iga asosan, 2019-yil 29-noyabr kuni Marg'ilon shahar musiqali maqom teatrining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Marg'ilon shahar musiqali maqom teatriga badiiy jihatdan yuksak asarlarni sahnalashtirish, teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlari orqali maqom san'atini targ'ib qilish, shuningdek, qiziqchilik va askiya san'atining sahnaviy syujetlarini rivojlantirish va takomillashtirish, yuqori malakali maqom va teatr san'ati ijodkorlarining imkoniyatlarini namoyish etish, maqom ijrochiligi yo'nalishida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini oshirishga ko'maklashish, aktyorlik mahorati va maqom san'ati ijrochiligi bo'yicha maqom, teatr va san'at muassasalarining ijodiy xodimlari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining maqom teatri yo'nalishida amaliyot o'tashlarini tashkil etish; xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish, chet eldan malakali mutaxassislarni jalb etgan holda trening, mahorat darslari, maqom teatri san'ati bilan bog'liq o'quv-tajriba mashg'ulotlari hamda maxsus loyihalarni amalga oshirish; mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda gastrol faoliyatini amalga oshirish, festival, ko'rik-tanlov, maqom kechalari, uchrashuvlar, ijodiy kechalar, qiziqchilik va askiya tomoshalari hamda boshqa tomosha tadbirlarini tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

Bugun haqiqiy ma'naviy xazinalarimiz bir joyga jam bo'lib bormoqda. Bu - maqom teatri. Bu maskanda chinakam adabiyotimiz, dunyoga mashhur o'zbek raqs san'atimiz, dunyo tan olgan askiyamiz hamda jonga rohat milliy kuy-maqomlarimiz jamlangan. Men bu dargohni tom ma'noda milliy maqom teatri deb atagan bo'lardim. Shu yerga kelgan inson boshqa bir sehrli olamga tushib qolgandek sezadi o'zini, bu yerdan taralayotgan oxanglar qalbingiz tugunlarini yecha boshlaydi. O'zbekning chin san'atini, madaniyatini shu dargohda har kuni ko'rishga musharraf bo'lasiz. Navoiy, Ogahiy, Lutfiy, Atoiy, Nodira, Uvaysiy, Munis kabi so'z sohiblarining g'azallari tarannum etilayotgan maqomlar sizning fikringizni, tafakkuringizni, didingizni boyitadi. Bu teatrning tashkil topishi madaniy hayotimizda juda katta yangilik bo'ldi. O'zbekning asl san'ati mujassam bo'lganligini endi butun dunyo ko'radi.

Tasavvur qiling biror bir san'atni nozik tushunadigan chet el fuqarosi yurtimizga kelib qolsa, qani o'zbekning san'atini ko'raylikchi, desa qayoqqa olib borardik? Teatrlarimizda doim ham mumtoz asarlar qo'yilmasa, konsert zallarimizda maqomchilarimiz doimiy konsertlar bermasa, o'ylab qolasan kishi, asl san'atimizni to'laqonlik ko'rsatadigan joy bo'lmasa... Bugun o'sha joy bor, millatning asl san'atlari bir joyga jamlangan, birlashgan dargoh. Bugun qaysi davlatdan mehmon kelsa Marg'ilonga olib boring - maqom teatriga olib kiring. Shunda bizning kimligimiz, san'atimizning nechog'lik zalvorli, qudratli ekanligini his etadi. Bu teatr tomoshalarini butun dunyoga ko'rsatish kerak, maqom spektakllarimizni respublika bo'ylab targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yishimiz kerak.

Hozirgi kunda mazkur jamoa tarkibida 115 nafar xodim faoliyat ko'rsatmoqda, shu jumladan 80 nafari ijodiy xodimlardir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, kuldirish darg'asi Mamasiddiq Sherayev boshchiligida bir qator yoshlar qiziqchilik va askiyachilik san'atini rivojlantirish, askiya san'atini yoshlar va kelajak avlodga meros

etib qoldirish uchun askiyaning sahnaviy syujetlarining yangi ko‘rinishlari mavzusida ijod qilib kelmoqdalar.

Teatrning ilk sahna asari sahnalashtiruvchi rejissyor S.Meliyev va sahnalashtiruvchi rassom F.Qo‘chqorovlar tomonidan shoir va dramaturg Turob To‘laning “Shashmaqom” asari asosida sahnalashtirilgan maqom-spektakli bo‘ldi. Mazkur maqom-spektakli jamoatchilik tomonidan katta olqishlar bilan kutib olindi.

2020-yil 10-15-dekabr kunlari Toshkentda o‘tkazilgan yosh rejissyorlarning “Debyut” respublika ko‘rik-festivalida maqom teatri muallif SH.Murodovning “Muhabbat bo‘stoni” asari asosida sahnalashtirilgan “Muhabbat bo‘stoni” maqom-spektakli bilan ishtirok etdi. Ko‘rik-festival natijasiga ko‘ra, “Muhabbat bo‘stoni” maqom-spektaklini sahnalashtiruvchi rejissyori, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Farg‘ona mintaqaviy filiali “Musiqali teatr rejissyorligi” yo‘nalishi talabasi X.Egamberdiyev faxrli I-o‘rin bilan taqdirlandi.

Hozirgi kunda Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri repeptuaridan: Turob To‘laning “Shashmaqom” spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Sayfiddin Meliyev), Hayitmat Rasulning “Muhabbat sultoni” asari asosida “Munojot” maqom-spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Sayfiddin Meliyev), Shokir Murodovning “Muhabbat bo‘stoni ” asari asosida “Muhabbat bo‘stoni” maqom-konsert spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Xo‘jamberdi Egamberdiyev), Nurullo Abbosxonning “Navoiy” maqom spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Doston Haqberdiyev), Muhammasiddiq Sherayev, Marat Azimovning “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?” deb nomlangan askiya-konsert kechasi, teatrning maqom ansabli tomonidan tayyorlangan “Maqom tarovati” maqom-konsert dasturi (sahnalashtiruvchi – Bahodir To‘xtasinov), Mahmud Tojiboyev, Hayitmat Rasul asari “Maqomi Tanho” maqom-spektakli (sahnalashtiruvchi rejissyor – Doston Haqberdiyev) singari asarlar o‘rin olgan.

Teatrning “Maqom tarovati va askiya nashidasi” deb nomlangan maqom va askiya konsert dasturida ijro etilgan mumtoz kuy-qo‘shiqlar va askiyalar ham ko‘plab tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo‘ldi.

2022 yil teatr jamoasi uchun ham barakali boshlandi. Jumladan, adabiyotshunos Otabek Jo‘raboyev ssenariysi asosida ulug‘ o‘zbek shoiri Muqimiy ijodiga bag‘ishlangan “Ko‘nglim sandadur yoxud Qo‘qon ushshog‘i” nomli musiqali maqom spektakl tomoshabinlar e‘tiboriga havola qilindi.

Men bu spektaklning sahnalashtiruvchi rejessyori bo‘lganimdan baxtiyorman. Sahnalashtiruvchi rassom Ixtiyor G‘oyipov, raqslarni sahnalashtirgan Farangiz Lutfullayeva bilan birga shoir she‘rlari bilan aytiladigan mumtoz ashulalarni o‘ziga xos tarzda tomoshabinlarga armug‘on qilish yo‘lida ijodiy hamkorlik qildik. Muqimiy so‘zi bilan aytiladigan “Miskin”, “SHo‘xi parivash”, “Tanovar”, “Ey, chehrasi tobonim”, “Ayrilmasin”, “Adolat tanovari”, “Bormukan?”, “Parvonaman”, “Yolg‘iz”, “Qalandar-I” nomi ila mashhur bo‘lgan mumtoz va xalqona qo‘shiqlar yangi ovozlarda talqin etildi. Biz tomoshabin bu mumtoz qo‘shiqlarni bugun emas, huddi shoir yashagan davrda tinglayotgandek ruhiy holatga tushishi uchun harakat qildik. Tomoshabinlar bu asar orqali “Muqimiy” taxallusi bir yerda muqim yashovchigina emas, balki **bir so‘zda, bir e‘tiqodda muqim turuvchi inson** degan ma‘noni ham bildirishini anglatishga intildik. Asarda Muqimiy, Muqimiyning onasi, Furqat, Zavqiy,

Muhyi hoji, Orif samovar, Prstav, Dodhoh, Muhammadjon hofiz, Faxrinniso va boshqa obrazlar iste'dodli aktyor va aktrisaralar tomonidan mahorat bilan ochib berildi. Spektaklda "Segoh" maqomidan "Garduni segoh" kuyidan foydalandik.

Davr shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda, ayniqsa yoshlarimizga mardlik, sadoqat, oqibat, vatanparvarlik, ibo-xayo kabi fazilatlarga oshno qilishimiz shart. Shundagina ajdodlarimizga avlodlar munosib bo'lamiz. Maqom teatrimiz uzoq yillar xalqimiz ma'naviyati yo'lida xizmat qilsin, parvozi yuksak bo'lsin. Men ishonamanki, bir kun kelib bu teatrdan yana ko'plab Ma'murjonlar, Jo'raxonlar, Tavakkallar, Yusufjon qiziqalar, Tamaraxonimlar yetishib chiqadi. Ular o'z san'atlari bilan dunyoni lol qoldirib, yangi tarixlar bitajakdir.

Marg'ilon shahar musiqali maqom teatri O'zbekiston san'at va madaniyat instituti, shuningdek, uning Farg'ona mintaqaviy filiali bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yganligi quvonarlidir. Institutning o'ndan ortiq talabalari teatr bilan mehnat shartnomalarini tuzishgan. Talabalar o'qish bilan birgalikda amaliyot tarzida, teatrdan o'z ijodiy faoliyatlarini olib borishmoqda.

## QO'QONLIK AKTYOR RAHMONJON PO'LATOV IJODI

**Otabek Anvarov,**  
O'zDSMI dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati  
yo'nalishi 1-kurs magistri

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo'qonlik aktyor Rahmonjon Po'latov hayoti va ijodi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** aktyor, obraz, ichki-psixik, psixofizik, xatti-harakat, musiqali drama, talqin, mahorat, rol, ijro, teatr, sahna, kechinma san'at, qayta gavdalantirish, pyesa, rejissyor, pafos.

### Annotatsion

This article is about the life and work of Kokand actor Rahmonjon Pulatov.

**Keywords:** actor, image, inner-psychic, psychophysical, behavior, musical drama, interpretation, skill, role, performance, theater, stage, experiential art, re-enactment, play, director, pathos.

Qo'qon shahar musiqali drama teatri respublikamizda o'ziga xos, ijodiy hamda ijro uslubi bilan yaqqol ajralib turadi. Buni aktyorlarning vodiylilarga xos chapani, samimiy, emotsional ijrolari orqali ko'rishimiz mumkin. Aktyorlarga biror rol ishonib topshirilar ekan, har-bir aktyor mas'uliyat bilan o'zlarining vazifalarini bajarishga kirishadilar. Bunda asosan tajribali aktyorlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali ustoz san'atkorlarning mahorat maktabi, yosh iste'dodli aktyorlarni

tarbiyalashda ahamiyatli ekanligi bois teatrda ustoz-shogird an'anasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Ustoz san'atkorlarning yoshlar bilan, doimo ijodiy hamkorlikda ekanligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu ham albatta teatr sahnasida, har jihatdan mukammal asarlar yaratilishiga turtki bo'lmoqda.

Har bir aktyor rol ijro etayotganda tahlil etilgan obraz maqsad-vazifasining muhim ekanligini yodda tutishi lozim. Aktyor ijro etayotgan har bir roli uchun u xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin, ana shu rolning o'zigagina xos bo'lgan jest-mimikalar ifodasini yaratadi. Har bir obraz timsolida aktyor ana shu rolning hayoti bilan yashab, uning tili bilan so'zlashi lozim. Mazkur jarayonda uning fizik holati ham: yurish turishi, gapirish uslublari, harakatlari ham ana shu obraz qiyofasiga moslashib boradi. Bu borada Qo'qon shahar musiqali drama teatrining ustoz san'atkori Rahmonjon Po'latov o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

R. Po'latov o'zi uchun ishonib topshirilgan obraz ustida chuqur izlanish olib boradi. U eng avvalo, pyesani ko'p marotaba o'qish orqali asarni mukammal o'rganadi. Aktyor pyesani mukammal o'rganib bo'lgach, muallif haqida ma'lumotlar to'playdi va uning boshqa asarlarini o'rganishga kirishadi. Bu jarayonda aktyor, rejissyor bilan muntazam ravishda suhbatlashib o'zi uchun kerakli ma'lumotlar to'playdi. Rejissyorning o'y fikrlari bilan muntazam qiziqishi orqali o'zi uchun topshirilgan rolni qanday qayta gavalantirish kerak ekanligini o'rganadi. Rejissyorning g'oyasi, asarni sahnalashtirishda qanday shakl va uslublardan foydalanishi bilan qiziqadi va o'zining takliflarini bevosita rejissyor bilan o'rtoqlashadi. Aktyor biror obraz ustida ishlar ekan rejissyor bilan do'stlashib olishga harakat qiladi. Bu esa aktyorning qaysidir ma'noda ayyorligidir. Bu ham albatta o'z mevasini beradi va aktyorning ijrosining o'ziga xosligiga sabab bo'ladi.

R. Po'latov sahnada mizanssenalardan uncha yorqin tarzda foydalanmay balki asosiy e'tiborini yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ichki-psixik harakatga qaratadi. Masalan: R. Po'latov ijrosida "Qo'qonning o'n ikkinchi darvozasi" (Nurilloxoji Abdullayev ) tarixiy spektaklida, Qo'qon xoni Xudoyorxon obrazining talqinida aktyor, ayni "kechinma san'ati"dan unumli foydalangan bo'lib, og'ir, bosiq, mulohazali hukmdor sifatida namoyon bo'lgan. Aktyor davlat arbobi sifatida sahnada xatti-harakat qilar ekan, qarama-qarshi kuchlarga nisbatan emotsional munosabatda bo'lishi, ortiqcha "pafos"ga berilmasdan sahnada real xatti-harakat qilishi, ijodkor ijrosining jozibadorligini oshirgan.

R. Po'latov ushbu obrazni gavalantirish chog'ida asosiy e'tiborini obrazning jismoniy hatti-xarakatiga emas balki o'z uslubida ya'ni ichki-psixik harakatga qaratgan. Shu bois sahnada aktyor o'zi uchun ajratilgan, taxti ravonda, qimirlamay o'tiradi va partnyorlari bilan psixologik munosabatda bo'ladi. Faqatgina so'ngi daqiqalarda avanssenaga chiqadi va tomoshabinga yuzlanib, so'ngi so'zlarini aytadi. Bu ijro qaysidir ma'noda zerikarli bo'lib tuyilishi mumkin. Ammo R. Po'latov talqinida, bu obrazning yorqin qirralari ochib berilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi aktyor, taxti ravonda tashqaridan qaraganda shunchaki hech qanday harakatsiz, o'tirgandek tuyiladi. R. Po'latov ham o'z ijod yo'lida, ana shunday ijodiy hamkorlar bilan, ko'plab ijodiy ishlarni amalga oshirgan.

R. Po‘latov ana shunday hayot tajribaga ega aktyor bo‘lganligi sababli, unga doimo, aktyorning o‘zidan kelib chiqib obraz yarata oladigan rolni taqdim etadilar. Ana shunday asarlardan biri “Qo‘ng‘iroq” (Ilhom O‘rmon) spektaklida “Po‘lat” obrazi bo‘lib, asar voqealari, uzoq muddat bir maktabda ishlab, yetuk shogirdlarni tarbiyalagan halol va samimiy ustoz haqida hikoya qiladi. Aktyorning bu obrazida ham ichki – psixik harakat birinchi o‘rinda ekanligi ko‘rinib turadi. Shu bilan birga aktyor sahnada faol psixofizik xatti-harakat qila boshladi.

R. Po‘latov “Qo‘ng‘iroq” spektaklida yaratgan obrazini asosan, o‘zining hayotiy tajribalari orqali talqin qilgan. Aktyor asosiy e‘tiborini qahramonning avtobiografiyasiga qaratdi. O‘zi yaratmoqchi bo‘lgan qahramonining tarixini ishlab chiqdi. Bunda asosan asar muallifining fikrlaridan keng foydalandi, masalan muallif qahramoni haqida, atrofdagilar u haqda, o‘zi-o‘zi haqida, kabi savollarga javob berish orqali kerakli xarakter izladi. Natijada yuqorida aytib o‘tganimizdek o‘z kasbining fidoiysi, sodda, samimiy, halol, talabchan, kabi xislatlarni o‘z qahramoniga tatbiq eta oldi.

R. Po‘latov ana shunday ko‘plab ijod mahsullarini yarata olgan tajribali aktyor sifatida teatr san‘atida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan san‘atkordir. Uning talqinida ko‘plab, yorqin xarakterli obrazlar yaratildi va tomoshabinlar qalbida iliq ta’sirot uyg‘ota oldi. R. Po‘latovning ijro uslubiyatini tahlil qilish yosh aktyorlarga, kelgusida rol ustida ishlashda bevosita maktab bo‘lishiga ishonchimiz komil.

Xulosa qilib aytganda, teatr sahnasi har bir aktyor mahoratini charxlovchi haqqoniy maydon hisoblanadi. Aktyorlik mahorati negizlarini yorituvchi ustoz san‘atkorlarning tajriba maktabi san‘atning muhim poydevori hisoblanmish aktyorlik kasbi rivoji uchun, sezilarli ravshda, hissa qo‘shadi deb umid qilamiz. Shuningdek teatr san‘atida ko‘p yillik tajribaga ega aktyorlarning ijro talqinini o‘rganish, ularning ijod yo‘lini doimiy kuzatib borish, bugungi yosh aktyorlarni tarbiyalash masalasida ko‘makchi bo‘la olishi mumkin. Bo‘lajak aktyorlarning etikasi, estetikasini shakllantirishda albatta tajribali aktyorlarning, tajriba maktabi bevosita muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, rol ustida ishlash, o‘z ishiga mas’uliyatli bo‘lish, kasbiga sodiqlik, hamisha izlanishda bo‘lish kabi xislatlarni uyg‘otishda tajribali aktyorlarning ijod yo‘li, muhim ahamiyat kasb etishi, tahlillarda namoyon bo‘ladi.

### **Adabiyotlar:**

1. K. S. Stanislavskiy – “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” (T. Xo‘jayev tarjimai) Toshkent – “Yangi avlod”- 2017
2. M. Abdullayeva. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. “Tafakkur qanoti” nashriyoti Toshkent – 2014
3. M. Abdullayeva. Sahna mahorat maktabi. “Chashma print” nashriyoti, Toshkent – 2011
4. M. Abdullayeva. “Rejissura” “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti Toshkent – 2016
5. R. Usmanov “Rejissura” “Fan” Toshkent – 1997
6. J. Mahmud “Aktyorlik mahorati” o‘quv qo‘llanma Toshkent – 2005



## ANIMATSIYA SAN'ATIDA MILLIY QAHRAMON O'RNI

**Kamola Suleymanova,**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Ovoz rejissyorligi va operatorlik maxorati”

kafedrası o'qituvchisi

[kamolamahmudova1@gmail.com](mailto:kamolamahmudova1@gmail.com)

### Annotatsiya

*Ushbu maqolada O'zbekistonga animatsiya san'atining kirib kelishi va ilk ko'rinishlari, badiiy obraz yaratishda qo'g'irchoq teatrining ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** kino, animatsiya, stop-moushn, qo'g'irchoq teatr, animator, aktyor

### Abstract

*This article discusses the arrival and first appearance of animation in Uzbekistan, the role of puppet theater in creating an artistic image.*

**Key words:** film, animation, stop-mouse, puppet theater, animator, actor

Tomoshabin ongida milliy urf-odatlar, an'analarimizni singdirishda har tomonlama ma'naviy barkamol qilib fikrlash qobiliyatini shakllantirish, tabiatni asrab-avaylash, unga mehr uyg'otishda animatsiya san'atining ahamiyati kattadir. Negaki tomoshabin ayniqsa bolalar animatsion film ko'rganlarida, qahramonlarning harakati, ahloqiga taqlid qilish hususiyatiga ega. Zamonaviy milliy qahramonlar yaratish orqali esa tomoshabin qalbida ezgulik, odamlarga yaxshilik qilishga intilish tuyg'usini tarbiyalash mumkin. Multfilmlar oddiy ovunchoq vazifasini o'tamasligi lozim. Xar bir yaratiladigan san'at asarlari kabi multfilmlar chuqur mazmunga ega bo'lishi zarur. Bunda mumtoz adabiyotlarga murojaat etish ayni muddaodir. Negaki, dunyo mamlakatlari avvalambor o'zbek animatsiyasi deganda urf-odatlar, turmush tarzimiz, tariximiz, orzu-umidlarimizni ko'rishni istaydi.

Harakatni chizmalar orqali ifodalashga bo'lgan dastlabki urinishlar eramizdan oldingi 2000-yillarda Misrda, shuningdek, Shimoliy Ispaniyaning g'orlarida topilgan sakkiz oyoqli to'ng'iz ko'rinishida ifodalangan. Ikki yarim ming yil oldin Yevropaning janubiy qismidagi g'orlarda ov jarayonidagi hayvonlarning ajoyib suratlari topilgan. Suratlarni ketma-ketlikda ko'rsatish orqali rassom nafaqat personajni harakatlantira oldi balki ularni fikrlashga ichki xolatini ko'rsatishga erishdi.

Insoniyat voqelikni suratlar va sahna ko'rinishlarida aks ettirib keldi. Hajmli (qo'g'irchoq) animatsiyasi murakkab turlaridan hisoblanib, u dastlab teatr sahnalarida namoyish etilgan va uning turli ko'rinishlari mavjud. Qo'g'irchoq teatri paydo bo'lishi Gerodot, Ksenofont, Aristotel, Goratsiy, Avreliy va boshqalarning malumotlari bo'yicha V–VI asrlarga borib taqaladi. Qo'g'irchoq teatri tabiatni ilohiylashtirish kabi marosimlarda namoyish etilgan. Sharqda qo'g'irchoq teatrining barcha shakllari mavjud bo'lgan. O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri o'tmishda taraqqiy etgan bo'lib, uning “Chodir xayol”, “Chodir jamol”, “Fonus xayol” turlari faoliyat ko'rsatib kelgan. Shundan soya teatri (“Fonus xayol”) keng tarqalgan.

Shuningdek, “Fonus xayol” Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida berilgan va boshqa ma’lumotlarga qaraganda, “Fonus xayol” XIV–XVI asrlarda keng taraqqiy etgan. Qo‘g‘irchoqlar charm yoki taxtadan yassi qilib ishlangan, kiyimchalar tikilgan yoki rang bilan bo‘yalgan. Qo‘g‘irchoqlar dastcho‘plarga o‘rnatilgan. Qo‘g‘irchoqlarni harakatlantirish va ularning bo‘g‘inlariga bog‘langan iplarini tortish orqali ular jonlangan. Tomoshalar kechqurun va tunda bino ichida ko‘rsatilgan. Ular yupqa oq parda ortida, yaqin masofada (5-7 sm) harakatlantirilgan. Qo‘g‘irchoqlarning ortidan sha‘m o‘rnatilgan yoki zig‘ir yog‘i quyilgan bir necha fonuslar yoritib turgan. Natijada qo‘g‘irchoqlarning aksi pardaga tushgan. Fonus hayol tomoshalarida qahramonlik dostonlarining syujetlari aks ettirilgan va u ko‘pincha saroylarda ko‘rsatilgan.



**1-rasm. Gavrilov M.F. “Kukolnii teatr Uzbekistana” kitobidan qo‘g‘irchoq eskizlari.**

Ilk ovozsiz hajmli (qo‘g‘irchoq) animatsion filmi rus rejissyori va operatori V.Starevich tomonidan 1909-yilda suratga olingan. XX asrning ikkinchi yarmida ushbu texnologiyani yurtimizda yaratilgan ba’zi badiiy filmlarda kuzatishimiz mumkin. Masalan, kinorejissyor Sh.Abbosovning “Mahallada duv-duv gap” badiiy filmidagi to‘y sahnasida animatsiyaning stop-kadr texnologiyasidan foydalanilgan. Albatta, o‘sha davrda bunday uslubdan foydalanish film muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qildi.



**2-rasm. «Mahallada duv-duv gap» badiiy filmi.**

Animatsion elementlari mavjud bo'lgan badiiy filmlar o'ziga xos qonuniyat va estetik xususiyatlarga ega. Bu ham bo'lsa suratga olingan "jonli" tasvir va "jonsiz" belgilar, real dunyoda mavjud bo'lmagan narsalar bilan uyg'unlashtirishidir.

Milliy kino sanatining jamiyat manaviy hayotini yuksaltirishdagi o'rnini hisobga olgan holda, bu sohani milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish borasida 1964-yilda "O'zbekfilm" qoshidagi multibirlashma tashkil topib, birinchi multfilm ustida ish 1965-yilda rassom, ssenarist Y.Petrov va rejissyor D.Salimov "6x6 kvadratida" nomli ilk multiplikatsion film yaratdilar. U dolzarb mavzu bo'lgan – paxta zararkunandalariga qarshi kurashda kimyoviy moddalarning ahamiyatiga bag'ishlangan.



**3-rasm. «6x6 kvadratida» qo'g'irchoq multfilmi.**

Qahramonlar – qo'g'irchoqlar, ularni yasashda Respublika qo'g'irchoq teatri mutaxassisleri qo'g'irchoq yasovchilar F.Tomoshevskiy, K.Shomuslimov, N.Ayupov, qo'g'irchoqboz B.Stupakov, yana boshqa rassom konstruktor, dekoratsiya ustalari birgalikda ish olib borishgan. Mamlakatda soha bo'yicha mutaxassislar kam bo'lganligi sababli, kartina ustida ish murakkab kechgan. Shu bois ijodkorlar tasmani qanday yaratishni so'zma-so'z o'rganishlari zarur bo'lgan. Y.Petrov mazkur san'at sirlarini o'rganish maqsadida "Soyuzmultfilm" studiyasidan animatsion film yaratishga doir qariyb 200 sahifali yo'riqnoma keltiradi. Natija esa yuksak baholanib, D.Salimov milliy ruh bilan sug'orilgan "Sehrlı sandıq" qo'g'irchoqli animatsion filmi yaratilishiga turtki bo'ldi.

Demak, animatsion film asosi adabiy ssenariydan iborat bo'lib, turli janrlardan foydalangan holda yoziladi. Masalan, ertak, afsona, satira, rivoyat, folklor, komediya, halq ijodiyoti asarlari, ilmiy fantastika va boshqalar. Bu janrlar yordamida, bolaligimizdan tanish bo'lgan yoqimli tasurotlarni uyg'otishga erishiladi. Har qanday adabiy asar orqali, qahramon, tarihiy voqea, milliy urf odatlar, turli mamlakat va halqlarning madaniy ildizlari bilan tanishish mumkin. Shu bilan birgalikda mulltfilmlar yordamida tomoshabinga ta'lim-tarbiya, vatanparvarlik, insoniylik fazilatini singdirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqodchilar adabiy nuqtai nazardan zamonaviy animatsiyani yaratishda bir necha **tendensiyalarni** sanab o‘tadilar:

- Poetik jihatdan ifodalilikni oshirish uchun bir necha janrlarning aralashmasidan foydalanish;

- Ekranlashtirilayotgan asarni ta’sir kuchini oshirish uchun metafora, giperbolizatsiya, ramzlar kabi turli adabiy vositalardan foydalanish;

- Klassik asarlardan foydalanish.

Bunda rejissyor shaxsiy pozitsiyasi, imkoniyatlari, dunyoqarashi, tarixiy materiallarni tushunish va baholash orqali o‘tmish hayot mojarosini allegorik talqin qilish imkoniga erishadi. Klassik asarlar hazinasida jamlangan qahramonlar interpretatsiyasi orqali yangi obrazlar yaratish soha vakillari tomonidan, jahon amaliyotida ham keng qo‘llanilmoqda.

Adabiy asarlarni o‘qiganda asardagi voqealar, qahramonlar obrazi o‘quvchining tasavvur olamida bevosita gavdalanadi. Mazkur holatda ijodkor har bir sodir bo‘layotgan voqea-hodisani o‘z salohiyatidan kelib chiqqan holda tavsiflaydi va shartli shaklni chizadi, tasviriy vositalar bilan bezaydi. Ana shunda adabiy asar animatsion tasvirlarga boy ekani yaqqol seziladi. Shunga ko‘ra, animatsion film adabiyotdan unib chiqqan nihol desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yani bevosita matn ko‘rinishidan tasvirga ko‘chgan butun bir olam – so‘zning vizual talqini sifatida e’tirof etiladi. Tabiiyki, ssenariy tarkibidagi har bir epizod adabiy asardan kelib chiqqan va uning tasvirda aks ettirish xususiyatlari inobatga olingan xolda yaratiladi. Adabiy asar animatsion filmlardagi turli ranglar va harakatlar o‘yinlarini xilma-xilligini ta’minlovchi asosiy unsurlardan biridir. Ammo adabiy ssenariylar har doim ham animatsiya janriga mos kelavermaydi. Chunki yaratilayotgan film shunchaki kompyuterda ishlangan bir ko‘rinishi bo‘lib qolish kerak emas. Negaki animatsiya moliyaviy jihatdan juda qimmat baholanadigan san’at turi bo‘ganligi sababli, ssenariylarni ekranlashtirishdan oldin prodyuser, rejissyor, kerak bo‘lsa butun jamoa yaxshilab o‘ylab ko‘rishlari kerak. Negaki aktyorlar qoilmaqom ijro qilib berishlari mumkin bo‘lgan sahnani kompyuter modellariga almashtirishning hojati yo‘q.

Hulosa qilganda, ilk animatsion filmlar stop-kadr texnikasida ijodkorlar ertak janriga murojaat qilganlar. Muvaffaqiyatli film yaratishda uchun badiiy adabiyot muhim rol o‘ynaydi. Negaki cheksiz fantaziya olamini talab etadigan animatsiya janri ssenariysi badiiy film ssenariylarida bo‘lgani kabi qoidalarga muvofiq yozilmaydi. Bu janrda ijod qilishning mushkul tarafi shundaki, unda ijodkordan ssenaristlik bilimlaridan tashqari animatsiya sohasidagi mavjud prinsplarni tushunish, vizual ifoda usullarini kinodan farqlay olish qobiliyati talab etiladi. Yozuvchi kuzatuvchan, o‘ta e’tiborli bo‘lishdan tashqari vaqtni his qilishi kerak.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2016-yil, sentyabr.

2. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 17-martdagi “O‘zbekkino Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2004-yil 16-martdagi “Kinematografiya sohasini boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Mirzamuhammedova M. O‘zbek animatsiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014.
6. Mirzamuxammedova M. Bolalar kinosi. Aftoreferat.
7. F.Xitruk – Professiya animator.
8. R.Uilyams – Animator: Nabor dlya vijivaniya // YE.Engels, Pervod, 2018

## **MADANIYAT SINKRETIZMI TUZILISHIDA SINTEZNING O‘RNI**

**Yuldashev Izzat Ikramovich**

O‘zDSMI “Folklor va etnografiya kafedrası” o‘qituvchisi,  
1 kurs mustaqil izlanuvchi (PhD)  
Izzat5565@mail.ru  
+99893 549 55 65

### **Annotatsiya**

Mazkur tezisdagi madaniyat sinkretizmi tuzilishida sintez amaliyotining o‘rni ochib berilgan. Unda sintezning madaniyatdagi namoyon bo‘lish xususiyatlari va uning madaniy hodisalar bilan bog‘liqligi alohida yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, sinkretizm, sintez.

### **Annotation**

This thesis explores the role of the practice of synthesis in the structure of cultural syncretism. It highlights the cultural manifestations of synthesis and its relationship to cultural events.

**Keywords:** culture, syncretism, synthesis.

### **Аннотация**

В диссертации исследуется роль практики синтеза в структуре культурного синкретизма. Он подчеркивает культурные проявления синтеза и его связь с культурными событиями.

**Ключевые слова:** культура, синкретизм, синтез.

Madaniyat sinkretizmi dunyoviy-tasodifiy hodisalarga imkoni boricha o‘ziga ma’qul topgan tomonlariga munosabat ko‘rsatishi orqali, ularga xos ikkilanish nuqtalarni loyihalashtirish, konstruksiya, integratsiya, qayta qurish, innovatsiya mahsullarining qaror topishini butunlikdagi ta’sirlanish darajasida ham amalga oshira oladi. Ammo madaniyat sinkretizmi dunyodagi tasodif va ikkilanish nuqtalarining muvofiq kelmagan tomonlarini ma’qul topmaydi. Ayniqsa, etnomadaniyat sinkretizmi dunyoviy hodisalarning muvofiq va nomuvofiq kechadigan sintez amaliyotlarini tezda ajratib olib, u bunda xalq madaniy artefaktlari va qadriyatlarini ustuvorligini ifodalab, o‘zi uchun mos keladigan sintez jarayonini amalga oshiradi.

Manbalarda sintez soʻzini yunoncha “synthesis” – qoʻshilish, birikish maʼnosini qayd etgani oʻlaroq, falsafa va turli xil fanlarda narsa-hodisalarni yaxlit, butun holda olib, ularning (amaliyotda yoki bilishda) tarkibiy qismlarini oʻzaro bir-biri bilan bogʻlab tekshirish metodi sifatida urgʻu berib oʻtilgan [2. B-369; 3. B-287.]. Pifagor olamda narsa-hodisalar voqe boʻlish mohiyatini sonlarning mavjudligi, zaruratligi, birlamchi ekani, garmonik tarzda voqe boʻlishi sifatida tushunib, ularning koinot, tabiat va estetik qarashlardan ajratib boʻlmazligiga ishora etadi. Madaniyatshunos O.Xateyeva raqamni garmonik prinsipi, dialektik sintez sifatida tushungan Pifagorchilarni butun koinotda sonning ijodiy mohiyati haqidagi taʼlimotni ishlab chiqqanlariga bejizga urgʻu bermagan edi [5. B-19.]. Lekin madaniylashuv jarayoni boʻlishi uchun, sinkretizm asosan sintez tizginini izdan chiqmaslik choiralarini izlaydi va uni boshqarib borishga harakat qiladi. Yu. Arxipova sinkretizm sintezni oʻz ichiga qamrab olishini, uni koʻpincha tahlil jarayonida qismlarga boʻlingan obyekt qismlarining aqliy birikmasi va shu orqali ushbu obyektning bir butun sifatida bilish deb taʼriflanishini taʼkidlagan [1. B-69.]. Lekin sinkretizm bilan sintezni aynan bir tushuncha sifatida qayd etish xatodir. Binobarin, R. Genon: “Sinkretizm asosan dunyoviy yondashuvdir; u hech qanday sintez emas, balki maʼlum maʼnoda uning teskarisi” – deya taʼkidlagan [4. B-215.]. Chunki, madaniyat sinkretizmi – bu madaniy jarayon, hodisalarni mutlaq ixtiyoriy tarzda sintez qilishni qabul qilmaydi, balki u oʻziga maʼqul topgan va haqqoniy deb bilgan sintezni tanlaydi. Bu esa, sinkretizmning madaniylashuv jarayonlarini taʼminlashda ichki oʻziga xosligini anglatadi. Bundan tashqari, hozirgi zamon sinkretizmi dunyoviy-madaniy umumiyatda, etnomadaniy qoliplarda sinergetik-bifurkativ ikkilanish nuqtalarining birini konstruksiyalashni, modellashtirishni, qayta qurishni, innovatsiya tarzda parchalab yuborishni, immanent-differensial yoʻsinda aniqlashtirilib olingach umumlashirishni, ularning bir-biriga yaqinlashishini amalga oshiradi. Yu. Arxipova: “Eʼtibor bering, sinkretizm ham sintez kabi yaxlitlik, struktura, elementlar yigʻindisi tushunchalari bilan eng yaqin munosabatda boʻlib, ular ham oʻz navbatida sinkretizm taʼrifining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Hamma narsa sinkretizmning yaxlitlik va tuzilishning asosiy tizimli tamoyillari bilan sintez tarzda taqdim etilishi mumkinligini koʻrsatadi” – deb taʼkidlaydi [1. B-69.].

Etnomadaniy marosim sinkretizmida til, raqs, musiqa elementlari jamoaviy ehtiyojga, ifodaviy jihatga, bir-biriga mos kelishiga qarab sintez tarzda birlashgan. Masalan, xalq badiiy havaskorlik koʻrinishlarida muayyan yaxlit badiiy chiqishning yoki asarning maʼnaviy taʼsirchanligini, ifodaviyligini kuchaytirish uchun, etnomusiqiy ohanglardan, raqs va mimik xatti-harakatlardan, sheʼriy namunalardagi soʻzlardan tomoshaviy holatga muvofiq keladigan (xususiyatlarga koʻra) sintez yuzaga keladi. Bunda, etnomadaniy-anʼanaviy tajribalar asosida sintez boʻlayotgan artefakt va xalqchil xususiyatlarning bir-biriga taqqoslash, moslashtirish, tekshirilish amaliyoti ham muhim rol oʻynaydi. Insonlar orasida madaniylashuv u yoki bu darajada voqe boʻlishi bilan birga, etnomdaniyat sinkretizmi oʻziga maʼqul topgan sintezni qabul qilib kelaveradi.

Har qanday madaniy qolipdagi hodisa va predmetlarning sintez tarzda boshqa hodisa markazidan aylana tomon yoʻnalishlari – ularning oʻz xususiyatlariga koʻra

bogʻlanishi, oʻzaro taʼsirlar bilan moslashib kelishi demakdir. Bundan tashqari, sinkretizm organiklik tarzda ham sintezni oʻz ichiga oladi. Qaysidir madaniy qolip ichida muayyan predmet va hodisaning (oʻz-oʻzicha) parchalanishi, differentsiallasuvi nafaqat uning immanent va organiklik xususiyatlarini ifodalashi, balki sinkretizmdagi oʻzgarishlarning miqdoriy darajadan tub sifatga; ularning bir shakldan ikkinchi shaklga (oddiylikdan murakkablikka) oʻtib borishini ham anglatadi. Sinergetikadagi ikkilanish nuqtalarining ehtimollariga koʻra, bir holatning qaysidir nuqtalari boʻyicha mutlaqlashayotgan eklektik hodisalar asta-sekin sintez, organiklik, modellashtirish, konstruksiya va integratsiya jarayonlariga taʼsirlanib, adekvat, sublimatsiya munosabatlariga duch kelib, nuqtalarning ikkilanish tomonlaridagi yana tasodifiy nuqtalar bilan sinkretik holat muvozanatiga mutanosib boʻlib rivojlanishini ham amalga oshirishi mumkin. Bu esa, eklektik qorishqlikdan madaniy-sinkretik butunlik tomon tartibli tarzda, koʻp tomonlama harakatlanishni anglatadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Архипова Ю. В. Синкретизм в структуре культуры. Дисс. кандид. филос. наук. Саратов, 2005. – С-145.
2. Falsafa qomusiy lugʻat. T.: Sharq, 2004. – 491 b;
3. Falsafa qisqacha izohli lugʻat. T.: Sharq, 2004. – 384 b.
4. Генон Р. Традиционные формы и космические циклы. Кризис современного мира. М.: Беловодье, 2004. – С-300.
5. Хотеева Ольга Викторовна. Гармония как константа культуры. Дисс. культуролог. канд. наук. Саратов: 2006. – 165 с.

## **INTERNETDAN TOʻGʻRI FOYDALANISH MADANIYATI**

**Xursandova Zebo Sherzod qizi,**

(Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institute, “Xalq ijodiyoti” fakulteti,  
“Madaniyat va sanʼat muassasalarini tashkil etish va boshqarish” yoʻnalishi)

E-mail:xursandovazebo989@gmail.com

Telefon raqami:+998943666976

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada internetdan ijobiy va salbiy foydalanishning natijalari, internet tarmoqlari va yoshlar orasida internet madaniyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Maʼnaviyat, Internet, tarmoq, Super kompyuter, WWW, telekonferensiya

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются последствия позитивного и негативного использования Интернета, интернет-сетей и интернет-культуры среди молодежи.

**Ключевые слова:** Духовность, Интернет, сеть, Суперкомпьютер, WWW, телеконференция.

### **Annotation**

This article examines the consequences of the positive and negative use of the Internet, Internet networks and Internet culture among young people.

**Key words:** Spirituality, Internet, network, Super computer, WWW, teleconference

Internetni yaratilishiga asos solgan olim- Kompyuterlarni tarmoqqa ulash g'oyalari birinchi bo'lib, 1960-yillarning boshlarida paydo bo'la boshladi. 1965-yili Lourens Roberts va Tomas Merrvill Kaliforniya va Massachusetts shtatlarida joylashgan ikki kompyuterni bir-biriga bog'lashdi. Lourens Roberts.

1980-yillar davomida AQSHning eng tanilgan korxonalarini NSFNET Prinston, Pittsburg, Kaliforniyaning Santa - Barbara universiteti va Kornell universitetida beshta superkompyuter markazlarini tashkil etishdi. Bu besh markazni AQSHda "Internet Backbone" (Internet asosi) deb atashadi. NSFNET 56 kbayt/s oshishiga sababchi boldi. 1987-yili Internetga ulangan kompyuterlar soni 10000 ta bolsa, 1989 - yili 100000 taga etdi.

Internetning 1990-yillardagi rivojlanishiga asosiy World Wide Webning (Butun Dunyo Tarmoqi) tuzilishi boldi. 1990-yil noyabrda Evropa atomni tekshirish markazi (CERN) xodimi Tim Berns - Li WWW tarmog'ining birinchi nusxasini yaratdi, lekin u 1992-yilgacha ishga tushirilmadi. 1993-fevralida NCSA (National Center for Supercomputer Applications, Super kompyuterli Xisoblash Markazi) Mosaic programmasining alfa - versiyani tuzdi. 1993-yil sentyabrida birinchi ishlovchi Mosaic versiyasi ishlab chiqildi va axborot okimi WWW bo'yicha 1% ni tashkil qildi. 1993-yil oktyabrida 200 ta WWW - servir ishga tushirildi. Keyingi yillar Internet va WWW ning rivojlanishi yanada tezroq suratda boldi. WWW serveri va tarmoqdagi kompyuterlarning aksariyati AQSHda joylashgan.

Internetning keskin rivojlanishi va WWW bo'ylab sayohatlarning ommaviylashishi shunga olib keldiki, ularni bir xil deb tushuna boshlashdi. Kelinglar, avvalo shuni hal qilib olaylik. Internet va butun dunyo tarmog'i bir xil emas. Internet butun dunyo kompyuterlar tarmoqlarining to'plamini belgilaydi. Internet turli xil kompyuter xizmatlarni ko'rsatadi. Bu – elektron pochta, Usenet telekonferensiyalari, FTP- ma'lumotlar fayllarini uzatish sistemasi, Telnet – uzoqdan terminalga kirish sistemasi, Gopher sestemasi va butun dunyo tarmog'i – WWW . Demak WWW internetning faqatgina bir qismidir. Lekin u juda tez rivojlanmoqda.

Internet- bu kompyuter tarmoqlari majmui bolib, uning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

Axborotni o'qish va tarqatish.

- Ma'lumotni nomiga qarab tezda topish.
- Ma'lumot nusxasini ko'chirib olish.
- Xat almashish
- Telekonferensiyalarda ishtirok etish.



- Muzokaralar olib borish.
- Muloqat qilish.

Hozirda Internet ma'lumot qidirish, sayohat qilish va joylarni topish, xabar almashish orqali suhbatlashish, fotosuratlarini ijtimoiy tarmoqlarda ko'rish, xarid qilish, pul yuborish yoki film tomosha qilish kabi odatiy ishlarda qo'llaniladi.

Ushbu raqamli va elektron asrdagi texnologik taraqqiyot odamlar uchun Internetdan foydalanishni osonlashtirdi va vaqtlarini tejashga imkon berdi.

90-yillar Internetda xizmat tarmoqlari tashkil qilingan davr bo'ldi. 1990-yili Bill Xilan, Elan Emtij va Piter Deych Archie programmasini ishlab chiqishdi. 1991-yili NSFNET tarmogi takomillashtirildi va uzatish tezligi 44.736 mbayt/s ga etdi. Shu yili Bryuster Kaale WAIS programmasini tuzdi, Minnesota universitetida Pol Lindner va Mark Mak - Kayl tomonidan Gopher programmasi tuzildi. Bu voqealardan keyin 1992 yili Nevada shtati universitetida yaratilgan Veronica sistemasi ishga tushirildi. Shu sababli 1992-yili tarmoqdagi kompyuterlar soni milliondan oshib ketdi.

Biz internetdan ko'p jihatdan foydalanamiz: biz odamlar bilan, hatto chet elda yashaydiganlar bilan ham muloqot qilamiz; biz o'z bilimlarimiz, his-tuyg'ularimiz, his-tuyg'ularimiz va tajribalarimizni bloglar yoki mikrobloglar orqali baham ko'ramiz; biz har qanday ma'lumotni bir daqiqadan kamroq vaqt ichida topamiz; sayohatlarimizni rejalashtirib, aviachiptalar va mehmonxonalarni bron qilamiz; kiyim va boshqa narsalarni ham sotib olamiz.

Boshqacha qilib aytganda, bizda odamlar bilan aloqada bo'lish, har kuni yangi narsalarni o'rganish va dunyodagi hamma narsadan xabardor bo'lishga yordam beradigan keng ko'lamlı onlayn tadbirlar mavjud. Biz ma'lumotlarga kirishning bunday darajasiga o'rganib qolganmiz, buning natijasida o'zimizni ishonchli va erkinroq his qilamiz.

Biroq, internet har doim ham baraka emas, chunki biz unga juda qaram bo'lib qolamiz va muloqot qobiliyatimizni yo'qotishimiz mumkin. Gap shundaki, biz hozir smartfonlar va boshqa elektron qurilmalarga yopishib qolamiz va haqiqiy muloqotni e'tiborsiz qoldiramiz.

Bu yolg'izlik va odamlar bilan haqiqiy munosabatlarni o'rnatishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun biz Internetda o'tkazadigan vaqtimizni nazorat qilishimiz va oilamiz va do'stlarimiz haqida unutmasligimiz kerak. Agar biz faqat virtual aloqada bo'lsak, yaqinroq bo'lmaymiz.

Internet ne'mat bo'lishi mumkin, lekin barakani la'natga aylantirmaslik uchun undan ehtiyotkorlik bilan foydalanishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasidagi Internet tarmog'ining rivojlanishi-Respublikamizda milliy Internet-segmentini rivojlantirish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlash-tirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 6 iyundagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan "2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi"ga asosan amalga oshirilmoqda.

Madaniyat tushunchasi-"Falsafa" qomusiy lug'ati bo'yicha "Madaniyat" so'zi (arabcha – "madinalik", ya'ni shaharlik, ta'lim tarbiya ko'rganlik) degan ma'nolarni

anglatadi va tabiat hamda o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli ekanligini ta'kidlanadi. Madaniyat bu nafaqat insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmui, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyat deb ataladi.

Internet-madaniyat (ing. Internetculture) – bu internet orqali foydalanuvchilarning muloqot, axborot olish va uzatish madaniyatidir. Internet-madaniyat (internet foydalanuvchilarining kiber madaniyati) deganda, shuningdek, ijtimoiy ongga salbiy ta'sir etuvchi, jumladan, amaldagi davlat tuzumiga qarshi qaratilgan, diniy-ekstremistik, terroristik va boshqa mazmundagi axborotlarni tarqatuvchi saytlardan foydalanilishning ongli ravishda cheklanilishi tushuniladi

Internet-madaniyatning ahamiyati-agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda esa kompyuter va Internet avvalgi yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o'zining qish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, Internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi.

2007-yili Yevropada yosh avlod vakillarining uchdan bir qismi onlayn tizimidan foydalangani kuzatilgan.

2008-yili dunyo axborot tarmog'idan 10 million bola foydalangan bo'lsa, hozirda ularning soni alla qachon 13 milliondan oshib ketdi. Bu ko'rsatkich kundankunga ko'paymoqda. O'z hayot mazmunini bunday onlayn tizimida ko'rayotgan yoshlarning katta qismi—4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi.

Internet-madaniyatning ahamiyati-davlatimiz rahbari barcha ommaviy axborot vositalari qatori internet ham yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishini ta'kidlab, "Internet bu katta bir do'kon. Do'konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Internetni ham shunday bir bozor, ya'ni axborot bozori, deb tushunish kerak", deydi. Bugungi globallashuv davrida internet tizimi orqali mentalitetimizga mutlaqo yot mafkura va dunyoqarashni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga urinayotganlar borligi, ayniqsa, xatarlidir

Hozirda yoshlarimiz o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishda yangi alifbolar joriy etilib, undan foydalanishmoqda.

Yangi alifboga e'tibor bering:

“Ch” harfi o'rniga - “4” ,

“Sh” harfi o'rniga - “W” ,

“Yu” harfi o'rniga - “8” ,

“Ya” harfi o'rniga - “9” ,

“O” harfi o'rniga - “6”

Shu alifbodan foydalanayotgan

yoshlarimizning yozishmalariga bir diqqat qilaylik:

1. Wodi9 k6zlariz bun4a 4iroyli 6ziz  
oydek (Shodiya ko'z'laringiz buncha  
chiroyli, yuzingiz oydek)

2. Y6ge, rostanmi 3qun (Yo‘g‘-ye,  
rostdanmi Uchqun)

Yangicha alifboning faol

foydalanuvchilari raqamlar bilan nafaqat harf, balki so‘z yasashni ham allaqachon o‘rganib olishgan.

bari1 – “baribir”,

3dik – “uchdik”,

4 wirin 4iqibdi – “tort shirin  
chiqibdi”,

v7 – “vsem “hammaga”,

qowiq – “qoshiq yoki qo‘shiq”.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 80 foiz foydalanuvchilar “onlayn-

do‘st”larining fikrlariga yonidagi do‘stidan ko‘ra ko‘proq ishonch bildirar ekan.

Har beshinchi bola bir haftada ijtimoiy tarmoqlar

uchun taxminan 24 soat vaqt ajratishi ham aniqlandi.

Barcha narsalarni internetdan olishga harakat qilish, vaqtini shu bilan o‘tkazish yoshlarni asosiy ishi bo‘lib qoldi.

Misol uchun, birgina diniy masalada yoshlarning to‘qson foizi ulamolar tomonidan yozilgan adabiyotlar qolib, internetga murojaat qilmoqda. Eshitgan quloqqa xush yoqadigan “Kun hadisi”, “Salaflar hikmati”, “Tavhid” kabi beozor ko‘rinishlarda bo‘lib, odamlarda bu guruhlar faqat yaxshilikka undaydi, degan tasavvurlarni uyg‘otadi.

Internet konferensiyalar – bu muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog‘i orqali konferensiya aloqasi yordamida o‘zaro axborot almashinish jarayonidir.

Kompyuter konferensiyasi ishtirokchilari soni audio va videokonferensiyalar ishtirokchilari sonidan ancha ko‘p bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilari soni bo‘yicha reytingi

❖ Facebook - 500 000 000, MySpace - 255 000 000

❖ Twitter - 200 000 000, Windows Live Spaces - 120 000 000

❖ Habbo Hotel - 120 000 000, V Kontakte - 110 000 000

❖ Friendster - 90 000 000, Hi5 - 80 000 000, Tagged.com - 70 000 000

Feysbuk (facebook.com) ijtimoiy tarmog‘i-Ushbu veb sahifa ham Odnoklassniki (odnoklasniki.ru), [www.Sinfdosh.uz](http://www.Sinfdosh.uz) ijtimoiy tarmog‘lari yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo‘lib, faqatgina ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun yaratilgan va moslashtirilgan

Kompyuter bilan ishlash jarayonida ehtiyot bo‘ling va quyidagi tavsiyalarga amal qiling!

Kompyuter

❖ insonga bevosita ta’siri

❖ kompyuterdan foydalanish qonun qoidalari

❖ nurlanishni oldini olish

Jamiyatda internet-madaniyatini rivojlantirishga oid takliflar:

1.Avvalo oilada farzandlar tarbiyasiga katta mas’uliyat bilan yondashish;

2. Internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani ota-ona qattiq nazorat ostiga olishi;

3. O'quv yurtlarida olib borilayotgan AKTga doir mashg'ulotlarga internet-madaniyati targ'ibotiga qaratilgan mavzularni kiritish;

4. Tegishli tashkilotlar tomonidan o'quv muassasalari va davlat korxonalarida internet tarmog'idan foydalanishda internet-madaniyatiga, jumladan, odob-axloq me'yorlariga rioya qilinishi hamda fuqarolarni turli ma'naviy tahdidlardan saqlash, ularning ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan o'quv seminarlari va tadbirlarning tashkil etilishi;

5. Ommaviy axborot vositalarida internet-madaniyatiga doir materiallarning e'lon qilib borilishi.

Internet endi odamlar va tashkilotlarga o'z tovarlari va xizmatlarini taklif qilish va sotish imkoniyatini beradi. Internet-xaridlar bugungi kunda juda keng tarqalgan va mahsulot kataloglarini Internetda namoyish etadigan ko'plab platformalar mavjud. Internetning qulayligi, bank operatsiyalarini boshqarish bilan bir qatorda, odamlar xaridlarni amalga oshirish uchun do'konga ko'chib o'tmasliklari uchun eng zo'r juftlikni yaratadilar. Bundan tashqari, ushbu xizmatlarning aksariyati mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri uyingizga yetlazib berishni taklif qiladi. Internet orqali nafaqat ish qidirish mumkin, balki endi uydan kompyuter bilan ishlash va masofadan turib barcha vazifalar va funksiyalarni bajarib, ofisga borishning hojati yo'q.

Shu ma'noda, Internet odamlarga ishlashga, ularning ish haqini olishlariga va uydagi kompyuterining osoyishtaligidan shu pulga xarid qilishlariga imkon beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" Toshkent "O'zbekiston" 2010-yil.

2. M. Oripov, A. Haydarov. Informatika asoslari. "O'qituvchi" 2016.

3. T. Nishonboyev. Windows Word va Internet tizimlarida ishlash. 2017.

4. S. Eshqobilov. Internet axborot qidiruvi. 2016.

5. Sh. Qudratxojayev. Internet tarixi, tuzilishi, texnik xavfsizlik. O'quv uslubiy qo'llanma. 2016.

6. Sh. Qudratxojayev. Internet va axborot: xizmatlar, foydalanish asoslari. O'quv qo'llanma. 2017.

# FAROBI'S WORK OF FOZIL PEOPLE, THE MORAL VIRTUES OF FOZIL CITY AND ITS IMPORTANCE IN THE EDUCATION OF SPIRITUALLY DEVELOPED GENERATION

**Nishonova Jumagul Ibrahimjon qizi,**  
Uzbek State Institute of Arts and Culture  
"Cultural Studies" specialty 2nd year master's degree  
[arjumandbegim4696@gmail.com](mailto:arjumandbegim4696@gmail.com)  
+998940594040

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarini o'rganish, uning ma'naviyat olamida tutgan o'rni ko'rsatish, jamiyatni tadrijiy rivojlanishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini chuqur falsafiy va ilmiy farazlar asosida isbotlab berish zarurligi haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Fozil shahar, barkamol avlod, zaruriy ehtiyojlar shahri, ayrboshlovchilar shahri, razolat (tubanlik) va badbaxtlik shahri, yevroparastlar shahri, shahvatparastlar shahri, Beqaror shahar.

## **Аннотация**

В данной статье говорится о необходимости изучения «Города знатных людей» Абу Насра аль-Фараби, показать его место в духовном мире, доказать на основе глубоких философских и научных гипотез, что он имеет большое значение для постепенное развитие общества.

**Ключевые слова:** город Фазиль, гармонично развитое поколение, город необходимости, город меновщиков, город разврата и нищеты, город европейцев, город похоти, город нестабильности.

## **Annotation**

This article deals with the need to study Abu Nasr al-Farabi's "City of Noble People", to show its place in the spiritual world, to prove on the basis of deep philosophical and scientific hypotheses that it is of great importance for the gradual development of society. .

**Key words:** Fazil city, harmoniously developed generation, city of necessities, city of exchangers, city of depravity and misery, city of Europeans, city of lusts, city of instability.

Farobi's teachings emphasize ignorance and attitudes toward popular culture. It divides the state into virtuous and contradictory states. He believes that science, philosophy, ethics and enlightenment should be in the first place in a virtuous city. Then society will mature, he says. Farabi believes that good deeds, which serve for the perfection of man, are good deeds. He warns people against bad habits such as laziness, idleness, ignorance, ignorance, and lack of profession, which hinder a person's perfection.

Farobi believes that the highest goal of life is to achieve happiness, which is achieved through the study of the world, the acquisition of professions and sciences, and enlightenment.

Commenting on the city, which contradicts the city of Farabi Fozil, these cities (states) include: the city of the ignorant, the city of the dishonest, the exchangers the city is a city of lost, misguided people. The representatives of these cities are some people who are the opposite of the nobles.

Continuing his thoughts on the city of the ignorant, Farabi writes, “The people of the city of the ignorant do not strive for happiness, nor do they know what happiness is, because people in ignorance have never found happiness and do not believe in happiness”.

The people of the city of ignorance write about their notions of well-being: they think that lust, prestige, deeds, and fame are true happiness and prosperity. In the eyes of ignorant people, each of these blessings seems to be the purpose of life, happiness. Of course, there are many people in this world who believe that living honestly and cleanly is their life's mission and goal. It is because of such people and their good deeds that spirituality is always stable in this enlightened world. However, there are many people who live far away from such noble qualities and interpret the meaning of life on their own. Unfortunately, they try to feel like the real owners of the world, as if they are living a life of luxury, envy, and happiness.

Of course, those who see such situations and set high goals for themselves may have some doubts and doubts in their hearts. There are so many things in life that make people think. How can this be explained?

We all know that our sacred books and values, the heritage of our great thinker ancestors, always call us to live with honest labor, courage, generosity and humility, but at the same time, a person who strives to follow such calls in life often faces various difficulties, it is not difficult to observe that he even suffers. Admittedly, a person who strives to live with a high level of spirituality still has to overcome many hardships, trials and obstacles. After all, true happiness can be achieved only when all (material and spiritual) blessings are combined. The opposite of these blessings — diseases of the body, poverty, pleasure, pleasures and respect, and lack of prestige — seems to be unhappiness). Pharoah mentions several types of ignorant cities. One of them is the city of necessities. The people of such a city are limited to what they need only for the body: food, drink, clothing, shelter, sex, and helping each other to achieve this<sup>1</sup>.

One of the ignorant cities is the city of exchangers. The inhabitants of the city of exchanges believe that the main purpose of life is to help each other in the pursuit of wealth.

One of the ignorant cities is the city of depravity and misery. The inhabitants of such a city strive only for the pleasure of eating, drinking, sexual intercourse, all kinds of emotional pleasures, pleasures, pleasures.

Pharoah cites the city of Europeans as one of the ignorant cities. The people of this city love to praise each other and raise each other to the sky. They want other nations to honor them, both in word and deed. They want to look great in front of each other or in the eyes of strangers. Farabi cites the capital of the Roman Empire, which sought to conquer the world, as an example of such cities.

One of the ignorant cities is the city of the rulers. The inhabitants of such a city want all nations to be subject to them, and they themselves to be submissive to no one.

Their thoughts are on remembrance of victories and futures. Such cities (states) include the United States, Russia, and Europe, which are currently seeking to rule the world.

One of the ignorant cities is the city of lusts. Each of the inhabitants of such a city seeks to satisfy their lusts and low desires as much as they want, without restraining their passions.

The rulers of the cities of ignorance are like the inhabitants of the same cities. In the cities they rule, they are constantly striving to satisfy their personal desires listed above. The training of the people of the ignorant cities is also high serves the stated purposes. If we pay attention, along with the exemplary proverbs about honesty and impurity in our language, there are proverbs such as "Did he find his way, let him beat the blood", "Eat the grapes, do not ask about the garden". Of course, such proverbs are not in vain, they are also an expression of a certain truth. Therefore, we cannot deny that there are people who understand the meaning of life in this way and strive to live on it.

But it seems to me that such statements are fabricated by self-interested people who are indifferent and indifferent to how a person earns wealth and possessions. No one cares whether a person is using his God-given intellect and thinking to shed his wealth, or whether he is gaining it in a crooked, filthy way.

Therefore, when we think about spirituality, we need to analyze this issue in detail and in depth, not only in terms of our positive aspects, but also in terms of such complex aspects.

In short, it is a matter of two opposing views of life.

The first is the life views of people who earn their living by honest work, benefit the country with honest and noble deeds, have a deep understanding of the meaning of life and think not only about the pleasures of today's life, but also about the hereafter and its prosperity. .

The second is the exact opposite approach, that is, without worrying about the meaning of life, without bothering oneself with such questions, and giving only to the sorrows of the soul and the fleeting desires and pleasures. , the views of people who live a light life, who are completely indifferent to their duty to their parents and children, to the country. These are the difficult questions that arise from two different worldviews that have plagued mankind since the beginning of human consciousness. The people of the city of Benomus, like the people of the city of the nobles, know and believe in happiness, truth, creation, intellect, and so on, but do not follow them and live like the inhabitants of the ignorant cities mentioned above.

An unstable city. The theoretical views and practical work of such a city dweller were similar to the views and works of the inhabitants of the city of Fozils in the past, but later foreign ideas slowly entered the country and completely changed the views of its inhabitants.

According to the people of the lost city, happiness can be achieved only after death. However, the perceptions of the people of this city about Allahu ta'âlâ azza wa jalla, his creations, and his active intellect are so confused that they cannot be the basis for honest living, does not reflect the original either.

The first ruler of such a city pretends to be the possessor of divine light, but in reality he is not; he uses deception, hypocrisy, and arrogance to prove his divinity.

The governors of such cities are the opposite of the governors of the city of Fozils. The ways of governing the city are also completely opposite. This idea also applies to the residents of these cities. The successive imams of the Fozii cities embody the spirit of a single eternal leader. Wherever the rulers of many such cities live at the same time, they too will be united in one spirit, and their souls will be one spirit. Some of the people of Fozil are engaged in the study and practice of knowledge that is common to all, while others are engaged in the study and practice of knowledge that only certain people in a certain position need to know. Each of these people attains happiness through such general and specific knowledge and activities. The longer and better each person engages in activities that lead to happiness, the more perfect his mood will be.

Referring to the views of the people of ignorant and misguided cities, Farabi writes, "We call cities whose people's religious beliefs are based on superstitious, erroneous worldviews ignorant or misguided". Some of them think that some beings are against each other and try to destroy each other. Each of these creatures has such a reserve in the living environment that it protects itself from the opposing being and protects its offspring from extinction. He has the same power in living conditions, through which he loses something against himself and creates a being like himself instead.

Finally, he is endowed with such an ability that he seeks to create a constant good environment in which to live, using a variety of things.

#### **LIST OF REFERENCES:**

1. S.Otamurodov, S.Hasanov, J.Ramatov "Fundamentals of spirituality". Tashkent, People's Heritage Publishing House named after A.Qodiriy. 2002, 160 - p
2. Abu Nasr al-Farabi, The City of Noble People. Abdulla Qodiri Publishing House, Tashkent, 1993
3. Khayrullayev M.M. Farabi and his philosophical treatises. Toshkent .1963.
4. Xayrullaev M. Abu Nasr Farabi.Tashkent.1961;
5. Khairullaev M. The second teacher. G`G` Guliston.Tpshkent.1975, №9
6. Khairullaev M. Renaissance and Eastern thinker. T.1971



**TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZINING AXBOROT-  
KUTUBXONA XIZMATI: MUAMMO VA YECHIM**  
(Surxondaryo viloyati Uzun tumani Axborot-kutubxona markazi misolida)

**Xurramova Kumushxon Doniyor qizi,**  
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti  
2-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: G'ulom Narzullayev  
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Uzun tumani Axborot-kutubxona markazining axborot-kutubxona faoliyati, amalga oshirayotgan metodik ishlari va kitobxonlarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishi, sohada amalga oshirilayotgan ishlar, muammolar, ularning yechimlari haqida taklif va mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot-kutubxona xizmati, kitobxon, fond, ko'chma kutubxona, bibliografik xizmat.

**Annotation**

The article provides the information of the library activities of the Information and Library Center of Uzun district of Surkhandarya region. The methodological work was carried out in the field of the provision of information and library services to readers. The work was carried out in the field of problems, suggestions and comments on their solutions.

**Keywords:** information-library service, reader, fund, mobile library, bibliographic service.

Kutubxona bilimlar ombori. Cheksiz imkoniyatlar kaliti kutubxonada mujassam. "Bilimlar manbayi", "Insonning yaqin do'sti", "Yomon kunda yo'lni yorituvchi mash'ala" deya ta'riflanuvchi qadrdon kitoblarimiz aynan kutubxonalarda saqlanadi. Bu kitoblarning har biri bir olam, cheksiz bir xazina. Ularni o'qigan sari inson pog'onama-pog'ona komillik cho'qqisiga ko'tarilaveradi. Yuqori marralarga erishganlarning birortasi yo'qki, kitob o'qimagan bo'lsa. Albatta, har qanday yutuqlarning asosi kitoblardir.

Kitoblarning bugungi kundagi ahamiyatini hisobga olgan holda, kitobxonlikni yanada rivojlantirish, kutubxonalar faoliyatini tubdan isloh qilish maqsadida respublikamizda qator qonunlar, prezidentimiz qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilinmoqda. Jumladan, prezidentimizning 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'risida"gi PQ-4354 qarori asosida kutubxonalar faoliyati muvofiqlashtirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad har bir foydalanuvchi (kitobxon)ga sifatli xizmat ko'rsatishdir. Shu sababli ham respublikamiz hududidagi barcha kutubxonalar, xususan, viloyat, tuman axborot

kutubxona markazlari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat olib bormoqdalar.

Misol uchun Surxondaryo viloyati Uzun tuman Axborot-kutubxona markazini olaylik. Bu Axborot-kutubxona markazining umumiy fondi 2019-yilda 23 629 nusxani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 24 384 nusxaga yetdi. Bu kitoblar turli xil mazmunda bo'lib, o'zbek mumtoz adabiyoti, zamonaviy adabiyotlar, chet el adabiyotlarini o'z ichiga oladi. Kitoblardan tashqari, respublika, viloyat, tuman gazeta va jurnallari foydalanuvchi (kitobxon)lar ixtiyorida. Hamda AKM nashriyotlar bilan hamkorlikda foydalanuvchi-kitobxonlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. AKM foydalanuvchilari soni 6 762 tadan, qatnovlar soni esa 11 829 tadan ziyod. Foydalanuvchilarga berilgan resurslar 35 615 tani tashkil etadi. Bu raqamlar kundankunga o'sib bormoqda. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda AKM xodimlari tomonidan telegram kanallari va guruhlarini tashkil etilgan. Bu kanallarning 600 tadan ziyod obunachilari mavjud va ular o'zlari istagan kitoblarning elektron matnli yoki audio variantlarini bema'lol olishlari mumkin.

AKM da asosan 4 ta bo'lim mavjud. Bular:

1. Abonementlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi;
2. Axborot-bibliografiya bo'limi;
3. Fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati bo'limi
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati bo'limi.

Har bir bo'lim AKM da o'z vazifalariga ega va ular o'zaro uzviy aloqada faoliyat olib bormoqdalar.

**1. Abonementlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi** doimiy ravishda foydalanuvchilarga ochiq fond orqali xizmat ko'rsatadi. Kitobxonlar qiziqishlarini o'rganish maqsadida tez-tez so'rovnomalar tashkil etiladi va so'rovnomalar natijalari asosida kitobxonlar talablari qondiriladi. AKM da ommaviy tadbirlar, kitob ko'rgazmalari, adabiy kechalar, uchrashuvlar, suhbatlar, intellektual o'yinlar ham o'tkaziladi. Bulardan tashqari, ushbu bo'lim tomonidan ko'chma kutubxonalar tashkil etilgan. Bu ko'chma kutubxonalar AKM dan uzoqda joylashgan hududlardagi foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan.

Shu bilan bir qatorda oilaviy kitobxonlarga, imkoniyati cheklangan va Axborot-kutubxona markaziga kela olmaydigan foydalanuvchilar uchun yetkazib berish xizmati tashkil etilgan. Kitobxonlar o'zlari mutolaa qilmoqchi bo'lgan kitoblarga onlayn tarzda buyurtma beradilar. Kitob o'qish imkoniyati cheklangan kitobxonlarga, nuroniy keksalarga ovozli o'qishlar ham tashkil etilgan. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, suhbatlar ham shu bo'lim tomonidan tashkil etiladi.

**2. Axborot-bibliografiya xizmati bo'limi.** Foydalanuvchilarga ma'lumot-bibliografik xizmat ko'rsatish har bir kutubxonaning asosiy vazifalaridan biridir. Chiqayotgan yangi adabiyotlar haqida foydalanuvchilarga ma'lumot berish, ularni yangi nashrlar bilan tanishtirish aynan axborot-bibliografiya xizmati bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Xususan, Uzun tuman Axborot-kutubxona markazining ushbu bo'limida ham ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, tuman tarixiga bag'ishlab tayyorlangan "Uzun tuman tarixi" uslubiy qo'llanmasi, mehnat faxriysi, Uzun tumaninig ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan B. Omonov mehnat

faoliyati to'risida bibliografik ma'lumot, yosh ijodkorlardan Xolida Jo'rayeva ijodi yuzasidan shaxs bibliografiyasi, shuningdek AKM da o'tkaziladigan tadbirlarga metodik qo'llanmalar, mavzuga oid bukletlar tayyorlangan.\*

### **3. Fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati bo'limi.**

Kutubxonaga olib kelingan har qanday hujjat, xoh u kitob bo'lsin, xoh gazeta, jurnal yoki disk bo'lsin, albatta, fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati bo'limiga keltiriladi. Bu bo'limda hujjatlarga ilmiy va texnik ishlov beriladi. Ya'ni, hujjatga bibliografik tavsif yozish, katalog va kartotekalarga joylash kabi bir qancha ishlar amalga oshiriladi. Bu bo'lim ham boshqa bo'limlar singari foydalanuvchi-kitobxonlarga yanada qulayliklar yaratish va sifatli xizmat ko'rsatish uchun faoliyat olib boradi. Xususan, Axborot-kutubxona markazining ushbu bo'limida kutubxona fondidagi adabiyotlarni UNICAT.NATLIB.UZ dasturida yima elektron katalogga joylashtirish ishlari olib borilmoqda. Hozirgi zamon talabini hisobga oladigan bo'lsak, bu har bir kutubxona uchun zarur vazifalardan biridir. Chunki, XXI asr axborot texnologiyalari asrida boshqa sohalar singari kutubxonalar ham har bir foydalanuvchi ehtiyojini eng yuqori darajada qondirishi kerak.

**4.** Shu sababli ham hamma kutubxonalarda **“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati”** bo'limlari tashkil etilgan. Bu bo'limlarning maqsadi hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish va bu orqali manbalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishdir. Ba'zi adabiyotlar juda kam nusxalarda chop etilgan bo'lishi mumkin va bu foydalanuvchilarga ko'plab noqulayliklar olib keladi. Agar hujjatlarning elektron variant bo'lsa, bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish imkoni bo'ladi. Bundan tashqari, bu hujjatlar masofadan xizmat ko'rsatish uchun eng asosiy vositadir. Bu ishlarni amalga oshirishda esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosiy rol o'ynaydi.

Bugungi kunda tuman axborot-kutubxona markazlari tizimida aholining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etadigan, aholining turli qatlamlari, yoshlar, qariyalar, turli toifadagi nogironlar, yosh bolali ayollarga axborot-kutubxona xizmatini amalga oshiradigan maskan sanaladi. Shuningdek, tumandagi ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari ham axborot-kutubxona markazlari xizmatidan bahramand bo'lmoqda.

Endilikda axborot-kutubxona markazlari zamon talabida faoliyat olib borib, aholining axborot-kutubxona xizmatiga bo'lgan talablarini maksimal darajada amalga oshirishi uchun quyidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni birinchi navbatda bajarishi lozim:

**1.** Tuman hududidagi barcha axborot-kutubxona muassasalari aholiga samarali axborot-kutubxona xizmatini amalga oshirish uchun yangi adabiyotlarni tez-tez olib kelishi, gazeta-jurnallarga obuna bo'lishni uyushqoqlik bilan tashkil etishi lozim. Bugungi kunda respublikamizdagi markaziy gazeta-jurnallarining hamma nusxalari ham tumanlargacha yetib bormayapti;

**2.** Aholiga axborot-kutubxona markazlari samarali xizmat ko'rsatishi uchun mahalla – maktab – maktabgacha ta'lim tashkilotlari – fuqarolar yig'inlari bilan yaqin aloqa o'rnatishi lozim. Bunday murakkab masalani hal qilish uchun tuman

axborot-kutubxona markazi barcha muassasalar, ayniqsa, mahalla fuqarolar yig'inlarida ko'chma kutubxonalar tashkil etishi galdagi muhim masaladir.

3. Tuman axborot-kutubxona markazlaridagi xizmatlarni to'la-to'kis ado etish uchun moddiy-texnik ba'zasini mustahkamlash, kompyuter texnologiyalari bilan to'liq jihozlangan bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. "O'zbekiston respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi P-4354. – 2019-yil 7-iyun.

2. Yodgorova, D. Har bir kitob bir dunyo/ D. Yodgorova// Bobotog' tongi. – 2022. - №3-4 (4403). – 1-bet.

### **ИРЗАМУРОТ АЙБАТОВНИНГ АКТЁРЛИК ҲАМДА РЕЖИССЁРЛИК ФАОЛИЯТИ**

**Сейтназарова Тарбия Максетовна,**  
ЎзДСМИ “Театр санъати” мутахассислиги  
1-курс магистранти

#### **Аннотация:**

Мақола Қорақалпоқ ёш томошабинлар театрининг машҳур актёри, бош режиссёри, қатор совринлар эгаси, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими Ирзамурод Айбатовнинг ижодий фаолияти ҳақида

#### **Калит сўзлар:**

Театр, актёр, режиссёр, драматургия, фестиваль, серкирра ижодкор, санъат фидойиси

Ўзбек ва Қорақалпоқ санъати ҳамда маданияти ривожига ўз ҳиссасини қўшган, халқимиз кўнглидан чуқур ўрин эгаллаган, ҳамкасбларининг ва шогирдларининг севимли устози, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Ирзамурат Айбатов бугун орамизда йўқ. У 1961 йил Қорақалпоғистон Республикасининг Кегайли туманида таваллуд топган. Болалигидан санъатга бўлган қизиқиши уни 1982 йил Тошкент давлат театр ва рассомлик санъати институтининг “Драма театри ва кино актёрлиги” факультетига ўқишга киришига сабаб бўлди.

Биринчи устози ва курс раҳбари Оман Абдураззақовдан соҳанинг сир-синоатларини ўрганди. Ўқиш даврида ўз қобилиятини намаён қилиб, эътиборга тушди. Диплом спектакли учун Мольернинг “Скапеннинг найранглари” асари олинди. У Сильвестр ролини муваффақиятли ижро этди. Ўқишни яқунлаб, Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театрида актёр штатида ўз ижодий фаолиятини бошлади. Шу кундан бошлаб Қорақалпоқ театр санъати ривожига ўзининг муносиб ижодий ҳиссасини қўшишни бошлади. Ўзбек ва Қорақалпоқ халқларининг ўзига хос миллий санъатини тарғиб қилиш ҳамда уларнинг

халқлар санъатининг ўзаро боғлиқлигини театр сахнасида ёритиш мақсадида астойдил ижод қилди.

Ирзамурод Айбатов ўз актёрлик ижоди давомида юздан зиёд бир-бирини такорорламайдиган роллар ижро этди. Жумладан, К.Рахмановнинг “Тўққиз тўнқилдоқ бир шинқилдек” спектаклида-Алланияз бой, С.Хужаниёзовнинг “Умид учқунлари”да-Дехқон, С.Жумагуловнинг “Одамлар қалай бузилган”да-Вазир, А.Уталиевнинг “Султон Жалолиддин Мангуберди”да-Туқойхон, С.Жумагуловнинг “Куёвингни бериб тур”да-Манас, К.Гольдонининг “Икки бойга бир малай”да-Сильвио, Мольернинг “Скапеннинг найранглари”да-Сильвестр каби образлар ижроси билан мухлисларнинг кўнглидан жой олиб, олқишларга сазовор бўлди. Машхур актёр И.Айбатов “Қорақалпоқфилм”да ҳам бир қанча образлар яратди. Жумладан, М.Низановнинг “Курорт” кинофильмида-Мирзабой, “Умирнинг уч фасли”да-Жумабой, “Ўғри”да-Қозок киши образларини гавдалантириб, элнинг севимли актёрига айланди.

Одатда, машхур актёрлар сахналаштирилаётган спектакллардан кўнгли тўлмаса ўзини режиссёрлик соҳасида ҳам синаб кўришга қарор қилади. Бу соҳада унга режиссёр Рембой Турениязов устозлик қилди ва биргаликда С.Салоҳиддиновнинг “Умр эшик ортида” спектаклини сахналаштирди. Бу спектакль унинг биринчи режиссёрлик иши бўлди. Муваффақиятли намоёишдан сўнг ўзига ишончи ортиб, режиссёр сифатида бирин-кетин спектакллар сахналаштирди. Театр жамоаси унга ишонч билдиргач, 2005 йилдан театрнинг бош режиссёри этиб тайинланди. Умрининг охирига қадар бош режиссёр бўлиб меҳнат қилган И.Айбатов турли жанрларда 40 дан зиёд спектакллар сахналаштирди.

Театрдаги ва кинодаги ижоди каби режиссурада ҳам машхурлик бошланди. Масалан, Ҳ.Мухаммад ва Т.Азизхожаевларнинг “Куёвлар беллашуви”, Ф.Бабажоновнинг “Онам, жоним онам”, К.Рахмоновнинг “Тоққиз тонқилдоқ бир шинқилдек”, Қ.Матмуродовнинг “Кемпирга талаш”, Г.Турсуновнинг “Синоқ”, П.Айтмуратовнинг “Она қизим, широғим”, Р.Ёриевнинг “Фермер Нурум бобо”, Ж.Маҳмудовнинг “Содиқ дўстлар”, П.Айтмуратовнинг “Орзулар қанотида”, “Овулга қайтиш” сингариспектаклларни замонавий талқинда сахналаштириб, тамошабинлар ҳамда мутахассислар кўнглидан жой олди.

Қобилиятли инсон бирон нарсага бел боғласа, шуни эплайди. Актёрлик ва режиссёрлик борасида муваффақиятга эришгач, энди ўзини драматургияда ҳам синаб кўрди. Натижада “Болалигим шўхлигим”, “Ўн олтига чиқмаганлар киритилмайди”, “Афсона”, “Янги йил томошалари” каби асарлар муаллифига айланди. Унинг драматургияси ва режиссураси ёшларни маънавий етук, баркамол инсонлар этиб тарбияловчи спектаклларга айланди. Машхур ва серқирра ижодкор раҳбарлигида муваффақиятли ижодий фаолият юритган театр жамоаси бир қатор чет мамлакатларда фестивалларга қатнашиб, тажриба орттирди.

Тинимсиз изланишлар ўз натижасини берди. 1987 йили К.Каримовнинг Қорақалпоқ халқ эртаги асосида сахналаштирилган “Олтин танга” спектаклидаги- Қорабой образи ижроси учун “Йилнинг энг яхши миллий образи”

номинацияси ғолиби бўлган бўлса, 1990 йил Тошкент шаҳрида ўтказилган “Ўрта Осиё ва Қазоғистон ёш тамошабинлар театри фестивалида” “Энг яхши ижро этган эпизодик роли учун” номинациясини кўлга киритди. Унинг меҳнатларини муносиб баҳалаб, 1994 йили Қорақалпоқстон “Ёшлар мукофоти совриндори” бўлди. 2007 йил Туркменистон Республикаси Ашхабод шаҳрида ўтказилган “Миллий фольклор ва театр санъати” фестивалида, шу йилдаги Мисрнинг Қоҳира шаҳрида ўтказилган IX “Халқаро эксперименталь театрлар” фестивалида энг юқори номинацияга эга бўлди. 2011 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган “Театр.uz” иккинчи халқаро театр фестивалларида театр жамоаси ижоди совринли ўринга муносиб деб топилди. 2011-йил «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими» унвони берилди.[1.]

Орамиздан бевақт кетгандан сўнг, театр жамоаси Ирзамурод Айбатовнинг театр ҳақидаги фикрларини эслаб-“Театр бу менинг умрим. Театр - бу бизнинг уйимиз. Бу ердаги барча ҳамкасбларимиз бир туғишганмиз.”,-деган ибораларини, хотирлашади. Матбуотдаги мақоласи-“Умримнингқарийиб барча эсда қоларли дамлари театр билан боғлиқ. Ушбу масканга келганимда мендан бахтли одам йуқ эди. Бу воқеага 37 йилдан ошяпти. Шу давр мобайнида сахналаштирган бир қанча спектакларим Ашхобод шаҳрида ўтказилган “Миллий фольклор ва театр санъати”, Қоҳирада бўлиб ўтган IX Халқаро театр фестивалларида юқори ўринларга ва номинацияларга муносиб деб топилди. Меҳнат, албатта, инсонни тоблайти, вақти келганда, мукофотлар билан ҳам сийлайди. Ижодда бир дақиқа ҳам тўхтамаслик режиссёрнинг олтин қоидасидир...” – деган фикрлари гуё унинг умри ва ижоди ҳисобатига ўхшайди. [2.]

- Унинг дўсти Турдибой Уразов - “Ирзамурод билан бир мактабда, бир синфда ўқиганмиз. Мактаб давримиз қизиқарли воқеаларга тўла бўлди.Тўғаракларга бирга қатнашардик. У ҳар бир байрамга янги дастур таёрларди. Ёш вақтиданок актёрлик маҳорати кучли эди. Мактабни битириб иккаламиз Тошкентга ўқишга кетдик. У Тошкент давлат театр ва рассомлик санъати институтининг “Драма театри ва кино актёрлиги” факультетига, мен Тошкент маданият институтининг “Кутубхоначилик” факултетига ўқишга кирдик. Дўстлигимиз яна давом этди. Мен унинг Қорақалпоқ театр сахнасида таниқли актёр бўлишини билардим. Лекин, дўстим бизларни ўрни тўлмас қайғуга қолдириб, келмас сафарга сал эртароқ кетишини ҳеч уйламаган эканман. У ҳақида кўп гапиришим мумкин. Ҳақиқатдан ҳам, театр унинг умри эди”- деб фахрланади ҳамда ачинади. [3.]

Отасининг касбини танлаб, Қорақалпоқ давлат Қўғирчоқ театрида адабий бўлим бошлиғи бўлиб фаолият юритаётган қизи Салтанат Маткеримова. - “У бетакрор талант эгаси, яхши ҳамкасб, ташкилотчи ва меҳрибон ота эди. Онам билан уч фарзандни тарбиялаб вояга етказди. Энди роҳатини кўрадиган пайт, орамиздан бевақт кетди,-дейди.[4.]

Хулоса шуки, серқирра ижодкор, театр санъати фидойиси, қисқа умри давомида машхурликка эришди ва халқимиз кунглидан жой олди. У томошабинлар дунёқарашидан ҳамда бадий талабдан келиб чиқиб замонга мос

давр қаҳрамонларини ёритиш масаласида намуна эди. Ирзамурод Айбатовнинг Қорақалпоқ театридаги хизмати актёрлик маҳорати, режиссёрлик талқинлари ва драматургиядаги изланишлари ўзига хослиги билан тамошабинлар кўнглини забт эта олгани учун халқимиз қалбида яшайди.

#### **Адабиётлар:**

1. Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театри. Т.: - Театр // 2019. № 3.
2. А.Сеитов. Қорақалпоқ ёш томошабинлар театри режиссурасининг асосчиларидан бири. . Т.: - Театр // 2021. №1.
3. Т.Уразов. Театр унинг умри эди. Қорақалпоғистон ёшлари. / 2021.14-январь №2.
4. Г.Жугинисова. Сиз мангу яшайсиз, театр сахнасида. Қорақалпоғистон ёшлари. / 2021.16-январь.

## **SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDA QAHRAMON AYOL SIYMOSI**

**QURBONOVA DILNOZA TOXIROVNA**  
O'zDSMI San'atshunoslik va madaniyatshunoslik  
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi (PhD)

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada maqom san'atini butun dunyoga tanilishida ulkan hissa qo'shgan O'zbekiston Qahramoni Munojot Yo'lchiyeva ijodiga e'tibor qaratiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ayol, ona, jamiyat, davlat, san'at, maqom,*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена творчеству Героя Узбекистана Муножот Юлчиевой, внесшей значительный вклад в признание макомного искусства во всем мире.*

**Ключевые слова:** *Женщина, мать, общество, государство, искусство, маком.*

**Abstract:** *This article focuses on the work of the Hero of Uzbekistan Munojot Yulchiyeva, who made a significant contribution to the recognition of the art of maqom around the world.*

**Keywords:** *Woman, mother, society, state, art, maqom.*

### **Munojotxonda o'zbek ayoli timsoli mujassam**

**Sh. Mirziyoyev**

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ong-u tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo'ladigan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va qadriyatlarini amalda

namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Ota-bobolarimizning “Ayolini siylagan el ulug‘ bular” degan hikmatida xalqimizning oliyjanob fazilatlari mujassamdir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo‘lmasligiga to‘la ishonch hosil qilamiz.

Bugun Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarimiz aziz-u mukarramlikning baland shohsupalariga olib chiqilayotgani ham aynan ushbu hikmatning bardavomligidan dalolatdir. Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda: “Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug‘ ne’mati, tengsiz mo‘jizasi deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi” [1]. Darhaqiqat, ayol qaysi davr, qanday mavqe, qay bir sharoitda bo‘lmasin, baribir muqaddas zot bo‘lib qolaveradi. Zotan, ayol yuksalsa, butun bashariyat yuksaladi, degan ibora bor.

Tariximizning qaysi davriga nazar solmaylik, ayol mudom ezgulik timsoli, murabbiy va komil inson tarbiyachisi bo‘lib kelganini ko‘ramiz. Xalqimizning buyuk tarixida o‘zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o‘chmas iz qoldirgan To‘maris, Bibihonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodira, Uvaysiy Anbar Otin va yuzlab ayollarmizni hamisha ehtirom bilan tilga olamiz [2: 220 b]. Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To‘marislar avlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda. Necha asrlar davomida O‘zbekiston jamiyatida ulug‘ iste’dod sohibalari yetishib chiqib, ularning ijodi, asarlari, hayot yo‘li umuminsoniy fazilatlarni tarannum etib kelmoqda, desak mublag‘a bo‘lmaydi. Nodirabegim yozganidek: “Maqsad na edi jahona kelding, kayfiyatingni bayon etib ket” [3: 4 b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq, davlatimiz mustaqilligining 30 yillik yubileyi munosabati bilan yuzlab hamyurtlarimiz qatorida madaniyat va san’at vakillari ham unvon, orden va ko‘klak nishoni bilan taqdirlandilar. Eng oliy “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan, o‘zining buyuk iste’dodi, noyob va betakror ijodi bilan milliy musiqa san’atini dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ‘ib qilgan, o‘zbek mumtoz san’atini yanada rivojlantirishda katta hissa qo‘shgan zabardas san’atkor, O‘zbekiston Xalq artisti Munojot Yo‘lchiyeva Qahramonimizdir.

O‘zbekiston xalq artisti Munojot Yo‘lchiyeva 1960-yil 25-noyabrda Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tavallud topgan. 1985 yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlab, ustoz M.Mirzayevdan an’anaviy xonandalik va maqom san’ati sirlarini o‘rgangan. U O‘zbekiston teleradio qo‘mitasining “Maqom” ansamblida (1980-1982), M.Qoriyoqubov nomidagi o‘zbek davlat filarmoniyasida (1982 yildan, 1996 yilda “O‘zbeknavo”) xonanda bo‘lib o‘z faoliyatini olib bordi.

Munajat Yo‘lchiyeva maqom yo‘llarini chuqur o‘zlashtirgani bois, uning ijrosidagi mumtoz xalq qo‘shiqlari xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. Shu o‘rinda maqom san’ati fidoiylaridan biri, buyuk san’atkorning ustoz M.Mirzayevning “Mumtoz asarni anglab yetish uchun o‘ta nozik fahm-farosat kerak” degan so‘zlarini keltirish joiz. Shuningdek, eng qiyin, eng murakkab yo‘nalishda ijod qilish uchun sabr-toqat, mustahkam iroda, tolmas yurak zarur. Qahramonimizning har bir ijrosida shu jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shundanmi, Munojot Yo‘lchiyeva haqidagi



suhbatlarda unga “Maqom san’atining qirolichasi”, “Maqom malikasi”, “Maqomning tirik afsonasi” deya ta’rif berishgan [4].

O‘zbekiston xalq artisti Munojot Yo‘lchiyevani ilk bor muhlislariga sevimli qilgan, hazrat Navoiy so‘zi bilan aytiladigan “Munojot” ashulasini tinglagan betakror damlarimizning hayajonlari faqat o‘sha onlarda emas, hofizani qachon eshitsak, takrorlanadi. San’atkor maromiga yetkazib ijro qilgan “Sarahbori dugoh”, “Mo‘g‘ulchai navo”, “Talqini ushshoq”, “Munojat”, “Safti Chorgoh”, “Girya” kabi maqom ashulalari deysizmi, “Ey dilbari jonim”, “Ishqing o‘tig‘a” kabi katta ashulalar deysizmi yo “Tanovor”, “Izlayman” kabi xalq qo‘shiqlari bo‘ladimi, tinglovchini o‘zi yashayotgan olamdan boshqa yana bir olam borligiga ishontiradi [5: 8 b.].

Munojot Yo‘lchiyeva 1997 yilda “Sharq taronalari” 1 – xalqaro musiqa festivalida 1 – mukofot sovrindori, 1998 yilda “El-yurt hurmati ordeni hamda 2021 yil, mustaqilligimizning 30-yilligi oldidan “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangani, bularning barchasi tinimsiz izlanish va intilishlar samarasidir. Bu darajaga yetishishda avvalo, fidoyilikda olib borilayotgan mashaqqatli mehnat, dars va amaliyotlarning barakali mevasi sifatida e’tirof etilishidir. [6]

O‘zbekiston Qahramoni, asl san’at shaydosi Munojot Y o‘lchiyeva yuksak unvon bilan g‘ururlanib: “Biz uchun bebaho badiiy qomus bo‘lgan maqom san’ati asrlar necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelayotgani bilan e’tiborga molik. Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san’ati, ilmu ma’rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san’atiga – ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o‘zbek xalqi ham munosib hissa qo‘shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz”, [7] deb minnatdorlik bildirgan edi.

Biz Munojot Yo‘lchiyeva timsolida Yangi O‘zbekiston madaniyati va san’atini rivojlantirishda ulkan hissa qo‘shayotgan o‘zbek ayolining ijtimoiy hayotda faol ishtirok etib, o‘zbekona turmushda gender tenglikni namoyon etayotgan buyuk zamondoshimizni ko‘ramiz. O‘zbekistonda erkak qanday ulkan martabaga, shonga erishsa ayollar ham shunday mavqega ega bo‘lishi mumkin. Agar shunday ijtimoiy, huquqiy va gender tenglik bo‘lmaganida Munojot Yo‘lchiyeva kabi ayollarimizdan buyuk iste’dod sohibalari chiqmagan bo‘lardi.

Xulosa o‘rnida ulug‘ bobokalonimiz Abdulla Avloniyning quyidagi aytganlari bilan so‘zimizni muhtasar qilsak ayni muddao bo‘ladi: “Vatan tuyg‘usi eng insoniy eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biridir. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan – Onadek muqaddas, uni qadrlash, e‘zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘amtashvishlarini baham ko‘rish farzandning burchi”dir. Hayotdham san’atda hamsevimli, hurmatga sazovor Munojot Yo‘lchiyeva ana shu burchni ixlos bilan ado etayotgan O‘zbekiston Qahramoni ekanligi bilan ham ardoqlidir.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotinkizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.// Yangi O‘zbekiston -2022. - 8 mar.

2. Ayol ma'naviyat gulshani mavzuidagi II-Respublika ilmiy-nazariy Konferensiyasi materiallari. Jizzax politexnika instituti, -2010. -226 b.
3. Z. Isomiddinov. Bilmaganlarimiz to'g'risida bilganlarimiz –Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi nashryoti, 2021. -116 b.
4. “Maqomlarga jon rishtasin nisor etdim...” // Madaniyat -2021. -30 dek.
5. Z. Mo'minova. Sharqning billur ovozi “Saodat” jurnali 11-son -2021. nou. -32 b.
6. R. Qurbonov. “San'at olamida porlab turgan yulduzlar”. // Madaniyat -2021. -30 dek.
7. Yo'lchiyeva M. San'atsevar xalqim bilan faxrlanaman. //Yangi O'zbekiston -2021. -27 avg.

### III SHO‘BA

## TIL VA ADABIYOT TA‘LIMIDAGI IZLANISHLAR

---

### TIL TARAQQIYOTIDA ADABIYOTNING O‘RNI

**Rahmonova Dinora,**

O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti,

Ashula va raqs yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O‘zDSMI dotsenti, f.f.n., **Xamdam Ismoilov**

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilining o‘zbek adabiyoti shakllanishi va rivoji davomida mashhur adiblar va olimlarning izlanishlari tufayli taraqqiy etish jarayonlari haqida so‘z yuritildi. Tilning taraqqiyoti adabiyot taraqqiyoti bilan adabiyot taraqqiyoti uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlandi.

**Kalit so‘zlar:** jarayon, tarix, ona, bosh bo‘g‘in, iymon-e’tiqod, kelajak, ulkan, toshbitik.

O‘zbek xalqi qadimgi davrlarda yashagan turkiy xalqlarning bir bo‘g‘ini hisoblangan. Shu ma’noda o‘zbek tili ham turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan va xalqimiz tarixiy taraqqiyoti yo‘lida qanday tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo‘lsa, tilimiz ham ana shu jarayonlardan o‘tib keldi. Yoki Prezidentimiz ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak: “Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbek tili eng avvalo, xalq og‘zaki ijodida vujudga keldi. Onalar allasi xalq og‘zaki ijodining bosh bo‘g‘ini va kishilik hayotiy taraqqiyotining eng avvali hisoblanadi. Shu sababli onalar allasi orqali ona tili go‘dakning qulog‘iga kirib, uning ongiga singib boraverdi. Natijada kishi ulg‘aygan sayin ona tili haqidagi tuyg‘u tobora mustahkamlanib iymon-e’tiqodga sodiq kishigina o‘zbek tilimizni e’zozlaydi, asrab-avaylaydi, hozirgi davrimizga qanday yetib kelgan bo‘lsa tilimizga xiyonat qilmay, kelajak avlodga yetkazib beradi.

Qadimdan turkiy til fidoyilari tufayli tilimiz toshbitiklarda o‘z aksini topdi. Xususan, O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida qadimgi turkiy tilda o‘zlarining qimmatli pand-nasihatlarini o‘qib-o‘rganib kelinmoqda. Bular dastlabki turkiy til sohiblarining tilimizga bo‘lgan e’zozlaridan qalbimizni g‘ururga to‘ldiradi. Prezidentimizning nutqida shunday so‘zlar keltiriladi: “Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar, Shu tilda buyuk-madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan”. Shu tufayli Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, al-Xorazmiy kabi buyuk olim-u fuzalolar avlodlarga bebaho ma’naviy, ilmiy meros qoldirdilar. Garchi ularning asarlari o‘sha

davrlar taomiliga ko'ra arab tilida yaratilgan bo'lsa-da, ular turkiy til sohiblari tomonidan yaratilganligi cheksiz faxr-g'urur bag'shila'di. Negaki ularning asarlari butun jahonda o'qib o'rganilyapti, oliy o'quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilyapti. Yuqorida nomlari keltirilgan turkiy olimlarning turli sohalardagi faoliyati tufayli jahonda matematika, fizika, geometriya, astronomiya, meditsina, mexanika fanlari rivojlanib, hozirgi kunlargacha takomillashgan holda yetib keldi.

Vatanparvar, elparvar ajdodlarimiz o'z yurti, ona tilini himoya qilib zarur bo'lganda shu yo'lda o'z jonini ham ayamaganlar. Shu ma'noda Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratlidir: "O'tmishda o'lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, din-u diyonatimizdan judo qilishga urindilar, ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma'lum". Darhaqiqat, yurtimizning qadim tarixida ma'lum va mashhur bo'lgan elparvar, ozodlikparvar To'maris va Shiroq haqida afsonalar yuradi. Ular ham qadimgi turkiy tilda muloqot qilishgan va ish yuritishgan. Xususan, To'maris momo o'z tilida qonxo'r bosqinchi Kirni qonga to'yg'azishga ont ichadi. Bu qasamini o'z xalqi, o'z tili haqqi ado etadi. O'z ona tilida bu ona yurtiga rahna solgan har qanday bosqinchi dushmanni Kirning taqdiri kutishini va ana shunday fojiviy ahvolga tushishini e'lon qiladi. Shiroq ham o'z ona tilida yurtiga bostirib kelgan bosqinchilardan qasos olishga ont ichadi. Oddiy cho'pon, lekin aqli raso inson sifatida o'z ona tilida bergan ontini bajaradi. Bir o'zi dushmanning butun askarlarini yengganini ona tilida ma'lum qiladi. Ona tilidagi kalomi bilan halok bo'ladi.

Ana shu afsonaviy ajdodlarimizning ona tilida ichgan qasamini keyingi davrlarda yashagan buyuk kishilar davom ettirdilar. Xususan, buyuk sarkarda Amir Temur o'z yurti, o'z tilini saqlab qolish uchun ulug'vor ishlarni amalga oshirdi. O'z tilida ulug'vor bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish yuzasidan farmoyishlar berdi. O'z tili, o'z yurtini yanada qudratli qilish maqsadida ulkan imperiyaga asos soldi va tarqoq turkiy xalqlarni tili va dilini birlashtirdi.

Dastlabki o'rta asrlardayoq turkiy tilda ilmiy va badiiy, diniy asarlar vujudga keldi. Xususan, o'lkamizda birinchi bo'lib Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otut turk" asarini yaratdi. Og'ir mehnatlar evaziga lug'atshunos olim turkiy tilning naqadar boyligi, rang-barangligini ko'rsatib qo'ydi va ilmiy jihatdan asosladi. Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida turkiy tilda ilmning naqadar qudratli kuch ekanligini isbotladi va xalqni, yosh avlodni ilm olishga va unga sodiq bo'lishga chorladi. Bilim kishining o'ziga va uning avlodlariga ham saodat keltirishi, tilini burro, o'zini dono qilishini ta'kidladi. Ahmad Yugnakiy o'zining turkiy tilda yozilgan "Hibbat-ul haqoyiq" asarida ham tarixiy tilimizning naqadar tanbehlariga boyligini namoyon qildi. Hazrat Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" asarida Islom dini arkonlarini turkiy tilda badiiy jihatdan talqin etdi. Dunyoning o'tkinchiligi, berilgan qisqa sinov vaqtida ko'p savob ishlarni amalga oshirish kerakligi badiiy ifodalab berildi.

Turkiy tilni ulug'lash navbati Alisher Navoiygacha XIV asrda yashab o'tgan shoirlar Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Durbek kabi shoirlar zimmasiga tushdi. Ular o'z ash'orlarida, qasidalarida turkiy til ham forsiy tildan qolishmaydigan adabiyot tili ekanligini ko'rsatib berdilar. Turkiy til nozik qochirimlarga, tag ma'nolarga boy badiiy til ekanligiga ishora qildilar va bu fikrni o'z asarlari bilan amalda isbotladilar. Ular o'z

ijodi bilan buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy davri ijodiyotiga zamin yaratdilar. Shuning uchun ham Navoiy “Majolis un-nafois” asarida ana shu shoirlarning hayoti va ijodiga batafsil to‘xtaladi va turkiy tilda yozilgan asarlariga yuksak baho beradi.

O‘zbek tili va, ayniqsa, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bilan o‘zbek (turk) tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo‘lib maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko‘rsatdi. Navoiy o‘z ijodiy faoliyati davomida “Sab’atu abhur” (“Yetti dengiz”) nomli lug‘atshunoslikka oid asarini yozib tilimizni lug‘aviy jihatdan yanada boyitdi. Shunga ko‘ra, Navoiy o‘zbek adabiy tiliga asos solib, uni amalda nihoyatda boyitgan tilshunos sifatida tarixga kirdi.

Tilimizning keyingi davrlardagi ravnaqi shoir, shoh, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bilan bog‘liq bo‘ldi. Boburning tili hozirgi tilimizga yanada yaqinlashdi. Bobur o‘z asarlarida qo‘llagan tashbihlari, badiiy unsurlari bilan tilimizni yanada boyitdi, tilimizga yangi so‘zlar olib kirdi. XVIII – XIX asrlarda ijod qilgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlar ham o‘z ijodlari bilan o‘zbek tilining yanada boyishiga xizmat qildilar va o‘zbek tilidagi so‘zlarning keng imkoniyatini ochib berdilar. Ayniqsa, bu paytlarda adabiyotga yangi janrlarni kirib kelishi, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli o‘zbek tiliga anchagina so‘zlar o‘zlashdi va tilimiz anchagina boyidi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek tili tarixi jadidlar ijodi bilan bog‘liq. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek tilida o‘sha davrgacha mavjud bo‘lmagan drama janrida asar yozdi. Bu bilan o‘zbek tilida nasriy janrdagi asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Yana bir e‘tiborli tomoni shundaki, adib o‘zining ushbu asari bilan tilimizni sahnada jaranglashiga erishdi. Shu asnodda Behbudiy o‘zbek dramaturgiyasiga asos solib, XX asr boshlarida o‘zbek madaniyatida yangi voqelikka asos soldi. Nashr ishlarini tashkil etib, o‘zbek tilidagi publitsistikani boshlab berdi.

Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining jarchisi va asoschilaridan biri, o‘zbek milliy she‘riyati, prozasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, maorifi, jamiyatshunosligi singari o‘nlab sohalarning oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Fitrat ona tilini mukammal egallashida onasining xizmati katta bo‘ldi. O‘zbek adabiyoti tarixida birinchi bo‘lib o‘zbek tilida “Abulfayzxon” nomli dramatik fojia sahna asarini yozdi. 1921-yili mart oyida Fitratning bevosita ishtirokida Buxoro jumhuriyatida turk (o‘zbek) tili davlat tili deb e‘lon qilinadi. Umuman olganda Fitrat o‘zbek tili rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy o‘zbek tilini nihoyatda qadrladi. Uning imkoniyatlari ulkan, so‘zlarga boy, badiiy tasvirlari keng ekanligini o‘zining epik asarlarida ko‘rsatib qo‘ydi. Uning romanlari va hikoyalarning tili shirali, sermazmun, qochirimlarga va milliy unsurlarga boy ekanligidan o‘zbek kitobxonlarining bir necha avlodlari ularni hamon sevib o‘qib kelmoqda. A. Qodiriy o‘z tarjimalari bilan ham

o‘zbek tili badiiy ifodaviy tasvirda boshqa tillardan qolishmasligini isbotladi. U milliy tilini o‘z millatidek e‘zozladi, qadrladi.

Taniqli yozuvchi va tarjimon Abdulhamid Cho‘lpon haqida gap ketganda, uning o‘zbek tili bilimdoni ekanligi ta’kidlanadi. Bu holatni uning ham nazm, ham nasr asarlarida kuzatish mumkin. U o‘zbek tilidagi publitsistika rivojiga alohida hissa qo‘shdi va ona tilining matbuotdagi keng imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima asarlari uning ijodida salmoqli o‘rin egalladi. O‘zbek tilining tarjima jarayonidagi imkoniyatlarini shu yo‘sinda namoyon bo‘ldi. O‘zbek tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan adiblardan biri G‘ofur G‘ulom hisoblanadi. U o‘zining da’vatkor she’rlari bilan o‘zbek tiliga o‘zgacha ruh bag‘ishladi. Asarlaridagi sifatlash, jonlashtirishlari bilan ba’zi so‘zlarning ma’no nozikliklarini ochib berdi.

Hamid Olimjon Oybekni “Oybek prozada shoir-u, poeziyada prozaikdir”, degan edi. O‘zining ana shunday mahorati bilan ona tilimizni sezilarli boyishiga va sayqallanishiga xizmat qildi.

Abdulla Qahhor lo‘nda, qisqa tasvirlari bilan o‘zbek tilidagi so‘zlar serma’no ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. O‘z asarlarida o‘zbek tilidagi so‘zlarni shamolga uchirmaslik, ularga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishga chaqirdi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan o‘zbek tilining nazariy asoslari o‘rganilib, tilimizning mavqeyi ilmiy jihatdan mustahkamlana boshladi. Bu xayrli ishga yetuk tilshunos olimlar Faxri Kamol, Ulug‘ Tursunov, Zokir Ma’rufov, Tursun Ibragimov, Tesha Salimov, Said Usmonov, G‘ani Abdurahmonov, Fattoh Abdullayev, Sobirjon Ibrohimov, Otaqo‘zi Azizov, Mazluma Asqarova, Ayub G‘ulomov, Viktor Vasilyevich Reshetov, Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov, Iristoy Qo‘chqortoyev, Karim Nazarov, Shamsiddin Shukurov, Yormat Tojiyev, Nizomiddin Mahmudov kabilar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shdilar. Ular o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisi, stilistikasi sohalarini alohida-alohida tadqiq etdilar. Tadqiqotlar asosida monografiyalar yaratish bilan birga o‘zbek tilidan maktablar, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yozdilar. Ulardan hozirgi kunimizgacha o‘quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilib kelinmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida yuqoridagi olimlar o‘zlari yaratgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari asosida dars berib, bo‘lajak o‘zbek tili mutaxassislarini tayyorlashga katta hissa qo‘shdilar. Shu bilan yoshlarda ona tilimizga bo‘lgan ulkan muhabbat uyg‘otdilar. Ularning shogirdlari hozirgi paytda yetakchi olimlardan bo‘lib, o‘z navbatida ular ham o‘zbek tili bo‘yicha mutaxassislar tayyorlab dastlabki tilshunos olimlarning an‘analarini davom ettirmoqda.

Ko‘rinadiki, XX asr o‘zbek tilining yuksak taraqqiyot davri bo‘lib qoldi. Tilimiz ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘sdi va mustahkamlandi. Lekin o‘tgan asrda shunday davrlar ham bo‘ldiki, o‘zbek tiliga mensimay, kamsitib munosabatda bo‘lindi. Shunga qaramay, yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday to‘siqlarga qaramasdan milliy adabiyotimiz tufayli taraqqiy etdi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni., T., “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2019-yil, oktabr.
2. Hozirgi zamon o‘zbek tili. T.: Fan, 1957.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: Fan, 1966.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. T.: O‘zbekiston, 2002.
5. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom. T.: Fan, 1975.

## **QO‘SHIQCHILIKDA ADABIY TIL VA SHEVANING O‘RNI**

**Mamadaliyeva Aziza Mansurjon qizi,**

“Ashula va raqs” ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari nomzodi,

dotsent **Malikova Sevar Samatovna**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada milliy me’rosimiz bo‘lgan ashula va qo‘shiqlarda adabiy til va shevaning o‘rni haqida hamda qo‘shiqlarda shevaga xoslik ishlatilish tinglovchilarga qanchalik hush kelishi va ularga nima berishi haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy til, ashula, xonish, xonanda, bastakor.

### **Annotation**

This article discusses the role of literary language and dialect in our national heritage songs, as well as how much the use of dialect in songs appeals to listeners and what it gives them.

**Key words:** literary language, singing, singing, singer, composer.

Musiqqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Musiqqa san’ati insoniyatning ma’naviy boyligi, boy dunyoqarashi va kelajak kamolotini belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Unda har bir xalqning milliy an’analari, urf-odatlar, marosim va qadriyatlar munosib o‘rin olgan.

Adabiy til paydo bo‘lgunga qadar nutq madaniyati borasida amal qilgan talab va tasavvurlar adabiy til paydo bo‘lgandan keyingi davr, ya’ni adabiy til bilan bog‘liq bo‘lgan nutq madaniyati tasavvurlaridan farqlanadi. Chunki nutq madaniyati chinakam ma’noda adabiy til va uning normalari bilan bog‘liqdir. Avvalo adabiy til tushunchasining mohiyatiga qisqacha to‘xtaylik.

Adabiy til haqida gap borganda, avvalo adabiy til – xalq tilining, milliy tilning oliy shakli deyilgan ta’rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliy shaklligi bu tilning o‘ziga xos belgilari va vazifasida ko‘rinadi. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo‘lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning

ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiy muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili, diplomatik aloqalar tili, radio va televideniye tili, og‘zaki targ‘ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madaniyat tili kabi ko‘p yo‘nalishlarda rivoj topishi uchun yo‘l ochadi. Bu hol adabiy tilda ko‘p vazifali xususiyatini yuzaga keltiradi. Adabiy tilning ko‘p qirrali va murakkab vazifalari adabiy tilning usluban tarmoqlanishiga, adabiy til doirasida xilma-xil nutqiy uslublarning yuzaga kelishiga olib keladiki, bu milliy adabiy tillarga xos muhim xususiyatlardan biridir.

Adabiy til - ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko‘tariladi. Bu hol adabiy tilni madaniyat va sivilizatsiyaning vositachisiga, bunga doir tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi, o‘zida saqlovchi va keyingi nasllarga yetkazuvchi qurolga aylantiradi. Adabiy tilda ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalariga oid boy bilimlar mujassamlangan bo‘ladi. Shuningdek, adabiy til abstrakt va mantiqiy fikrlashning amalga oshishida ham vosita vazifasini bajaradi. Adabiy tilga xos keltirilgan xususiyatlar adabiy tilning og‘zaki shakli uchun ham xosdir. Chunki hozirgi paytda so‘zlangan og‘zaki nutq matnlarini o‘z hoida yozib olish va uzoq davr saqlashning keng texnikaviy usul va imkoniyatlari mavjud. Adabiy til vazifasining kengayishi, unda murakkab uslubiy tarmoqlanishning yuzaga kelishi adabiy til vosita va imkoniyatlarining rivoj topishini va boy bo‘lishini taqozo qiladi.

An‘anaviy xonandalikda adabiy til me‘yorlariga rioya etish namunali asarlarning yaralishiga olib keladi. Bunda xonanda aytim usullarini to‘liq o‘rganishi, bastakorlik mahoratidan foydalanishi va sozandalik sirlarini bilishi zarur. Mukammal ijrodagi ashulalarning aytim yo‘llari ham aynan adabiy til normalari asosida yaratilgan bo‘lib, bunda janr xususiyatlari to‘laligicha saqlanib qolgani e‘tiborlidir. Adabiy til aynan mumtoz musiqamizning ashula janrida qo‘llanilgan, sheva esa asosan mumtoz musiqamizning qo‘shiq janrida uchraydi. Sababi, “Shashmaqom” saroy musiqasi hisoblangani uchun ham uning tarkibidagi ashulalar xalqqa namoyish etilmagan. O‘zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiyning ijodiy repertuaridagi “Kuygay” ashulasi aynan biz nazarda tutayotgan masalani qanchalik muhim ekanligini ochib beradi. Bunda xonanda adabiy til normasiga rioya etib, dardli xonishlar, ovoz kuchayishining yorqin ifodalarini topgan. Sozandalar ansambli uyg‘unligida xonandalik mahorati ila o‘z ijrosini yanada mukammal tarzda namoyon etgan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, ushbu ashulaning bastakor jihatidan muallifi ham aynan ustoz san‘atkor hisoblanadi. “Kuygay” ashulasi muhabbat hajrida va alamlarida kuygan oshiqning dili fig‘on nolalari, visoliga yetolmagan yorining sog‘inchli dardlari bo‘lishi, yoki tasavvufona qarashda olam va uning Yaratuvchisiga qiyosan ko‘ngil tubidan chiqqan so‘zlari jaranglaydi. Bastakor ashulaning pirovardida asosan bir tempda kuylab, xonish aylaydi, avjida esa tovush diapazonini so‘zlarni yanada ta‘sirli va ma‘nodor jihatdan balandroq kuylaydi, e‘tiborni ashulaning hissiy oqimiga qaratadi. Va nihoyat, so‘nggida xonanda dardlarini nihoyalab, ovozigaga fig‘on, dardga to‘la oh qo‘shganligi anglanadi.

Bundan tashqari, aksar unli tovushlarning turli shevalarga xos, xilma-xil aytilishi hollari ham yo‘q emas. Tanlangan asarning ba‘zi bir so‘zlari shevaga xos aytilishi esa



o'sha hududda yashaydigan xalqning qo'shiqqa va uning ijrochisiga nisbatan zavqini oshiradi. Bizning yurtimizda hududiy yo'nalishlar 4 ga bo'linadi:

1. Toshkent – Farg'ona yo'nalishi.
2. Samarqand – Buxoro yo'nalishi.
3. Xorazm yo'nalishi.
4. Qashqadaryo – Surxondaryo yo'nalishi.

Yuqoridagi hududiy yo'nalishlar bir-biridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har bir hududdagi madaniyat va san'at o'sha xalqning xarakteri va ijtimoiy qarashlaridan kelib chiqib shakllangan.

Qo'shiqlarda shevaga xos elementlar ishlatilishi yuqorida aytilganidek, o'sha hududdagi aholining qo'shiqqa va uning ijrochisiga nisbatan zavqini oshiradi, ammo shuni bilish kerakki, sheva elementlarining ishlatilishi faqatgina qo'shiq janrigagina xosdir. Ashula janrida esa shevaga xoslik ishlatilmaydi, aksincha adabiy til me'yorlari saqlanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. J.T.Shukurov. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyati.T., 2019.
2. O'.Rasulov. Yakkaxon qo'shiqchilik. T., 2017.

### **ANALYSIS OF SYMBOLIC IMAGES IN ALISHER NAVOI'S FRIEND “LISON UT-TAIR”**

**Abdullayeva Nasiba Ibrahimjon qizi,**  
Uzbek State Institute of Arts and Culture  
Faculty of Folk Art “Socio-cultural activity”  
3rd year student majoring in Education  
[Arjumandbegin9646@gmail.com](mailto:Arjumandbegin9646@gmail.com)

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni va dostonida qo'llanilgan ramziy o'brazlar tahlili haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** “Lison ut-tayr”, “Mantiq ut-tayr”, tahlil, talqin, ramziy obraz, semurg, “Ilohiynoma”, “Ushturnoma”, “Lujjai hilol”, “Tazkirat ul-avliyo”.

#### **Аннотация**

Данная статья посвящена эпосу Алишера Навои «Лисон ут-тайр» и анализу символических образов, использованных в эпосе.

**Ключевые слова:** Лисон ут-тайр, Мантик ут-тайр, анализ, интерпретация, символический образ, семург, Илогийнома, Уштурнома, Луджаи хилал, Тазкират ул-авлия.

#### **Annotation**

This article is about Alisher Navoi's epic «Lison ut-tayr» and the analysis of the symbolic images used in the epic.

**Key words:** Lison ut-tayr, Mantiq ut-tayr, analysis, interpretation, symbolic image, semurg, Ilohiynoma, Ushturnoma, Lujjai hilal, Tazkirat ul-avliya.

The epic «Lison ut-tayr» was written in the last years of the poet's life, in 1499. Candidate of Philological Sciences Sh. Eshonkhojayevev created a scientific-critical text of the epic and prepared it for publication with comments. In this edition, the epic consists of 193 chapters, 3666 bytes.

The epic «Lison ut-tayr» is based on a philosophical and mystical theme, in response to the epic «Mantiq ut-tayr» by the great Persian-Tajik writer Farididdin Attor. Alisher Navoi himself says in this epic that he read and memorized Mantiq ut-tayr with enthusiasm as a child:

I remember this conflict,  
Who's in the middle of school?  
Kim chekar atfol marhumi zabun,  
One lesson from all sides un  
In that case, the natural bulhavas,  
«Mantiq ut-tayr» was a multamas.  
You repeated the ball quietly,  
I'm so sorry to hear that.  
When you hear the words,  
He didn't want to say anything else.

Lison ut-tayr traditionally includes an Introduction, a main part and an End. The introduction consists of 13 chapters.

The first chapter of the epic is dedicated to Allah. Navoi writes that Allah created this universe according to a definite plan, and that nothing in it was created by chance. He emphasizes that the miracle of God unites the four opposing elements (water, fire, earth and air) into a single whole in the human body, and that the purpose of creating the entire universe is also human.

In the chapter, Alisher Navoi also says that Allah made man aware of his secret and exalted him with the crown of the Khilafah, and cursed Satan for refusing to worship him:

And with all his secrets,  
Both the caliphate and Sarfaroze.  
That's the stubbornness of her mother,  
Ajzu soil is one of them.  
Together, he was responsible,  
Together, he is the one who gave it.

Chapter 2 of the epic contains a prayer. In the chapter, Alisher Navoi summarizes his past life and considers himself a sinner in the eyes of the Creator.

Chapter 3 contains the praise of the Holy Prophet - nat. In the chapter, Navoi thinks about the Light of Muhammadiyah, that this light existed before the creation of the universe, that it passed from Adam to the Prophet Shis, and thus through many generations, to the Prophet's father, Abdullah, and finally to the face of his son. writes that he appeared as the light of prophecy.

The chapter also discusses the activities of the Holy Prophet during his prophetic years: he fought against the disbelievers, destroyed the idol of Lot, and conveyed to the people the truth that there is no god but Allah. At the end of the chapter, the Prophet

(peace and blessings of Allaah be upon him) and all his relatives, the Companions and the followers, are told that they are pure.

He is pure, his offspring are pure,

He is pure, and his companions are pure.

Anga greeted him every time with a thousand greetings.

I will rise with the people of the world.

Chapter 4 deals with the definition of the night of the Ascension. In it, the Spirit of the Prophet (peace and blessings of Allaah be upon him) came to the Prophet (peace and blessings of Allaah be upon him) and conveyed the message of the Creator. It is thought that the Prophet (peace and blessings of Allaah be upon him) asked Allah for the sins of his ummah and that Allaah accepted all the wishes of his beloved.

Chapter 5 of the epic is dedicated to the praise of Hazrat Abu Bakr Siddiq, the first of the four caliphs. Alisher Navoi called him a «faithful and sincere» and likened the Prophet to a treasure in a cave, and Abu Bakr (ra) to a dragon guarding this treasure.

Abu Bakr al-Siddiq attributes the fact that he became the caliph's imam after the Prophet, as if the sun had set and the moon remained:

Instead, the imam became the mother of the apostle,

The moon is always in the sky.

Chapter 6 contains the story of Abu Bakr Siddiq. According to the story, when Abu Bakr Siddiq ascended the caliphate, a group of apostates demanded the abolition of zakat, one of the fards of Islam. The caliph said angrily, «The law of the Prophet does not change a single thread. Those who rise up against it will be answered with swords and bullets. »

Chapter 7 of the epic is dedicated to the praise of Hazrat Umar Farooq. Alisher Navoi says there is no one in the Islamic world who can tell the difference between right and wrong.

Chapter 8 is a story about Umar Farooq. According to the story, when they captured Hadrat 'Umar Madayin, a great treasure was accumulated. Hadrat 'Umar did not turn a blind eye to this treasure and property: he ordered that all the treasure be distributed to the invaders.

Chapter 9 - Hazrat Uthman (r.a.) praises. Uthman was nicknamed «Zunnurayn» for marrying two daughters of the Prophet. Alisher Navoi says that the people called him 'Uthman ibn Affan because they collected the Qur'an.

Chapter 10 contains the story of Uthman. According to the story, one day the Prophet (peace and blessings of Allaah be upon him) went to a deserted place to rest. Even when some noble companions, some saints and nobles enter their presence, their situation will not change. But when 'Uthman entered the room, they gathered the legs that the Noble Messenger had stretched out. It was an expression of the Prophet's boundless respect for Uthman.

Chapter 11 is dedicated to the praise of the Commander of the Faithful, Hazrat Ali (ra). Navoi told the Prophet that he was a child and that there was a covenant between them: «I am yours, you are mine.»

Chapter 12 contains a story about Hazrat Ali. According to the story, during one of the battles, Hazrat Ali was shot. The tip of the bullet sank to their bones, making it

impossible to pull. When the Companions asked the Prophet, may Allah bless him and grant him peace, the Messenger of Allah, may Allah bless him and grant him peace, said, "Seek to shoot while he is praying. He will be given to the prayer in such a way that he will not know who took the bullet." The Companions did as they were told, and Allah, glory unto Him, did not inflict any pain or injuries on them.

Chapter 13 is dedicated to the great Persian writer Farididdin Attar. Alisher Navoi, figuratively speaking to the poet's pseudonym, says that the store is a collection of all the riches of the world: pearls, musk warehouses, sweets.

Alisher Navoi says that Attar's works are as useful as flowers for the people, and in this regard he lists his works: ready "and others. At the end of the chapter, Navoi says that if Haq helps me, I will get help from the spirit of Gado Sheikh and express the speech of birds, that is, I will write a reply to «Mantiq ut-tayr»:

The main part of the epic begins with Chapter 14. One day all the birds came together for a meeting. But there was a quarrel in the meeting. They thought that if there was a just king, there would be no need to argue. At that time, a bird named Hudhud said that there was such a king, his name was Simurg, and that those who wanted to go to Simurg had to go a long and difficult way.

The birds set off under the direction of Hudhud. After a few days of traveling, the arduous journey exhausts them. They want to go back and apologize to Hudhud one by one. Parrot apologizes first. In response, Hudhud tells the story of a «man in a green cloak who has gained a trick.» After the parrot, Peacock apologized, saying, «God made me to be seen and admired by those around me, so why do I need this trip?» Hudhud responds by telling the story of a clown Indian who decorated himself with various ornaments and performed in the square, and was surrounded by a gang of thugs who were captured by the guards and beaten with whips. Then Bulbul apologizes. He says that he is in love with a flower in his bag, that he cannot bear to lose it, and that this time he is infinitely tormented. Hudhud tells him the story of a gado who boasted that he was in love with a king. Thus, birds such as Qumri, Kabutar, Kabki Dari (Mountain Sparrow), Tazarv, Qarchigay, Shunkar, Burgut, Kuf (Owl), Humoy, Duck, Chicken (Rooster) they apologize. Hudhud responds to each of them with different stories in an appropriate situation. The birds continue on their way. They ask Hudhud about the way to Simurg. Hudhud tells them the story of Sheikh San'an, one of the greatest and most influential figures in the epic.

According to the story, a saint named Sheikh San'an was a murshid-teacher to all the sheikhs in the Kaaba. He had about 400 disciples, each of whom was equal to Junaid and Boyazid. If Sheikh Sanan saw something in a dream, it would happen right in front of him. One day he had a dream in which he was walking drunk in a temple in Greece. He wakes up and repents. But after the dream was repeated several times, he realized that his interpretation was connected with his destiny and set out for Rome with his disciples. Finally, they arrive in Greece. There they see a strange temple. When the sheikh enters the temple, his condition changes and he becomes restless with anxiety. Suddenly, a tarso (Christian) girl appears in front of him with a veil over her face. When the wind blows and the veil on the beauty's face opens, the Sheikh loses his

temper and falls to the ground. In this way, the Sheikh falls in love. Navoi describes his distress in the sheikh's language:

At the end of the story, the birds discover their Simurg.

According to mystical philosophy, this world is the manifestation of the Truth, the radiance of God. All beings in the world are the manifestation of Allah. In this sense, man has to discover this particle in himself, and to do that he has to go a very long and difficult way. These are the seven valleys, as mentioned above. The last valley is the valley of poverty and death, that is, to become non-existent and join Allah.

Therefore, it can be said that Simurg is a symbol of reaching the Truth. Birds are a symbol of taxes claiming the rightful guardian. Hudhud is a perfect symbol.

As can be seen above, the epic *Lison ut-tayr* was written in response to Farid al-Din Attar's epic *Mantiq ut-tayr*. At first glance, the course of events in these two epics and the protagonists in them are the same. In fact, both authors differ from each other in terms of ideology and the artistic burden on the protagonists. Literary critic Z.Mamadaliyeva, in her study «The system of symbolic images in the epic Alisher Navoi» *Lison ut-tayr* «, while interpreting the symbolic symbols in these two epics, points out some features of Hudhud in the Navoi epic:

1) Hudhud in Navoi's interpretation is not only a symbol of a perfect man, but also the number one symbol of the author in the epic;

2) Hudhud, described by Navoi, explains the higher mystical issues with simple life events and examples according to the level of each bird;

3) Farididdin Attar begins the plot of his work in his epic by describing birds without any incident, and in *Lison ut-tayr* the task of describing birds is assigned to Hudhud;

4) Hudhud's mission ends when the description of the seven valleys in *Mantiq ut-tayr* arrives, but Hudhud in the Navoi epic also supports the birds in the last valley, the valley of poverty.

Also, according to the author of the study, according to the idea in «*Mantiq ut-tayr*», the birds in it are the shadow of Simurg.

Some of the birds in the saga can be interpreted as symbolic:

The peacock is fascinated by the beauty of the world.

The squirrel wants to rule.

The nightingale is in love with the fan world.

Kaklik is fascinated by one's behavior.

The eagle is a aimless power.

Chicken is a loss of mental and spiritual flight.

It turns out that many people can get into leeching with the claim of reaching the Truth, but not everyone can pass the exams and tests along the way.

#### **LIST OF REFERENCES:**

1. Navoi Alisher. *Lisonut tayr*. A perfect collection of works. 20 volumes. - T .: Fan, 1994. Volume 12.

2. Navoi Alisher. Lison ut-tayr (with prose statement). - T .: Gulom Publishing House, 2005.
3. Lisonut tayr (with prose statement). Editorial Board: A. Kayumov et al. - T .: Literature and Art Publishing House, 1991.
4. N.Komilov. Sufism. –T .: Movarounnahr - Uzbekistan, 2009.
5. Bertels Ye.E. Navoi and Attar / Sufism and Sufi literature. - M .: 1965. - S.377-421.
6. Imomnazarov M. Truth and metaphor (Articles 2-3) // Star of the East. - T., 1989. - №4; 1991. - № 4.
7. Olimov S. Love, lover and lover. - T .: Literature and Art, 1992.

## **ALISHER NAVOIY IJODI TALABALAR NIGOHIDA**

**Abatbaeva Shaxnoza Ken'esbayevna**

O‘zDSMI, Nukus filialining Madaniyat va san‘at muasasalarini  
tashkil etish va boshqarish sohasining 2-kurs talabasi  
(shaxnozaabatbaeva.com 90 736 37 40)

Ilimiy rahbar

Abipova Gu‘lmira Salavatdinova

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining ahamiyati borasidagi fikrlar yuritilgan bo‘lib uning merosi salmoqli asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy va ilmiy-falsafiy tomonlari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** g‘azal, tajriba, tarixiy, uchinchi renessans.

### **Annotation**

This article discusses the significance of Alisher Navoi's works and the socio-political, moral, educational, scientific and philosophical aspects of his significant works.

**Keywords:** ghazal, experience, historical, third renaissance.

O‘zbek xalqi o‘z tarixi bilan har qancha g‘ururlansa, faxrlansa arziydi. Zero, uning shonli o‘tmishi ulkan allomalar, olim-u fuzalolar, buyuk sarkarda hamda adabiyot va san‘at ahlining o‘lmas iste’dodlariga boy. Ana shunday ulkan siymolar qatorida hazrat Mir Alisher Navoiy she’riyat osmonida quyoshdek porlab turadi. Mana salkam olti asrkim, u hanuz Abdulla Oripov iborasi bilan aytganda, “nazmiy saroyini” titratib kelmoqda, shoir badiiy ijodda ko‘tarilgan cho‘qqilar hanuz qayta zabt etilgani yo‘q. Shu bilan birga Alisher Navoiy nihoyatda serqirra shaxs, nafaqat buyuk mutafakkir shoir, balki iste’dodli musiqachi, rassom, zabardast davlat arbobi hamdir. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning xalqimizning kelgusi madaniy taraqqiyotidagi xizmatlari ulkandir. U haqli ravishda o‘zbek adabiy tilining asoschisi sanaladi, zero Zahiriddin Muhammad Bobur mirzo aytganidek, “turkiy tilda hech kim oncha ko‘p va oncha xo‘b” yozmagan. U butun umri davomida bu tilning otashin targ‘ibotchisi hamda himoyachisi bo‘lib keldi, uning nufuzi va mavqeyini yuksaklikka ko‘tardi. Ayni paytda

temuriylar saltanatida yuqori lavozimlarda faoliyat ko'rsatib, davlat asoslarini mustahkamlashga, siyosiy va ma'naviy muvozanatni barqarorlashtirishga, mamlakat ravnaqiga beqiyos hissa qo'shdi, hayotini el-yurt manfaati, farovonligiga bag'ishladi. Zero, uning shiori

Odamiy ersang demagil odami,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.  
edi.

Alisher Navoiydek ulug' ajdodimiz borligi uchun qalbimizda g'urur va iftixor hissi jo'sh uradi, u madaniy va ma'naviy hayotimizning har bir jabhasida o'rin olgan, har bir shaxs umri davomida undan o'zi uchun zarur bo'lgan saboq hamda ibratni oladi.

Jonajon Vatanimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Xamsatul-mutahayyirin" ("Besh hayrat", 1494) asarida ustoz va do'sti Abdurahmon Jomiy, uning hayoti lavhalari, tariqati, yozishmalari, asarlari haqida hayratomuz hikoyalar keltiriladi. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" (1488-89), "Holoti Rahlavon Muhammad" (1493) asarlari manoqib-holot yo'nalishida bo'lib, ularda shoirga ustozlik qilgan buyuk shaxslar hayoti, faoliyati yoritilgan. "Munshaot" (1498-1499) Navoiyning maktublari to'plami (jami 88 ta xat) bo'lib, ular sog'inchlik xatlari, navro'z tabriklari, ta'zianomalar, siyosiy o'gitlar, sulhnomalar va boshqa yo'nalishlardadir. Ular Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va boshqa tarixiy shaxslarga bitilgan. "Majolisun-nafois" (1490-91; 1497-98) tazkisasi turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo'lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma'lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo'lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, to'rtinchi majlisda beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movaraunnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Asar Fahriy Hirotiy (1521-22), Muhammad Qazviniy (1522-23), Shoh Ali Abdulali (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan. Navoiyning "Muhokamatul-lug'atayn" asarini o'z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususitlari bilan qiyoslashga bag'ishladi. Jonli xalq tilida qo'llanilgan ko'plab so'zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo'llanilishiga sababchi bo'ldi. O'zigacha ishlatilgan so'zlarni yangi ma'no qatlamlarini ochdi, o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning tili grammatikasini Mahmud Koshg'ariydan so'ng ilmiy asosga soldi. o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo'ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e'tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqloli uchun kurashga chorladi. Aruz nazariyasiga bag'ishlangan "Mezonul-avzon" (1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. (Alisher Navoiy. Asarlar. 1-4 jildlar, -T.: 1963-1968.7-8-b.)

Turk yozma va og‘zaki she‘riyati namunalarining vazn xususiyatlarini o‘rgandi. Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she‘riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To‘qqizta yangi vazn va she‘riy shaklni aniqladi. Turkiy tarixda ilk bor milliy vazn haqidagi qarashlarni ilgari surdi. Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish 20 asrning 20-yillaridan yo‘lga qo‘yildi. Bu yo‘nalishda Fitrat, Oybek, A.Sa‘diy, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullaev kabi adabiyotshunos va A.K.Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e‘tiborli. “Tarixi muluki Ajam” (“Ajam shohlari tarixi”, 1488) qisqa tarix bo‘lib, Eron shohlari xronikasida bayon qilingan “Tarixi Tabariy”, “Shohnoma” asarlarini mantiqan to‘ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan sosoniylarning so‘nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo‘lgan shohlar tarixini, mifologik talqinini beradi. “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”, 1485-1498) asarining birinchi bo‘limida “Qissasul-anbiyo”lar an‘analarini davom ettirib, Odam alayhis-salomdan Nuh, Iso, Muso, Ya‘qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg‘ambarlar tarixiga oid qissalar keltiradi. Navoiy Luqmoni hakimga ham anbiyolar qatoridan joy beradi. Asarning “Hukamo zikrida” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan donishmand hakimlar Fishog‘urs, Jomosp, Buqrot, Suqrot, Aflotun, Arastu, Bolinos, Jolinus, Batlimus, Buzurgmehr haqida ibratli hikoyalar keltiradi, ularning donishmandligi, ilmiy kashfiyotlari siri qisqa satrlarda talqin qilinadi. “Vaqfiya” (1481) asarida vaqf yerlari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag‘i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo‘nalishda madrasa va xonaqohlarda o‘rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritdi. Navoiy o‘z ixtiyoridagi mablag‘lar hisobiga qurilgan xayriya muassasalari, ilmiy-madaniy binolar va bog‘larni sanab o‘tdi. Asar Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o‘rganish uchun ham muhim hujjatli manbadir. Tarix va iqtisodiy yo‘nalishdagi asarlari N.Veselovskiy, Yakubovskiy, Ya.G‘ulomov, V.Zohidov, B.Ahmedov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Arab va fors tillaridagi asarlari. Alisher Navoiy fors tilida yozgan she‘rlari asosida “Devoni Foni” tuzilgan bo‘lib, uning muqaddimasida “Sittai zaruriya” (“Olti zarurat”) va “Fusuli arbaa” (“To‘rt fasl”) forsiy qasidaları majmualari berilgan. “Sittai zaruriya” to‘plamidagi qasidalar “Ruhul-quds” (“Muqaddas ruh”), “Aynul hayot” (“Hayot chashmasi”), “Tuhfatul-afkor” (“Fikrlar tuhfasi”), “Qutul qulub” (“Qalbdar g‘izosi”), “Minhojun-najot” (“Qutilish yo‘li”), “Nasimul xuld” (“Jannat nasimi”) kabi nomlar bilan ataladi. Ular Xoqoniy, Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy asarlari ruhida, ularga falsafiy-mantiqiy javob tarzida yozilgan. „Fusuli arbaa“da Sulton Husayn Boyqaro madhidan so‘ng “Bahor”, “Saraton”, “Xazon” (“Kuz”) va “Day” (“Qish”) vasfidan iborat. Muammo janri qoidalariga bag‘ishlangan “Mufradot” (1485) fors tilidagi ilmiy asarida mumtoz she‘riyatdagi bu janrni nazariy jihatdan asosladi. Muammo va uni ifodalangan janrlar ruboiy, qit‘a, tuyuq, ayrim hollarda g‘azal munosabatini anglatdi. Muammolarni yechish usullarini o‘rgatish barobarida 121 ta misol keltirdi. Navoiyning arab tilida “Sab‘atul-abhur” (“Yetti dengiz”) nomli diniy-tasavvufiy ruhda lug‘at xarakteridagi asar yozgani ma‘lum. Biroq bu asar nashr etilib, yetarli darajada o‘rganilmagan. Alisher Navoiyning fors tilidagi merosi Fitrat,



H.Sulaymon, N.Mallayev, Sh.Shomuhamedov, R.Vohidov, Boltayeva tomonidan o'rganilgan. Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'zRFA Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 1-4 jildlar, -T.: 1963-1968;
2. Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. -T.: 1959-60;
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami (20 jildlik), 1-6 jildlar. -T.: 1987-1992;
4. Alisher Navoiy. Xamsa (Nashrga tayyorl. R.Shamsiev). -T.: 1960;
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin T.: 1956;

### **O'ZBEK ADABIYOTIDA YOSH IJODKORLARNING HARAKATI**

**Axmatov Abdulla Odil o'g'li,**

O'zDSMI, Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti  
Kutubxona axborot faoliyati yo'nalishi bo'yicha 4-kurs talabasi.

Elektron pochta: [abdullajonahmadov4@gmail.com](mailto:abdullajonahmadov4@gmail.com)

Telefon raqami: +998(97)7999109

#### **Annotatsiya**

O'zbek adabiyoti ming yillar osha sayqallanib kelayotgan ko'hna rivoyatlar, afsonalar, asotirlar va qissalar bilan boshlanib, bugungi kunda ham rivojlanish pillapoyalaridan bosqichma-boqsich ko'tarilib bormoqda. Hozirda adabiyot yanada keng quloqch yozib makon va vaqtlarni o'z jozibasini bilan zabt etmoqda. Ushbu maqolada ana shunday ajoyib kashfiyotlar, yosh ijodkorlarning o'zbek va jahon adabiyoti, san'atiga hissa qo'shayotgan asarlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Adabiyot, yosh ijodkorlar, nazm, nasr, san'at, asar, she'riyat

#### **Annotation**

Uzbek literature begins with ancient legends, myths, legends and stories that have been polished for thousands of years, and continues to grow today. Nowadays, literature are gaining more and more space and time. This article gives a brief overview of such remarkable discoveries and the contribution of young artists to Uzbek and world literature and art.

**Key words:** Literature, young artists, poetry, prose, art, works, poetry

#### **Аннотация**

Узбекская литература началась с древних преданий, мифов, легенд и рассказов, которые шлифовались на протяжении тысячелетий, и продолжают расти сегодня. В наше время литература завоевывают все больше места и

времени своим обаянием. В данной статье представлен краткий обзор таких замечательных открытий и вклада молодых художников в узбекскую и мировую литературу и искусство.

**Ключевые слова:** Литература, молодые художники, поэзия, проза, искусство, произведения, поэзия.

O'zbek adabiyoti o'tgan davr mobaynida katta yo'lni bosib o'tgan mumtoz va tarixiy adabiyot sirasiga kiradi. Chig'atoy adabiyotining munosib vorisi bo'lgan bu ulkan adabiyot O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, rivojlanishi va shakllanishi haqidagi badiiy ma'lumotlar manbayi hamdir. Mustaqillikdan so'ng XX asrning 70-80 yillarida adabiyotimizga o'z so'zi va yo'nalishlari bilan kirib kelgan buyuk o'zbek shoirlari: Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon; yozuvchilari: Said Ahmad, Tog'ay Murod, Tohir Malik, O'tkir Hoshimov; bolalar yozuvchilari: Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon kabi ko'plab adiblar shakllandi. Ular o'zbek adabiyotini yanada rivojlanishida o'z hissalarini qo'shgan yuksak mahoratli ijodkorlar edi.

Yaqin yillarda esa yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan adabiyotga, san'atga alohida e'tibor berila boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga muhtasham bino qurilishi, xuddi shu geografik hududda Adiblar xiyobonining barpo etilishi tom ma'nodagi adabiyot bayrami bo'ldi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Va undagi birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qildi. Bu davrga kelib O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida "Onajonim shariyat" kabi adabiyotning nazm, nasr va publististika yo'nalishidagi yosh ijodkorlar to'garaklari ish boshladi. Yoshlar ishlari agentligi tasarrufida Yosh ijodkorlar kengashi tuzildi. Turli adabiy badiiy kechalar mushoiralar, respublika miqiyosida keng ko'lamda o'tkazila boshlandi. Jumladan, Yosh ijodkorlar kengashi tomonidan Respublika doirasida o'tkazilgan "DUEL" musobaqasida ham adabiyotning nazm, nasr, badiiy tarjima yo'nalishida va san'atning rang tasvir yo'nalishida eng kuchli yosh ijodkorlar saralab olindi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Xiyobon oqshomlari" kabi mushoira tadbirlari o'z faoliyatini boshladi. Yangilanayotgan O'zbekistonda yangi adabiy musobaqalar o'tkazilib yangi iqtidor egalari kashf etila boshlandi. Bu esa o'zbek adabiyotiga yanada yosh ijodkorlar va ularning yangi asarlari kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Yosh ijodkorlardan eng yaxshilari hisoblangan mustaqillik farzandlaridan Mansur Jumayev, Jontemir, Suhrob Ziyov, Shahriyor Shavkat, Begali Eshonqulov, Kumush Abdusalomova, Najmiddin Ermatov, navoiylik Alisher, Rashid Xo‘jamov, Rahmat Bobojon, Muhammad Siddiq, Madina Norchayeva, Farrux Hasanov, Avar Botir, Nurmuhammad Azizov, Masihulloh Madaminov, Xo‘jayor Shoto‘rayev, Gulhayo Anorova, Ravshan Haqmurad, Quddus Asad va ko‘plab ijodkor shoirlar; Jovlon Jovliyev, Bayram Ali, Shavkat Do‘stmuhammad - kabi iqtidorli yoshlar, Alisher Sabriy, Shohrux Usmonov kabi mahoratli tajimonlar yetishib chiqdi. Xususan ularning ijodida yangi davr nafasi yangilik va adabiyotga “qonini yangilash” harkatlari sezila boshladi.

Masalan nasriy adabiyotda o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lgan yozuvchi Jovlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani. *2021-yilning may oyida Afg‘onistonning “Oltin qalam” mukofotiga sazovor bo‘ldi. “Asaxiy Books” kompaniyasida 3 ming nusxada nashrdan chiqdi va 21 kunda sotib bo‘lindi.* Shu yilning o‘zida Ikkinchi nashri 2 ming nusxada chop etildi. «Qo‘rqma» romani uchun Javlon Jovliyevga “Tahsin” mukofoti berildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Kelajak bunyodkori” Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Roman 2021-yilda o‘zbek bestselleriga aylandi va ko‘plab insonlar uni iliq qarshi olishdi. Romanni 51 ars adabiyotshunoslari ham tahlil qilishdi. Roman o‘zbek adabiyotiga yangilik sifatida kirib keldi. Adabiyotshunos Bahodir Karimning yozishicha “Qo‘rqma” – lirotragik roman. Romanda lirika bilan fojia uyg‘unlashib ketadi. Dramatik turda tragikomediya degan janr mavjud. Lekin lirotragik roman degan adabiy-nazariy tushuncha mavjud emas. “Qo‘rqma” – shunday roman. Roviylar kulib yashaydi, o‘ylanadi, mudraydi, uxlaydi, uyg‘onadi. Darvoqe, bu roman tush va xush, uyqu va uyg‘oqlik, muhabbat va nafrat – shu kabi bir qator kontrastlar uyg‘unligidan maydonga kelgan. Shuning uchun yozuvchi o‘z roviy qahramoni xayoliga istagan bir voqea-hodisani singdira oladi va buni o‘quvchi ko‘pincha juda tabiiy va samimiy qabul qiladi. Ba’zida ko‘ngliga o‘tirmagan allanimadan g‘ashlanadi ham.

Roman qahramoni fikrchan odam, juda ulkan oshkora taftishchi. O‘zini va o‘ziga yaqin-yiroq odamlarni, ularning oilasini, o‘ziga tengqur talabalarni real hayotda va xayol ko‘zgisida ayovsiz taftish etadi, eng muhimi, o‘tgan asr boshlarida xorijga ketgan talabalar dunyosini, orzu-istaklarini tahlil etib, zamona yoshlarining turmush **51-arsi** bilan taqqoslaydi.

Bu o‘zbek adabiyoti uchun lirika va fojining uyg‘unligidagi yangicha adabiy janr hisoblanadi. Romanda Vatan va millat taqdiriga daxldorlik, bilim va mohiyatga ergashishning nechog‘lik kuchliligi badiiy mahorat bilan juda chiroyli ta’riflangan. Bu o‘zbek adabiyotining yangi romani hisoblanadi.

Yosh ijodkorlarning nazmiy javohirlar sandig‘i ham yuksak estetik didga yo‘g‘rilgan she’rlar bilan to‘lib bormoqda. Bundan tashqari yangi tashabbus bilan chiqqan qanot qizlar ijtimoiy harakati ham yosh ijodkorlarning yangi ijodiy muhitini tarbiyalashda asos bo‘lmoqda. Badiiy tarjima yo‘nalishida ham kitobxonlik va kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishda ham zamonining eng ilg‘or va jonkuyar yoshlari kamarbasta bo‘lishayapti. Yangi O‘zbekistonda yosh ijodkorlar harakati kengaytib chekka-chekka hududlarga qadar tarqalmoqda.

### **Adabiyotlar va internet manbaalari:**

1. <http://lyceum.wiut.uz/uz/5-tashabbus/qisqacha-ma-lumot>
2. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/manaviat/5540.htm>
3. <https://xabar.uz/uz/tahlil/javlon-jovlievning-qorqma-romani-haqida-101-fakt-video>
4. <https://yoshlar.gov.uz/ru/news/yosh-ijodkorlar-orasida-yilning-uzoq-kutilgan-voqeasi-%E2%80%9Cdue1%E2%80%9D-ijodiy-tanlovi-respublika-bosqichi-o%27z-nihoyasiga-yetdi/>
5. Жовлиев Ж.Қурқма. “asaxiy.uz” нашриёти. –Т-,2020.-400 б.
6. <https://www.britannica.com/art/Uzbek-literature>
7. [http://library.navoiy-uni.uz/files/o%60zbek%20adiblari%20\(xx%20asr%20o%60zbek%20adabiyoti\)%20\(s.%20mirvaliyev\)%202000.pdf](http://library.navoiy-uni.uz/files/o%60zbek%20adiblari%20(xx%20asr%20o%60zbek%20adabiyoti)%20(s.%20mirvaliyev)%202000.pdf)

## **MUTOLAAGA MUNOSABAT VA SHAXS RIVOJLANISHIDA MUTOLAANING O‘RNI**

**Ravshanova Gavhar Ixtiyor qizi,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,  
Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti,  
203-guruh talabasi.  
@gavhar0002@gmail.com  
+998994865115

Ilmiy rahbar: **Zuxra Berdiyeva,**  
“Kutubxonashunoslik” kafedrasida o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola bugungi kunda aynan “Kutubxona-axborot faoliyati” fakulteti talaba yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasiga munosabatning qay darajada ekanligini bilish va ularning hayotda, strategik yo‘lini belgilashda kitobning o‘rni va ahamiyati, mutolaa madaniyatini aynan oiladan boshlash kerakligi haqida

**Kalit so‘zlar:** mutolaa madaniyati, kitob, kutubxona, kutubxonashunoslik, anketa savollari, oila, madaniyat, ma’naviyat, kitobxon.

### **Annotation**

This article is about the level of attitudes towards reading among students of the faculty «Library and Information Activity» and the role and importance of books in determining their strategic path in life, the need to start a culture of reading in the family.

**Keywords:** reading culture, book, library, librarianship, questionnaire, family, culture, spirituality, reader.

## Аннотация

В данной статье речь идет об уровне отношения к чтению у студентов факультета «Библиотечно-информационная деятельность» и о роли и значении книги в определении их стратегического жизненного пути, необходимости формирования культуры чтения в семье.

**Ключевые слова:** культура чтения, книга, библиотека, библиотечное дело, анкета, семья, культура, духовность, читатель.

Har qanday buzg‘unchi kuch va xurujni yuksak ma’naviyat bilan yengish mumkin. Shu ma’noda kitobxonlik bugun barchamiz uchun hayotiy zaruratga aylanmog‘i kerak. Ushbu masalaga shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan alohida e’tibor qaralilib bu borada muhim vazifalarning belgilab berilayotganligi aholi o‘rtasida yuksak ma’naviy ong va ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilish yo‘lida barchamiz uchun yangi ibrat maktabining bosqichini boshlab berdi, deyish mumkin.

2017-yil 12-yanvardagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori yoshlarni kitobxonlik va kitob mutolaasiga e’tiborni yanada oshirishga undamoqda.

Jamiyat rivojlanish darajasiga qarab, kutubxonachilarga muayyan vazifalarni yuklaydi va ularni ma’lum mazmun bilan to‘ldiradi, rag‘batlantiradi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi. Kutubxonachilik kasbi rivojlanishning kitoblarning “saqlovchilari” dan “davlat va xalq g‘oyalarining targ‘ibotchilari” bosqichiga o‘tdi.

Men ham bo‘lajak kutubxonachi sifatida yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarga bee’tibor bo‘lmagan holda o‘zim tahsil olayotgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Kutubxona-axborot faoliyati” fakulteti talabalari o‘rtasida sotsiologik tadqiqot ishini olib borish maqsadida “Talabalar hayotida kitob va mutolaaning o‘rni” nomli kichik bir so‘rovnoma o‘tkazdim. Nega aynan bu fakultetda degan savol hammani qiziqtirishi mumkin albatta, chunki “Kutubxonachilar” hammadan ko‘proq kitob mutolaa qilgan va hamma sohadan xabardor, kitobxonning barcha savollariga maksimal darajada javob bera oladigan bo‘lmog‘i zarur. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib men ham aynan bu fakultetning talabalarini tanladim. Quyida anketa savollari javoblari foizi bilan tanishasiz:

### 1. Qaysi kutubxonaga a’zosiz va qayi kutubxonadan foydalanasiz

AKM (viloyat)	ARM (tuman, shahar)	Maktab, kollej, litsey	A.Navoiy nomli Milliy kutubxona va F.A.Fu.kutubxonasi
26%	24%	3%	47%

## 2.Siz yilda necha marta kutubxonaga borasiz ?

Bir yilda bir marta	Har kuni	Yilda bir necha marta	Bir oyda bir marta	Haftada bir marta
6%	10%	7%	18%	59%

## 3. O'qish uchun bir kunda qancha vaqt ajratasiz ?

2 soatcha	2-4 soatcha	4 soatdan ko'p
69%	26%	5%

## 4.O'qishdan maqsadingiz aniqmi?

Mustaqil bilim olish	Ilmiy ishni olib borish uchun	Siyosiy bilimni oshirish uchun	Umumiy dunyoqarashni shakllantirish uchun	Dam olish yoki hordiq chiqarish uchun
21%	7%	3%	54%	15%

## 5.O'qishga munosabatingiz ?

Kitob o'qishni yaxshi ko'raman, ammo vaqt yetishmaydi	Kitob o'qishni yoqtirmayman, kamdan-kam o'qib turaman	Menga kitob o'qish yoqadi, o'qiyman	Faqat darslarimni tayyorlash uchun o'qiyman
30%	7%	56%	7%

## 6. Siz tahsil olayotgan institut kutubxonasining fondi sizni qoniqtiradimi ?

Ha	Yo'q
49%	51%

## 7. O'qish uchun birinchi galda qanday adabiyotlarni tanlaysiz ?

Bosma, qog'oz shaklidagi adabiyotlar	Elektron kitobni	Audio kitobni
83%	13%	4%

## 8. Yangi kitob olib o'qishda kimning maslahatiga quloq tutasiz ?

O'qituvchilar	Do'stlar	Kutubxonachilar	Ota-onalar	O'zim hal qilaman
10%	15%	3%	2%	70%

## 9.Kitobni tanlashda uning qaysi xususiyatiga e'tibor qaratasiz ?

Muqovasiga, uning mazmuni, undagi sur'atlarga	Annotatsiyasi bilan tanishaman	Muallifning mashhurlik darajasiga	Urfga aylangan kitobni tanlayman	Doimiy o'qib yurgan mavzularim bo'yicha tanlayman
17%	22%	6%	23%	32%

## 10. O'z uyingizda shaxsiy kutubxonangiz bormi ?

Ha	Yo'q
62%	38%

**11. Sizga o‘z mutaxassisligingiz bo‘yicha dars berayotgan o‘qituvchilarning bilim darajasi sizni qoniqtiradimi ?**

Ha	Yo‘q
50%	50%

**12. O‘qiyotgan fakultetingizni tamomlab qaysi kutubxonaga ishga kirmoqchisiz ?**

A. Navoiy nomidagi kutubxonaga	O‘z viloyat yoki tumanidagi kutubxonaga	Maktab, kollej, institut yoki muassasa kutubxonalariga	Bu sohada ishlash niyatim yo‘q
35%	15%	10%	40%

Ko‘rib turganingizdek talabalarning eng ko‘p qatlami ya’ni 47%i Alisher Navoiy nomli milliy kutubxonaga va Fanlar akademiyasi fundamental kutubxonasidan ko‘proq foydalanishini ko‘rsatib o‘tgan. Bunga asosiy sabab sifatida Milliy kutubxonaga universal kutubxonaga bo‘lganligini, uning zamon talablariga to‘laqonli javob berishi, amaliy mashg‘ulotlarning ko‘pgina qismi shu kutubxonada o‘tayotgani, Fanlar akademiyasi fundamental kutubxonasi esa ko‘proq ilmiy va mutaxassislikka oid adabiyotlar, bibliografik qo‘llanmalar mavjudligi va bundan tashqari amaliy darslarning ham aksar qismi shu kutubxonada bo‘lganligi hamda ushbu kutubxonaga institutga yaqin bo‘lganligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Talabalarimiz ko‘proq dunyoqarashini oshirish uchun va bir yilda eng ko‘pi bilan 52 marotaba kutubxonaga borishi aniqlandi ya’ni, haftada bir marta, kuniga esa 2 soatgacha . Bu ko‘rsatgich yetarli darajada emas. Aslida har bir talaba har kuni kutubxonaga borishi kerak.

Kutubxonalar ma’naviy-ma’rifiy muassasa vazifasini bajarganligi uchun muayyan vaqt davomida orttirilgan bilimlarni saqlash ham o‘ta muhimdir.

Kutubxonalarning “an’naviy” hisoblangan xizmatlarning davr talablariga javob beradigan yo‘nalishlarini saqlash va takomillashtirish bilan birga yangi an’analrning, innovatsialarning qo‘llanishda davom etishini ham tushunib yetish muhimdir.

Bo‘lajak kutubxonachi sifatida talabalarning institutimiz kutubxonamizga munosabatini bilish maqsadida fond sizni qoniqtiradimi degan savol bilan murojaat qilgan edim. 49% talaba ha qoniqtiradi, 51% talaba esa yo‘q qoniqtirmaydi degan javoblarni berishgan. Bu esa qoniqarli emas, albatta. Buning oldini olish va talabalar javoblaridan kelib chiqqan holda fondni kerakli adabiyotlar bilan to‘ldirish, kitobxon talabalarga yetarli darajada xizmatni tashkil etish lozim.

O‘qish uchun birinchi galda qanday adabiyotlardan foydalanasiz degan savolga 83% talaba bosma qog‘oz shaklidagi adabiyotlarni, 13% talaba elektron kitoblarni, 4% talabalar esa audio kitoblarni tanlashini aytgan. Javoblardan ma’lum bo‘ladiki, hozrgi yoshlarning juda ko‘pchiligi aynan bosma, qog‘oz shaklidagi adabiyotlarning muhlisi. Aslida elektron va audio adabiyotlari ham yaxshi har tomonlama qulay, lekin bosma qog‘oz shaklidagiala kitobni mutolaa qilgan kitobxon kitob bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jonli muloqotga kirishadi.

Ko'rib turganingizdek yangi kitob olib o'qishda kimning maslahatiga quloq tutasiz degan savolga 70% talaba o'zim hal qilaman degan javobni bergan bo'lsa, eng ayanchli nuqtasi shundaki 2% gina talaba ota-onam maslahati bilan degan javobni bergan. Bundan ko'rinadiki, oilada kitobxonlik va mutolaaga e'tibor shakllanmagan.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgi davrdan bir necha barobar ko'p miqdorda samarali ishlar amalga oshirilmoqda, targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Shunday bo'lsa ham, oilaviy muhitda kitobxonlik madaniyati takomili qoniqarli darajada emas. Yuqorida ko'rib o'tganimiz kabi kitobsevar oilalar bilan bir qatorda, ularning aksi bo'lgan oilaviy muhitni ham uchratishimiz achinarli.

Shuningdek, oilaviy kitobxonlikda kitob o'qish madaniyatiga hamma ham yetarlicha ahamiyat qaratavermaydi. Badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, qiziqish va intilishlar ko'lamini nazarda tutmas ekan, har qanday kitobsevar ota-ona bu borada ijobiy yutuqlarga erisha olmaydi. Ko'rinadiki, mutolaa madaniyatining ham o'ziga xos me'yor va talablari mavjud. Shularni e'tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lish uchun quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish nazarda tutiladi:

- kitob mutolaasida hamisha farzandlarga o'rnak bo'lish;
- kitob tanlash madaniyatiga ega bo'lish;
- muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o'qib berishni yo'lga qo'yish;
- xotirani kuchaytirish uchun farzandlarning she'r yodlashiga alohida ahamiyat qaratish, bir oyda kamida 2 ta she'r yodlatishga erishish;
- har bir farzandning yosh va xarakter xususiyatini, ruhiy-ma'naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish;
- kichik yoshdagi bolalarga ko'proq rang-barang suratlarga yo'g'rilgan, katta-katta harflarda yozilgan, uning beg'ubor xayoloti sarhadlarini aks ettira olgan asarlarni tanlash;
- o'rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko'ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish;
- katta yoshdagi mustaqil, oila qurgan farzandlar bilan ham tez-tez kitob mutolaasi xususida suhbat o'tkazib, zaruriy tavsiyalar berib turish (bu oilaviy kitobxonlik an'anasini muqaddas qadriyat sifatida davom ettirishga zamin yaratadi);
- har bir kitob mutolaasi uchun har kunlik va haftalik miqdorlarni belgilash va muntazam nazorat qilib borish;
- o'qilgan asar mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan taassurotlar bo'yicha oilada davra suhbatini tashkil qilib borish;
- o'z vaqtida va talab darajasida mutolaa qilgan kitobxon farzandni alohida rag'batlantirish;
- badiiy adabiyot o'qishga yetarlicha qiziqish bildirmayotgan, topshiriqlarni o'z vaqtida bajara olmayotgan farzand bilan alohida shug'ullanish, unda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish;



- jamiyatning moddiy-ma'naviy taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shadigan yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli oila sifatida qadr topish.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, ma'naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois, jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish ko'zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Kitob tanlashda uning qaysi xususiyatlariga e'tibor qaratmasiz degan savolga eng ko'p 32% talaba doimiy o'qib yurgan mavzularim bo'yicha tanlayman deb javob bergan. Aslidagi kitobni qanday xususiyatlariga qarab tanlash lozim? Doim o'qib yurgan mavzulari u uchun qiziq bo'lishi mumkin, lekin, aynan bir soha bilan qanoatlanib qolmaslik kerak aslida.

Savol natijalariga ko'ra 38% talaba shaxsiy kutubxonasi yo'qligini, 62% talaba o'z uyida shaxsiy kutubxonasi borligini, ko'rsatib o'tgan. Ushbu ko'rsatgichni 100% natijaga ko'tarish lozim. Sitsiron aytganidek "Kichkina bo'lsa-da, uyingda bog'ing va kutubxonang bo'lsa, sen boshqa narsaga muhtoj bo'lmayсан.

Talabalarning yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun dars berayotgan o'qituvchilarning bilim darajasi haqida so'ragan edik. Ularning 50%i yo'q degan javobni berishgan. Mening fikrimcha o'qituvchilarda amaliy salohiyatning yetishmasligi bunga asosiy sabab, lekin faqatgina bu borada o'qituvchilarni ayblab qo'ymasdan talaba yoshlardan ham ayb izlash lozim. Chunki, talabalarning institutni bitirgach kelajagi haqida so'raganimizda eng ko'p foiz talaba ya'ni, 40% i bu sohada ishlash niyatimiz yo'q, degan javobni ko'rsatishdi. Unday bo'lsa nega va nima uchun o'qiyapti, nima uchun bitta kvotani band qilib kelajagi yo'q yo'ldan ketmoqda. Bu talabalar ball pastligi uchun kirishganmi yoki adashib kirib qolganmi? Bunga asosiy sabab nimada? Mening fikrimcha oilada, maktabda, hatto kollej va litseylarda ham maqsad qilish va o'z kelajak yo'lini tanlay bilish o'rgatilmagan. Bu o'z navbatida jamiyatimizning aynan shu sohasining yemirilishiga va tanazzulga uchrashiga olib kelmaydimi? Buning oldini olish uchun: Kirish imtihonlarida aynan kitobni sevadigan, shu kasbga qiziqadigan, eng ko'p kitob o'qigan yoshlarni saralab olish, institutni bitirgandan so'ng qat'iy taqsimotni o'tkazish, yani ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, viloyatlar kesimida qabul kvotasi rejasini tuzish va kutubxonachilik kasbining imidjini ko'tarish uchun oylik maoshlarini oshirish lozim, shundagina kadrlar qo'nimsizligi mavjud bo'lmaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Umarov A. "Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot". – Toshkent, 2004
2. <https://hozir.org/kirish-i-bob-kitobxonlarda-oqish-madaniyatini-tarbiyalashning.html>
3. Ochilova M. Kutubxonalar-yoppasiga yopilgan ilm maskanlari
4. I. J. Yuldashev, O'. Nosirov " Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent, 2021
5. Erkin Axunjanov "Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi"

## SAID AHMADNING NASRIDA DAVR VA SHAXS TALQINI

**Ro‘zimboyeva Marjona Ulug‘bek qizi,**  
Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi yo‘nalishi 1-kurs talabasi  
Ilmiy rahbar: **Mamatqulova To‘lg‘anoy,**  
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

### Аннотация

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, ijodining eng sermahsul davrida yozilgan asarlaridan biridir. Yozuvchi ikkinchi jahon urushining olovli yillarida O‘zbek dehqonlarining Front orqasida ko‘rsatgan mehnat qahramonligi haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muammolari haqida bahs yuritadi.

**Kalit so‘zlar:** Front orti, mardlik, isnot, muhabbat, armon, vatan, or-nomus, ona mehri

### Аннотация

Трилогия Саида Ахмада «Горизонт» — одно из самых плодотворных произведений его времени. Автор рассказывает о героизме узбекских крестьян за фронтом в жаркие годы Великой Отечественной войны, обсуждает проблемы довоенного и послевоенного периода.

**Ключевые слова:** Тыл, мужество, сила, любовь, гармония, родина, честь, материнская любовь

### Annotation

Saeed Ahmad’s Horizon trilogy is one of the most prolific works of his time. The author tells about the heroism of the Uzbek peasants behind the front during the hot years of the Great Patriotic War, discusses the problems of the pre-war and post-war period.

**Key words:** Rear, courage, strength, love, harmony, motherland, honor, maternal love

Tinchlik bor yerda har sohada o‘shish, ulg‘ayish, rivojlanish bo‘ladi. Matonatli otabobolarimiz ham uzoq yillar davomida yurt tinchligi, mustaqilligi uchun beayov kurashib kelishgan. Elimizning ardoqli yozuvchi-adiblari esa xalqimizning mard o‘g‘lonlari, har qanday qiyinchilikga sabr qilib yashaydigan mehnatkash ayollari haqida ko‘plab ibratli asarlar yaratishgan. Ayniqsa, “Ulug‘ Vatan” urushi mavzusida yozilgan asarlarda xalqimizning bunday sifatlari juda teran va ta’sirchan qilib tasvirlangan. Bunga misol qilib O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, Shuhratning “Oltin zanglamas”, Said Ahmadning “Ufq” va boshqa asarlarini keltirib o‘tishimiz lozim.

Xalqimizning atoqli adibi bo‘lmish Said Ahmadning qalamiga mansub “Ufq” trilogiyasida xalqimiz hayotining dolzarb va muhim davri aks etgan. Mehnatkash xalqimiz nafaqat urush davrida, balki urush boshlanishdan avval ham misilsiz

fidoyiliklar ko'rsatadi. Asarning "45 kun" deb nomlangan birinchi qismida uzunligi 270 km bo'lgan Katta Farg'ona kanalini qo'l kuchi bilan 45 kun davomida hashar shaklida qazib bitirilishi aks ettirilgan. Bundan tashqari ko'plab to'qayzorlarni qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishi jonajon o'zbek xalqining naqadar ahil va kuchli ekanligining belgisidir. bu ulkan ishlarning ortida jonajon xalqimizning ko'plab orzu umidlari bor edi. Ushbu bo'limni mutolaa qilar ekansiz be ixtiyor o'sha davr muxitiga tudhib qolganingizni his qilasiz. Kanal qazilishida 7 yoshdan, 70 yoshgacha bo'lgan har bir yurtdoshimiz fidokorona mehnat qiladi. Asar qahramonlaridan biri yerga ursa ko'kka sapchiydigan Azizxon ham o'zining mardligi va mehnatkashligi bilan kanal qazilishi davomida el og'ziga tushadi. O'zining tanti fe'li tufayli otasi Ummatalini ancha tashvishga solib yurgan o'z qishlog'ida qiz o'g'irlab el-yurt oldida boshini ham qilgan bo'lsa-da, keyinchaliak o'zining mardligi, mehnatsevarligi, Vatanparvarligi bilan nafaqat otasining, balki butun Zirillama qishlog'ining yuzini yorug' qilib ko'plab qahramonliklar ko'rsatadi. Asardagi Azizxon obrazi chin ma'noda mardlik va or nomus timsolidir. Romanning "Hijron kunlarida" qismida berilgan "Qochoq" deb nomlangan parcha kitobxon uchun o'ta ta'sirlidir, ushbu parchani nafaqat o'qish, balki uni his qilish darkor. Asarning ushbu parchasini o'qigan inson beixiyor farzandning ota-ona va Vatan oldidagi burchi, naqadar, muhim ekanligini angelaydi. Asar bosh qahromonlaridan biri Ikromjon va uning ayoli Jannat xola ko'plab farzandlarini go'dakligidayoq tuproqqa qo'yadi. Xudodan tilab tilab olgan yolg'iz farzandi Tursunboyni katta orzu-umidlar bilan yer-u ko'kka ishonmay papalab katta qilishadi. Aytgani aytgan degani degan Tursunboy juda erka va tantiq bo'lib o'sadi.

Urush qahramoni Ikromjon Usmonov baxtiyor, yor-birodarlari oldida yuzi yorug' bo'ldi, Vatan uchun qilgan xizmatlari Oliy mukofot bilan taqdirlandi. Frontdan bir oyog'idan ajrab, qaytib keladi, ortidan unga berib ulgirilmagan ordeni tantanali topshirildi. Ayni paytda aytilgan qandaydir yaramas qochoq bola to'g'risidagi gapga parvo qilmadi. Qochoq bola yakka-yu yagona farzandi, ko'zini oq-u qarosi bo'lgan jigarbandi Tursunboy ekanligini bilganda esa Ikromjondan baxtsiz odam yo'q edi, qishloqda qanday bosh ko'tarib yurishlikni, orden taqishga haqqi yo'qligini, odamlar yuziga qanday qarashli, xotiniga nima deyishni..., badbaxt, nobakor, xoin, qochoq bolasi shu topda oldida bo'lsaydi, uni tilka-tilka qilib, bo'lib o'ldirishni jahl bilan o'ylardi. Ikromjon farzandidan voz kechgan, o'zini befarzand insonman deya ovuntirar, o'g'lining isnodiga chiday olmas edi, ta'lim-tarbiyadami, qayerda adashganini o'ylar, ammo o'yining oxiri yo'q. Jannat xola ham yakka-yu yagona o'g'lini Vatan himoyasiga jo'natganidan xursand edi. "O'g'limiz jang qilib, xalqimizni ozod, yurtimizni obod qiladi" deb orzulagan edi. Ammo, ammo... Ota-ona orzusi havodek uchib ketdi. Orzulari og'zida qoldi. Tursunboy urush qiyinchiliklariga dosh berolmay qochib ketdi, so'ngra qishloq chetidagi to'qayzorlarda berkinib yotdi. Buni mushtipar onadan boshqa hech kim bilmas edi. Bechora ona! Har kuni o'y-xayoli to'qayzorda bo'lib qoldi. Otasidan yashirib ovqat tashir, boshqalar bilib qolishidan juda qo'rqar edi. Vijdon azobidan qiynalgan Jannat xola xastalanib, yotib qoldi. Xasta xolida ham o'g'lidan habar olishni to'xtatmas edi, o'g'liga sog'ligi yomonligini aytsa u beparvo edi, qo'lidan ovqatni olib hayvonlarcha yeyar edi. Tursunboy faqat o'zini, qornini o'ylardi. To'qayzorlar orasida Tursunboy... mahalla-ko'y, qarindosh-urug'

tobut ko'tarib borar, tobut boshida esa boshi egik ota shunda yuragi sezib turibdi tobut ichidagi mushfiqqina onasi Jannat xola edi. Qochoqni yuragini g'am-alam bosdi, chunki shunda u "Endi menga ovqat olib keladi" deya alam chekdi. O'shanda hamu o'zini o'yladi, onaizorga ozgina bo'lsa ham achinmadi. Nahotki, onasini so'nggi tuproqqa qo'yishga yaramasa, axir u farzand-ku, odam bolasi-ku! Yo'q, yo'q u odam bolasi emas, odam bolasi deya olmayman. Tursunboyni jonsiz, yuraksiz, vijdotsiz, zabonsiz, dilsiz, o'zidan badbo'y hid taratib, atrofdagilarni dilini, ko'nglini behuzur qilayotgan ko'lga o'xshataman.

Haddan tashqari erka qo'lini sovuq suvga urmaydigan faqat o'zini o'ylaydigan Tursunboy yurt oldida ota-onasining yuzini yerga qaratadi. Urush qahramoni Ikromjon Usmonov Vatan oldidagi xizmatlari uchun oliy mukofot bilan taqdirlanadi. Bu orada Zirrilamada Frontdan qochgan qandaydir qochoq haqidagi gaplar tarqaladi. Ikromjon dastlab bu gaplarga etibor bermaydi. Ammo keyinchalik, manashu qochoq, xoin bola o'zining yakkayu yagona o'g'li Tursunboy ekanligi malum bo'ladi. Ikromjonning qaddi bukildi. U yolg'iz farzandidan vos kechgan o'zini befarzandman deb ovutar o'g'lining isnotiga chiday olmas edi. Farzandiga tarbiya berishda qayerda adashganini o'ylab qayerda xato qilganini anglashga urinardi, ammo g'isht qolibdan ko'chib bo'lgan edi. Jannat xola xam o'g'lini Vatan uchun kurashga jo'natganidan xursand edi ming afsuski nobop o'g'il onaning umidlarini puchga chiqardi. Hazrat Navoiy aytganlaridek, yigitlik umir gulshanining ko'klamidir va qorang'u kechening kunduzi tonggidir. Ammo Tursunboy shu ko'klamni xazonga kunduzni qaro tunga aylantirdi. Ammo bunda faqatgina Tursunboy aybdor emas. Ikromjon va Jannat xola Tursunboyni yolg'iz farzand deb xaddan tashqari erka qilib o'stirishdi qiyinchilik ko'rmasin deb yalqov qilib tarbiyalashdi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Bolani yoshligidan maslakin tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq yomon xulqlardan saqlamoq kerak"

Ona nima bo'lganda ham onada, qochoq bo'lsa ham, xoin bo'lsa ham o'z farzandidan kecha olmaydi. Tursunboy frontdan qochib Zirillama atrofidagi to'qayzorlarda berkinib yashaydi. O'zining inson ekanligini unutgan faqat qorni to'yishini o'ylab, hayvondan farqi qolmagan bu notavonni mushtipar onasidan boshqa hech kim o'ylamasdi. Ikromjondan yashirib to'qayga ovqat tashirdi. Tez orada Jannat xola xastalanib qoladi, lekin xasta holida ham farzandidan xabar olishni to'xtatmaydi ammo o'g'ilga onasi emas u olib keladigan ovqat kerak edi. Onasi kechirib so'ra urushga bor, yuzimizni yorug' qil bolam, desa parvo ham qilmadi, faqat o'zini jonini o'yladi. Jannat xola vafot etdi. Butun qishloq, mahalla-ko'y, qavm-qarindoshlar bari tobut ko'tarib borar, tobut boshida esa qalbi vayron orzu-umidlari sarobga aylangan ota to'qayzorlar orasida esa xoin o'g'il bo'lsa uni kuzatib turardi u, nafaqat, vataniga balkim, uni o'zidan ko'proq sevgan onasiga ham sotqinlik qilgandi shunda ham uning qalbi o'rtanmadi, u faqat endi unga kim ovqat olib kelishini o'ylab qayg'uga tushardi u shu yerda ham o'zini o'yilardi. Farzandlar tarbiyasi yurt kelajagini belgilaydi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ota-onalar oldidagi muhim vazifadir. Hozirgidek tinch va mustaqil diyorda yashayotganimiz biz yoshlarning baxtimizdir ona xalqimizning ko'plab mard o'g'lonlari yurt ozodligi tinchligi yo'lida o'zlarining aziz

jonlarini fido qilishgan. Ushbu asarda ibrat oladigan tomonlari juda ko'p asarni qayta-qayta mutolaa qilsangiz har safar yangi ma'no yangi mazmun topasiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Said Ahmad, Ufq – “Sano-standart” nashriyoti, 2018-y
2. Alisher Navoiy, Mahbub-ul qulub – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018-y
3. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “G‘ofur G‘ulom” nashriyoti 2016-y.

## **BUYUK MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY MADHI...**

**To‘laxo‘jayev Abrorxo‘ja,**

Kino san’ati tanqidi tahlili yo‘nalishi

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Mamatqulova To‘lg‘anoy,**

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Maqola o‘zbek tilining asoschisi, buyuk mutafakkir, so‘z mulkinging sultoni yozuvchi Alisher Navoiyning umr yo‘li va amalga oshirgan buyuk ishlariga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** mutafakkir, turkiy til, kitob, g‘azal, so‘z, asar.

### **Аннотация**

Статья посвящена жизни и великим подвигам Алишера Навои, основоположника узбекского языка, великого мыслителя и писателя.

**Ключевые слова:** мыслитель, тюркский язык, книга, поэма, слово, произведение.

### **Annotation**

The article is devoted to the life and great deeds of Alisher Navoi, the founder of the Uzbek language, a great thinker and writer.

**Key words:** thinker, Turkic language, book, poem, word, work.

Jahon tarixida o‘z qalamiga, o‘z uslubiga ega adib va shoirlar yetarlicha. Ular o‘z asarlari ila nafaqat insonlarning kitob javonlari, balki qalb xonalaridan ham munosib o‘rin egallamishlar. Atoqli ispan yozuvchisi Migel de Servantes, o‘lmas ingliz dramaturgi Vilyam Shekspir, buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin. Bu ijodkorlar shu vaqtgacha yashab o‘tgan barcha hamkasblari orasida yuqoriroq turadilar, desam noto‘g‘ri bo‘lmas. Lekin, ular orasida turkiy qavmdan chiqqan ulug‘ bir mutafakkiri olam bor-ki, ulardan-da bir bosh ustun, bir bosh yuqori. Bu zot ulug‘ donishmand, so‘z mulkinging sultoni, nazmiy saltanatning yagona halifasi hazrat Alisher Navoiydir.

Alisher Navoiy hazratlarini qachon, qaysi sanada, qayerda tugʻilganlari haqida yaxshi bilamiz. Umuman, buyuk bobokalonlarimiz bilan faxrlanish, ularning nomini aytib: “shu insonning millatdoshimiz” deb quruq gʻururlanish biz uchun odat tusiga aylandi. Bunday targʻibot ishlari, ularning tugʻilgan sanalariga bagʻishlangan maxsus tadbirlar, namoyishlar oʻtkazish bu normal boʻlmagan, foydasiz ishlar deyish fikridan yiroqman. Lekin, haqiqatning qalampirdek achchiq boʻlmish tomoni shuki, biz faqat mana shunday tagʻibot-tashviqot ishlari bilangina chegaralanib qolmoqdamiz. Millatimiz orasida Navoiyni bitta boʻlsa ham asarini mutolaa qilmagan uni magʻzini chaqishga urinmagan, boring-ki, hatto u zotning birorta gʻazalini oʻqimaganlar koʻplab topiladi. Zotan, hazrati Alisher Navoiy yoki boshqa allomai shariflar shuncha “olmos-u durlar”i, “cheksiz boylik”larini, biz ularni tugʻilgan sanalaridagina eslashimiz yoki boshqalarga ular haqida ogʻiz kerib, maqtanishimiz uchun emas, millat-u ummatga, insoniyatga foydasi tegishi uchun, Alloh ularga inʼom etgan shu ilmlardan kelajak avlodlar ham nasibador boʻlishi uchun qoldirgan edilar.

Navoiyning bogʻ gulshaniga bir bor qadam bosmoq va undagi gullarning muattar boʻyini hidlamoq, insonga umrining oxirigacha hamroh boʻluvchi ajib bir mastlikka duchor qiladi. Bu soʻzlarim Navoiy asarlaridagi majoziy oʻxshatishlardan ilhom olingan holda yozildi. Avvalo, Navoiyni oʻqish va uni tushunishning ham maʼlum bosqichlari bordir. Navoiy asarlarini bitirmish vaqtda va undan keyingi yaqin kelajakda yashagan tildosh insonlarni hisobga olmasa, hech kim, oʻz-oʻzidan bu yetuk adabiyot asarlarini asliyatini oʻqish ila oʻrganib qolmagan. Masalan, Shekspirning “Hamlet”ini original variantda bir kun oʻtirib oʻqisangiz-u, lekin ingliz tilini bilmasangiz, albatta hech narsani tushunmaysiz, anglamaysiz. Lekin, siz biladigan tilda tarjimasi boʻlsa, ana endi uqishni, sekin-asta magʻzini chaqishni boshlaysiz. Agar bir Shekspirshunosning shu asar haqida yozganini oʻqib yoki aytganini tinglab qolsangiz, asarni oʻzingiz uchun qayta kashf qilasiz. Navoiy asarlari bilan ham shunday, siz birinchi oʻqishdayoq uni transkripsion boʻlsa-da original variantini emas, balki nasriy bayonini oʻqishingiz, asarni biroz qanday mavzuda ekanini tushunib olishingiz kerak. Ana shundan keyin, soʻz ummonidaerkin suzishingiz mumkin. Keyingi bosqichda Navoyishunoslarning oʻqiyotgan asaringiz boʻyicha yozgan va aytgan fikrlarini oʻrganasiz va ana endi haligi ummonda toʻla-toʻkis muallaq suza boshlaysiz. Mana shunda siz Navoiyning asl shaxsiyatini, uning asarlari tubida yashirinib yotgan durafshoniy marvaridlarni topa boshlaysiz. Shu oʻrinda millatimizning yetuk adabiyotshunoslaridan boʻlmish akademik Azizxon Qayumovning Navoiy asarlariga bagʻishlangan ilmiy adabiyotlarini oʻqishni holisona tavsiya qilaman.

Bugungi kunda koʻplab yoshlar uchun biror kitob oʻqishlik, zamondan ortda qolish belgisidek boʻlib qoldi. Zamonaviylik esa ijtimoiy tarmoqlar va internet trendlari bilan belginayotgandek. Shuni hech qachon unutmaslik kerak, insonga kitobdan boshqa hech bir vosita doʻst boʻla olmaydi. Bu ming yillardan buyon yuzaga chiqayotgan haqiqatdir. Ayniqsa, “yengiltaklik” va “bachkanalik” oddiy bir holga aylanib borayotgan bir davrda men va menga tengdosh yoshlar buni teranroq anglashi lozim. Ishoning, badiiy kitob sizga hamisha oʻzining beminnat yordamini beradi va unda bu yordami uchun hech qanday manfaat boʻlmaydi.

Navoiyga qaytadigan bo‘lsak, uning asarlarini o‘qimish inson, bir vaqtning o‘zida bir necha ilmlarni o‘rganayotgan bo‘ladi. Avvalo, uning har bir asarida Alloh va uning Rosuliga bo‘lgan muhabbat madh etiladi, bu bilan siz diniy bilimlarni o‘rganasiz. Undan tashqari, turkiy tildagi so‘z boyligingiz Navoiy asarlari mutolaasi ila bir-muncha oshadi. Qo‘shimchasiga, ba’zi tarixiy shaxslar hayoti haqida ham tasavvurlarga ega bo‘lasiz. Balki, eng go‘zalidir, siz metafora ya’ni, majoziy ma’nolarni ishlatish san’atidan ham huzuriy ilm olasiz. Rus adabiyotida Pushkin yoki Lev Tolstoy ijodida shunga o‘xshash ko‘p xususiyatli ijodga duch kelamiz. Lekin, fikrimiz avvalida aytib o‘tganimizdek, bunday serqqira ijod borasida hech kim hazrat Navoiyga teng kela olmaydi.

Bir inson kimgadir nimanidir uqtirmoqchi bo‘lsa, zaboni bilan so‘zlaydi. Tinglovchi buni eshitadi, hohlasa oladi, hohlamasa yo‘q. Lekin, haligi so‘zlovchi tomon bir ishni qilishda tinglovchi tomonga o‘zi ko‘rsatib, namuna bo‘lsa, bu qanday ham yaxshi. Hazrat Navoiy eng avvalo, el orasida mana shunday namunaviy fazilatlar bilan ajralib turgan ekanlar.<sup>1</sup> Shu bilan birga Navoiyning asarlarini o‘qir ekanmiz, ularda insoniyatga qilinayotgan pand-nasihatlardan avval, u zotning o‘ziga hitob qilayotganiga guvoh bo‘lamiz:

“Ilm Navoiy, sanga maqsud bil Endiki, ilm o‘ldi amal aylagil.”<sup>2</sup> “Hayrat-ul abror”ning o‘n birinchi maqolatida kelmish bu misralarda Navoiy eng avval o‘ziga ilmni o‘rganishni, keyin shu ilmga amal qilishni uqtirmoqda. O‘zini misol qilib, shu misralar mutolaasi ila mashg‘ul o‘quvchini ham ilm o‘rganish va unga rioya etishga chorlamoqda. Maqolatda yana shunday misralar bor:

Ilmni kim vositayi joh etar,

O‘zini-yu xalqini gumroh etar.

Bu joyda esa Navoiy ilmni noto‘g‘ri o‘rganish jaholat, ya’ni ilmsizlik bilan teng ekani va bunday johillar o‘zini ham xalqini ham adoyi tamon qilishi haqida yozmoqda. Shu o‘rinda, Navoiyni ham kino tili bilan aytganda to‘g‘ri “rakurs” bilan o‘rganish kerak degan tushunchani ilgari surmoqchiman. Bugungi kunda Navoiyni ishq-u muhabbat kuychisi sifatida tushunish holatlari kuzatiladi. Bu to‘g‘ri, haqiqatdan ham Navoiy muhabbat kuychisi edi. Gap shundaki, u asarlarida tarannum etmish muhabbat aslida, Allohga va uning Rosuliga, Parvardigori olamning bani Odamga yubormish muqaddas diniga va uning betakror qudrat ila yaratmish shu olamiga yo‘naltirilgan muhabbati ilohiy, ishq majoziy edi. Bu haqida ziyoli qatlam uchun xizmatga bel bog‘lagan “Madaniyat va ma’rifat” telekanalidagi ko‘rsatuvlardan birida<sup>3</sup> adabiyotshunos va Navoiyshunos olimlar ham ta’kidlab o‘tishgan edi. Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Nasoyim-ul Muhabbat” asarlarida ana shu ulug‘ g‘oya dengiz tubidagi marvarid kabi yotadi. O‘sha marvaridni olib chiqish uchun, avvalo, suzishni o‘rganish kerak. Keyin dengizga tushiladi, dengizda suzish ham mukammal o‘rganilgach, uning tubiga sho‘ng‘ish boshlanadi va ana shunda izlanmish marvaridlar birin-ketin olib chiqiladi.

Xulosa o‘rnida, men ham hazrati Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘ziga va o‘zi ila Odam farzandlariga murojaat etganidek, o‘zimga va yoshlarga murojaat qilaman-ki, Navoiyni o‘rganing. Navoiyni avvalgi tuzum sizga o‘rgatganidek o‘tkinchi sevgi madhkori emas, balki boqiy muhabbatning mutasavvif kuychisi ekanligini yaxshilab

tushunib oling. Balki, shunda u zotga bo‘lgan yuzaki qarashingiz o‘zgarar. Ajab emas, Navoiyni o‘rganib, ertaga u haqida biror pyesa yoki ssenariy yozsangiz, Komil Yormatov singari shedevr film suratga olsangiz yoki Navoiyning o‘zi “Nizomiy panjasiga panja” urganidek bir “Xamsa” yozsangiz va yo Atorning “Qush mantig‘i” dan ruhlanganidek siz ham uning o‘lmas asarlaridan ruhlanib tarixda qolmish qandaydir bir asar bitsangiz ajab emas...

#### **Adabiyotlar:**

1. Oybek. Navoiy. “Sharq” nashriyoti. Toshkent – 2004.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent – 2018.
3. “Birgalikda o‘qiymiz” televizion ko‘rsatuvi. “Madaniyat va ma’rifat” telekanali. O‘zbekiston MTRK. Toshkent 04.02.2022

### **O‘ZBEK TILI – YOSHLAR NAZARIDA**

#### **Yoqubova Gulnoza Salohiddin qizi,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti

“Kutubxona-axborot faoliyati” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Elektron pochta manzili: [gulnoza.yoqubova.00@mail.ru](mailto:gulnoza.yoqubova.00@mail.ru)

Ilmiy rahbar: Zumriniso Kozimova,

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

#### **Anotatsiya**

Ushbu maqolada o‘zbek tili san’ati masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, “O‘zbek tili san’atini” yoshlar tilida singdirish va bugungi kunda tilga bo‘lgan hurmatni oshirish, uning obro‘yini saqlab qolish hamda qonunda mustahkamlab qo‘yilgan qonun, qarorlarning nazariy asoslari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** til, millat, o‘zbek, mutoqot, lug‘at, notiqlik, san’at.

#### **Аннотация**

Данная статья посвящена вопросу искусства узбекского языка Закон дает теоретическую основу для принятия решений.

**Ключевые слова:** язык, нация, узбек, мутокот, словарь, ораторское искусство, искусство.

#### **Annotation**

This article is devoted to the issue of the art of the Uzbek language. The law provides a theoretical basis for decision-making.

**Key words:** language, nation, Uzbek, mutokot, dictionary, oratory, art.

Bizga yaxshi ma’lumki, har qanday til lug‘at fondida shu tilga mansub bo‘lgan xalqning moddiy- ma’naviy tarixi hisoblanadi. O‘zbek xalqi bosib o‘tgan uzoq tarixiy yo‘l, o‘zbek tili boyligida o‘z aksini qoldirgan. Chunki, jamiyat taraqqiyotidagi xar qanday o‘zgarish, birinchi navbatda tilda aks etadi. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga



mansub bo‘lib, yer yuzi aholisining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqat vositasidir. Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratilgan e‘tibor avlodning kelajagi haqida qayg‘urishimiz muhim asosdir.

Mamlakatimizda o‘zbek tili davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish, jamiyatdaning barcha sohalarida faol qo‘llanishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqilik davri taraqqiyotiga nazar soladigan bo‘lsak, tilga bo‘lgan e‘tibor uning mavqeyini qonuniy jihatdan mustahkamlab, davlat tilini izchil joriy etish jarayoni va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga mukammal o‘tishni ta‘minlash maqsadida 1989-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinishi ham davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilandi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi. Shuningdek, Yunesko tashkiloti ekspertlari 1953-yilda “Davlat tili” va rasmiy til” tushunchalarini farqlashni taklif etgan. Unga ko‘ra davlat tili siyosiy, ijtimoiy, va madaniy sohalarda ma‘lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifalarni amalga oshirilishi haqida tarixiy fakt hisoblanadi.

Til bilan nutq jamiyatning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uzviy hodisasi hisoblanar ekan, har qanday inson tabiatan boshqa insonlar bilan nutqiy aloqalardan voz kechishi mumkin emas: u maslahatlashishi, fikrlari, his-tuyg‘ulari bilan o‘rtoqlashishi lozim, nutq esa muloqotda bo‘lishi kerak. Nutq esa muloqotning boshlanishidir. Shu o‘rinda til me‘yorlari filologlar tomonidan ixtiro qilinmagan, ular butun xalq adabiy tili rivojlanishining ma‘lum bir bosqichini aks ettiradi. Til me‘yorlari farmon bilan kiritilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas; ularni ma‘muriy usul bilan isloh qilib bo‘lmaydi. Talaffuz normalariga va so‘zlarni ishlatish qoidalariga beparvolik, jargon va vulgarizmlardan foydalanish, asossiz chet el so‘zlarini ishlatish nutqni ifloslantiradi, adabiy tilni yo‘q qiladi va bu oxir-oqibat, tilshunoslar aytganidek, millatning o‘limiga olib keladi.

Bugun o‘zbek tilini takomillashtirish bo‘yicha ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda va asosiy muammolardan biri – bu nutqimizda chet el so‘zlaridan tobora ko‘p foydalanish bo‘lib qolmoqda. Jargon so‘zlar madaniy nutqni siqib chiqarmoqda va ommaviy madaniyat tufayli butun xalq tilida iz qoldirmoqda. Ma‘lum bir yoshdan boshlab ko‘pchilik “ko‘cha” tilidan faol foydalanadi, ammo vaqt o‘tishi bilan ular adabiy tildan tez-tez foydalanishni boshlaydilar. Yoshlar jargonida so‘z bilan “o‘ynash”, hayotga alohida munosabatda bo‘lishga, hamma to‘g‘ri, barqaror, zerikarli, odatiy narsalarni rad etishga asoslangan. Afsuski, ko‘p holatlarda keksa avlod vakillari ham shu asnodda chetda qolgani yo‘q.

Nutqning zamonaviy shakli yoshlarning nutq madaniyati darajasiga alohida e‘tibor berishni talab qiladi. Biroq so‘nggi yillarda yoshlarning nutqi va umumiy madaniyati sezilarli darajada o‘zgardi, axloqiy me‘yorlar e‘tiborsiz qoldirila boshlandi, bu esa jamiyatning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin. Shuni ta‘kidlash kerakki, yoshlar orasida ona tilini bilish darajasi, adabiyotga qiziqish pasaymoqda. Zamonaviy yoshlar va katta avlodning aksariyat qismi kitob o‘qishni internetning ijtimoiy tarmoqlarida “onlayn” bilan almashtirib, kitob mutolaasiga juda oz vaqt

ajratishmoqda. Kun sayin axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, ko'cha ko'yda tilimizdagi so'zlar o'rniga, boshqa tillardagi lug'atla, kundalik hayotimizda ishlatilayotgan so'zlar o'rmini egalladi. Nega desangiz muloqat tilimizda bir qancha chet tillar tilimizning ajralmas qismi, balkim oliftagarchilikning bir ko'rinishi bo'lib qolmoqda.

Insonni tiliga qarab qaysi millatga mansubligi, shevasiga qarab qayrlik ekanini bilishimiz mumkin. To'g'ri aholining kup qismi istiqomqat qilgan joyiga ko'ra o'z shevasida muloqot qiladi. Biroq, bu degani jamiyatda, aholi o'rtasida kerak bo'lsa bo'lmasa chet til so'zlari qo'shib, tilimizni buzmaslik kerak deb o'ylayman. Qarabsizki, na o'zbek, na rus, na ingliz va boshqa tillarda muloqat qilolamiz... Go'yoki rus tilini bilgan shaxslar oldida o'zbek tilida gapirib yuborsak uyatli ishni qilgandekmiz. Ozingina o'ylab fikr yuritsak, nima uchun biz sanab o'tgan davlat fuqorolari o'zbek tilida emas balki, o'z tillarida muloqatda?.. tug'ri ayrim aholi gaplashishi mumkun lekin aksariyat qismi o'rganishadi. Bu degani mamlakatimizda 120 dan ortiq ellatlar yashayotgan bo'lsa ularning qancha qismi o'zbek tilini o'rganishgan? Nega endi ular bizning yurtida istiqomat qilib, bizning tilimizga behurmat munosabatda?... Biz esa go'yoki zamon talabi, texnologiyalar asri, dunyo o'zgarib bormoqda deb o'zligimiz uchun befarqmiz. Buyuk marifatparvarimiz shunday degan; "Dunyoning eng boy va eng baxtsiz bir tili – turkcha". Bu gapning zamirida juda kata ma'no bor. Balkim, bizga ayon bo'lmagan ko'p ma'nolar yotganini bilmasmiz... Bugungi kun bilan solishtirsam juda achinarli holatda deb o'ylayman.

Albatda, shu kabi muomolar faqat tilimizda emas, ko'cha-kuydagi peshlavhalar, reklama-bannerlarda chiqarilgan tushunarsiz so'zlar, (savodsizlik), yozuvlarining xato yozilishi kabilar keladi. Davrimizning yana bir achchiq muomolaridan biri bu oynai jahongdagi ko'rsatuvlarda o'zbek tilini ishlatish savisaysi, ko'rayotgan tomoshabinlar uchun o'rnak bo'la oladimi? Hozirda juda ko'p ko'rsatuvlar ko'pligi sabab, ikki shaxs o'rtasidagi muloqot qilish, yani murojat qilayotgan shaxs o'z muomolarini oddiy o'zbek tilida ham ravon, to'g'ri ifodali ravishda nutq madaniyati pastligidan tushuntirib berololmaydi. Eng qizig'i davlat xizmatida ishlovchi savodxonliligiga ega bo'lgan ziyolilarimiz, oddiy o'zbek tilida to'g'ri gapira olmaydigan insonga boshqa tillarda aynan rus tilida javob berishlari hurmatsizlik belgisimi, yoki bepisandlikmi bilmadim. Yana bu insonlar maslahat berib, qonun qoidalar haqida gapirishadi? Ayniqsa, hozirgi kunda urf bo'lgan taniqli, mashhur kishilardan olinayotgan intervyularda ishlatilayotgan o'zbek tilini ishlatish savsiyasi pasayib bormoqda. Bu kabi intervyular tobora kupayib bormoqda. Kundan- kunga nutqimizda o'zbekcha atamalar, nomlarni unutib, qo'ymoqdami. Vaholangki, o'zbek tilida so'zlashayotgan insonlar kamayib, rus tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Ko'p tillarni bilishimiz yaxshi negaki, yuqori rivojlangan davlatlar darajasiga erishish va raqobatdosh bo'lish uchun O'zbekiston fuqorolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki, global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz, lekin shuni unutmaslik kerakki, o'zbek tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O'zbekiston fuqorosi davlat tilini bilishi shart.

Hech qachon o'z ona tiliga bo'lgan hurmatni yo'qotmasligimiz kerak. Tilga bo'lgan hurmat – bu xalqqa hurmatimizdir. O'z ona tilisiga ega bo'lmagan xalq

mamlakat bo'laolmaydi. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo'lsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog' tushishi ham hech gap emas. Shu sababli, bu ulkan hodisaning tup mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, ona tiliga bo'lgan muhabbat va sadoqatini yanada mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami yil sayin kengayib bormoqda. Binobarin, o'zini o'zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e'tiborli bo'lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchimiz hisoblanadi. O'zbek tilining Vatanimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni uch tamoyilga: umumiylik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi. Dunyoda taniqli mamlakat bo'lish uchun biz davlat tilining maqomini ko'tarishga erishishimiz kerak. Shuningdek amalga oshirilayotgan ishlar islohotlar qonun-qoidalar, qarorlar, o'zgarishlar bilan tanishib chiqichishga majburmiz.

Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoniga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son farmoniga muvofiq, birinchi ilovasida: 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida keltirilgan. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini davlat tilining sofligini boyitib, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvda olib borish kabi davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini ko'tarishdir.

Bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini taminlashda, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun;

2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020 – 2022-yillarda amalga oshirish dasturi;

2025-yilga qadar davlat maktabgacha ta'lim tizimida amaldagi maktabgacha ta'lim muassasalarining hududlarini kengaytirish yoki yangi quriladigan muassasalar hisobiga o'zbek tilli guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030-yilgacha esa 80 foizga yetkazish;

2030-yilga qadar umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida o'zbek tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish va shu kabi, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish hamda *davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish sohasida* lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib, 2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar, teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarining o'zbek adabiy tilidagi nutq

madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030-yilgacha 100 foizga yetkazibgina qolmay  *davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini ta'minlash sohasida;*

2025-yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030-yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga oshirish, dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini ko'paytirish xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar;

2030-yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha oshirib; 2025-yilga qadar "O'zbek tilining do'stlari" klublari sonini 30 taga, 2030-yilgacha esa 40 taga yetkazib, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabi muxim vazifalar qo'yilgan.

Vazirlar Mahkamasi (A.N. Aripov) uch oy muddatda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tishni ta'minlash maqsadida ishchi guruhini tashkil qilsin va aniq chora-tadbirlar hamda ularni moliyalashtirish manbalari va hajmlarini nazarda tutuvchi "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilgan bo'lib, 2021-yil 1-apreldan boshlab o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish darajasi aniqlanadi hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlari joriy etilishini taminlaydi. Maqsadli ishlar davomida yangi loyihalardan biri bo'lgan „O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi“ manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan holda 2021-yil 1-yanvardan boshlab markaziy telekanallarda "Tilga e'tibor", "Ona tilida so'zlashamiz", "Notiqlik mahorati", "Til – millat ko'zgusi", "Kitob bilim manbai", "Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori" kabi turkum ko'rsatuv va eshittirishlarni tashkil qilib, muntazam ravishda efirga uzatib borilishini ta'minlash haidagi bir qancha chora tadbirlar ko'rilib borilmoqda. Mana shunday misollar tariqasida yangiliklardan xabardor bo'lishimiz, o'zligimiz kelajagimiz uchun muxim.

Ayni damda Ichki ishlar vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar muhokamalari portaliga joylashtirilgan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ham davlat tilining huquqiy maqomi, amaliy ahamiyatini oshirish borasida navbatdagi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Zero, yurtda yashovchi har bir fuqaro, millati va dinidan qat'i nazar, davlat tiliga alohida hurmat va e'tibor ko'rsatishga birdek mas'uldir. Butun mamlakat ahli davlat tilini birdek sevsa va qadrlasagina, u o'z maqomida mustahkam bo'ladi, rivojlanish sari dadil odimlab boraveradi.

Xulosa qilar ekanmiz, til – jamiyatning asosiy tayanchi, insoniy muloqot-munosabatlarning birlamchi vositasi hamda millat ruhi va davlatchilik taqdiri hisoblanadi. Har bir xalq va millat, davlat va jamiyatning o'tmishi, buguni va kelajagini, uning mavjudligini birgina omil – ona tili bildirib turadi. Til – muloqot

zarurati tufayli yaralgan, muloqot jarayonida insoniyat yaratgan barcha yangiliklarni, tafakkur mevalarini anglatib, avloddan-avlodga yetkazib, avaylab-asrab keladi. Shunday ekan, tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qoladi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosidataroqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizdan milliy tilga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etadi. G'aybullas-Salom til haqida shunday degan: *Ona tilida fikrlashga, toza gapirishga, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Qayerda va kim bo'lmasin, ona tili kamsitilishiga yo'l qo'ymasiz. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o'zgarishiga qarab almashtirilsa, Onaizor, Vatan, millat har biri bittadan, Ona tili ham bitta. Agar o'z xalqingiz orasida gungalak-soqov va yot bo'lishni istamasangiz, ona tilini puxta o'rganing. Boshingizga ko'taring. Kishi boshqa tilda bilimli bo'la oladi, ammo faqat o'z tilida bekami ko'st bo'lishi mumkin.*

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi", 1995-yil, 12-son, 257-modda
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni.
3. PF-6084-son 20.10.2020. Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
4. <https://lex.uz/docs/-5058351>
5. O'zbek tili — davlat tili, ona tilim – millat ruhi va g'ururi | infoCOM.UZ
6. <http://uz.infocom.uz/2009/10/27/ozbek-tili-davlat-tili-ona-tilim-millat-ruhi>
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

## **MUHAMMAD YUSUFNING VATAN HAQIDAGI QARASHLARIGA CHIZGILAR**

**Amirov Bunyod Sadulla o'g'li,**  
O'zDSMI, Kutubxona-axborot faoliyati talabasi  
Ilmiy rahbar: **Mamatqulova To'lg'anoy**  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

### **Anotatsiya**

Ushbu maqola shoir Muhammad Yusufning ona-Vatan haqidagi she'riy qarashlari va ularning mazmuni tahliliy ochib berilgan. Shoir nazdida Vatan, ona tushunchalari uyg'un tarzda jozibador ko'rinishda she'riy misralarda ifoda etilgan.

**Kalit so'zi:** Vatan, beshik, tuproq, Olampanoh, sog'inch, tashbeh, she'r, izhor, qalb, ijod, yozuvchi, sevgi-muhabbat, tabiat, do'st, birodar, yor.

### Annotation

This article analyzes the poetic views of the poet Muhammad Yusuf on the motherland and their content. In the poet's opinion, the notions of homeland and motherland are harmoniously expressed in poetic verses.

**Key words:** Motherland, cradle, soil, Olampanoh, nostalgia, metaphor, poem, expression, heart, creativity, writer, love, nature, friend, brother, friend.

Shoir, yozuvchi – umuman ijodkorlar o‘y hayollari, qalb haqiqatlarini o‘z ijod na‘munalarida ifoda eta olish imkoniyatiga ega bo‘lgan, Olloh nazari tushgan iste‘dod egalaridir. O‘tgan asrning so‘nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo‘lchi yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusuf o‘zining sodda va samimiy so‘zi, o‘zigagina yarashadigan she‘riyati bilan el nazariga tushdi. U o‘zining qisqagina umrida milliy she‘riyat va zamonaviy qo‘shiqchilikni yuksaklarga ko‘tarilishiga beminnat hissasini qo‘sha oldi. Shoir haqida Erkin Vohidov shunday yozgan edi: “Muhammad Yusufni xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlol kuychisi deb ardoqlaydi, o‘zbek eliga ulug‘ mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli, samimiyat to‘la she‘rlarini qadrlaydi, qo‘shiq qilib aytadi. Uning she‘riyatini chin ma‘noda qanotli she‘riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she‘riyat desa bo‘ladi.” Vatanini kuylamagan, madh qilmagan shoir dunyoda bo‘lmasa kerak. Muhammad Yusufgacha ham undan keyin ham qo‘liga qalam tutgan shoir borki, ona Vatanni ulug‘lab she‘rlar yozdi. Bu g‘oyat tabiiy hol. Muhammad Yusuf Vatanni qandaydir balandparvoz, she‘rdan she‘rga o‘tib yuruvchi jimjimador so‘zlar bilan emas, sodda, begidir va mag‘zi to‘q so‘zlar bilan tasvirlaydi. Uning she‘rlaridagi Vatanni tasavvur qilish oson va huzurli; qaysidir jihati bilan singlingizga, qaysidir jihati bilan onangizga yo otangizga o‘xshab ketadi. Vatanning andozasini ulardan olasiz, Vatanning sarhadlarini ularga bo‘lgan mehru muhabbatingiz bilan belgilaysiz.

Bunday ijodkorlarning asarlari insonning eng shaffof maskani – qalbdan chiqqanligi uchun o‘z ihlosmandlarini tez topadi va yuraklarda mangu yashaydi. Biz xalqimiz ardoqlagan shoir Muhammad Yusuf ijodini yuqoridagi fikrlarga eng yuksak namuna sifatida olishimiz mumkin. Zero, shoir qalami qalbi bilan hamohang ijodkor edi. U nimaiki yozsa qalbdan yozar, har qanaqa ortiqcha tashbeharsiz ifoda etar edi. Shu sabab ham uning she‘rlari kirib bormagan xonadon, navolarini tinglamagan inson topilmaydi. Kitobxonlar va xalqimiz orasida Muhammad Yusuf she‘riyatiga nisbatan “o‘qish va tushunish oson, sodda va samimiy yozilgan” degan fikrlar ko‘p bor aytiladi. Darhaqiqat, shoir she‘rlari sodda va ravon o‘qiladi. “Ammo unga o‘xshatib yozib ko‘ringchi? Qo‘llingizdan kelmaydi! Xalq orasida “odam dunyoga bir marta keladi” degan mashhur gap bor. Odamday yashashga, orzularni ertangi kunga surmaslikka da‘vat qiluvchi bu gapni shoir o‘z yo‘rig‘ida so‘roqlaydi. “Odam dunyoga bir marta keladi. Shu bir kalima so‘z bilan qancha savob ishlar qilish mumkin”, - deydi shoir. Va shu bir jumlarga odamzod qancha gunohlarni, orzularni, isyonlarni, dard va alamlarni sig‘dirib yuborishini aytmoqchi bo‘ladi. Shoir, xalq tilidan tushmaydigan bir jumlaning so‘roqlash orqali xalq tilidagi har qanday birlikning yaxshilikka, ezgulikka va abadiyatga dahldor ekanligini urg‘ulaydi. Bir marta kelinadigan dunyoda faqat yaxshilik qil, yaxshi nom qoldir degan qadimiy hikmatning ohorli ifodasini topadi.

Shoir xalq tilidagi ayrim soʻz, ibora va quyma gaplarni gʻuborlardan poklab asl holida yana xalqqa qaytarib beradi. “Odam dunyoga bir marta keladi” gapining mayda maqsad va manfaatlar uchun qurbon qilmaslik kerakligini, ezgu niyat va amallar uchun ishlatish zarurligini eslatmoqchi boʻladi. Shoir ijodi bedorlikka daʼvatkor sheʼriyat. U sevgi, visol, ayriliq, iztirob kabi shaxsiy kechinmalardangina iborat sheʼriyat emas. Kitobxonni ijtimoiy hayotda faol yashashga, uygʻoqlikka chorlovchi sheʼriyat. Uning oson yoziladiganga oʻxshab koʻrinadigan misralari muxlislarini yigʻlatadi, kuldiradi oʻz ogʻushiga tortib oladi”. Xoʻsh buning siri nimada edi? Bu savolga qisqa qilib shoir qalbining tozaligi va samimiyligi deb javob berish mumkin. Chunki, bunda ijod qilish uchun albatta katta va samimiy qalb egasi boʻlishi kerak. Oʻzi koʻylayotgan insonlarni xalqni va vatanini chin dildan seva olishi kerak.

Muhammad Yusuf sheʼriyatining bosh mavzusi mehr-muhabbat, sevgi-sadoqat kabi insoniy tuygʻular va bu tuygʻularning bosh omili, gultoji boʻlgan vatanga cheksiz muhabbat va ehtiromni tarannum etish sanaladi. Shoir “Izhoril dil” sheʼrida shunday yozadi:

Vatan – yuragimning olam panohi  
Bu dunyo bukri bir jiydangning shoxi.  
Koʻzim yoshi bilan sugʻorib gohi,  
Koʻksimda oʻstirgan gulday sevaman.

Vatan uni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki, ijodkor uchun oʻzi tugʻilib oʻsgan maskani – Vatanini kuylashdek zavqli va sharfli baxt boʻlmaydi. Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir boʻlsada lekin ularning hech biri bir-biriga oʻxshamaydi. Shu oʻrinda Muhammad Yusuf ijodida asosiy oʻrinlarda turuvchi vatan mavzusidagi sheʼrlar oʻzgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo boʻlganligi sababli yorqin va taʼsirchan deyishimiz mumkin. Yaʼni shoir lirikasida hech kim tasavvur qilmagan lekin mos keladigan tashbehlarni, oʻxshatishlarni koʻramiz. Bunday oʻxshatishlar boshqa hech bir ijodkor sheʼriyatida uchramasligini shoir asarlarning oʻziga xos badiiy tili deyishimiz mumkin. Masalan, vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali vatanni onaga, singilga oʻxshatgan emas yoki vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat shu ijodkorgina oʻz asarida ilk bor qoʻllagan. Vatanning bogʻ-rogʻlarini, soʻlim goʻshalarini tarannum etganlar koʻpdir. Lekin hech kim vatanni “yuragimning olampanohi” deb uning “bukri bir jiydasining shoxi”ni kuylagan emas. Va yo “tilimning ostida navvot – zarimsan, sen mening yagona paygʻambarimsan” degan tashbehlarni Muhammad Yusuf sheʼriyatidagina koʻrishimiz mumkin.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, shoir vatan haqidagi sheʼrlarining koʻpchiligida Vatanni onaga, singilga va opaga mengzadi. Masalan, “Vatanim” sheʼrida:

Shodon kunim gul otgan sen,  
Chechak otgan izimga,  
Nolon kunim yupatgan sen,  
Yuzing bosib yuzimga,

Singlim deymi,  
Onam deymi,  
Hamdard-u hamhonam deymi,  
Oftobdan ham o‘zing mehri,  
Ilig‘imsan Vatanim.

Darhaqiqt, bolaning ilk qadamini ko‘rgan ona uchun bundanda ortiq quvonch bo‘lmaydi. Ona kabi vatan ham bag‘rida yashayotgan xalqining yutuqlaridan, shodon kunlaridan sevinadi. Uning yo‘llariga gul – u maysalar tutadi. Opa-singil kabi ko‘ngli xira vaqtlarda hamdardu – hamroh bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, shoir oddiy hayotiy voqealar asosida ajoyib o‘xshatishlar va teran falsafiy mushohadaga ega bo‘lgan misralar yaratgan.

Shoir vatanni qanday sevishini “Izhori dil” she‘rida shunday izohlaydi:

Cho‘ksang, tur singlim deb,  
Soching silayman.  
So‘ksang opam deyman,  
Umring tilayman.  
Sendan ranjimayman,  
Gina qilmayman-  
Xoh xo‘mray, xoh jilmay,  
Birday sevaman.

Xalqimizda haqiqiy er yigit onasi va opa-singlini himoya qilishi, ularga tog‘dek suyanch bo‘lishi kabi hislatlar bordir. Opa-singil kabi vatan ham himoyaga, tog‘dek suyanch bo‘ladigan er yigitlarga tayanadi. Shoir ushbu tushunchalarni teran anglab, vatanni singilga va opaga mengzagan bo‘lsa ne ajab. Shoir she‘rlarini tahlil qilar ekanmiz misralardagi emotsionallikni tasirchanlikni yuzaga chiqarishda badiiy san‘atlar poetik sintaksis va poetik fonemaning o‘rni katta bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Uning vatan mavzusidagi she‘rlarida badiiy san‘atlardan talmeh va tashbeh, tazoddan keng foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, poetik sintaksis vositalari bo‘lgan ritorik so‘roq, ritorik, aniteza, apostrafa epifara kabi turlaridan foydalanib ajoyib misralar yaratgan. Masalan, o‘zbek xalqining turmush tarzini ko‘rsatib beruvchi “Qora qumg‘on she‘rida apostrafa san‘ati she‘rning emotsianalligini vujudga keltirgan.

Momom senga olov yoqqan,  
Qora qumg‘on, qora qumg‘on.  
Bobomni ham o‘zing boqqan,  
Qora qumg‘on, qora qumg‘on.

Muhammad Yusuf ijodidan “O‘zbekiston” she‘ri o‘zining hissiy bo‘yoqdorligi, jozibadorligi bilan va ko‘plab insonlarning vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifoda etib kelganligi bilan alohida o‘rin tutadi. Muhammad Yusuf ijodi umuminsoniy



qadriyatlarni ulug‘lovchi she‘riyat hisoblanadi. Uning she‘rlarida insoniyatga aloqadar ezgu xislatlar, savob amallarning tamomi eng baland pardada kuylanadi. Bir mansur she‘rida shunday deydi: “Asli inson xoki qo‘yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog‘ini ko‘zlariga surtsin. Bundan kimga jabr”. Bu yerda insonning din, e‘tiqod, mazhab, irq, millat va rang-ro‘yi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar muqaddasligi va uning xoki qo‘yilgan tuproqning azizligi tarannum qilinmoqda. Shoir she‘rni, tilni ajdodlardan qolgan va avlodlarga bekam bexato yetkazilishi shart bo‘lgan muqaddas meros deb biladi. Jumladan:

O, ota makonim,  
Onajon o‘lkam  
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga  
Senday mehribon yo‘q,  
Seningdek ko‘rkam,  
Rimni alishmasman beda poyangga.

Deb boshlanuvchi bu she‘r satrma-satr, bandma-band tasirchanligini oshirib boradi. Guvohi bo‘lganingizdek birinchi bandda insoniyat sivilizatsiyasining birinchi durdonasi bo‘lmish Rimni o‘zining keng beda poyasiga teng ko‘rmagan shoir ikkinchi bandda yurtining serjilo tabiatini tarannum etib, “Qayga borsam suyab boshni tik tut deb, tog‘laring izimdan ergashib yurar” – deya kuylaydi. Uchinchi bandda esa shoir bir o‘zbek farzandi sifatida undan ko‘rk-hasham, dabdaba begonaligini, uning uchun oilasi bag‘ri hammasidan ustunligini vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbatini, dunyodagi jamiki boylik vatanning bir siqim tuprog‘idan aziz emasligini takidlab, oxirgi bandda yurtiga bo‘lgan muhabbatini tarannum etadi .

Ko‘rib o‘tganimizdek Muhammad Yusuf ijodidagi vatan mavzusidagi she‘rlar o‘zini teranligi va ohangraboligi bilan ajralib turadi. Bunday she‘rlar esa o‘z-o‘zidan, oddiy so‘zlarning ketma-ket saf tortishidan yuzaga kelmaydi. Balki, vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat mevasi sifatida qalbdan to‘kiladi. Shoir vatanini kuylar ekan uni o‘zligidan ajratib, maddohlik bilan kuylamadi. Ya‘ni uning faqatgina yaxshi tomonlarini ko‘rib, og‘riqli nuqtalariga qo‘l siltab ketmadi. Uni boricha sevdi, ardoqladi uni yuksaltirishga intildi. Zero, haqiqiy vatanparvarlik ham shunday bo‘ladi. Haqiqiy vatanparvar inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyni xalqini bor-yo‘g‘i bilan sevadi. Bu haqda Abdulla Oripov shoir shunday degan edi:

Vatanlar, vatanlar mayli gullasin,  
Bog‘ unsin, mangulik muzda ham ammo,  
Xalqim seni faqat boyliklaring uchun,  
Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo.

Muhammad Yusuf she‘riyatini kuzatsak “Vatan ostonadan boshlanadi” degan naqlning naqadar rost ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki vatan mavzusidagi she‘rlarining boshi o‘zi tug‘ilib o‘sgan Andijon vohasiga, Qovunchi qishlog‘iga uning o‘ziga xos udum va an‘analariga bag‘ishlangan. Masalan, “Nechun” she‘ri fikrimiz dalilidir:

Nechun qulluq qilmay Andijonga men,  
Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim,  
Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim –  
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!

Shoir o'zi tug'ilib o'sgan joyini kuylar ekan aslo “mahalliychilikga” bormaydi. Balki, O'zbekiston yaxlit bir vatan bo'lsa Andijon uning bir bo'lagi ekanligini ta'kidlaydi. Bu haqida quyidagi misralar keltiriladi:

Saylab yurt ajratmoq fe'limga yiroq,  
Buxoro minorlari ko'nglim etar tog',  
Menga Samarqand ham azizdir biroq,  
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Shoirning “Qora quyosh” dostoni xalq vatan mavzusidagi asarlar orasida eng o'ychanligi, achchiq alam va armonlarga to'laligi bilan ajralib turadi. Chunki bu doston mustabit tuzim davrida xalqimiz boshiga tushgan musibatlar xalqning asl, iste'dodli farzandlarining xalq dushmani sifatida yo'q qilinganligi, aslida kim dushman ekanligini bilmasdan, xalq boshiga qora kunlar solgan “Vallamat” larni e'zozlab kelgan sodda xalqimizga achinish qabilida yozilgan asardir. Qolaversa, bu dostonda shoir qalbining mustabid tuzimga bo'lgan cheksiz isyoni aks etgandir. Dostonning ayniqsa oxirga bandlari yuragi uyg'oq o'quvchini yig'latmasdan, o'ylantirmasdan qo'ymaydi:

Tushumga kiradi Qodiriy bobom:  
Bolam oqibating yo'q ekan bolam,  
Bo'lsa agar mening go'rimni top, der,  
Keli ochiq qolgan ko'zimni yop, der,  
Yoki. . .  
Yotar alp qomatli bahodirlar qator,  
Akmallar,  
Qodirlar,  
Shokirlar yotar,  
Yotar Fayzullolar,  
Yotar Ahmadlar,  
Xudo rahmat qilgan, Xudo rahmatlar.

Muhammad Yusuf vatanimiz mustaqillikka erishgan chog'da eng quvongan, bunday dorilomon kunlar kelganiga shukronalar aytgan insonlardan bo'lsa kerak. Zero, shoirning ijodi istiqloлга erishilgach keng quloch yoydi, ovozi baralla yangradi. Dilida qotib qolgan orzu-armonlarini she'rlarida to'kib soldi. Uning vatan haqida yozgan har bir she'ri xalqimizning diliga kirib bordi va xuddi ularning dilidagi gaplardek yangradi. She'rlari qo'shiq bo'lib el orasida eng zo'r madhiyaga aylandi. Chunki, Muhammad

Yusufgina “Hech kimga bermaymiz, seni O‘zbekiston” deb mustaqillikning ilk ayozli davrlaridayoq baralla aytilgan edi”. Uning “Xalq bo‘l, elim” she‘rini o‘qisak, shoir qalbida kechgan jo‘shqinlikni, shukronalik va faxr-iftixor tuyg‘ularini sezamiz. She‘rning birinchi bandida o‘tgan buyuk ajdodlarga munosib bo‘lish uchun birlashishga xalq bo‘lishga chorlanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev bir guruh yozuvchi, shoir va ziyolilar bilan o‘tkazgan uchrashuvda milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor, galdagi muhim vazifalar haqida gapirib: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma‘naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish kerak” – degan edilar. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti jamoasiga shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyatini keng targ‘ib qilish vazifasi yuklatilgan edi. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ibratli hayoti va ijodini chuqur o‘rganish bo‘yicha institutda o‘quv-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish, ilmiy-ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tizimli ishlar rejasi tuzildi. Institutning barcha kurs va guruhlarida Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan maxsus kurslar o‘qitilishi belgilab olindi. Bu maxsus kurslarni o‘qitishdan maqsad bir shoirning hayoti va ijodini o‘rgatishdangina iborat bo‘lmasligi kerak. Kamida, Vatanni Muhammad Yusufdek “iddaolar qilmay” sevishtan o‘rgatishdan, ona tilimizni Muhammad Yusufdek gard yuqtirmay ardoqlashni o‘rgatishdan, beqiyos milliy qadriyatlarimizni uningdek anglashni o‘rgatishdan iborat bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusufning har bir she‘rida hayotga bo‘lgan tashnalik, teran o‘ychanlik, samimiy tuyg‘ular tarannumini ko‘ramiz. Ayniqsa, vatan mavzusidagi she‘rlarida shoir vatan haqida yozar ekan uni shunchaki ta‘riflab, bayon etib qo‘ymaydi. Balki, kuchli harorat cheksiz muhabbat bilan muhimi har bir kitobxon yuragiga kirib boradigan o‘ziga xoslik ila o‘z misralarida ijod qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, shoir she‘riyatini shunchaki chiroyli so‘zlar majmuasi emas bunda shoir she‘riyatni jozibali qilgan sir mavzuimiz boshida tilga olingan shoirning samimiy qalbidir va bu qalbdan to‘lib toshgan vatanparvarlik, xalqparvarlik, erksevarlik kabi tuyg‘ulardir. U vatan mavzusida she‘r yozar ekan qalbidagi bor kechinmalarni yashirmasdan aks ettirar edi. Bunda vatanning hox shonli o‘tmishi, hox qora kunlari bo‘lsin, xalqning fazilat-u qusurlari bo‘lsin bari-barini yurakdan yozar, ijobiy xususiyatlaridan faxr-iftixor tuyg‘usini tuysa, salbiy illatlardan qalbi istirobga to‘lar edi. Bu emotsiyalarning barchasi Muhammad Yusuf asarlarining o‘ziga xosligini, ta‘sirchanligini yuzaga keltirar edi. Shoirning vatan mavzusida yozilgan she‘rlarining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, shoir vatanni jonsiz bir materiya deb bilmaydi. Ya‘ni u vatanni kuylaganda faqat tog‘u toshlarni, dashtu dalalarni, maftunkor tabiatini kuylamaydi. Balki, bularga hamohang tarzda bu obyektning harakatlantiruvchisi millatini xalqini u tug‘ulib o‘sgan maskan bilan birgalikda vatan deb biladi va shu xalqqa millatga bo‘lgan cheksiz ehtiromini o‘z asarlarida bayon etadi. Bu xalqning mintalitetini, urf – odatlarini ochib beruvchi ko‘z-ko‘z qiluvchi asarlar shoir ijodida juda ko‘p uchraydi. O‘ziga xos ohangrabolikda yozilgan bu she‘rlar har bir o‘quvchini o‘ziga rom qiladi va shu el, millatning o‘ziga xosligini, urf-odatlarini, sodda va

samimiyligini, qisqasi o‘zbek xalqi mintaliteti haqida boy taassurot beradi. Biz shuning uchun ham Muhammad Yusuf she‘riyatini xalqona she‘riyat deb bilamiz shu narsa ayonki vatan xalq millat haqida Muhammad Yusufdek asarlar yozish uchun vatanni, millatni Muhammad Yusufdek sevishtir, ardoqlash kerak, buning uchun esa yana bir bor Muhammad Yusuf bo‘lib tug‘ilish kerak.

### **Adabiyotlar:**

1. Muhammad Yusuf Saylanma “Sharq” nashriyoti Toshkent – 2019
2. Muhammad Yusuf Quyoshga qarab oqqan suv “Nurafshon business” Toshkent – 2019
3. Shukur Qurbon Muhammad Yusuf saboqlari “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi” nashriyoti Toshkent – 2019

## **G‘AFUR G‘ULOMNING “MENING O‘G‘RIGINA BOLAM” HIKOYASINING ADABIY TAHLILI**

**Zarina Ma‘murova,**  
O‘zDSMI Kino, televideniye va  
radio san‘ati fakulteti  
“San‘atshunoslik: kino san‘ati  
tanqidi va tahlili”  
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: **Ma‘mur Umarov**

### **Annotatsiya:**

Maqola G‘afur G‘ulomning ijodidagi milliy qadriyatlar, urushning oqibatlari, tinchlik ulug‘ ne‘matligini anglashga da‘vat qilgan “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi tahliliga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** milliy qadriyatlar, urush oqibatlari, tinchlikni ulug‘lash, tabaqalanish, oila, ayol matonati.

### **Annotation**

The article is devoted to the analysis of the story “My only thief child” in the works of Ghafur Ghulam, which called to understand the national values, the consequences of war, the great blessing of peace.

**Key words:** national values, consequences of war, glorification of peace, stratification, family, femininity.

G‘afur G‘ulom XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi. U o‘zbek she‘riyati, badiiy publitsistikasi, felyetonchiligi, hajviy hikoyachiligi, yumoristik qissachiligi va tarjimachiligi rivojiga katta hissa qo‘shgan yirik so‘z san‘atkoridir. G‘afur G‘ulom 1903 yil 10 may kuni Toshkent shahrining “Qo‘rg‘ontegi”

mahallasidagi dehqon oilasida dunyoga kelgan. Otasi G‘ulom Mirza Orif o‘g‘li va onasi Toshbibi Yusuf qizi o‘qimishli, zehni, fors tilini bilgan, adabiyotni sevgan odamlar edi. O‘tkir zehni G‘afurning savodi juda erta chiqdi. U to‘qqiz yoshidan boshlab Navoiy, Sa‘diy Sheroziy, Fuzuliy asarlarini sevib mutolaa qila boshladi. Taqdir taqozosi bilan to‘qqiz yoshida otasidan va o‘n besh yoshida onasidan erta yetim qoldi. Ro‘zg‘orni tebratish va singillarini boqish tashvishi, uning oliy maktabda ta‘lim olishiga imkon bermadi. Faqatgina sakkiz oylik muallimlarni tayorlash kursini bitiradi. Uning ta‘biricha, eng kuchli, shavqatsiz, talabchan o‘qituvchisi hayot saboqlari va matbuotdagi e‘lon qilingan maqolalar edi. Mustakil o‘qish va uqish orqali zamonasining ilg‘or, yetuk ziyolisi darajasiga ko‘tarildi [1].

Biz adibning “Mening o‘g‘rigina bolam” voqeyiy hikoyasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Ushbu xikoya mavzularga boyligi bilan uning boshqa asarlaridan ajralib turadi. Unda moxirlik bilan yoritilgan davr, insoniylik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, tabaqalanish, yetimlik, ocharchilik, ilm-fan tanazzuli, mahalliychilik, poraxo‘rlik, andisha, sabr, milliy rux, vijdon kabi mavzular voqealar ketma-ketligi asosida asar g‘oyasini ochib bergan. G‘ofur G‘ulom shu kichik hikoyasi bilan bolalik davridagi jamiyat muhitini va unda umrguzaronlik qilayotgan taqdirlar obrazini keng yoritgan. O‘sha davrdagi dolzarb mavzular go‘yo bugungi kunga ham bog‘liqdek tuyuladi. Bu hikoyada ikki kishi o‘rtasidagi dialog tasvirlangan bo‘lishiga qaramay, asardagi voqealar mantiqan rivojlanib tugallanganligi bilan namoyon bo‘ladi. Bu shunchaki voqeyiy hikoya emas, balki namuna darajasidagi davr muhitini ifodalagan durdona asardir. Bu hikoyadagi mavzularni quyidagicha izohlash mumkin

Davr. Shahar birinchi jaxon urishi azoblari ostida qolgan. Asarda 1917 yildagi ijtimoiy hayot yoritilgan. Bu davrda Turkiston Rossiya podsholigi ta‘sirida edi. Birinchi jahon urush nihoyasiga yetmasdan turib, mamlakat ichida “qizil”lar harakati boshlangan edi. Erkaklar va oziq-ovqat mahsulotlari urishga jalb qilingan. Hamma yoqda ocharchilik avj olgan bir pallada, oddiy xalqning turmush tarzi nihoyatda qiyinlashib boradi. Halq qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham yashash uchun kurashga harakat qiladi. Ishsizlik tufayli ba‘zilar og‘ir ahvolidan uyalsa ham, vijdon azobida qiynalsa ham, boshqa ishlarni yuritishga imkoni bo‘lmaganligi bois o‘g‘irilik qilishga majbur bo‘ladi. Shunday noiloj vaziyatga tushgan kishilardan biri - tunlarning birida yetimlarning uyiga o‘g‘rilikka tushmoqchi bo‘lib, tasodifan aksa urib – Qora buvini cho‘chitib yuboradi. Hikoyaning shu joyidan insoniylik mavzusi boshlanadi. Sergak tortgan Qora buvi hamma qatori dod-voy solmaydi. Odatda, odamlar o‘g‘rini sezib qolsa, dod-voy solib, ommani chaqirib, o‘g‘rini tutib olishga, uni xalqning oldida sharmanda qilishga urinardi. Aksincha, Qora buvi odamiylikni, g‘ururni, inson sha‘nini birinchi o‘ringa qo‘yib, “O‘g‘ri”ni o‘zbek onalariga xos yaxshi muomala, shirin so‘z bilan, kutilmagan mehmondek qabul qiladi.

“O‘g‘rigina bolam”, – deydi bizning momo. Aslida, ikkitagina oddiy so‘z, ammo shu so‘zlar zamirida butun bir xalqning bag‘rikengligi, donoligining mazmuni yotibdi. Yetim nabiralarini asrayotgan Qora buvi tunda, uning uyiga yashirincha kirgan odamga “o‘g‘ri” sifatida emas, balki bir banda deb qabul qilib, u bilan samimiy suhbatlashgan holda dardlashmoqchi bo‘ldi.

Hikoyaning shu joyidan boshlab Qora buvi timsolida o‘zbek momolariga xos mehr-oqibat mavzusi boshlanadi. Uyiga tushgan “o‘g‘ri”ga mehr berdi. Uning erkaklik g‘ururini toptamagan holda, unga dalda bo‘lish uchun, tanib turgan bo‘lsa ham – tanimaslikka oldi, uning sha‘nini, or-nomusini himoya qilib, izza bo‘lishini xohlamadi. Uning yuzini ko‘rishga harakat ham qilmadi. Hazil-mutoyiba bilan hech vaqosi yo‘q uyga keldingmi, o‘g‘rigina bolam, deydi.

Muallif hikoyaning shu joyidan jamiyatdagi tabaqalanish oqibatlarini ochadi. O‘sha davrda tabaqalanish natijasida jamiyat boy va kambag‘allarga ajrab bo‘lgan edi. Kambag‘allar boylar qo‘lida arzimagan choy-chaqa uchun og‘ir mehnatlar qilishardi. Boylar o‘zlarini ancha yaxshi qo‘riqlashgan. Adib momo va ”O‘g‘ri”ning dardlashish jarayonida tabaqalanish oqibatini ochib berdi. Jumladan, –“Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita-uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovillaydi. Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi o‘ldirmaganda xam “sibir” qilib yuboradi”, - deydi [2].

Muallif navbatni yetimlik va ocharchilik mavzusiga beradi. Urush faqat xalqni tinchliginigina emas, balki xonadonidagi quvonchini, barakasini ham olib ketgan edi. Chunki urush oila boquvchilari va qo‘lidan ish kelib qolgan o‘spirinlarni domiga tortgan edi. Natijada xo‘jalikni tebratish yetimlarni boqish ayollar zimmasida koldi. Mazkur holatga nisbatan G‘ofur G‘ulom quyidagicha so‘zlarni keltirib o‘tadi: “Qaysi burchakka, qaysi choldevorga bosh suqmang, o‘n-o‘n beshta yetim yuvuqsiz qo‘lini cho‘zib – “amaki non bering”, deydi. Non-a non o‘zimmikiga topolmaymanku...[3] - deydi “o‘g‘ri” tilidan.

Urush davrida oila boquvchilarning yo‘qligi sababli bozorlarda narh-navo keskin oshib ketadi. Natijada barcha kasb egalari kabi hunarmandlar ham kasodga uchraydi. Bu davrda nafaqat kasb, hattoki ilm-ma‘rifat tanazzulga uchrab, bolalarning maktabda ta‘lim olishi hamda mulla akalarga xaq berish uchun odamlarda pul bo‘lmaydi.

Adib asar mavzusini mahalliychilik va poraxo‘rlikka ham qaratadi. Moddiy yetishmovchilik kamlik qilgandek, “mahalliychilik” va “poraxo‘rlik” avj olganini quyidagi dialog bilan “Shunday qilib desangiz, buvixon sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergan edim, ishni bosti-bosti qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so‘m jamg‘arib: “topganimiz shu ellikboshi ota deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi” [4] deb izohlaydi. Erkaklarni front ortidagi yumushlarga majburan jalb qilinishi o‘sha davrda oddiy xalq orasida “rabochiyga ketish” degan tushuncha paydo qilgan edi.

Qora buvi “o‘g‘rigina bola”ni, halol mehnati bilan bolalarini boqishga undaydi. Muallif bu da‘vati bilan har bir inson halol mexnat qilib, yashashi kerakligini, shundagina u bexovotir bo‘lishini ta‘kidlaydi. Momoning bag‘rikengligi – yetimlar uchun tog‘asi tashlab ketgan bir burda nonni – “o‘g‘rigina bola”si bilan baham ko‘rmoqchi bo‘lgan jarayonda ochiladi – “pastga tush, o‘tin yorib ber, birga choy ichamiz...” [4] degan ibora o‘quvchini halollikka chorlaydi.

O'g'ring or-nomusi bor edi. Qilgan ishidan uyalgan o'g'ri : "Yug'-ye, buvi. O'tin-ku yorib berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda xam yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalaman" [5] –deydi nomusli o'g'ri.

Hikoyani o'qiganlar azaldan xalqimizning qon-qoniga singib ketgan mehmondo'stlik singari o'lmas qadriyatlarimiz borligini angelaydi. Uyiga kirib kelgan har bir insonni mehmon qiladi, ro'zg'orida borini u bilan baham ko'radi. Yana bir milliy qadriyat sifatidagi boyligimiz uyga kelgan insonning norizo bo'lib ketmasligiga intilishimizdadir. Adib o'g'ri misolida xovliga kimki biror-bir maqsad bilan kelsa, norizo bo'lib ketmasligini "voy o'lay, qutlug' uydin quruq ketasanmi, bolam, bir nima olib ket" [6] kabi faqat ulug'larga xos so'zlar ila Qora buvi timsolida butun o'zbek ayollarining ulug'vorligi namoyon qilgan.

Muallif vijdon insonga berilgan buyuk ne'mat ekanligini asoslash maqsadida, o'g'rini insofqa qaytaradi.

Voqeaga guvoh bo'lgan Qora buvining nabirasi tilidan so'zlagan muallif, kasod bo'lgan hunarmand "O'g'ri"ning sirini saqlab, tanigan bo'lsa ham kimligini oshkor qilmasligi bilan hikoyani yakunlaydi.

Xulosa shuki, bu asarni o'qish jarayonida urush vayronalik va xorlik keltirishini, tinchlik esa yeng ulug' ne'mat ekanligini angalaymiz.

Demak, bu asar bizni avvalo, insoniylikka va har bir ishni o'ylab qilishga, undan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi

### **Adabiyotlar:**

1. <https://kitobxon.com>
2. G'.G'ulom. "Tanlangan asarlar" Sharq, Toshkent-2020
3. <http://n.ziyo.com> >uzbek-nasri

### **ADABIYOT GULSHANING BOQIY DARG'ASI**

**Turdiqulova Sevara Bahrom qizi**

(O'zDSMI, Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti, 2-bosqich talabasi)

E-mail: [sevaraturdiqulova1302@gmail.com](mailto:sevaraturdiqulova1302@gmail.com)

Telefon raqami: +998944221302

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida, asarlarida komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratilganligi haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, O'rta Osiyo, turkiy xalq, Vaqfiya, Munshaot, Majolis un-nafois, Xamsa, Munojot, Xazoyin ul-maoniy, she'riyat, komil inson.

She'riyat mulking sultoni Nizomiddin Mir Alisher G'iyosiddin Bahodir o'g'li "Navoiy" taxallusi bilan o'zbek adabiyotining yangi davrda yuqori bosqich sari olib chiqqan, O'rta Osiyo Uyg'onish davrining yorqin vakili, ulug' mutafakkiri sifatida

tarix zarvaraqlaridan joy olgan favqulodda shaxsdir. Shoir yashagan davr XV–XVI asrlar Markaziy Osiyoda Uygʻonish davrining soʻngi pallasi boʻldi [1,23].

Turkiy xalqlarning “shams ul-millat”i boʻlgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini oʻzining hassos sheʼriyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bagʻishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan soʻz sanʼatkoridir. Oʻz ijodiy merosida 26 mingdan ortiq lugʻat boyligidan foydalangan bu buyuk daho mana besh asrdan oshibdiki, asarlaridagi chuqur falsafiy mushohadakorlik, maʼno-mohiyatning keng koʻlamligi va nazmiy merosidagi fasohat dengizining bepoyonligi bilan jahon ahlini hayratga solib keladi.

Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining soʻnggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lugʻat ishlanganligi biz hozir navoiyshunoslik deb atayotgan sohaning ancha qadimiy ekanligini koʻrsatadi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk maʼlumot beruvchi manba bu shubhasiz ulugʻ shoirning oʻz asarlaridir. Shoir garchi oʻz tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan boʻlsa-da, lekin Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan, “Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida ulugʻ shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamat ul-lugʻatayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub baʼzi asarlarning yozilish tarixi bilan bogʻliq maʼlumotlarni uchratish mumkin.

XV asrning ikkinchi yarmida turkiy tilni rivojlantirishga katta eʼtibor berildi. Bunda Hirot hukmdori, Navoiyning doʻsti va maktabdoshi Husayn Boyqaroning xizmatlari muqoyasizdir. U faqat davlatni boshqarish bilan mashgʻul boʻlmasdan, ilm-fan, madaniyat va sanʼat ravnaqiga ham ulkan hissa qoʻshdi, ijod ahliga homiylik qildi. Ayni zamonda, u oʻzining shaxsiy ijodi, adabiy faoliyati bilan ham bu ishda juda yaqindan ishtirok etdi.

Husayn Boyqaroning “Risola”sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, sheʼriyati hamda “Xamsa” asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir “soʻz mulkining kishvaristoni, sahibqironi”, deb ulugʻlanadi. Gʻiyosiddin Humomiddin Xondamirning “Xulosat ul-axbor” va “Habib us-siyar” asarlarida Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga oʻtirishi va Alisher Navoiyning Hirotga qaytishidan boshlab, ulugʻ shoirning vafot etishigacha boʻlgan davr oraligʻidagi voqealar bayon qilinadi. Tarixchining “Makorim ul-axloq” asari esa Navoiyning yuksak axloqiga bagʻishlangan maxsus risola boʻlib, shoir tarjimai holiga doir muhim faktik maʼlumotlarning keltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Alisherning togʻalari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali Gʻaribiylar ham shoir boʻlishgan [2,37]. Boʻlajak shoir ana shunday muhitda, alohida tarbiya va nazoratda oʻsadi. Kichiklik chogʻidan oʻz davrining mashhur olimu fozillari davrasida boʻladi. Bu Navoiy ijodiga taʼsir etgan eng asosiy birlamchi, ijodiy faoliyatni yuzaga kelishiga turtki bergan omil sifatida eʼtirof etiladi. 1445 yilda maktabga borgan va yosh Husayn bilan birga oʻqigan. Husayn Boyqaro bilan boʻlgan munosabat esa abadiy doʻstlik sifatida shoirning kelgusi hayoti va ijodiga katta taʼsir koʻrsatgan [3,28].



Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyada tutgan muhim o'rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi. Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar og'zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag'ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan.

Alisher Navoiy komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g'azallari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalarda komil inson qanday bo'lishi kerakligi, qaysi fazilatlarni egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta'limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo'lgan muhabbat belgilaydi. U payg'ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so'fiylar to'g'risida so'z yuritganda, g'azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlari haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Mutafakkir payg'ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo'shadi.

Ulug' mutafakkirning "Farhod va Shirin", «Layli va Majnun» dostonida ham tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o'rin egallaydi. Dostonda Farhod va Shirin, Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya'ni Shirin, Laylilar siymosida Allohga bo'lgan ishq bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Unda zohiriyliksiz ilohiy ishqqa, dunyoviyliksiz Haqqa yetishib bo'lmasligi to'g'risida fikr yotadi.

Navoiy nazarida insonni sharaflovchi jamiki fazilatlarni komil inson g'oyasini ustuvor jihatlari deb kiritish mumkin. Ammo bular orasida u imon, qanoat, saxovat, ilm –ma'rifat, vafo, himmat, xoksorlik, adolat, adab kabi sifatlarni ajratib olib, qariyb hamma asarlarida qayta-qayta turli voqealar tasviri munosabati bilan ta'kidlab o'tgan. Bu sifatlarni nainki odamni ulug'vor, fozil va mo'tabar etadi, balki Ilohga yaqinlashtiradi, ilohiy xislatlarga moyil qiladi, deydi ulug' mutafakkir. Bu axloqiy talablar Navoiy davri mafkurasidan kelib chiqadi, aniqrog'i asrlar davomida ishlangan, qoidaga kiritilgan, ta'lim-tarbiyaga singdirilgan g'oyalardir.

Navoiy sahovat va muruvvatda benazir inson bo'lgan. O'zining joylardagi yersuvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini to'laligicha xayriya ishlariga sarflagan. Hazrat Navoiy saxiylikni insonparvarlik va komillikning muhim xislati deb biladi. Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir.

Navoiy asarlarida chinakam insonparvar, mard va qahramon yigit sifatida "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazini ko'rsatadi. Ilm-fan bilan bolalikdan qiziqib kelgan Farhodni o'z davridagi barcha hunarlarni o'rganganligi, robotlar sistemasini yovuz kuchlarga qarshi qurol sifatida foydalanishi bugungi kun yoshlariga ham ayni damda amalga oshirishi kerak bo'lgan ishlarini belgilab beradi.

Muxtasar qilib aytganda, mutafakkir ma'naviy merosining yosh avlodni g'oyaviy tarbiyasida tutgan o'rni, inson tarbiyasi bilan bog'liq o'git-nasihatlarini, fikr-mulohazalari, talab-ko'rsatmalari, orzu-istaklarini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan

joylashtirib chiqsa, insoniy kamolotga erishish yo‘llari ko‘rsatilgan o‘ziga xos nazmiy dastur, qo‘llanma vujudga keladi. Navoiy asarlarining g‘oyaviy tarbiyadagi o‘rnini o‘rganar ekanmiz, g‘oyaviy tarbiyaning muhim vositasi bo‘lgan adabiyotning naqadar buyuk kuch va katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi!..

### **Adabiyotlar**

1. Najmiddin Komilov. Xizir chashmasi. “Manaviyat” nashriyoti, 2005.
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. “Movarounnahr” nashriyoti, 2009.
3. Ibroxim Haqqulov. Navoiyga qaytish. “Fan” nashriyoti, 2007.

## **MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARIDA HIKMATLI SO‘ZLAR**

**Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna,**  
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasida  
o‘qituvchisi  
+998909207444

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Muhammad Yusuf dostonlaridagi hikmatli so‘zlar (aforizm) qo‘llanilishi, ularni qaysi usullarda foydalanilganligi, aforizmlar asar harakterini, mazmun-mohiyatini ochib berishida muhim ahamiyat kasb etganligi haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** hikmatli so‘zlar, aforizm, grammatik, leksik, doston.

### **Annotation**

This article describes the use of wise words (aphorisms) in the epics of Muhammad Yusuf, how they were used, and the importance of aphorisms in revealing the nature and content of the work.

**Keywords:** wise sayings, aphorisms, grammar, lexicon, epics.

Xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog‘liq, qisqa, ixcham, ma’no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida har bir davr ruhini aks etiradigan so‘zlar hikmatli so‘zlar (aforizmlar)da namoyon bo‘ladi. Binobarin, hozirgi milliy qadriyatlarining tiklanish davrida so‘zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Xalqning turmush tajribasiga tayangan holda, grammatik jihatdan gap holda shakllangan, ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so‘zlar (aforizmlar) deyiladi. *Aforizm* grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “*aphorismos*” – qisqa, hikmatli so‘z ma’nolarini anglatadi [1.35.]. Hikmatli so‘zlar, ya’ni aforizmlarni ulamolarimiz shunday ta’riflaydilar: ijodkorning donishmand dunyoqarashi, hayotiy tajribasi mujassam etilgan hikmat adabiyoti (tafakkur tuhfalari) [2.247]. deya ta’rif bersalar, Forobiy grammatika bilan mantiqning o‘zaro uzviy aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash,

bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya’ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz [3.179].

Chunonchi, Alisher Navoiy ilk devoni “Badoyi’ ul-bidoya” devoniga yozgan debochasidayoq ma’rifat va nasihat adabiyotning bosh vazifasi ekanligiga urg‘u berib, ma’rifiy fiklar va axloqiy o‘gitlardan xoli devon tuzilsa, behuda zahmat chekilgan bo‘ladi deb ta’kidlagan va o‘zining hatto ishqiy g‘azallari ham ulardan benasib emasligini alohida qayd etib o‘tgan edi [4.21]. Badiiy asarlarda pandnoma, hikmatlarning nechog‘lik ahamiyati beqiyos ekanligini shundan ham bilsa bo‘ladi

Har qanday ijodkor ham hikmatli so‘zlarni yaratishga qodir bo‘la olmaydi. Avvalo, ijodkor buning uchun tom ma’noda donishmand yo faylasuf bo‘lishi darkor. Zotan, bu hislat esa ijodkorning intellektual mahoratini belgilab beradi. Aynan, Muhammad Yusuf dostonlarda o‘zi yaratgan hikmatli so‘zlarni qo‘llanilganligi favqulotda betakrorligi, mazmunning chuqur ijtimoiy-falsafiyliigi, davr o‘tsa ham ohori to‘kilmaganligi bilan xarakterli. “Osmonning oxiri” dostonida keltirilgan misralarda insonni hayotini zoya o‘tkazmaslikka, uyg‘onishga, ya’ni ko‘zlarini ochishga chorlovchi hikmatlari bor:

*...Uyqu – ham  
Nasiyaga berilgan umr,  
Uyqung ortgan sayin  
Qarzing ham ortar...(Osmonning oxiri)*

keltirilgan jumlar ijodkorning faylasufona ijod namunalari deb yuritsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Professor M.Yo‘ldoshev ushbu jumalarga shunday fikrlarini bildiradi: “Umrning har oni o‘lchovli, hatto uyquning ham badali bor. Buni idrok etgan kitobxon o‘z umrini sarhisob qiladi va shoirdan minnatdor bo‘ladi”[5.29.]. Aynan o‘sha jurnalda yuqoridagi parchaga B.Inatullayev ham o‘z fikrlarini yoritib o‘tadilar: “Har bir satri insonlarni yaratuvchanlik, ibtido va intiho oralig‘i bir qadam ekani-yu, unda butun dunyoni yaratishga qodir ekanini ta’kidlaydi...Shoir ushbu misrlari bilan inson umrining o‘lchovligini izohlash barobarida, inson kechgan umriga yarasha bunyodkorlikni amalga oshirishi lozimligiga ishora qiladi. U o‘z muxlislariga har bir kunni samarali o‘tkazishi, umrni behuda ishlarga sarf etmaslikni uqtiradi. O‘z navbatida mazkur satrlar shoir shaxsiyatini o‘zida aks ettirib, g‘ayrat-shijoatga limmolim to‘lgan qalb egasi ekanini ifodalaydi” [6.65].

Yana shu singari purma’no hikmatlari bir qancha:

*Asli dunyo nadir – Sahroi Kabir,  
Agar aziz ersa odam-da, aziz.  
Dunyoga keldingmi, dardingdan gapir,  
Umring o‘lchab qo‘ymish sarobni xasis. (Qo‘hna quduq)*

Muhammad Yusuf g‘animat berilgan umrni behuda sarf etmaslik, millat va jamiyatga naf keltirish oliy saodat ekanini ifodalaydi. Bu misralarda ilgari surilgan qarashlar o‘zbek xalqining “ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar” degan maqolning naqadar haq ekanligini, yoshlikni oltin davrini ilm va hunar o‘rganish bilan bezamoq lozimligini uqtiradi [6.65.]. Kuzatishlarimiz asosida Muhammad Yusuf dostonlarida qo‘llangan hikmatomuz jummalarni misol qilishimiz mumkin:

*Bilib turib birovga ozor berishdan yo‘q. O‘zing ham bimasdan birovga yaxshilik qilishdan ortiq yo‘q. (Osmonning oxiri)*

Bu keltirilgan aforizmlarda Muhammad Yusuf qarama-qarshi qo‘yish usulidan foydalanganligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. “Bilib” – “bilmasdan”, “ozor”- “yaxshilik”, “yomoni” – “yaxshilik” bu komponentlarning barchasi bir-biriga zid ma‘nolarni anglatib ifodalanganligi, fikrning aniqligi hamda ishonchligini kuchaytiradi. Aforizm strukturasi o‘ziga xos bo‘lib, ana shu o‘ziga xoslik badiiylikning xarakterini, uning miqyosini anglatib turadi. Aksariyat aforizmlar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qismdan iborat bo‘ladi. Ayni yuqoridagi keltirilgan Muhammad Yusuf dostonlardagi hikmatli so‘zlar bizga Zahriddin Muhammad Boburning g‘azallarini yodga soldi. Tadqiqotchil B.Rajabovanning “Bir g‘azal sharhi” maqolasida Zahriddin Muhammad Boburning g‘azali haqida shunday yozadi:

*Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?  
Kimki, ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘!  
Gar zamonni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,  
Ko‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘!  
Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma  
Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilig‘.  
Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yamonliq asru ko‘p,  
Emdi ko‘z tutmoq ne, ya‘ni har yamondin yaxshilig‘?  
Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q  
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘!  
Yaxshilig‘ ahli jahondin istama Bobur kibi,  
Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?!*

“Barchaga qo‘lingdan kelguncha, kuchu imkoniyating yetguncha birdek yaxshilik qilaverki, olamda va hayotingda, aslida, bundan ortiq yaxshilik, xayrli ish, savob bormi?” – degan salmoqli xulosasini esa “Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q” misrasida yorqin aks ettiradi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur tazodlari yordamida Bobur g‘azalda fikriy izchillik hamda tugallikka erishar ekan, go‘yo u cheksiz hurmat va bag‘rikenglik bilan insonlarga qarata “Yaxshilikni bilganga, munosib bo‘lganga

ham qilavering, bilmagan, munosib bo‘lmaganga ham qilavering, chunki o‘zingiz yaxshilar ahlidan, yaxshilar qatoridan bo‘lasiz, bu bag‘rikengligingiz, xayringiz bilan Olloh roziligini topasiz”, deyyotgandek bo‘ladi. Bu bejiz emas. Zero, “Qur’onda yaxshilik qilish insonning tabiiy burchi ekani, Olloh insonga o‘zining tabiiy ne‘matlari bilan ehson qilganidek, inson ham boshqalarga yaxshilik qilishi ta’kidlanadi” [7].

Demak, yuqoridagi keltirilgan misralar hamda fikrlar hamohangligi, g‘azaldagi jumlar bilan dostonidagi misrlar tuzilish jihatidan ham, ma’no jihatdan ham yakdil ekani ko‘rinib turibdi. Adib ushbu hikmatomuz misralarni aynan g‘azallardan ilhomlanib yaratgan desak hato bo‘lmaydi. “Muhammad Yusuf zamondoshlar xotirasida” kitobida Qamchibek Kenja: “Umrining qisqaligi ham ana shu jo‘shqin, otashnafas shoirimizga monand bo‘ldi. Yana ham to‘g‘rirog‘i, Muhammad Yusuf ulug‘ yurtdoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur yoshini yashadi. Unda Boburga xos xislatlar bor edi” [8.109.]. deya yozadi. Anglashiladiki, Muhammad Yusuf o‘zining ijod mahsuli bo‘lmish “yaxshilik” to‘g‘risidagi pandnomasining tub zamirida “Qur’on” suralari, ulug‘ bobokalonlarimizning hikmatlari yotganligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa kitobxonni ham tarixga, ham dinga hamda odobga olib boradigan yo‘lak vazifasini o‘tagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zotan, istiqlol davrida yurtda qanchalar yo‘lu ko‘priklar solingani yanglig‘, necha azizu avliyolarning muqaddas makonlari obod etilib, yana ne-ne muhtasham, muazzam binolar tiklangani misol adabiyotimiz, she’riyatimizda ham bu yillar nurli izlar qoldirdi. Ustozlar izidan, safdoshlari bilan yonma-yon Muhammad Yusuf ham, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z she’rlari bilan nurli ko‘priklar solib, yangi yorug‘ yo‘llar ochishga muvaffaq bo‘ldi. Uning nazmiy yo‘l-ko‘priklari ko‘ngillarni ko‘ngillarga uladi, dillarni dillarga yaqinlashtirdi, qalblarni bir-biriga yoru oshno etdi [8.38]. Kontrast usulidagi hikmatlarni “Osmonning oxiri” dostonlarida uchratishimiz mumkin: *Yer odamni boqadi. Kiyintiradi. Odam esa bir kun uni sahroga aylantiradi.* Adib hikmatli so‘zlarni asarda uchta sodda gap tarzida qo‘llanilgan bo‘lib, badiiy yaxlitlikni ifodalangan. Birinchi, ikkinchi “*Yer odamni boqadi. Kiyintiradi.*” sodda gaplar, uchinchi “*Odam esa bir kun uni sahroga aylantiradi.*” gap bilan kontekst bo‘lib keladi. Bu esa matn qismlari bilan mazmunan bir-biriga qarama-qarshi aloqada ekanligidan dalolat beradi. Personajlar xarakter-xususiyatiga ishora qilish, ko‘rsatish vazifasini bajargan bo‘lib, inson umrining ma’naviy tuban xulqatvoriga baho berilgan hamda keng ijtimoiy mazmuni yoritilib o‘tilgan. Natijada, ibratli dono fikrni tasdiqlovchi, kuchaytiruvchi qo‘shimcha qismlardan foydalanish janrning barqaror an‘analariga aylangan.

Shoirning “Qora quyosh” dostonida kelgan bir qancha hikmatli so‘zlar aynan ushbu usulda ifodalangan: “*Qora non – imon, jo‘ra.*”, “*Baxt bir burda qora non.*”, “*Haqiqat qon yurakdir.*”, “*Orzu yurgan yo‘lingdir.*”, “*Armon esdan chiqqan tush...*”. Asardagi ifodalagan hikmatli so‘zlarni tahlil qilar ekanmiz, ijodkor so‘z mahorati, baland badiiy saviyasi, keng tasavvuri va idroki, mantiqiy fikrlarni ushbu satrlarda qo‘llaganligini kuzatishimiz mumkin. Muhammad Yusuf keltirilgan birinchi hamda ikkinchi misralardagi “*Qora non*” so‘z birikmasiga “*imon*”, “*baxt*” so‘zlarini qiyoslagan. Yana “*qon yurak*” so‘z birikmasining ma’nosi “*haqiqat*” ot komponenti ma’nosiga, “*yurgan yo‘li*” so‘z birikmasi esa “*orzu*” komponentiga, “*esdan chiqqan tush*” ni “*armon*” komponentiga qiyoslanishi adibning qatag‘onning yovuz jabr-

sitamlariga duchor etilgan millat qurbonlarining ayanchli qismati, fojiali taqdirini o'ta ta'sirli darajada, mahorat bilan yoritib, barchani qalblarini larzaga soldi. "Qora quyosh" dostoni xalq, vatan mavzusidagi asarlar orasida eng o'ychanligi, achchiq alam va armonlarga to'laligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, bu doston mustabit tuzim davrida xalqimiz boshiga tushgan musibatlar xalqning asl, iste'dodli farzandlarining xalq dushmani sifatida yo'q qilinganligi, aslida kim dushman ekanligini bilmasdan, xalq boshiga qora kunlar solgan "jallod"larni e'zozlab kelgan sodda xalqimizga achinish qabilida yozilgan asardir. Qolaversa, bu dostonda shoir qalbining mustabid tuzimga bo'lgan cheksiz isyoni aks etgandir. Dostonlardagi mahzunlik tariximizdagi qora dog'lardan ko'ngilga ko'chgan iztiroblar aksidir. "Muhammad Yusuf zamondoshlar xotirasida" kitobida Muhammad Yusufning ushbu fikrlarini eslab o'tishni joiz topdik: "Imon yo'q go'shada ehrom qaydadir"... Uning nazdida So'z Vatan tushunchasi yanglig' qadrli va aziz [8.39]. Anglashiladiki, "qora non" so'z birikmasini "iymon"ga, "baxt"ga taqqoslashi bejizga emasligi, yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdi. Tariximizda millatni sotganlar, bir – birini oyog'idan tortganlar ozmuncha emas edi. Shoir yuragini qiynagan dardlar – o'z tarixini yaxshi bilmaslik, og'izbirlik yo'qligi. Muhammad Yusuf dostonlarida har bir so'zning o'z o'rni bor. Shoirning so'z qo'llash mahorati mazmun mohiyatiga mos so'zlarni kerakli joyda ishlatishi yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu fikrlarning dalili sifatida keltirmoqchi bo'layotgan hikmatli so'zlarda qatag'on qurbonlarining e'zozlashga chorlovchi pandnomasi deb aytsak hato bo'lmaydi:

*Ularning sanog'i yulduzdan ham ko'p,  
Yurtim, dilbandingdir har giyoh, har cho'p.  
Fidolarning bo'lgan farzandlaringdir,  
Nomdoru nomsizin xoki poyin o'p!..(Qora quyosh )*

Ulug' zotlarning xoki qo'yilgan maskanlar hamisha aziz, mukarram sanalib, obod go'shaga aylanib boradi [8.200].

*Asli inson xoki qo'yilgan hamma joy  
aziz va muqaddasdir.  
Bas, shunday ekan, odamlar istagan qabr  
tuproq'ini ko'zlariga suritsin.(Qo'hna quduq)*

keltirilgan parchada shoirning so'z qudrati, so'z sehri orqali buyuklarni xotirasini e'zozlash, ardoqlash hikmatlarida ifodalanadi. Bu yerda insonning din, e'tiqod, mazhab, irq, millat va rang-ro'yi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, muqaddasligi va uning hoki qo'yilgan tuproqning azizligi tarannum etilmoqda [5.29].

*Barcha buyuk zotlarning buyukligi ham xokisorligidir!*

Ushbu misrlar nazarimizda adib o'zi uchun bitganday. "Muhammad Yusuf zamondoshlar xotirasida" kitobida K.Otaxonov shunday fikrlarni bildiradi:

“Muhammad akaning so‘zidagi hikmat chin ma’noda bugun o‘z aksini topdi... Yozganlari dillarga naqsh kabi bitilarkan” [8.26].

Darhaqiqat, shoirning inson qalbini Ka’batullohdek muqaddasligini ta’kidlaydigan pandnomalari kitobxonni ezgulikka chorlaydi:

*Odamlar bir-birlarining diliga sig‘insin,  
deganlar mavlono Rumi.  
Chunki inson ko‘nglidan muqaddasroq  
Ka’ba ham yo‘q! (Qo‘hna quduq)*

Ko‘rinadiki, adib inson qalbini qadrini ulug‘lashga, mehr-oqibatli bo‘lishga undaydigan ushbu jumlar bizga Alisher Navoiyning “Badoyi’ ul-vasat”da yozilgan satrlarni yodga soladi:

*Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.*

Ya’ni ushbu misralar orqali qiyin ahvolga tushib qolgan biron bir kishining ko‘nglini ko‘tarish, unga yordam qo‘lini cho‘zish, yaxshilik qilish, Islom olami uchun eng muqaddas dargoh bo‘lmish Ka’ba vayron bo‘lgan bo‘lsa, uni obod aylagandek savob ekanligiga urg‘u beriladi [9.9]. Ko‘ngil haqida yana bir qancha aforizmlarni uchratamiz:

*Illo, toza dilda kufrga joy yo‘q... (Qo‘hna quduq)*

Muhammad Yusuf qalbgaga ozor beradigan so‘z qanchalar yomonligi haqida so‘z ustasi sifatida frazeologik birliklardan shunday ta’sirli foydalangan holda insonparvarlik tamoyillarini olg‘a suradi:

*Bir og‘iz sovuq so‘z bilan diling yana zimiston. (Osmonning oxiri)*

Muhammad Yusuf hikmatlari umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lashga, ezgu xislatlar, savob amallarga o‘rgatadigan o‘gitlar desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mahmud Toir adibni yotga olib shunday ta’if beradi: “Haq so‘z esa elning elagidan o‘tgan so‘z bo‘ladi. Ulug‘larimiz «iste’dod insonga o‘zini emas, o‘zgalarni baxtiyor qilish uchun beriladi», deganlar. Muhammad Yusuf kabi betakror, benazir shoirlari ko‘p bo‘lgan millat, xalq hamisha g‘urur va iftixor bilan yashaydi. Zero, so‘zimiz avvalida ta’kidlaginimizdek, yaxshi so‘z jon ozig‘i. Muhammad Yusuf she’riyatidan taralgan nur - bugun o‘zbek she’riyatining nuri bo‘lib dillardan dillarga, inshoolloh, ellardan ellarga taralmoqda. Zero, e’tiborni eldan topgan shoir zavol bilmagay” [8.65]. Anglashiladiki, ijodkor tomonidan yaratilgan hikmatli so‘zlar o‘zining tuzilishi jihatidan ixcham, mazmun-mohiyati esa chuqur bo‘lishi va murakkab masalalarni qisqa ravishda ifodalanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi barcha fikrlardan shu xulosaga kelinadiki, Muhammad Yusuf tomonidan yaratilgan hikmatli

soʻzlar, asosan oʻzining uslubiga, pochirkiga xos boʻlgan xususiyatlarga ega ekanligini namoyon qiladi. Bu aforizmlar esa oʻzbek tili lugʻatini boyishiga, kengayishiga oʻzining katta xissasini qoʻshadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Homidiy H, Abdullayeva Sh.,Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. –T.: Oʻqituvchi, 1967.–B.35.
2. Tafakkur tuhfalari. Saʼdiy Sheroziy. Hikmatlar. –T.: Oʻzbekiston, 2013. –247-b.; Tafakkur tuhfalari. Fariddin Attor. Hikmatlar. –T.: Oʻzbekiston, 2012. –255-b.;Tafakkur tuhfalari. Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. –T.: Oʻzbekiston, 2013. –245-b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –B.179.
4. Bu haqda qarang: Alisher Navoiy Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma jildlik. 1-jild. – T., 1987, 21-bet.
5. Yoʻldoshev M. “Muhammad Yusufni anglash” maqolasi. OʻzDSMI xabarlarlari 2020/3(5) 29-b
6. Inatullayev B. “Muhammad Yusuf sheʼriyatida ijtimoiy faol shaxs fenomeni” maqolasi. OʻzDSMI xabarlarlari 2020/3(5) 65-b.
7. <http://www.uchildiz.uz>
8. Мухаммад Юсуф замондошлари хотирасида / Мухаррир У. Қўчқоров. - Тошкент: «ADIB» нашриёти, 2014. - 109 б
9. Yoʻldoshev I.Himmatning qiymati. Toshkent. “Fan ziyo” nashriyoti. 2021.9-b.

### **DARVIN NAZARIYASI HAQIQATMI YOKI HAYOLOT?**

**Ibrohimov Abdutolib,**

OʻzDSMI “Madaniyat va sanʼat muassasalarini tashkil etish va boshqarish” taʼlim yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Marufjon Yoʻldashev,**

OʻzDSMI “Oʻzbek tili va adabiyoti” kafedrasi professori

#### **Annotatsiya**

Darvinning hayoti va nazriyasi, bugungi kunda uning koʻplab yevropa davlatlarida baʼzi joylari rad etilishi, Quronda insonning bir otadan, yaʼni Odam (a.s.)dan tarqalganligi haqida bayon etilishi haqida yoritilib oʻtildi.

**Kalit soʻzlar:** evolyutsiya, qobiq, odam, nazariya, organism, seleksiya, xromasoma.

#### **Аннотация**

Жизнь и теории Дарвина сегодня освещаются во многих европейских странах, и в Коране говорится, что человек произошел от одного отца, Адама (мир ему).

**Ключевые слова:** эволюция, оболочка, человек, теория, организм, отбор, хромосома.

#### **Annotation**

Darwin's life and theories are covered in many European countries today, and the Quran says that man descended from one father, Adam (peace be upon him).



**Key words:** evolution, shell, human, theory, organism, selection, chromosome.

DARVIN (Darvin) Charlz Robert – ingliz tabiatshunosi, hayvon va o‘simlik turlarining tabiiy tanlanish yo‘li bilan kelib chiqqanligi haqidagi evolyutsion ta‘limot asoschisi.

U “Bigl” kemasida tabiatshunos sifatida dunyo sayohatiga chiqib (1831–36), zoologiya, botanika, geologiya, paleontologiya, antropologiya va etnografiya sohasida kuzatishlar olib bordi. Shu kuzatishlar asosida biologiya va amaliy seleksiyaning zamonaviy yutuqlariga asoslanib organik dunyo evolyutsiyasining asosiy omillarini ochib berdi. Uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda taniqli ingliz geologi Charlz Laylning “Geologiya asoslari” kitobi muhim rol o‘ynadi. Laylning ta‘kidlashicha, Yerning zamonaviy qiyofasi hozirgi kunda ishlayotgan xuddi shu tabiiy kuchlar ta‘siri ostida asta-sekin shakllandi. Darvin Erasmus Darwin, Lamark va boshqa dastlabki evolyutsionistlarning evolyutsion g‘oyalari bilan tanish edi, ammo u ularni ishonchli deb topmadi.

Uning taqdiridagi hal qiluvchi burilish uning “Beagle” (1832–1837) kemasida dunyo bo‘ylab sayohati edi. Darvinning o‘zi aytganidek, ushbu sayohat paytida unga eng ko‘p taassurot qoldirgan: “1) zamonaviy armadillolarning qobig‘iga o‘xshash qobiq bilan qoplangan ulkan fotoalbom hayvonlarning topilishi; 2) Janubiy Amerika materigi bo‘ylab harakatlanayotganda, bir-biriga yaqin hayvon turlari bir-birini almashtirishi; 3) Galapagos arxipelagidagi turli xil orollarning bir-biriga yaqin turlarining bir-biridan ozgina farq qilishi. Bu kabi faktlarni, boshqa ko‘plab narsalar singari, faqat tur asta-sekin o‘zgarib borishi haqidagi taxmin asosida tushuntirish mumkinligi aniq edi va bu muammo meni ta‘qib qila boshladi”.

Safardan qaytib kelgach, Darwin turlarning kelib chiqishi muammosi haqida o‘ylashni boshlaydi. U turli g‘oyalarni, shu jumladan Lamark g‘oyasini ko‘rib chiqadi va ularni rad etadi, chunki ularning hech biri hayvonlar va o‘simliklarning yashash sharoitlariga ajoyib moslashuvchanligi faktlarini tushuntirmaydi. Dastlabki evolyutsionistlar dastlab nima deb o‘ylashgan va o‘z-o‘zini tushuntirish Darwin uchun eng muhim savol bo‘lib tuyuladi. U tabiatdagi va uy sharoitida bo‘lgan sharoitda hayvonlar va o‘simliklarning o‘zgaruvchanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘playdi. Ko‘p yillar o‘tgach, Darwin o‘zining nazariyasi qanday paydo bo‘lganligini eslab shunday deb yozgan edi: “Men tez orada seleksiya insoniyatning hayvonlar va o‘simliklarning foydali irqlarini yaratishdagi muvaffaqiyatining asosi ekanligini angladim. Biroq, bir muncha vaqt tabiiy sharoitda yashovchi organizmlarga qanday qilib seleksiyani qo‘llash mumkinligi men uchun sir bo‘lib qoldi”. Aynan o‘sha paytda Angliyada ingliz olimi T.Maltusning populyatsiyalar sonining eksponent ravishda ko‘payishi haqidagi g‘oyalari qizg‘in muhokama qilindi. “1838-yil oktyabr oyida men Maltusning Populyatsiya to‘g‘risida kitobini o‘qidim”, – deb davom etadi Darwin, – va hayvonlar va o‘simliklarning turmush tarzini doimiy ravishda kuzatib borish orqali, men mavjud bo‘lish uchun keng ko‘lamli kurashning ahamiyatini anglash uchun juda yaxshi jihozlangan edim. zudlik bilan bunday sharoitda qulay o‘zgarishlar davom etishi

kerak va noqulaylarni yo‘q qilish kerak degan fikr paydo bo‘ldi. Buning natijasi yangi turlarning shakllanishi bo‘lishi kerak.

Darvin “Turlarning kelib chiqishi” asarida hayvon va o‘simlik turlarining kelib chiqish, rivojlanish sabablarini va atrof-muhitga moslashishini tahlil qildi.

“Odamning paydo bo‘lishi va jinsiy tanlanish” asarida (1871) odamning maymunsimon ajdodlardan kelib chiqqanligining biologik va ijtimoiy shart-sharoitlarini ilgari surdi. Darvinning evolyutsiya nazariyasi – barcha organizmlarning umumiy bir otadan kelib chiqadigan tushunchasi. Bu o‘zgarish bilan hayotning tabiatning kelib chiqishiga urg‘u beradi. Murakkab shaxslar oddiy shaxslardan rivojlanadi, bu ancha vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tadi. Organizmning genetik kodida tasodifiy mutatsiyalar paydo bo‘ladi, foydali bo‘lganlar qoladi va omon qolish uchun yordam beradi. Vaqt o‘tishi bilan ular to‘planib, natija asl nusxada emas, balki butunlay yangi turdagi o‘zgarishlardan iborat holatda yaraladi deb o‘ylagan. Darvinning inson kelib chiqishi nazariyasi hayotning umumiy evolyutsion rivojlanishiga kiritilgan. Darvin insonning pastki turdagi hayotdan kelib chiqqan va maymunli umumiy ajdodga ega ekanligiga ishongan.

Darvinning nazariyasi haqiqatmi yoki fantastikami?

Darvinning evolyutsion nazariyasi – ko‘p asrlar davomida ko‘plab nizolar mavzusi. Bir tomondan, olimlar qadimgi kitlar nima haqida gapirishlari mumkin, ammo boshqa tomonda – fotoalbom dalillari yo‘q. Yaratilishchi (dunyodagi ilohiy kelib chiqishi tarafdorlari) buni evolyutsiyaning yo‘qligi haqidagi dalil sifatida qabul qiladilar.

Darvinning “Odamning paydo bo‘lishi va jinsiy tanlanish” asaridan keyin So‘nggi yillarda, “yo‘qolgan bog‘lanishlar” deb ataladigan transient turlarning ko‘payishi kuzatildi. Shunday qilib, Charlz Darvinning inson kelib chiqishi nazariyasi maymun va inson o‘rtasidagi oraliq turdagi Pitekanteropning qoldiqlarini kashf qilish orqali kuchaytirildi. Darvin nazariyasini rad etadigan dalillar:

Tadqiqotlarga ko‘ra, Yer sayyorasi taxminan 20-30 ming yilni tashkil etgan. Yaqinda ko‘pgina geologlar sayyoramizdagi kosmik chang miqdori, daryolar va tog‘lar yoshini tadqiq qilganlar.

Insonning 46 xromosomasi va maymuni 48 ga teng. Bu inson va maymunning umumiy ajdodlari bo‘lgan degan fikrga mos kelmaydi. Xromosomalarning maymundan “yo‘qolib” qolishi natijasida bunday turlar oqilona rivojlana olmadi. So‘nggi bir necha ming yil mobaynida birorta balina yo‘q edi, bir maymun inson emas edi.

Tabiiy go‘zallik, masalan, antiviruschilar, tovus quyruqlarini tasvirlash uchun, foydali dastur bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Evolyutsiya bo‘ladi – dunyodagi hasharotlar yashaydi.

### **Darvin nazariyasi va zamonaviy ilm**

Olimlar genlar haqida hech narsa bilmas ekan, Darvinning evolyutsion nazariyasi yoritildi. Darvin evolyutsiya nazariyasini kuzatgan, ammo mexanizm haqida bilmagan. XX asr boshlarida genetika rivojlana boshladi – ular xromosomalar va genlarni ochishdi, keyinchalik ular DNKning molekulasini ochishdi. Ba’zi olimlar uchun

Darvinning nazariyasi inkor etilgan – organizmlarning tuzilishi murakkabroq bo‘lib chiqdi va inson va maymunlarda xromosomalar soni boshqacha.

Ammo darvinizm tarafdorlari, Darvin hech qachon bir odamning maymundan kelganligini aytmaganlar – ularning umumiy otasi bor. Darvinchilar uchun genlar kashf etilishi evolyutsiya nazariyasining sintetik (evolyutsiya) nazariyasini Darvinning nazariyasida genetikani kiritish rivojlanishiga turtki berdi.

### **Odam maymundan tushdi**

Ushbu tezis, ayniqsa, ko‘pincha olimga tegishli. Darvinning ismini bilmaydigan muxoliflar odatda shunday so‘rashadi: nega endi maymunlar odamga aylanishni to‘xtatdi? Biroq, Darvin hech qachon odam maymundan kelib chiqqan deb da‘vo qilmagan: u maymun va odamning yagona ajdodi borligini aytgan. Ushbu asl ajdod Pitkantrop maymunga o‘xshash edi, ammo turli sabablarga ko‘ra rivojlanish turli yo‘nalishlarda davom etdi. Bir yo‘nalishning natijasi maymunlarning paydo bo‘lishi, ikkinchisining natijasi esa odam edi.

Darvin o‘z nazariyasidan voz kechdimi...?

Darvin o‘lim to‘shagida to‘satdan uning nazariyasiga shubha qilib, Xudoga ishonganligi haqida afsonalar mavjud... Bu hech qanday ishonchli hujjatlar bilan tasdiqlanmagan. Uning avtobiografiyasida Darvin haqiqatan ham chuqur dindor bo‘lganiga oid dalillarni topish mumkin, ammo keyinchalik fan imonga soya solgan. Biror kishining nazariyasida ikkilanish va uni rad etish to‘g‘risida biron bir so‘z aytilmagan. Ushbu afsonaning manbai va‘zgo‘y Yelizaveta Xopning Baptist nashri edi – u Darvin unga o‘lim to‘shagidagi dunyoqarashidagi bu o‘zgarishlar haqida shaxsan o‘zi aytgan deb da‘vo qildi. Ammo, Darvinning bolalari, qizi Henrietta va o‘g‘li Frensisning aytishicha, Xedi xonim hech qachon otasi bilan shaxsan uchrashmagan, demak uning gaplari juda shubhali.

Darvinizm Injil nazariyasiga zid keladi...

Hech qanday holatda, biri boshqasiga zid kelmaydi. Buni Darvin ham tan olgan, qadimgi mutafakkirlar va dastlabki nasroniy faylasuflaridagi evolyutsion ta‘limotning asoslarini ta‘kidlagan. Ikkinchisi Xudo tomonidan yaratilgan tabiatning o‘zgaruvchanligi g‘oyasiga yo‘l qo‘ydi va ba‘zi hayvonlarning umumiy ajdodi bo‘lishi mumkinligiga rozi bo‘lishga tayyor edi. Zamonaviy katolik cherkovi, shuningdek, evolyutsiya nazariyasi cherkov ta‘limotiga zid kelmasligini va "inson tanasining kelib chiqishi masalasida gipoteza sifatida qaralishi mumkinligini" tan oldi ... Injilga binoan, birinchi hayot suvda paydo bo‘lgan, ilmiy qarash bilan bir qarashda ko‘rinadiganidan ham ko‘proq tasodiflar mavjud.

Darvin birinchi bo‘lib evolyutsiya nazariyasini taklif qildi

Charlz Darvin evolyutsiya haqida birinchi bo‘lib gapirganlardan uzoq edi – uning kitobi nashr etilgandan keyingina nazariya ommalashdi. Biroq, undan oldin Jan Batist Lamark darvinizmga o‘xshash nazariyani yaratdi. Lamarkning g‘oyalari ko‘ra, barcha tirik mavjudotlar erishilgan xususiyatlarning merosiga va mukammallikka intilishning ichki istagiga xosdir – shundan kelib chiqib ular rivojlanadi. O‘sha paytda bu so‘zlar ilmiy tasdiqni topmadi, ammo Darvin “mukammallikka intilish” nazariyasidan voz kechdi va uni tabiiy tanlanish faktori bilan almashtirdi. Bu katta

javobni topdi ... Darvin ham maymun bilan umumiy ajdod haqida birinchi bo‘lib gapirgan emas: Buffon undan oldin buni taklif qilishga jur‘at etgan.

Darvinizm nazariyasi tabiiy tanlanishga asoslanadi

Tabiiy tanlanish evolyutsiyaning muhim omillaridan biridir. Natijada, populyatsiyada mavjudlikka eng moslashgan shaxslar soni ko‘payadi va eng kam moslanganlar soni kamayadi. Biroq, tabiiy tanlanish bilan bir qatorda boshqa muhim omillar ham mavjud. Masalan, irsiy o‘zgaruvchanlik, ya’ni nasldan naslga o‘tadigan mutatsiyalar. Yana bir omil – bu tur ichida, turlar o‘rtasida mavjud bo‘lish uchun kurash, shuningdek, atrof-muhitning noqulay sharoitlariga qarshi kurash. To‘rtinchi omil, izolyatsiya, har xil turdagi shaxslar o‘rtasida erkin chatishtirishni istisno qiladi: bu spetsifikatsiyaga olib keladi. Bular Darvin evolyutsiyasi nazariyasining to‘rtta asosiy omilidir.

Darhaqiqat, u nazariyasidan voz kechganmi yoki yo‘qmi (faqat uning shaxsini anglashda va o‘zi bilan bog‘liq holda) muhim emas. Darvin hamma narsani qildi, chunki odamlar uning fikridan o‘zini oqlash uchun foydalanishi mumkin edi. Bu nazariya hech qanday olimlar massasini va biologiya asoslarini ta’minlamaydi (tur ichidagi genetik o‘zgarishlarni (quyon paxmoq quyonga, ov teriyeri Yorkshirga) maymunni odamga aylantirish bilan aralashtirishning hojati yo‘q, bunday dalillar topilmadi, bunday narsalar yaratilmagan. Va insonning kelib chiqishi haqida hamma narsa oddiy: yoki Xudo yaratgan, keyin siz bir-biringizga muhabbat haqida gapirishingiz mumkin, yolg‘on gapirish, odamga, mushukka, itga, baliqqa masxara qilish yomon – bu emas faqat biron bir odam bilan yurish yaxshi emas (va nafaqat sifiliz va gonoreya tufayli), balki hamma narsa ma’nosizdir. Fyodor Mixaylovich allaqachon yozgan edi: “Agar Xudo bo‘lmasa, hamma narsaga ruxsat beriladi”. Men bu masalaga bunday ochko‘zlik bilan qarashning boshqa sabablarini ko‘rmayapman.

Dunyoga va bir-biriga bo‘lgan muhabbat insonning tabiiy holatidir. Shuning uchun u barcha dinlarda mavjud (tarixgacha bo‘lgan odamlarning atrofdagi dunyoni tushunishga bo‘lgan dastlabki urinishlari). Evolyutsion nazariya ilmiy dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lgan odamlarda shubha tug‘dirmaydi. Odam maymundan emas, balki oddiy avloddan kelib chiqqan. Bu jarayon million yillar davom etgan. Insonning kelib chiqishi haqida boshqa jiddiy izohlar yo‘q!

### **Javob**

Ushbu nizo ochilganidan beri shuncha vaqt o‘tdi, men buni allaqachon unutgan edim ... Umumiy ajdod haqida gapirganda, bitta manba nazarda tutilgan... Men bitta zanjirning kashfiyotlaridan xabardor bo‘lsam, u yerda yo‘q va bizni maktabda o‘rgatgan barcha narsalar - bu faqat versiyalar, barcha arxeologiya qandaydir tarzda taxminlarga asoslangan. Va agar olimlar haqida gapiradigan bo‘lsak: ular ham har xil va har kim ham Imon, genetika va tarix masalasini tushunmaydi... nima deyish kerak, shifokorlar faqat ularning tor malakalarini tushunadilar. Dinshunoslar ham shunday olimlar va ularning hech bir kitobida odam qayerdan va nima uchun kelganligini topa olmaydi. Sizningcha, o‘liklarning changidan, bitta sayyoradagi ulkan galaktikada hayot tug‘ilganligini tushuntirish o‘rinli va jiddiy deb o‘ylaysizmi? Kechirasiz, qanday qilib? Biz hali ham kollayderdan gumanoidlarni kuzatmaganmiz. “Dunyoga va bir-birimizga bo‘lgan muhabbat insonning tabiiy holati” – bu yana bir

bor meni qattiqqo‘llik uchun bema‘nilikni katta harf bilan, toza suv bilan bema‘nilik, Sovet miyasini yuvish uchun. Sevgi bu nafaqat insonning, balki mutlaqo g‘ayritabiiy holati, lekin er yuzidagi barcha jonzotlarning orasida kichkina bolalar tishlab, bir-birini urib, o‘zlarining tor jamiyatining tepasida ekanliklaridan xursand bo‘lishadi va faqat tarbiya, iroda erkinligi va Xudoning ishtiroki tufayli inson kimni anglay oladi va sevgi kim (sevgi - bu ruhning qurbonlik davri. Men o‘zimni va o‘z manfaatimni rad etaman, qo‘shnimning farovonligi uchun vaqtimni, butunligimni, hayotimni berishga tayyorman. Bu qanday qilib tabiiy bo‘lishi mumkin?!). Dunyoga, gullarga, ariqlarga, maymunlarga, divanga va kotletlarga bo‘lgan muhabbat – bu ruh uchun axlat va o‘lim, bu haqda aytadigan hech narsa yo‘q, hamma narsa chiriydi va hech narsa qolmaydi - bularning barchasi jiddiy tushuntirish.

Evolyutsiya nazariyasi maktablarda va universitetlarda o‘rganiladi, ammo bu haqda hali ham ko‘plab afsonalar va noto‘g‘ri tushunchalar mavjud.

Diniy manbalarda keltirilishicha insoniyatning otasi bittadir.

Qur‘oni karimda keltirilishicha Alloh insonlarni bir otadan, ya‘ni Odam alayhissalomdan yaratdi. Sa‘d ibn Mas‘ud rivoyat qilgan ushbu xabar yanada ajibroq. Uning aytishicha, Yerda fasod qilgan jinlar bilan jang qilgan farishtalar yoshgina Iblisni ushlab olib, osmonga olib chiqqanlar. Iblis farishtalardan Allohga ibodat qilishni o‘rganib, qattiq muxlis bo‘lib, juda ko‘p ibodat qilgan va Allohning huzurida yuqori martabalarga erishgan. Allohning huzurida “Azozil”, “Horis”, “Hakam” degan nomlarga ega bo‘lgan. Alloh taolo Iblisning ana shunday ulug‘ martabada bo‘lib turgan, Yer-u osmonning podshosi, farishtalarning ustoz, jannat xazinalaridan biri maqomini egallab turgan bir vaqtda Odamni yaratishni iroda qildi ( “Payg‘ambarlar tarixi” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ).

Iblisda paydo bo‘lgan takabburlik va itoatsizlikdan farishtalarni ogoh qilish, uning saltanati, mulki va hukmi zavolga yuz tutganini izhor qilish maqsadida Alloh taolo Yerga yangi xalifa – Odamni yaratishni iroda qildi va farishtalarga bu haqda: “Eslang, (ey Muhammad) Robbingiz farishtalarga: “Men Yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman” – deya bashorat berdi. Farishtalar Allohning xos maxluqotlari bo‘lib, Yaratganga itoat va ibodat qilish uchun yaratilgan edilar. Ular: “Bizdan biror kamchilik yoki xatolik sodir bo‘lmadimikan”, – deb o‘zlarini oqlamoqchi bo‘ldilar va: “Ey Robbimiz, u yerda buzg‘unchilik qiladigan, qonlar to‘kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug‘laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz”, deb e‘tiroz bildirdilar. Alloh taolo ularning dillariga taskin berib: “Albatta, Men bilgan hikmatni sizlar bilmaysizlar” – dedi. Alloh bilgan hikmat esa, Iblisning takabburligi, itoatdan chiqib ketganligini farishtalarga bildirish edi. Shuning uchun ularga amr qilib “Albatta, Men loydan bir odam yaratguvchidirman. Bas, qachon uni rostlab, unga o‘z ruhimdan puflab kirgazganimdan so‘ng unga sajda qilgan holda yiqilinglar!” (Sod, 71-72.) deb buyurdi. Keyin Jabroil (a.s.)ni tuproq olib kelish uchun Yerga yubordi. Yer Jabroilga tuproq berishdan bosh tortdi va: “Men Allohdan sendan najot berishini va menga nuqson yetkazishingdan saqlashini so‘rayman”, - dedi. Jabroil (a.s.) Alloh huzuriga chiqib, tuproq ololmaganlarining uzrini aytdilar. Alloh Mikoil farishtani yubordi. Mikoilga ham Yer tuproq bermadi. Alloh taolo o‘lim farishtasi Azroilni yubordi. Yer unga ham tuproq bermay Allohdan pano‘radi. Azroil: “Men

ham tuproq olmasdan va Allohning buyrug‘ini bajarmasdan qaytib ketishdan Allohdan panoh so‘rayman”, - dedilar va Yerning bir necha rangli – qizil, oq, qora tuprog‘idan oldilar. Shu sababli insonlarning ranglari turlichadir. Azroil (a.s.) tuproqni Allohning huzuriga olib chiqdilar, unga suv qo‘shib aralashtirdilar, yopishqoq loyga aylandi. Shu holicha tashlab qo‘yildi, to qora balchiqqa aylandi. Shuning uchun otamizning nomlarini Odam deyildi, chunki bu so‘z “adim” so‘zidan olingan bo‘lib, “aralash tuproq” degan ma‘noni bildiradi. Abu Muso al-Ash‘ariy (r.a.) rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v) dedilar: “Alloh taolo Odam (a.s.)ni Yerning hamma joylaridan olingan tuproqdan yaratgan. Yer turlicha rangda va tabiatda bo‘lgani uchun Odam farzandlari ham qizil, qora, oq yoki bu ranglar orasidagi ko‘rinishda, tabiatlari esa xursand, xafa, yaxshi, yomon holatda bo‘ladilar. Tuproqni ho‘llab, yopishqoq loyga aylantirdi, keyin uni tashlab qo‘yib, achigan balchiqqa aylantirdi, keyin uni yana bir necha muddat pishitib, sopol loyiga aylantirdi” (Tarixi Tabariy. Qohira. 1939.1-j. 62-bet.). Alloh taolo Odam (a.s.)ning jismlarini o‘z qo‘li bilan yasadi. Shunday jonsiz holatda qirq kun yotdi. Iblis Odam (a.s.)ning jonsiz tanasi yoniga keldi, oyog‘i bilan tepib ko‘rdi. Odamning jasadidan chinni jarangidek ovoz chiqdi. Iblis Odam jasadining og‘zidan kirib, orqasidan chiqdi, yana orqasidan kirib, og‘zidan chiqdi. Uning ko‘ziga Odam arzimas narsa bo‘lib ko‘rindi. Iblis dedi: “Sopoldan yasalgan sen arziri narsa emassan. Men senga zo‘rlik qilsam, seni halok qilaman. Sen menga zo‘rlik qilsang, senga itoat etmayman”. Abdulloh ibn Mas‘ud (r.a.) va boshqa ko‘pgina sahobalar rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: “Alloh taolo Odamga ruh ato qilmoqchi bo‘ldi va farishtalarga: “Agar men Odamga ruh ato etsam, sizlar unga sajda qilinglar”, - deb buyurdi. Ruh Odamning boshiga kirganda, Odam aksa urdi. Farishtalar unga: “Alhamdu lillah” degin, deb o‘rgatdilar. Odam: “Alhamdu lillah”, - dedilar. Alloh taolo unga javoban: “Senga Robbing rahm qilsin!” - dedi. Ruh Odamning ikki ko‘ziga yetganda jannat mevalarini ko‘rdi. Ruh qorniga yetganda ovqatga ishtahasi qo‘zg‘ab, o‘rnidan turishga harakat qildi va jannat mevalariga intildi». Alloh Odam (a.s.)ga dunyodagi barcha maxluqot va mavjudotning ismlarini, yaratilish hikmatini o‘rgatdi. Odam (a.s.) ilmlari tufayli butun maxluqot ichida eng afzali va eng ulug‘iga aylandilar. Shu ilm tufayli hamma narsa u kishiga bo‘yin egdi. Odam zurriyotlari ham shu ilm bilan mufazzal bo‘ldi. (“Payg‘ambarlar tarixi” Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.)

Odam (a.s.) qissasi.

Abdulloh ibn Mas‘ud (r.a.) va boshqa sahobalardan rivoyat qilingan hadisda aytilishicha, Alloh taolo Iblisni jannatdan quvganidan keyin uni osmonda uchib yuradigan va jannatga qayta tushmaydigan qildi. Odamni esa jannatda makon qildirdi. Odam (a.s.) jannatda yashasalarda, yolg‘izlikdan hadiksirar va qalblari taskin topmas edi. Bir kuni uyqudan uyg‘onsalar, bosh tomonlarida bir ayol kishi o‘tiribdi. Undan: “Sen nima uchun yaratilding?”, - deb so‘radilar. Ayol: “Men bilan qalbingiz taskin topsin uchun”, - dedi. Odam (a.s.) ayolni “Havvo” deb nomladilar. Alloh taolo Odam (a.s.)ni Havvoga uylantirdi va ularga: “Ey Odam, siz juftingiz bilan jannatni maskan tuting va u yerda yenglar, ichinglar, ammo mana bu daraxt mevasidan yemanglar, zolimlarga aylanasizlar”, (Baqara, 35.) - deb buyurdi. Odam va Havvo jannatda uzoq vaqt farog‘atda yashadilar.

Bizning soxta ilmiy, ammo asossiz g'oyalar mavjud bo'lgan, odamlar taxmin qilishni yoqtiradigan dunyomizda siz ma'lumot bilan ishlashni, bug'doyni somondan ajratib olishni bilishingiz kerak. Fikrlar bir-biridan farq qiladi: nazariyalar, taxminlar, xurofotlar asosida taxmin qilish shunchaki bitta narsa; ikkinchisi – har qanday masala bo'yicha daliliy nuqtai nazardan qo'llab-quvvatlanadigan asosli bo'lishi – ularning ahamiyatini tekshirish qiyin ish emas. Nazariyani kim tomonidan qurilganligi muhim emas, muhim narsa uning asosidir.

## КЎНГИЛ МУЛКИНИ ТАРОЖ АЙЛАГАН ҚАЛЬ ЭГАСИ

**Shukurov Bummyod Shuhrat o'g'li**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

Institute “Xalq ijodiyoti” fakulteti

“Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo'nalish 3-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. M.Yo'ldoshev**

**Аннотация:** Ушбу мақолада Алишер Навоий ижодининг ўзига хослиги ва мазмун-моҳияти, асарларида акс этган инсоний фазилатлар хусусида сўз юритилган. Шунингдек, Навоий ижодининг бугунги кун учун нечоғлик аҳамияти, ёшлар маънавий камолотига таъсири ҳамда таълим-тарбиядаги ўрни ҳақидаги фикрлар баён қилинган.

**Калит сўз:** Навоий ижоди, комил инсон, ёшлар тарбияси, инсоний фазилатлар.

*“Ҳеч ким туркий ше’рни ундан яхшироқ айта олмаган  
ва назм дурларини ундан яхшироқ соча олмаган”  
(Ҳакимшоҳ Қазвиний)*

Алишер Навоий ўзбек madaniyati, адабиёти тарихидаги улуғ сиймолардан биридир. У ўзининг ҳаёти ва ижодини Ҳаққа ва халққа бағишлаган инсондир. У лирик ва эпик шоир, мутафаккир, таржимон сифатида тил, адабиёт ва madaniyatимиз тарихида алоҳида ўрин тутди.

Улуғ зотлар асарлари ҳамиша инсон тарбиясида катта аҳамият касб этиб келган. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг гувоҳлик беришича, “Алишербек тенги йўқ киши эди. Туркий тил била то шеър айтубтурлар, ҳеч ким онга кўп ва хўб айтқон эмас. Олти маснавий китоб назм қилибтур, беши «Хамса» жавобида, яна бири «Мантиқ ут-тайр» вазнида «Лисон ут- тайр» отлиқ. Тўрт ғазалиёт девони тартиб қилибтур: «Ғаройиб ус-сиғар», «Наводир уш-шабоб», «Бадойи ул-васат», «Фавойид ул-кибар» отлиқ. Яхши рубоиёти ҳам бор. Яна баъзи мусаннафоти борким, бу мазкур бўлғонларга боқа пастроқ ва сустроқ воқе бўлубтур. Ул жумладин иншоларини мавлоно Абдурахмон Жомийга тақлид қилиб жам

қилибтур. Ҳосияи калом, ҳар кимга ҳар иш учун ҳар хатким битибдур, йиғиштурубтур”.<sup>1</sup>

Навоийнинг тўлиқ исми - Мир Низомиддин Алишер Навоий "Мир" <sup>2</sup> сўзи амир сўзининг қисқарган шакли бўлиб, шоҳ саройидаги амал номидир. "Низом"<sup>3</sup> сўзи йўл-йўриқ, қоида, демакдир. Навоий ўз замонининг йирик дин вакили эди, Ғиёсиддин Муҳаммад ўғлига Алишер деб ном қўяр экан, уни пайғамбаримиз саҳобаларидан бири - Алига ўхшашини орзу қилган, "Шер" сўзи ҳам Алига нисбатан олинган. Пайғамбаримиз Алининг душманлар билан бўлган жангдаги жонбозлигини кўриб: "Али - Оллоҳнинг шери", - дер эди. Навоий шоирининг таҳаллуси бўлиб, "Наво"<sup>4</sup> сўздан олинган. Бу сўз замирида "қуй", "бахт", "бахра", "сайраш" маънолари бор. Шоир ўз таҳаллусига "бахра" сўзини асос қилиб олган.

Навоий кўпроқ туркий тилдаги асарларига Навоий, форс-тожик тилидаги асарларига Фоний таҳаллусини қўллаган бўлса-да, туркий тилдаги асарларига ҳам Фоний, форс-тожик тилидаги асарларига эса Навоий таҳаллусини қўллаганини ҳам баъзи манбаларда учратамиз.

Дарҳақиқат, Навоий туркий тил равнақи учун улкан ҳисса қўшган. Унинг замондоши ва шогирди бўлмиш тарихчи Хондамир ҳам Навоий ҳақида қуйидаги фикрларни билдирган: “Гарчи олий ҳазратга ўзидаги таъб қуввати ва қобилияти кўплиги жиҳатидан ҳар икки нав, яъни туркий ва форсий шеърлар муяссар бўлса-да, унинг ўткир таъби(нинг мойиллиги) форсийчадан кўра туркийчага ортиқроқ эди”<sup>5</sup>

Бадиий адабиётнинг ҳаётга, жамият эҳтиёжларига хизмат қилиши учун курашган Навоий лирик поэзиянинг тематикаси, ғоявий мотивлари ҳамда образларини бойитади. Инсон қалби бу - бир ифори гул бўлса, Навоий шу гул ифори, яъни инсонлар қалбига йўл топа оладиган бетакрор ва серқирра ижодкордир. Алишер Навоий ўз асарларидаги қаҳрамонларни, шундай гавдалантирганки, ундаги образларнинг жозибаси инсон қалбига нафақат илиқлик балки, ўзгача сурур бахш этади.

Умр - ўткинчи, одам фано ила бақо орасида мусофир-йўлчи. Бу йўлдан яхши инсон ҳам ёмон инсон ҳам ўтади. Шу ўткинчи дунёда умрни мазмунли ўтказган, ўздан хайрли ном қолдирган инсон ҳар дилдан жой олади. Шу жумладан, Навоий ҳам қалбларда мангу яшамоқда. Навоий асарлари ҳар биримизни ёруғ манзиллар сари мунтазам чорлаб туриши билан диққатга шоён. Шу ўринда Навоий шериятининг тағзамини бўлган панднома руҳидаги ушбу сатрларни ёдга олайлик:

---

1. Сирожиддинов Ш. Навоий замондошлари эътирофида. Қар.: <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/shuhrat-sirojiddinov-alisher-navoiy-zamondoshlari-etirofida.html>

2 “Amir” soʻzining qisqargan shakli hokim, hukmdor paygʻambar avlodlarining unvoni. Baʼzi erkaklar ismining tarkibiga kiradi.

3 “Nizom” arabcha tartib, tizim, tuzim, ustav, ichki tartib qoidalari.

4 “Navo” yarim oy shaklidagi bezak turi.

5 “Adabiyot” (Boqijon Toʻxliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun darslik-majmua. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent–2017) darsligidan.



Камол эт касбким олам уйидин  
Сенга фарз ўлмағай ғамнок чикмоқ,  
Жаҳондин нотамом ўтмак биайних  
Эрур ҳаммомдин нопок чикмоқ.<sup>6</sup>

Қитъада шоир кишиларни жисман ва руҳан покликка ундайди. Навоийнинг ҳар бир асарларида одоб-ахлоқ масалаларига нақадар чуқур ёндашганлигини илғашимиз мумкин. Бунда шоир ҳаммомга кириб нопок чиқиш қанчалар мантиқсиз бўлса, дунёга келиб камолга етмай ўтиш ҳам шунчалар беъманилик эканлигини таъкидлаб ўтган.

Навоий соз чалишни билган, куйлар басталаган. Ҳозиргача яшаётган "Қари наво" куйининг Навоий томонидан яратилганлиги айтилади. Навоий ажойиб расмлар ҳам чизиб турган. Бизгача етиб келган занжирбанд шеър расми Навоий томонидан чизилган. Навоий серқирра ижодкор бўлиш билан бирга ўз замонасининг етук davlat ва жамоат арбоби ҳисобланган. Хусусан, унинг энг яқин дўсти бўлмиш Ҳусайн Бойқаро ҳукмронлиги даврида, муҳрдор даражасида, кейинчалик эса вазир лавозимида ишлаган. Навоий тимсолида, ватани учун жонини беришга тайёр, ватанпарвар инсон қиёфасини кўришимиз мумкин. Унга мансаб, шон-шуҳрат эмас, балки, эл-юрт учун хизмат қилмоқ аълороқ эди. Маълумот учун шуни айтиб ўтиш жоизки, Навоий ўз ҳисобидан Ҳиротда ва бутун Хуросон мамлакатида 300 дан ортиқ иншоот қурдирган. Бундан кўриниб турибдики, Навоий халқи учун ҳар қандай ишга тайёр саҳоватпеша ва серҳиммат инсон бўлган.

Биз Алишер Навоий номини улуғлаб кўкларга кўтарамиз, улар буюк зот бўлсалар-да бағоят хушфеъл, оқкўнгил, халқпарвар ҳамда олийжаноб инсон бўлганлигини замондошлари қайд этишган. Навоий фазилатларини санаб тугатиш мушкул, унинг суҳбатда самимий, табиатан поктийнат, илмда соҳиби фасоҳат, муносабатларда эса одил, содиқ ва меҳрибон инсон эканлиги ҳам кўп ва хўб эътироф қилинган. Унинг қалби қуёш каби порлаб турар, ҳаёти давомида яхши амаллари билан эсланадиган буюк зот эди. Улуғ шоир, мутафаккир, davlat арбоби 1501 йилнинг 3 январиди вафот этади. Бу ҳодиса Навоийнинг яқинлари учун, нафақат яқинлари балки, бутун халқ учун оғир мусибатга айланган.

*Ўлимидан ҳар бир уйга тушди мотам,  
Мамлакатнинг ҳар бурчидан чиқди фиғон.  
Темир юрак, тош юракли кишилар ҳам,  
Бу даҳшатли мусибатдан ютдилар қон.<sup>7</sup>  
(Муҳаммад Амин)*

Хулоса сифатида шуни айтиш жоизки, Алишер Навоий ҳақида кўпдан-кўп мулоҳаза ва фикрлар келтиришимиз мумкин. Алишер Навоийни нафақат шахс сифатида, балки комил инсон сифатида ҳам билишимиз мумкин. Ойбекнинг

<sup>6</sup> "G'aroyib us-sig'ar" ning 10-qit'asi.

<sup>7</sup> <https://forum.ziyouz.com/> saytidan.

“Навоий” романида Хусайин Байқаро урушга киришга шошилаётган ва унинг мулозимлари ҳам Хусайин Байқарони қўллаб қувватлаётган бир вақтда, Навоий оқилона фикр билдирган: “Шоҳим урушни биринчи бошлаган шахс кўрқоқ кўринур, сиз муносиб вақтни кутмагингиз даркор, зеро беҳуда қон тўкилмасин”. Шундан кейин Хусайин Байқаро урушга киришга шошилмайди ва ушбу уруш сулҳ билан якун топади. Кўриб турибмизки, Навоийнинг чуқур мулоҳазага асосланган фикрларида тинчлик ва инсонпарварликни акс этаётганини сезишимиз мумкин. Унинг шеърлари, ғазал ва туюқларини ўқиган одам олам-олам завқ олади. Навоийнинг асарларини ўқиш ҳар бир инсоннинг тафаккурига ватан туйғусини, аجدодлар руҳига муҳаббатни, инсонлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат ва муомила маданиятини ўргатади. Ўтган вақтни ортга қайтариб бўлмайди. Демак, ҳар бир кунимиз тарихдир. Биз тарихда ўзимиздан қандай ном қолдирмоқдамиз? Ўзингизга савол бериб кўрингчи? Азиз замондош! Навоийнинг хотираси эса ҳар куни ҳар дақиқа юрагимизнинг туб-тубида тарих бўлиб яшайди ва яшайверади.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. <https://kh-davron.uz/> saytida keltirilgan.
2. <https://forum.ziyouz.com/> saytidan.
3. “G‘aroyib us-sig‘ar” ning 10-qit‘asi
4. “Adabiyot”(Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent–2017 darsligidan

## IV SHO‘BA

# FOLKLOR ETNOGRAFIYA: DUNYO XALQLARINING SHAKLLANISHI VA TAMADDUNI

---

### O‘ZBEKISTONDA GILAMDO‘ZLIK HUNARMANDCHILIGINING QADIMGI TURLARI

(Arab millatining “Jexezi” gilami misolida)

**O‘roqov Sulaymon Xamro o‘g‘li,**

*Xalq ijodiyoti fakulteti*

*Folklor va etnografiya ta’lim yo‘nalishi*

*1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna,*

*“Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi*

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekistondagi hunarmandchilik gilamdo‘zlikning Arab millatining “Jexezi” gilami haqida bayon qilingan bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi, O‘zbekiston hududidagi barcha turdagi do‘ppilar haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** gilamdo‘zlik, Jexezi gilami, gilam, sholcha, ustaxona.

#### **Annotation**

This article describes the history of handicraft carpet weaving in Uzbekistan, the Arab carpet “Jehezi”, the history of its origin, all kinds of doppies in the territory of Uzbekistan.

**Key words:** carpet weaving, Jehezi carpets, rugs, shawls, workshop.

Moddiy va madaniy meros bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan san‘at namunalari, ibtidoiy chizma rasmlarda antik davr va o‘rta asrlarda yaratilgan monumental badiiy obidalar mintaqada yashagan turli elat va qabilalar tomonidan ijod qilingan. Ayniqsa, antik davrda yaratilgan turli xildagi amaliy bezak san‘ati namunalari qadimiy xorazmliklar, baqtriyaliklar, sug‘diylar, marg‘iyonaliklar yuksak madaniyatga ega ekanligini namoyon qiladi. Ilgari zo‘r mahorat bilan odamlar, turli hayvonlar va butun bir voqealar tasviri berilgan obidalar o‘rniga geometrik va o‘simliklar shaklidagi bezaklar asosiy o‘rinni egallagan.

XX asr davomida texnikaning rivojlanib ketishi bilan barcha amaliy san‘at turlari qatorida gilamchilik san‘ati ham anchagina tanazzulga yuz tutdi va asta sekin inqirozga uchradi, ayollar gilamchilik mahorati sirlarini unuta boshladi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritishi bilan uning oldidagi eng muhim vazifasi an‘anaviy madaniy qadriyatlarni qayta tiklash va yuksaltirish bo‘lib qoldi. Buning natijasida qadimiy hunarmandchilik va ishlab chiqarishga yana qiziqish uyg‘ondi.

O‘zbek hunarmandchiligida keyingi yillarda ayniqsa qayta tiklanib rivojlana boshlagan badiiy-amaliy san‘at sohalaridan gilamdo‘zlik uzoq tarixiy an‘analarga ega.

Gilam va sholcha to‘qish arxeologik ma’lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi I ming yillik davrlaridan bizgacha yetib kelgan kasb bo‘lib, uning markazi Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo va Xorazmda joylashgan. Serhasham gullar bilan bezatilgan o‘zbek gilam va sholchalari sakkiz-to‘qqiz bo‘yoqli rangda bo‘lib, shulardan eng ko‘p ishlatiladigan rang to‘q va och qizil ranglardir. O‘tgan asr oxirlarigacha gilam to‘qishda o‘simliklardan tayyorlanadigan bo‘yoqlardan, hozir esa kimyoviy usulda tayyorlangan anilin bo‘yoqlardan foydalanilmoqda. Xiva, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda tayyorlanadigan to‘qima gilamlar o‘zining geometrik o‘simliksimon naqshi, bejirimligi va juda yaxshi sifati bilan mashhur. O‘zbek gilamlari asosan to‘qima xilda ishlangan. Ular yopiq holda o‘rnatilgan pastak sodda dastgohda to‘quvchi ayollar tomonidan tuya tiviti, qo‘y juni, paxta tolasi va ipakdan tayyorlangan.

1990-yillarda O‘zbekistonning asosiy gilamlari Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm viloyatlarida to‘qilmoqda. Badiiy hunarmandchilik va amaliy san’at respublika ilmiy-ishlab chiqarish markazi bo‘lmish “Musavvir” va uning yonida tashkil etilgan “Hunarmand” xalq ishbilarmonlari uyushmasi, shuningdek, “Usto” davlat uyushmasi tomonidan qadimiy naqshlar va texnologiyani tiklash borasida katta ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. Oxirgi yillar mobaynida o‘zbek hunarmandchiligi, jumladan, gilamlar Malayziya (1997), Fransiya (1998), Germaniya (1998)da o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarda namoish etilmoqda.

Bugungi kunga kelib xonadon ko‘rki bo‘lmish gilamchilik uch yo‘nalish bo‘yicha rivojlanmoqda.

1. An’anaviy xonadon hunarmandchiligi. 2. Davlat korxonalarida qo‘l mehnatiga asoslangan holda gilamlar to‘qish. 3. Xususiy korxonalarda gilamlar to‘qish. Gilamchilik markazlaridan biri bo‘lgan Qashqadaryo viloyatida unchalik katta bo‘lmagan oilaviy ustaxonalarda 5-6 tagacha gilam to‘qish dastgohlari mavjud. Bu dastgohlarda gilamlarning 10dan ortiq turlari to‘qiladi. Bu gilamlardan biri bu Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Jeynov shaharchasida arab millatiga mansub insonlar tomonidan an’anaviy xonadon hunarmandchiligida to‘qiladigan “Jexezi” gilami. Bu gilam o‘rta asrlarda yashgan qadimgi arab qabilasini asosiy ishi bo‘lgan. “Jexezi” so‘zining ma’nosi “Qiz”, ya’ni “Qiz gilam” degan ma’noni anglatadi. Bu gilamda asosan to‘q qizil ranglar ko‘p ishlatiladi. Uning to‘qiladigan iplari juda ingichka (sufta) yigirilgan bo‘ladi. Jexezi gilami qizlariga, kelinlariga sep-sarpo sifatida to‘qiladi. Uning naqshlaridagi ranglari juda ko‘p ma’noni anglatadi. Misol uchun: hayot yo‘llarining nurafshonligi, chiroyliligi qizil rangda ifoda etilgan, Sariq rang esa mehr-sadoqat sifatlarini ifodalab bergan. Bu “Jexezi” gilamlari hozir ham to‘qib kelinmoqda. Asosan bu gilamlar oilaviy ustaxonalarda 4-5 kishi tomonidan 35-40 oralig‘ida to‘qib yakunlanadi. Gilamning uzunligi 5 metr, eni esa 3,5 metr bo‘ladi. Mustaqil O‘zbekistonda madaniyat an’analari bugungi kunda o‘zining yangi istiqbolini namoyish etmoqda. Aytish joizki, ushbu ma’lumot kelajak avlod o‘z qadriyatlaridan habardor bo‘lishi uchun, bu hunarmandchilik turlarini boyitish, rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Iso Jabborov. O‘zbeklar. T.: Sharq. 2008. 224-225-bet.
2. O‘zbekiston san’ati. T.Sharq. 2001. 89-90-bet

3. “Navobaxsh” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasida yozib olingan.

## **XORAZM XALFACHILIK SAN’ATINING IJROCHILIK AN’ANALARI PERFORMING TRADITIONS OF KHOREZM KHALFA CRESCENT ART**

**Qurbonova Husnora Alisher qizi,**  
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti folklor va etnografiya  
ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: **Kurbanova Umida Shakirovna,**  
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasida dotsenti v.b.  
+998974807976

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Xorazm xalfachilik an’analari va ijro uslublarining o‘ziga xosligi, ijro maktabi va xalfalar ijodida tutgan o‘rni, xususi­da atroflicha tahlillar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xalfa, doston, ijod, ijrochilik, cholg‘u, qo‘shiq, Xorazm, an’ana.

### **Annotation**

This article provides a detailed analysis of the peculiarities of the Khorezm khalfa crescent traditions and methods of performance, the school of performance and its role in the work of khalfas.

**Key words:** Khalfa, epic, creation, performance, instrument, song, Khorezm, tradition.

Dunyo xalqlari ma’naviy xazinasiga benihoya ulkan hissa qo‘shgan ijodkor xalqimizning badiiy so‘z sehrini o‘ziga jo qilgan ko‘ngil chashmasidan qaynab chiqqan injular bamisoli jo‘shqin daryoga o‘xshaysi. Xalq qalbining navolari dilrabo qo‘shiqlari, an’ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz badiiy dahosining muhtasham qadriyat­lari xazinasini yuzaga keltirgan. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan Folklor san’atini rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyoti darajasiga olib chiqildi. Ajdodlarimizning benazir ijodiy salohiyati tufayli asrlar mobaynida sayqallanib, ma’naviyat bo‘stonning anvoyi gullari kabi ajib bir injular tizimi sifatida bizning kunlarga etib kelgan.

Xorazm xalq musiqasi o‘zining ajralib turuvchi lokal uslubi, o‘ziga hos jozibasi bilan alohida ajralib turadi. Xorazm musiqasining ohang tuzilish boyligi ham, ijrochilik yo‘llari ham o‘zgacha tarovatga egaligini namoyon etib turadi. Har bir qo‘shiq Xorazm musiqasida yangicha bo‘yoqlar bilan bezalishi kuzatiladi. Kuy va qo‘shiqlarning ko‘pligi ularning bo‘yoqlarga boyligidan ham dalolat beradi. (4, 15).

Tarixiy manbalarda yozilishicha Afrigiylar davri VI–VIII asrlarda ko‘p elatli turk xalqlarining o‘g‘iz qabilalari Markaziy Osiyo tekisligi, Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo‘ylarida yashaganlar. Keyinchalik o‘g‘iz tillari tarqalgan bo‘lib, shu bilan birgalikda musiqa madaniyatining turlari, shuningdek xalfa janri ham rivojlanadi. Xorazmda soz (garmon) tor, santur, bulamon, zang, daf, qayroq, cholg‘ulari hamda

ularni nomlanishi, shu bilan birgalikda “Lazgi”, “Sadri gusfand”, “Orazi bom”, “Ganji Qorabog’”, “Norim-norim” kabi Xorazmda hozirgacha saqlanib kelayotgan kuy, raqs va qo‘shiqlar nomlari kelib chiqishining tub sabablaridan biri Eroniy va Sosoniy sulolasi xalqlarining tarixan uzun madaniy yaqin aloqalari mavjud bo‘lganligini ifodasidir.

Xorazm vohasida mahalliy og‘zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayollar xalfalar deyiladi. Ular ikki turga bo‘linadi: to‘y va bazmlarda qo‘shiqlar ijro etuvchi “sozi xalfa” va boshqa marosimlarda kitob o‘quvchi “kitobiy xalfa”. Ularning ikkalasi ham faqatgina ayollar uchun xizmat qilgan. “Sozi xalfa”lar san’atida jo‘rnavoqli va yakka ijrochilik mavjud. Ularning ansambli uch kishidan iborat bo‘ladi. Xalfa, doirachi va raqqosa. Shuni alohida ta’kidlash kerakki ularning uchchalasi ham qo‘shiq, lapar ayta oladi. Xalfalar o‘zlari ijod etgan kuy va qo‘shiqlar bilan cheklanib qolmasdan, repertuaridan “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Oshiq Oydin”, “Oshiq Albant”, “Aslxon”, “Hurliqo va Hamro”, “Tohir va Zuhra”, “Go‘ro‘g‘li”, “Gulqand”, “Sayod va Hamro”, “Xirmon dali”, “Gulruh pari”, “Bozirgon” kabi dostonlar bilan bir qatorda Maxtimquli, Ogahiy, Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlar she’rlari va boshqa mualliflarning turli marosimlarga mo‘ljallangan asarlari ham o‘rin olgan Xorazm xalqining urf-odatlarini rang-barang bo‘lib, ular juda go‘zal va chuqur mazmunga ega. Hatto har bir tumanning o‘ziga xos udumlari bo‘ladi. Hattoki bir qishloqning odatlari boshqasini o‘xshamaydi. Urf odatlar insonlarning yurish turishida, ko‘rinishida aks etadi. (6, 25).

Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo‘lgan zukko ayollarni “xalfa” deb yuritishadi. Ushbu atama arabcha so‘z bo‘lib, uning ma’nosi shariat aqidalarini yaxshi biluvchi, o‘qimishli, boshqaruvchi, ustoz kishi tarzida shakllangan.

Xalfa qo‘shiqlari xalq ruhini, xalq orzu-armonlarini yorqin aks ettirib, odamlar yuragiga ta’sir etib xususan ayollar tomonidan ijro etiladigan san’at turi. Aynan xalfa qo‘shiqlari mehnatkash ommaning ozodlik va baxt uchun ko‘rashida madadkor bo‘lib, xalqning dardi ayniqsa, ayollarning hayoti, noxaklik, ayollarning manfaati kuylangan, g‘oyalarni jonli gavdalanitirib sodda, ravshan til bilan kuylarga solib badiiy shaklda tarannum qilgan janrdir.

Uzoq davrlardan buyon Xorazmdagi to‘y, sayl, aza marosimlarida xotin-qizlar davrasida “xalfa”lar san’ati ijodi ma’lum bo‘lib kelgan. Ular faqat ashula aytish bilan cheklanmaganlar, chunki xalfalar san’atning ko‘p turlaridan xabardor bo‘lganlar, ular xotin-qizlar o‘rtasida rang-barang xalq qo‘shiqlari, mumtoz ashulalari, shoirlarning g‘azallarini va oshiqlik dostonlaridan parchalar kuylashgan, diniy mavzuda suhbatlar qilishgan. Xalfalar bu davrada asosan xalq dostonlarini o‘qish bilan birga ularni musiqa jo‘rligida maromiga yetkazib kuylab ham beradilar. (7, 35).

Xotin-qiz xalfalarning ijrochilik an’analariga kelsak, bir turi piyola va likobchalarni bir biriga urib undan chiqqan ovozga jo‘r bo‘lib kuylaganlar shu bilan birgalikda xonanda va sozandalardan iborat xalfalar garmon va doira jo‘rligida xalq qo‘shiqlari, laparlar, yor yorlar, allalar, dostonlardan parchalar ijro qilganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xususan 1895 yildan boshlab garmon- cholg‘usini xalfalar san’atiga qo‘shilishi bilan ularning ijodi yanada yuqori pog‘anaga ko‘tarildi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Xorazmga “garmon” cholgʻusini kirib kelishi sanʼat ahli uchun yangilik kashf etdi. Xorazmda garmon cholgʻusini “soz” deb ataydilar. Xorazm musiqa sanʼatiga garmon cholgʻusi kirib kelgandan soʻng xalfalar bu cholgʻuni yaxshi oʻzlashtirib, oʻz faoliyatlarida ishlata boshlaganlar. Jumladan: Bibijon Qosim Devon qizi, Xonim xalfa, Onajon Sobirova (Anash choʻloq), Onabibi Otajonova (Ojiza), Yoqut xalfa, Nazira xalfa Sobirova, Oʻgʻiljon xalfa, Sora xalfa, Rohat xalfa Xoʻjaniyozova, Roziya Olloyorova, Soʻna xalfa Eshmatova, Roziya xalfa Qozoqova kabi xalfalar oʻz yalla-laparlarini garmon cholgʻusini chalib kuylashdi. Garmon cholgʻusini kirib kelishi Xorazm ijrochiligida xalfachilikni yuksalishiga imkon berdi. Ular toʻy va marakalarda, sayl, bazmlari, bayram va yaxshi kunlarida qatnashib, shodlikka-shodlik, quvonchga-quvonch qoʻshadilar. Oʻynoqi kuylar, nafis raqslar, dilbar qoʻshiq, yalla, laparlar bilan sanʼat ahllarining qalblariga ezgu his-tuygʻu ulashadilar. (10. 240).

Bugungi kunda baxshichilik va dostonchilik sanʼatini mamlakatimizda va xorijda keng targʻib etish, ustoz baxshilar, dostonchilar, soha olimlari iqtidorli yosh baxshilarni, moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-sonli qarori bilan, baxshichilik va dostonchilik sanʼatini yanada rivojlantirish, hamda takomillashtirish boʻyicha, 2018–2022- yillarga moʻljallangan “Yoʻl xaritasi” tasdiqlangan. “Yoʻl xaritasi”da nazarda tutilgan chora tadbirlarning toʻliq va sifatli bajarilishini nazorat qilish, masʼul vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirish rejalashtirilgan.

Oʻzbek folklor va dostonchilik sanʼatining noyob naʼmunalarini asrab avaylash va rivojlantirish, uni keng targʻib qilish, yosh avlod qalbida ushbu sanʼat turiga hurmat va eʼtibor tuygʻularini kuchaytirish, turli xalqlar oʻrtasida doʻstlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-maʼnaviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yilning 1-noyabr kuni “Xalqaro baxshichilik sanʼati” festivalini oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qilinib, bunda festival tadbirlari orasida mazkur soha olim va amaliyotchilarining ijodiy uchrashuvlarini uyushtirish zarurligi belgilab berildi. Shu munosabat bilan “Jahon sivilizassiyasida baxshichilik sanʼatining oʻrni” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi. Ushbu ilmiy konferensiyani oʻtkazishdan asosiy maqsad, baxshichilik hamda dostonchilik sanʼatini yanada rivojlantirish, oʻzbek va boshqa xalqlarning dostonlarni ilmiy oʻrganish, bu borada ilmiy hamkorlik qilish, madaniyat va sanʼat sohasidagi qolaversa maʼrifat sohasidagi hamkorlikni xalqaro miqyosda kengaytirishdan iboratdir.

Xulosa oʻrnida, Musiqa oʻqitish jarayonida oʻquvchi shaxsiyatiga hurmat, uning qobiliyati va kuchiga ishonch, ajdodlarimizning madaniy-maʼnaviy merosiga qiziqish, oʻzaro doʻstona munosabat asosida tashkil etilmogʻi lozim. Oʻquvchi, talabada musiqa darslariga erkin, oʻzaro samimiy muloqot shaklida harakat qilishi zarur. Shundagina oʻquvchida oʻz bilimiga ishonch hosil boʻladi. Jumladan, musiqa folklori ham oʻquvchilarning musiqiy bilimni boyitish jihatdan oʻrganiladi. Musiqa darslarida folklor qoʻshiqlarimizdan boʻlmish oʻzbek folklor qoʻshiqlaridan jumladan, xalfachilik

san'ati, xalq doston qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning milliy va estetik tarbiyasini takomillashtirish jarayonida xalq pedagogikasida ko'proq foydalanish lozimdir. O'quvchi-talabalarga ijodiy fikrlashni o'rgatish, hozirgi davr o'quv jarayonining eng samarali usuli bo'libgina qolmay, kelajagimiz bo'lmish yosh avlod oldidagi masalalar yechimini erkin topish qobiliyatiga ega bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan barkamol avlodni shakllantirishga zamin yaratgan bo'lamiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Sarimsoqov B. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi". T.: O'qituvchinashriyoti. 1990.
2. Yunusov R. Olti xalfa. – Urganch, 1994.
3. Quronboyeva N. Xorazm to'y qo'shiqlari. Filol. fanlari nomz. Diss. avtoref. T., 1998, 11-15-betlar.
4. Madrahimov Z., Nurmetov S. Targ'uncha. – Urganch, 1999.
5. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari, Xorazm. 1999.
6. Ro'zimboyev S. Ojiza. T.: O'zbekiston, 2003.
7. Zaripov O. Xiva san'ati – umr ziynati. Urganch, 2004.
8. Madrahimov Z. Xiva dudori. T., 2009
9. Madrimov B. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida Xorazm musiqa folkloridan foydalanish yo'llari. T., 2010.
10. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. T.: O'zbekiston, 2012.

## **O'ZBEK MUSIQA SAN'ATINING YUKSALISHIDA MAQOM SAN'ATINING O'RNI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek maqom san'atining tarixiy ildizlari o'rganilib, mustaqillik yillarida O'zbekistonda maqom san'atining rivoji va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa, maqom, san'at, shashmaqom, parda, kuy, ohang.

O'zbek xalq musiqiy merosi qadim-qadimdan rivojlanib, shakllanib, o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lib kelgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, milliy qadriyatlarimizga, urf-odat va an'analarimizni tiklashga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Shu jumladan, an'anaviy o'zbek ijrochiligi, baxshichilik san'ati bo'yicha o'tmishda an'anaviy "ustoz-shogird" uslubi bilan maqomchilik san'ati o'zlashtirilib kelingan bo'lsa, XX asrdan boshlab, musiqiy ta'lim muassasalarida an'anaviy ijrochilik, jumladan maqomchilik san'ati uslublari o'zlashtirilib, yuzlab iqtidorli yosh maqom ijrochilari kashf etib kelinmoqda. 2003-yil noyabr oyida "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi" deb, tan olindi. 2008-yili umumjahon Rerezentativ ro'yxatiga kiritildi va ushbu hodisa xalqimizning noyob xazinasini nafaqat saqlash va himoya qilish, balki yanada rivojlanishi va yuksalishiga olib kelmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391 sonli qarori [1.]ga binoan o‘zbek xalqi madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlarini o‘rganish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish va targ‘ib qilish, maqom san’atining ko‘p asrlik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o‘rgatish kabi maqsadlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3656 sonli qarori [2.]da o‘zbek milliy san’atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, uni asrab avaylash, rivojlantirish hamda yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va e‘tibor tuyg‘ularini kamol toptirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’rifiy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida bir qator vazifalar, shu jumladan, Sharq xalqlari mumtoz musiqa san’atining yetakchi janri – maqomlarni keng targ‘ib qilish, maqom an’analarini zamonga mos e‘zozlab saqlash, o‘rganish, o‘zlashtirish, rivojlantirish va maqom san’atining mohir ijrochilarini rag‘batlantirish, shuningdek, yosh avlod qalbida maqom san’atiga e‘tibor va mehrni oshirish, musiqiy merosning boy, badiiy va estetik imkoniyatlarini tarannum etish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash kabi vazifalar belgilab olindi. Belgilangan vazifalar asosida bugungi kunda respublika bo‘ylab amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbek mumtoz musiqasida maqom janri yetakchi o‘rinni egallab kelgan. Maqomlar juda qadim zamonlarda Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari musiqa madaniyatida mavjud bo‘lgan, yetuk sozanda va xonandalar, bastakorlar tomonidan yaratilgan va IX–X asrlarda rivojlanib, yangi vositalar bilan boyigan. “Maqom” so‘zi arabcha makon so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘rin”, “joy”, “bosqich”, “daraja” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu islom, adabiyot, tasavvuf ilmiy-amaliy yo‘nalishda va boshqa sohalarda ham keng iste’mol etilgan bo‘lib, maxsus ibora sifatida aynan musiqa san’atida eng ko‘p va xilma-xil ma’nolarda ishlatiladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida musiqa san’atidagi maqom va parda tushunchalariga quyidagicha izoh beriladi:

Maqom – musiqiy ohang, kuy yo‘li tartibi [3.B.456]. Parda – torli cholg‘u asboblari dastasidagi tovush notalarini belgilovchi bo‘g‘imlar [3.B.573], degan ma’nolarni anglatadi.

Musiqada “maqom” deganda kuy tovush qatorlarining alohida musiqa asari bochqichlari – parda tizimlari lad tizimlari: alohida musiqa asari, musiqa turi – cholg‘u va ashula asarlarini birlashtiruvchi katta-kichik turkumli janr deb tushunish kerak. Janr – san’at asarlarining syujet va uslub jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan har bir turi [3.B.273]. Turli xalqlar madaniyatida “maqom” iborali asar va turkumlar mavjud: maqom (o‘zbek va tojik xalqlarida), mug‘om (ozarbayjon xalqida), muqom (uyg‘ur xalqida), dastgoh (eron xalqida) no‘ba (mag‘rib xalqida) kabi iboralarning variantlari keng tarqalgan.

Maqom san’ati musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan badiiy mukammalligi, kuy hamda shakl tuzilishlari, lad va usul tizimlari hamda ilmiy va amaliy asoslari puxta

ishlangani bilan farq qiladi. Maqom musiqa, she'riyat hamda raqs san'atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy durdonadir.

Maqom yirik turkum va asar janri sifatida mumtoz musiqa toifasiga kiradi. Musiqa ijodiyotining boshqa turlaridan u o'zining badiiy mukammalligi, kuy va shakl tuzilishlari, lad va usul tizimlari hamda ilmiy va amaliy asoslarining puxta ishlanganligi bilan farq qiladi.

Maqom musiqa, she'riyat va raqs san'atlarini mujassamlashtiruvchi mushtarak badiiy jarayon. O'zbekistonda maqom san'ati cholg'u, ashula yo'llari va turkumlari – Buxoro “Shashmaqomi”, “Xorazm maqomlari” hamda “Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari” turkumlari, shuningdek, uning lokal turkumlari – Farg'ona “Surnay maqom yo'llari”, Xorazm “Dutor maqom turkumi”, “Feruz” turkumi va boshqalar mavjud.

Maqomlar tarixini o'zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o'rganish tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda bizga ma'lum tom ma'nodagi maqomlar bo'lmagan albatta. Zotan bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlanganki, bu (ikkinchi davr) xususida o'z o'rnida mufassalroq to'xtamga o'tamiz.

Ta'kid joizki, maqom kuy ohanglarini qadimiy qatlamlarini o'rganishga ko'mak bo'luvchi maxsus musiqiy risolalar bo'lmasa-da, ammo bu borada eng asosiy va muhim manbaalar bizning davrga qadar yetib kelgan. U ham bo'lsa ajdodlarimizdan ulkan ma'naviy meros qolgan “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari”dir. Maqom kuylarining xususiy “til” tuzilish (sintaksis) qurilmalarini malakali idrok va tahlil eta olish asosida ular tarkibida uyg'unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Ayni paytda bizga ma'lum rivoyatlar mazmunidan ham zarur xulosalar chiqarish mumkin.

Shu asnoda O'zbekistonda mavjud maqomlar (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari) musiqasiga nazar tashlar yekanmiz, uning har biri o'zgacha tarovatli kuy-navolari negizida eng mukammal darajada uyushgan parda (tovush) tizimlari borligi e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. 7 ta asosiy pardalari o'zaro uyg'un, ohangdosh tovushlar nisbatiga qurilgan bu nag'amot uyushmalari kim tomonidan va qachon ijod yetilgan? Bu borada yuritilgan mantiqiy fikr-mulohazalar asosida ularning shakllanish vaqtini keyingi davrlarga, ya'ni musiqa san'ati taraqqiy etgan asrlarga taalluqli deb o'ylash mumkin. Biroq jahon musiqa tarixi bunday xulosani inkor etadi. Chunki, maqom pardalariga o'xshash yeri asosiy pog'onali (pardali) tovush tizimlari Sharq-G'arb musiqa madaniyatiga juda qadim zamonlardan ma'lumdir.

Abdurauf Fitratning “O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927) risolasida qayd etilgan quyidagi satrlar ham shunga ishora etadi: “Temurning bayrog'i bilan har tomondan keltirilgan ixtisoschi olimlarning g'ayratlari bilan bu san'at birdan jonlandi, oyoqqa bosdi. Islom sharqining har tomonidan keltirilgan cholg'uchilar bizning bu kungi klassik musiqamizning yuksalishiga, ko'tarilishiga xizmat qildilar. O'z zamonida yerlilardan ulug' musiqiyshunoslar yetishdilar” [4.B.86].

Demak, o‘n ikki maqom tizimi ustoz kasbiy musiqachi va olimlarning o‘tmish va o‘zi yashab turgan **zamonining** musiqa boyliklarini yangi davr mumtoz talablari kesimida badiiy yaxlit holga keltirish ustida uzoq yillar olib borgan ilmiy-ijodiy faoliyatlarining samarasi o‘laroq yuzaga kelgan edi.

O‘n ikki maqom xususida so‘z yuritilganda, ularda jamlangan turli tarixiy davr musiqa yodgorliklari qanday ustuvor g‘oya va ma‘nolar tizimi asosida o‘zaro birlashib, mutanosib holga kelganligi masalasi ham alohida qiziqish uyg‘otadi.

Shunday qilib, qadimgi dunyodan meros bo‘lib kelayotgan mukammal parda uyushmalari keyinchalik maqom tizimlari yuzaga kelishida, shuningdek, bastakorlar xalq musiqa ijodiyoti rivojida ham muhim poydevor singari ahamiyat kasb etgan.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391 sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-3656 sonli qarori.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.: Русский язык. 1981.
4. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: Fan, 1993.

### **ҚЎҚОН АЁЛЛАР ЯЛЛАЧИЛИК SAN’АТИ**

*(“Омон-ёр” фольклор-этнографик халқ жамоаси мисолида)*

**Асқарова Ширин Иномходжаевна,**

Халқ ижодиёти: (Фольклор ва этнография) мутахассислиги 2-босқич  
магистранти

Илмий раҳбар: **Н.М.Турғунова** San’atshunoslik fanlari бўйича фалсафа  
доктори (Phd) доцент в.б  
+998990304853

### **Аннотация**

Фарғона – Тошкент муסיқа услубида хотин-қизлар ижодида, лапар ва турли кўшиқларни куйлаш, тўй маросимида айтиладиган ёр-ёр, келин салом ва яллаларни куйлаш анъанага айланган. Ушбу мақолада О‘zbekiston халқ артисти Раҳима Мазохидованинг яллачилик san’атига қўшган ҳиссаси илмий баён этилган.

**Калит сўзлар:** Фольклор, ялла, муסיқа, кўшиқ, ижрочилик.

### **Annotation**

Fergana-Tashkent music style has become a tradition in women's art, singing lapar and various songs, singing yor-yor, kelin salom, and yalla at weddings. This article scientifically describes the contribution of People's Artist of Uzbekistan Rahima Mazoxidova to the art of yallachi

**Key words:** Folklore, yalla, music songs, execution.

Фарғона водийси аёлларининг яллачилик san'ati анъаналари бугунги кунда Қўқон, Марғилон, Наманган шаҳарлари ҳамда Қува, Косонсой, Чуст, Учқўрғон, Избоскан, Олтинқўл, Балиқчи ва Асака туманларида ривожланиб, замонга ҳамнафас янги кўринишларда намоён бўлиб келмоқда. Водий яллачилигида кўлланиб келинаётган жанрлар асосини хотин-қизларнинг **ичкари** madaniyatida шаклланган кўшиқ, лапар, ялла, ўлан, ашула сингари айтим жанрлари ташкил этади.

Мазкур жанрларда ижод қилинган айтимларни ижро этишда яллачиликнинг водийда мавжуд ҳаваскорлик ва касбий турлари ўзаро фарқланади. Ҳаваскор хотин-қизлар халқ йўлидаги ялла ва бошқа айтимларни ижро этиш билан бир қаторда баъзан касбий яллачилар ижодига хос айтимлар (“Ўйнасин”, “Ўзи билса билсун”, “Омон ёр”, “Наҳори нашта”, “Дейди” ва бошқалар)га ҳам мурожаат этиб турадилар. Аммо зарур малака ва касб маҳоратлари етарли даражада бўлмагани боис уларни анчагина енгиллаштириб, кичик овоз (терция, кварта, квинта) доирасида ўзлари билганларича содда ва равон ижро этадилар. Бу фаолият билан улар фақат бўш вақларидагина шуғулланиб, ўз оилалари ёки хотин-қизлар йиғилган кичик давраларда вазият тақазосига кўра куйлаб беришлари мумкин. Баъзан эса, касбий яллачилар таклиф қилинмаган тўй маросимларида “Ёр-ёр” ва “Келин салом”ларни ҳам айтиб берадилар.

“Устоз-шогирд” таълимига таянилган касбий яллачиликда ўзига хос ижодий ва ижрочилик анъаналари юзага келган. Шеърят, мусиқа ва рақс san'atlари ўзаро муштарак бу san'at вакиллари (яллачилар) халқ орасида ёйилган айтимларни кўпроқ рақсбоп кўринишда ижодий талқин қиладилар. Шунингдек, халқ ижодига оид айтимлар асосида янги яллаларни ҳам юзага келтирадилар. Ижодий ва ижрочилик анъаналарига кўра, водийда икки йирик марказ – Наманган ва Қўқон яллачилик ижодий мактаблари шакллангандир.

Жумладан, Қўқон яллачилик мактаби асосчиси Раҳима ая Мазохидова яратган “Омон ёр” фольклор этнографик жамоасининг ижодий фаолияти ҳақида тўхталиб ўтамиз.

О'zbekiston халқ артисти “Меҳнат шўхрати” ордери соҳибаси Раҳимахон Мазохидова 1930 йил 8 март куни Қўқон шаҳрида таваллуд топган. 9 ёшидан бошлаб кўшиқ куйлаган. Устоз 1948 йил Қўқон шаҳри 8 ўрта мактабини тамомлаб, Муқимий номидаги шоҳи атлас тўқиш фабрикасига ишга киради. Фабрикадаги бадиий ҳаваскорлик тўғарагига мунтазам қатнашиб, шаҳар кўригида “Қурамиз зур каналлар” кўшиғини маҳорат билан ижро этган. Бу каби ноёб овоз соҳибаси санъат дарғалари назарига тушади. О'zbekiston халқ артисти, режиссёр Мурод Қўлдошев 1955 йилда Раҳима ая Мазохидовани театрга ишга таклиф этади. Раҳима ая Қўқон шаҳар Ўзбек davlat мусиқали ва драма театрида иш фаолиятини давом эттиради. Раҳима ая 50 йиллик ижодий меҳнат фаолияти давомида 30 дан зиёд турли жанрдаги спектаклларда маҳорат билан ажойиб образлар яратган. Ўзбек халқ кўшиқларини, лапар ва яллаларни қайтадан тиклаб, “Қари наво”, “Муножот” каби кўшиқларга янги сайқал, жило берган. Раҳима ая ўзининг самарали меҳнат фаолияти жараёнида халқимиз орасида муносиб ўрин топди. 1967 йили О'zbekiston ССРда хизмат кўрсатган артист, 1976 йили

О'zbekiston ССР халқ артисти унвонларига эга бўлди. 1981 йил Тошкент вилояти ҳокимлиги устозни чақириб янги ташкил этилган “Гулёр” фольклор жамоаси дастурларига ёрдам беришларини илтимос қилади. Устоз ушбу жамоага ўзининг муносиб хиссасини қўшди. Ижодий сафардан қайтган Раҳима ая 1982 йили “Қўқонда ҳам шундай жамоа ташкил қилсам бўлади-ку” дея Қўқон шаҳар 1 сон madaniyat бўлимига қарашли Дерезли маҳалласидаги 3 клубда “Омон ёр” фольклор этнографик жамоа ташкил этди. Шу маҳалладаги доира чалиб қўшиқ айтувчи аёллар ва ёш қизларни жамоа таркибига олди. Дастлаб 38 нафар аёллардан ташкил топган жамоа кейинчалик 50 нафарга етди. Жамоанинг энг кекса яккахон хонандаси 90 ёшлик Бахрихон Дехқонова эди. Илк иштирокчилар айримларини келтириб ўтамиз: Назорат Мирзалиева, Бахрихон Дехқонова, Хурсаной Қодирова, Умилхон Мамажонава, Муҳаббат Ташпўлатова, Санобархон Ташматова, Зулфия Бадалбоева, Қизлар Раҳманова. Ансамблдаги “Тинчлик”. “Қўқонга бордим”, “Боғда бодом”, “Ишонма”, “Яллама ёрим”, “Олмача анор”, “Атиргул”, “Хуш келдингиз”, “Эвой санам”, “Наҳори нашта”, “Дилбаржон”, “Алла жоним”, “На қилай”, “Уйғон болам”, “Ёрима ёрим”, “Омон ёр III” каби бир қатор қўшиқ, ялла, лапар, айтишувларни халқ орасидан излаб топадилар. Ёнларида доим олиб юрадиган кичкина магнитофонда ялла ва халқ қўшиқларини халқ орасида ижро этиб юрган кекса онахонлардан ёзиб олиб, сайқаллаб жамоа иштирокчиларига ўргатиб, халқ сайлларида, вилоят ҳамда шаҳар тадбирларидаги концертларда ижро этдилар. Республика миқёсида ўтказилган барча кўрик танловларда муносиб ўрин олиб халқимиз олқишига сазовор бўлдилар. 1988 йилда Республика Madaniyat ва спорт ишлари вазирлиги жамоанинг ижодига алоҳида эътибор берди. Режиссор Нодир Қўлдошев жамоа ҳақида “Халқ қўшиқларини қалбингда сақла” номли телефильмни яратди. 1997 йил Туркиянинг Бурса шаҳрида ўтказилган “Қора кўзим” номли бутун дунё фольклор фестивалида “Қўқонда юз очар” театрлаштирилган дастур билан қатнашдилар. Дастур репертуаридан ўрин олган Қўқон ёр-ёри, Келин салом, шўх ялла ва лапарлар ўзбек фольклор санъатини дунёга танитди. Жамоа муносиб совринлар билан тақдирланди. Уша йил Самарқанд шаҳрида биринчи маротаба бўлиб ўтган “Шарқ тароналари” фестивалида ялла ва лапарлари билан қатнашиб халқимиз олқишига сазовор бўлишди. Davlat тадбирларида иштирок этишди. Раҳима аянинг сермахҳсул ижоди муносиб тақдирланиб, О'zbekistonнинг Биринчи Презеденти И.А.Каримов томонидан “Меҳнат шуҳрати” ордери билан тақдирланди. 2003 йил Тадбиркор аёллар уюшмаси раиси Соҳибахон Маҳкамова Раҳима ая ва кенжа шогирди Хурсаной Қодировани чақириб “Омон ёр” ансамблини ҳозирги davlat дастури асосида ёшлардан жалб қилиб янада ривожлантириш ҳамда ўзбек фольклор санъати бизнинг ўзлигимизни намоён қилишини айтади. “Сиз юртимиз мустақилликка эришгандан кейин биринчилардан бўлиб Туркияда О'zbekistonни дунёга таништирган буюк санъаткорсиз-ку” деб, ўз маслаҳатларини берадилар. Раҳима ая бу таклифга рози бўлиб кенжа шогирди Хурсаной Қодирвага жамоанинг режиссёрлигини топширди. Таклиф сифатида эса “Омон ёр” ни “Қўқон ёр ёри” деб номлашди. 2003 йилдан эса ансамбль “Қўқон ёр ёри” деб юритилди. 2005 йилда Андижон

шаҳрида ўтказилган Республика минтақавий фольклор фестивалида олий ўринни эгаллаб, Англияга йўлланма олишди. O'zbekiston телеведениyasi 1996 йил Хурсаной Қодирова ва Раҳима ая ижодларига эътибор бериб “Устоз ва шогирд” номли концерт дастурини тайёрлади. Ялла ва лапар кўшиқларига O'zbekistonda хизмат кўрсатган санъат арбоби Юлдузхон Исматова “Тановар” ансамбли билан рақслар саҳналаштирилди. Юлдузхон опа эса сўзларида “Раҳимахон опамиз ташкил қилган бу улуғ мактабга кўпроқ ўқувчиларни қабул қилиш керак ” деган таклифини олға сурдилар. Кейинчалик Юлдузхон опа билан “Кўқон аёли” телефильми ҳам яратилди. 2007 йилда “Кўқон ёр ёри” жамоасига “Халқ хаваскорлик жамоаси” унвони берилди. O'zbekiston Республикаси Madaniyat ва спорт ишлари вазирлигининг халқ ижодиёти бўлими раҳбарлари тантанали равишда дипломни Раҳима ая қўлларига топширади. 2008 йил 25 февралда устоз вафот этдилар. Ўша йилги фестивалнинг катта саҳнасида Madaniyat ва спорт ишлари вазирлиги жамоани Раҳимахон Мазохидова номидаги “Кўқон ёр ёри” фольклор этнографик халқ жамоаси деб эълон қилишди. Раҳимая ая хақида кенжа шогирди Хурсаной Қодирова шундай эслайди. Тадбирларда бирор муаммога дуч келсам “Ҳозир устоз бўлганларида қандай йўл қўллардилар” деб ўйлаб, мулоҳаза қилиб, ечим топаман. Йўлларида учраган тўсиқларни, муаммоларни аския, ҳазил мутойиба билан енгиб кетардилар. Театрдаги артистларга ҳам, оддий ишчиларга ҳам ҳар доим самимий муносабатда бўлганлар” дея хотирлайди. Раҳима ая шогирдлар ардоғидаги устоз эди. Жумладан, Муборакхон Акрамова, Мавжудахон хожи она Мамажоновна, Гулнора Исақова, Наргиза Ғозиева, Салимахон Тошматова, Мелихон Мўминова, Оқибатхон Ғофурова, Мафтунахон Ғофурова, Ўзозхон Ҳайдарова каби истедодли издошлари бор. 2010 йил Раҳима ая таваллудининг 80 йиллигига бағишланган “Санъаткор хотираси” адабий-муסיқий кеча ташкил этилди. Кечада фольклоршунос олимлар, санъаткорлар, аянинг барча шогирдлари иштирок этишди. Андижон, Наманган, Сирдарё, Сурхондарё вилоятлари ва Тошкент шаҳридан келган издошлари Раҳима ая яратган кўқон аёллар яллачилик мактабини янада мустаҳкамлаш ҳамда ижро йўлини сақлаб қолиш мақсадида таклифлар беришди. 2015 йил “Омон ёр” фольклор этнографик жамоаси Нодира ая Мазохидова томонидан қайта тикланди. 2016 йил “Ўзбек халқаро туризм” фестивалида халқаро сертификатга эга бўлди. Шаҳар, вилоят ва республика тадбирларида доимий иштирок этиб, халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган фестивал ҳамда манъавий-маърифий телекўрсатувларда ўзларининг чиқишлари билан мунтазам равишда иштирок этиб келмоқда.

Фольклор санъати авлоддан авлодга ўтиб келадиган халқ мероси, десак муболаға булмайди. Шундай экан миллий madaniyatимиз, урф-одатимиз ва ёшлигимизда бобо ва бувижонларимиздан эшитиб келаётган болалик кўшиқларимиз умрбоқий бўлсин. Бунда эса албатта, мана шундай фольклор жамоаларининг ва изланувчи тадқиқотчиларнинг ўрни муҳимдир.

### **Адабиётлар:**

1. Турғунова.Н. “Фарғона водийси яллагичлик сан’ати” монография. Наманган 2016 й.
2. “Ҳамроҳ” ижтимоий-маърифий, адабий-бадиий газета. 2013 й. Март №3 сон.
3. “Табиат кўзгуси” газетаси. 2015 й. Март № 3 сон
4. “Қайнона” газета журнали. 2016 й. Январ № 1 сон.

## **О‘ЗБЕК МИЛЛИЙ БОШ КИЙИМИ ДО‘ППИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ ҲАМДА ТАСНИФИ**

**Xolmo‘minova Zulnigor,**

О‘зДСМИ (folklor va etnografiya) ta’lim yo‘nalishi  
1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna  
“Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi  
+998909207444

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘zbek milliy bosh kiyimi do‘ppi haqida bayon qilingan bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi, O‘zbekiston hududidagi barcha turdagi do‘ppilar haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** do‘ppi, an’anaviy, milliy, bosh kiyim.

### **Annotation**

This article describes the Uzbek national doppi headdress, its history and all types of doppi in Uzbekistan.

**Keywords:** doppi, traditional, national, headdress.

O‘rta Osiyoda, xususan O‘zbekistonda erkaklar bosh kiyimining tipik an’anaviy, qulay va eng keng tarqalgan turi bu do‘ppi. Hozirda ham shunday bo‘lib kelmoqda. Do‘ppining turma-tur shakllari mavjud. “Do‘ppi” deganda biz boshga yopishib turadigan uncha katta bo‘lmagan dumaloq qalpoqchalarni tushunamiz. Do‘ppini 1917-yilga qadar faqat erkaklar kiyganlar (1, 226).

Do‘ppining turlaridan biri arakchin – ichki bosh kiyim bo‘lib, ustki do‘ppi yoki qalpoq – mo‘ynali yoki kigiz qalpoq ostidan kiyiladi. Xorazmda arakchin mo‘ynali shapka ostidan, shuningdek, uyda ham kiyilgan shuning uchun ular do‘ppi kabi to‘q qizil rangli bo‘lib, kashta bilan bezatilgan.

L.Budagov Tsenkerga (Sengi-Laxi lug‘ati) tayangan holda bu so‘z turkcha “tube”, “tupe” (cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma’nosida uning ikki variantini – “Tubetay va tuppi”ni keltiradi. Buxoro, shuningdek, Samarqand vohasida do‘ppini ifodalash uchun tojikcha

atama “kallapo‘sh” (“kalla”-bosh va “po‘sh” – “po‘shidan” – kiymoq berkitmoq fe‘lning o‘zagi) so‘zidan foydalanilgan (1, 227).

Samarqand va Urgutda shahar va tuman tojik hamda o‘zbek aholisi do‘ppini atash uchun turkcha “qalpoq” so‘zini ishlatadi.” Do‘ppi shakli bo‘yicha konussimon, sferik va yassi do‘ppilarga bo‘lish mumkin. Qadimda do‘ppining konussimon shakli ancha keng tarqalgan bo‘lib, bu shakl Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Buxoro va Surxondaryo do‘ppilariga xos (buni eng avvalo bu mintaqada erkaklarning salla o‘rashi bilan tushuntirish mumkin). Do‘ppining sferik shakli uncha keng tarqalmagan (asosan Urgutda). Yassi do‘ppi Farg‘ona vodiysi uchun xos bo‘lgan. Uning tagi dumaloq emas, kvadrat qilib bichilgan, natijada do‘ppida 4 ta aniq qirra hosil bo‘lgan. Do‘ppining bunday bichimi keyinchalik butun O‘zbekistonga tarqalgan va bosh kiyimning umummilliy shakli sifatida shakllanishi uchun asos bo‘lgan (1, 227).

Do‘ppining konussimon shakli keng tarqalgan bo‘lib, uning ildizi chuqur tarixiy an‘analarga borib taqaladi. Vaqt o‘tishi bilan do‘ppi tayyorlash texnikasi takomillashib bordi. Do‘ppini yassiroq qilish va balandligini kamaytirishga intilish yo‘nalishi ko‘zga tashlandi. Hozirda Respublikada keng tarqalgan alohida texnika yordamida ishlab chiqila boshlandi. Ilgari O‘rta Osiyoda paxta qaviq (pilta) qo‘llanilgan. Uning qog‘oz piltaga almashtirilishi faqat XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida mumkin bo‘ldi (1, 228).

Do‘ppining eng an‘anaviy va qadimiy turlaridan biri bu Shahrisabz do‘ppilari bo‘lib, unga qog‘oz pilta qo‘yilmagan. Uning aniq konussimon shakli do‘ppining tagi o‘ziga xos bichilishi bilan hosil bo‘ladi. U tog‘ri doira shaklida bichilib, undan bir bo‘lak kesib olinadi.

Shahrisabz do‘ppilarining qadimiy namunalarini ancha yangilari bilan qiyoslash ularda yuqorida qayd etib o‘tilganidek, qalqonsimon shaklidan voz kechish va uni yassi shapkaga aylantirishga intilishni aniqlash imkonini beradi. O.A.Suxarevaning fikriga ko‘ra “O‘rta Osiyo do‘ppilari badiiy bezatilishi bo‘yicha ko‘plab mahalliy variantlarga ega bo‘lib, ularni ba‘zi umumlashtirishlar bilan 5ta guruhga bo‘lish mumkin” (1, 228).

Birinchi guruhni naqshlari do‘ppi tepa qismining 4 tominiga joylashtiriladigan va o‘zaro hech qanday birlashtirilmagan do‘ppilar tashkil etadi. Do‘ppi gardishining aniq ajralib turishi uning o‘ziga xos tomoni bo‘lib, gardish naqshi aksariyat hollarda markaziy maydonning naqshi bilan bog‘lanmagan bo‘ladi va gardish shaklini aniq ko‘rasatib turish uchun xizmat qiladi. Gardish bo‘ylab joylashgan naqsh bosh atrofida o‘ziga xos toj hosil qiladi. Bu do‘ppilarning umumiy belgisi to‘q rangdagi asosda, ochiq rangdagi, ba‘zida sof oq rangdagi naqshlar tikilishida bo‘ladi. Ushbu uslubning barcha belgilari Chust do‘ppilarida namoyon bo‘lgan. U qora foni va undagi qizil garimdori yoki bodom quzog‘ini eslatuvchi 4 ta figura shaklidagi naqshi bilan ajralib turadi. Gardishning naqshi bir qator arkachalardan iborat bo‘lib, ba‘zan ichi mayda gul bilan tikib chiqiladi. Qo‘qon do‘ppilari xuddi shunday, 4 ta me‘dalon, ba‘zida qizil garimdori shaklidagi va bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanmagan hamda do‘ppi tepa qismida simmetrik joylashgan figuralar bilan bezatiladi. Bu do‘ppilar uchun ham to‘q fonda ochiq rangdagi naqshlar o‘ziga xos xususiyatidir (1, 232).

Qadimiy Toshkent do‘ppilari va uning eng an‘anaviy turlari ham shu guruhga kiradi, ularda ham 4 ta ochiq rangdagi element to‘q asosda joylashtiriladi. Ushbu



guruhdagi do'ppilar naqshining eng keng tarqalgan turi bu bodom yoki qizil garimdori quzog'i shaklidagi naqshdir. Uning kelib chiqishi naqshlarda qushlar tasvirlangan davrga borib taqaladi. O'rta Osiyo kashtado'zligida keng tarqalgan qizil garimdori yoki bodom quzog'i bilan qo'shib ketgan. Marg'ilon do'ppilari bir oz uzunchoqroq va ingichkaroq bo'lgani bilan Chust do'ppilariga juda yaqin. Toshkent, Qo'qonning do'ppilari ham qizil garimdori quzog' naqshining uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Chust do'ppilari bilan birga ikkinchi guruhga kiradigan va yorqin ko'p rangli naqshlari bilan turadigan, odatda, gullayotgan buta shaklidagi naqshlari va asosi butunlay yoki katakchalar hosil qiladigan oq rangdagi nuqtalar bilan tikiladigan do'ppilar keng tarqalgan. Bunday do'ppilarda gardish naqshlari do'ppining tepa qismi naqshlari bilan qo'shib ketadi va undagi butachalarning davomidek bo'ladi. Bunday do'ppilarning o'ziga xos belgilari tepa qismida kesishadigan va gardishda ham davom etadigan 4ta to'g'ri chiziqlarning mavjudligidir. Bunday do'ppilarda qushlar tasviri ham aks ettiriladi.

Do'ppilarning uchinchi guruhi – bu Shahrisabz va Kitobning gilamnusxa do'ppilari. O'ziga xos konussimon shakli, oldingi turning ko'p rangli va juda quyuc naqshlariga nisbatan umuman o'zgacha bo'lgan yorqin rangli naqshlari hamda uslubi bilan ajralib turadi.

Shahrisabz do'ppilari boshqa turlardan texnika bo'yicha ham ajralib turadi. U iroqi choki bilan (xoch va yarimxoch) tikiladi va o'zining badiiy tashqi ko'rinishi bilan ham xuddi shunday chok bilan tikiladigan Toshkent va Farg'ona do'ppilariga umuman o'xshamaydi. Shahrisabz va Kitob do'ppilari gullarning kompozitsiyasi, gul tikish texnikasi, o'ziga xos xususiyatlari, sanab yoki rasmga qarab tikishga bog'liqligi bilan 2 guruhga bo'linadi. Birinchi turi sanab tikiladigan naqsh kompozitsiyasi – “sanama” aksariyat hollarda ularning shakli bilan bog'liq bo'lmaydi. Naqsh bo'ylama qatorlar bo'ylab birin-ketin, elementma-element joylashtiriladi. Agar u butunligicha joylashmasa, shu buyum bichilgan va tikilgan mato bo'lagining guli kabi oxiriga etmasdan to'xtatiladi (1, 230).

Ikkinchi tur – Do'ppi kompozitsiyasi “chizma” deb ataladi va to'laligicha do'ppining shakliga boysundirilgan bo'ladi hamda doiradagi kompozitsiya kabi tuziladi. U do'ppining tepa qismi atrofida markazlashib va ikki chiziq bo'ylab markazlashgan doira bo'yicha va vertikal joylashadi.

Do'ppilarning to'rtinchi guruhiga “piltado'zi” usulida naqsh solib bezatilgan do'ppilarni kiritishimiz mumkin. Do'ppilarni tikish texnikasi uning usti va astari orasiga qaviq chiziqlari bo'ylab qattiq o'ralgan qog'oz, qadimda esa paxtadan pilta qo'yish natijasida hosil bo'lgan qirralarni to'ldirib gul solib tikishdan iborat bo'lgan. Bunday usulda tayyorlangan do'ppilar yarim ko'chmanchi o'zbeklar yashaydigan tumanlarda, Chelakda, Pasdarg'omda (Samarqand viloyati), Qarshi, Boysun va boshqa hududlarda keng tarqalgan.

Beshinchi guruhga qimmatbaho matolar (parcha)dan tayyorlanadigan do'ppilarni kiritish mumkin. Ular do'ppining chetlarini o'rab turadigan alohida tikiladigan tasmadan tashqari, naqsh solib bezatilmagan. Bunday do'ppilar, asosan, Buxoro va Xorazmda tarqalgan. Yuqorida aytib o'tilgan 5ta guruhdan tashqari ko'p joylarda

yuqorida sanab o'tilganlar bilan bir vaqtda do'ppilarning bir qator turlari mavjud bo'lgan.

Buxoroda ikki variantda: erkaklar uchun tepasi uchli, ayyollar uchun tepasi yassi qilib tayyorlanadigan zardo'zi do'ppilarni shunday do'ppilar qatoriga kiritish mumkin. Toshkent shahrida ham do'ppilarning turli xillari mavjud bo'lgan. Ilgarigi mavjud mahalliy madaniyat shakllari o'rniga umummilliy badiiy madaniyatning yuzaga kelishi do'ppining 2 turi: Chust va Farg'ona (Xo'jakent-O'ratepa) turlari ilgarigi mahalliy turlarni siqib chiqardi. Ular keng tarqaldi va shu bilan bir qatorda hozirda qora atlas, baxmalning to'q ranglari qo'llanila boshlandi. Do'ppining umummilliy jihatdan tan olingan ikkinchi Farg'ona (Xo'jakent-O'ratepa) turining naqshlari o'zgardi. Ko'p bo'yoqli naqshlarning rangli gullari kompozitsiya mazmuniga qat'iy bo'ysundirilgan va barcha 4ta gulni birlashtirib bitta umumiy markazga ega bo'lgan holatda joylashadi.

Samarqand, Andijon, Farg'ona va Toshkent chevarlari o'z mahoratlarini shunday namoyon etdilarki, do'ppilar kiritilgan barcha yangiliklarga qaramay o'zining aniq grafik uslubini yo'qotmadi.

Do'ppilarning turlari hamda uslublarining yuzaga kelishida Toshkent ham katta rol o'ynaydi va bu, ayniqsa, XX asrning o'rtalariga kelib yaqqol namoyon bo'ladi. Toshkent do'ppilari turlarining xilma-xilligi, turli-tumanligi, boyligi va katta badiiy mahorat bilan bezatilishi Respublika poytaxti aholisining turmushida yanada to'la namoyon bo'ladigan o'zbek xalqining boy madaniyatini aks ettiradi.

O'zbek ayollari XX asrning 20-yillarigacha do'ppi kiyimaganlar. Do'ppilarni faqat erkaklar hamda har ikki jinsga mansub bo'lgan bolalar kiyganlar. Qizlar hayotida faqat bir marta - to'y kuni go'shangada, ya'ni yoshlar: kuyov va kelin ikkovlari birgalikda o'tkazadigan kechada do'ppi kiyishgan. Go'shangada kuyov kelina taqdim etgan uzuk va boshqa zeb-ziynatlar uchun minnatdorchilik sifatida kelin unga o'zi bilan olib kelgan do'ppini hadya qilgan va kuyov o'zining do'ppisini yechib, uni kelinning boshiga kiydirib qo'ygan (1, 232).

Toshkentda va O'zbekistonning boshqa shaharlarida satanglar, ya'ni kiyinish va xulq-atvorda, erkaklarga taqlid qiladigan ayollar ham do'ppi kiyganlar. Bu ayollarning do'ppi kiyishiga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqargan.

Oktabr to'ntarishidan keyin O'rta Osiyo ayollari o'zlarining bosh kiyimlarini tubdan o'zgartirdilar: ro'mol o'rniga har xil naqshlar bilan bezatilgan do'ppilar kiya boshladilar. XX asrning 20-yillarida O'zbekistonning barcha mintaqalarida do'ppi kiyish rasm bo'ldi. Bu paytda Toshkent va Farg'ona vodiysida iroqi chok bilan tikilgan turli rangdagi do'ppilar keng tarqalgan edi. Do'ppi aksariyat hollarda Toshkentda yaratilar, tikilar hamda O'zbekistonning boshqa mintaqalari bo'ylab tarqalar edi. Toshkent chevarlari tikkan do'ppilar badiiy uslubining ko'p qirraligi, yangi texnikasi, yangi kashtachilik usullari bilan ajralib turadi (1, 229).

XX asrning 50-yillarida "Qizil gul" nomi bilan mashhur bo'lgan do'ppi ommalashgan edi. U "Chakma tur" deb atalgan do'ppining bir turi bo'lib bir qancha umumiy, uslubiy belgilarga ega bo'lgan. Bu do'ppi juda quyuq va tiniq, yorqin bo'yoqlarga boyligi bilan ajralib turgan. To'p gullar baland qilib, bo'rttirib gullari to'ldirib "Iroqi" tikilgan "bunga paxtadan taglik qo'yishga ham erishilgan", natijada

manzarali taassurotga hajmiy taassurot ham qo‘shilgan. Ularning orasi esa keyingi 10 yilliklarda yaratilgan kanda-hayol choki bilan tikib to‘ldiriladi. Bu chok relifli to‘rsimon yuza hosil qiladi. Manzaradorligi, ranglarning yorqinligi va ochiqqligi, gulining malina rang tusi barg elementlarining yashil tuslari bilan qo‘shilib ketishi, ochiq yashil va oq asosi hamda to‘q qora duxoba gardishi bilan ”qizil gul” do‘ppilari o‘zbek do‘ppilari ichida badiiy jihatdan eng qiziqarli do‘ppi turlaridan biriga kiradi. Bu davrda Toshkentda xoch usulda tikilgan do‘ppilar keng tarqaldi. Atirgullar to‘q pushti rang bilan chatishib ketadigan to‘q qizil ipak bilan tikilgan. Keyingi namunalarda atirgul bilan birga do‘ppilarda boshqa mavzular ham tasvirlana boshladi. Shu davrning o‘zida bunday do‘ppilarning rangli kompozitsiyalariga ipak qurti kapalagi tasvirini kiritish boshlandi. Bunday gul “kapalaknusxa” deb ataldi. Kompozitsiyaning asosiy motivi-markazida joylashtiriladigan kattagina gul o‘zgara boshladi: atirgul bilan bir qatorda barglari sariq va binafsha rangda bo‘lgan kapalakgul paydo bo‘ldi. Ushbu texnika bo‘yicha tikilgan do‘ppilarda xalq hayotida yuz berayotgan hodisalar aks ettiruvchi yangi tasviriy mavzular ham bor.

Do‘ppininig uslubi va naqshlari malakali, ma’lumotli rassom-manzarachilar (dekoratorlar) ba’zi hollarda shahardan chiqqan ziyolilar tomonidan yaratiladi. Birinchi bo‘lib bunday turdagi do‘ppilar respublikamizning boshqa mintaqalarida Toshkentdan tayyor namunalarni olib chiqish yo‘li bilan tarqaladi. Bu do‘ppilar keng tarqalib urf bo‘lgandan so‘ng ularni boshqa mintaqalarda ham tikish boshlanadi. Surxondaryo va Qashqadaryo, Boysunning kashta tikilgan do‘ppilari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Boysunning gul tikilgan do‘ppilarining o‘ziga xos jihati - ranglari yorqinligi va bezaklarining o‘ziga xosligidir. Qizil, moviy, sariq ranglarning ko‘pligi Boysun kashtachilarning turli-tuman bosh kiyimlari hamda boshqa buyumlarida mujassamlashgan.

Mintaqa an’anaviy madaniyati kelib chiqishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topgan. Boysunning kashta tikilgan do‘ppilari bir-birini takrorlamaydi, ular uslubning nozikligi, barqaror an’analar va qonun-qoidalarga jiddiy munosabati bilan ajralib turadi. Uning asosiy o‘ziga xos xususiyati hayot bilan xalq urf-odatlarini va tasavvurlari bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, uni nafis shakllarda aks ettiradi. Yuqorida bayon etilgan kashta tikilgan do‘ppilar – bu turli-tuman do‘ppilarning bir qismi, xolos. Biz ularning faqat keng tarqalgan turlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdik.

Hunarmand ayollarning go‘zallikka, mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandchilikdan eng yuqori san’at darajasiga ko‘taradi. O‘zbek do‘ppisi bezagining barcha elementlari – rangi, chiziqqlari, rasmlari muhim ma’noga ega, ko‘pincha hayot va o‘lim, yer va osmon, yorug‘lik va qorong‘ulik, yaxshilik va yomonlik kabi umumiy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday bosh kiyimni chet ellik sayyohlar, g‘ayrioddiy yodgorlik sifatida sotib olishadi, aksariyat insonlar hatto ular bilan o‘z uylarini bezashadi.

Yuqoridagi fikrlardan ilhomlangan holda Muhammad Yusufning “Do‘ppi” degan she’rini yodga oldik:

*Do‘ppi kiymay qo‘ydi odamlar  
Bir shoir, bir Nosirdan boshqa  
Sochlar silliq*

*Silliq qadamlar  
U og'irlik qilyapti boshga  
Rost do'ppilar yolg'on do'ppilar  
Kinolarda qolg'on do'ppilar  
Chust do'ppilar, Andijon do'ppilar  
Munchoqdek Marg'ilon do'ppilar  
Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar.  
Bir shoir, bir Nosirdan o'zga  
Men ham sizga berdim savollar  
Shlayapani bostirib ko'zga  
Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar.  
Na uyda va na ko'chada  
Mirtemirlar, G'ofur G'ulomlar  
Yechgan do'ppi qoldi tokchada  
Bu qandayin ko'rgulik savdo.  
Do'ppi kiymay qo'ydi xaloyiq  
Boshga loyiq do'ppi yo'qdur – yo  
Bosh qolmadi do'ppiga loyiq (3, 68).*

Bu she'rnini shoirimiz Muhammad Yusuf bejiz yozmaganlar. Bugungi kunda boshda do'ppini faqat ayrim holatlarda: oilaviy tantanalar, dafn marosimlari yoki bayramlarda ko'rishimiz mumkin. Ammo bundan bir necha yil oldin do'ppi O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim turi bo'lgan Uni erkaklar va ayollar, bolalar va qariyalar ham kiyishgan.

2021-yilga kelib esa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri O.Nazarbekov ham o'zbekistonliklarni 8-dekabr Konstitutsiya kuni bilan tabriklar ekan, Vazir mazkur tashabbus orqali milliy an'analarni targ'ib etishda do'ppi namuna bo'lishini ta'kidladi hamda "Do'ppi" chelenjini o'tkazishda bosh-qosh bo'lib berdi. Zero, bu tashabbus ila yosh avlod qalbiga milliy qadriyatga bo'lgan mehr-muhabbatning yanada oshishi uchun bir ko'prik vazifasini o'tay olsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi, degan umiddamiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Sodiqova.N., G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent., "Sharq", 2014. 226-238 b.
2. "Toshkent" telekanali, "Toshkentnoma" ko'rsatuvdagi suhbat.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma: she'rlar. dostonlar. xotiralar. – T.: "Sharq", 2007.

## **XALQ MAROSIM QO'SHIQLARI** **(Jizzax viloyati misolida)**

**To'rayeva Maftuna Gulomjonovna,**  
O'ZDSMI "Folklor va etnografiya"  
kafedrası o'qituvchisi  
+998971359089

### **Annotatsiya**

Maqolada marosim qo'shiqlari xalqning ma'naviy va moddiy turmush tarzi, axloq mezonlari, o'tmish, bugun va kelajakdagi ma'naviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi haqida so'z borgan. Marosim qo'shiqlarining turkumlanishi va ularning ahamiyati Jizzax misolida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** marosim qo'shiqlari, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy- axloqiy qadriyatlar, folklor qo'shiqlar.

**Annotation:** The article says that ceremonial songs serve as an important tool in expressing the people's spiritual and material lifestyle, moral standards, interests and aspirations for the past, present and future spiritual life. . The classification of ceremonial songs and their significance is illustrated by the example of Jizzakh.

**Keywords:** ceremonial songs, universal values, spiritual and moral values, folk songs.

Folklor qo'shiqlarining yana bir muhim turi bu marosim qo'shiqlaridir. Marosim qo'shiqlari insonlarning hayot, voqe'lik va tabiat o'zgarishlariga bo'lgan madaniy munosabatlarini ifodalovchi qarashlari asosida vujudga kelgan san'atdir. Marosimlarda olg'a surilgan umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ko'rgazmali targ'ib etiladi.

Ruhshunoslik, san'at, pedagogika qoidalarining uzviy birligida ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlikdagi mazmuni o'quvchilar ongiga singdiriladi. Masalan, inson u yoki bu marosimni o'tkazish uchun ruhiy jihatdan o'zini tayyorlaydi, unda musiqa ohanglari, so'z san'ati dramatik harakatlardan foydalanadi. Bu esa, xalqning ma'naviy va moddiy turmush tarzi, axloq mezonlari, o'tmish, bugun va kelajakdagi ma'naviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir marosimning o'ziga xos rejasi, maqsadi va vazifalari kishilarning ma'naviy dunyosiga ta'sir eta olish mezonini asosida baholanishi lozim.

Folklorshunos olim B.Sarimsoqovning tasnifiga ko'ra, o'zbek marosim qo'shiqlari mavsumiy va amaliy-maishiy qo'shiqlar turkumiga bo'linadi. Birinchi turkum marosim qo'shiqlari ham ikkiga: faqat mavsum bilan bog'liq ashulalar - «Sust xotin», «Choy-momo», «Yas-Yusup»; mavsumiy mehnat, xo'jalik yuritish tarzi bilan bog'liq qo'shiqlar «Loy tutish», «Shox moylar», «Oblo baraka» kabi janrlarga bo'linadi.

*Qo'shiq janri* bir qancha oddiy turlardan ham iborat bo'ladi. **Afsunli** qo'shiqlar ma'lum bir marosimlarni bajo keltirish, masalan, yomg'ir chaqirish, quyosh va oy tutilishini to'xtatishni iltijo qilish hamda boshqalarda ham muhim o'rin tutadi. Ko'p qirrali muhabbat lirikasi, satira va yumor, tarixiy mavzu, ijtimoiy norozilik ushbu guruhga tegishli har bir janr- terma (yoki cho'blama) qo'shiq, lapar, yalla va ashulalar asosini (garchi ular bir-biridan ravshan ifodalangan xarakterli musiqali xususiyatlari bilan farqlansa ham) tashkil qilishi mumkin.

*Terma* o'z kuyining ma'lum darajada so'zlarning kuy va ohang uyg'unligida ifodalanishi tor diapazoni va ixcham shakli bilan xarakterlanadi. Jizzax viloyatida keng tarqalgan termalar matni mazmunan turli xil bo'lib, ko'pincha barmoq vaznidagi yetti-sakkiz bo'g'inli misralardan iboratdir. Qo'shiq janr sifatida nisbatan kichikdiapazonli kuydan tashkil topib, barmoq vaznidagi poetik matnning to'rtlikdan iborat bir bandi yoki bir-ikki misrasini qamrab oladi, ayni vaqtda har bir she'riy misraga tugal ohang moslashtirilgan bo'ladi.

*Lapar* raqsobop kuyga ega bo'lib, ko'pincha o'yin-raqs bilan ijro etiladi. Uning matnlari asosan ishqiy-lirik, didaktik, yumoristik yoki hazil she'rlardan tashkil topadi. Ayrim tumanlarda «Lapar» atamasini o'lan deb yuritiladigan dialog shaklidagi to'y marosim qo'shiqlariga nisbatan ham qo'llaniladiki, bu aytishuv kelin hamda kuyov tomon vakillarining har bir guruhida alohida-alohida unison xor sifatida ijro etilishi yoki yakkaxonlar dialogi tarzida bo'lishi mumkin.

*Yalla* raqs jo'rligida ijro etilib, u ikki xil bo'ladi. Birinchisining kuyi nisbatan tor diapazonli bo'lib, she'rdagi har bir band va uning o'yinlari yakkaxon yallachi, naqorat esa unison xor (bir guruh sozanda yoki ashulachilar, ko'pincha tinglovchilar) tomonidan aytiladi. Bu yo'nalish Jizzax viloyati marosimlarida faol qo'llanib kelingani tarixdan ma'lum.

Bugungi kunda yoshlarda milliy ma'naviyatimiz tarixi, boy mazmuni haqida bilim beruvchi, o'zligini anglashni ta'minlovchi xalq etnografik ansambllari («Shalola», «Besh qarsak», «Chanqovuz», «Chorqarsak» va boshqalar) tashkil etilmoqda. Bunday ansambllar o'zbek xalqining estetik-badiiy an'analari, milliy san'at namunalarini tiklab, qadimdan milliy-ma'naviy qadriyat tarzida davom etib kelayotgan har bir vohaning o'ziga xos urf-odatlarini, rasm-rusumlarini jonlantiradi.

O'zbek xalqining yor-yor, o'lan aytish, alla, yalla, doston kuylash, chanqovuz chalish, kelin kutish, chimildiq tuzash, kashta tikish, chit to'qish, jun savash, ip yigirish, kalava o'rash, chiroz to'qish, do'ppi tikish, supra yozib xamir qorish, qaynona, qaynota, erga munosabat, o'quvchi tarbiyalash, milliy taom tayyorlash, milliy kiyim turlarini namoyish etish kabi urf-odatlarini, an'analari o'quvchida o'zligini anglash tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Folklor qo'shiqlari bilan bog'liq janrlardan biri *dostonchilik*dir.

*Doston* xalq ma'naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi shakllaridan biri bo'lib, unda qo'shiq kuylash, musiqa diklomatsiya qilish, bayon qilish kabi badiiy-estetik qadriyatlar mujassamlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badihago'ylik yo'li bilan tinglovchiga yetkaziladi.

Xalq pedagogikasida drama va teatr elementlari mavjud turli marosimlar, urf-odatlar, an'analar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur va tafakkurini shakllantiradi. Buning uchun maxsus ma'naviy-axloqiy muhit yaratilib, faoliyat mazmuni amalga oshiriladi. Dramatik va teatr belgilari bilan yo'g'rilgan oilada o'quvchining dunyoga kelishi, uylanishi va turli oilaviy marosimlar - o'quvchini beshikka solish, birinchi qadam tashlash, soch olish, sunnat to'yi, sovchilik, qiz oshi, nikoh, kelin bilan kuyov tomonlariningo'lan va laparda tortishuvlari, kuyovning kelinni ko'tarib olov aylanishi, tortishmachoq, tanga, sochqi, tush ko'rish, yuz ochar, salomnoma, kuyov salom, kelin ko'rdi, charlar, mehmon kutish, tug'ilgan kunni nishonlash kabi marosimlarda ham xalq qo'shiqlari kuylangan.

Folklor qo'shiqlari mazmun jihatdan milliy asosga ega bo'lib, birinchidan, ular muayyan davrda madaniy manba sifatida vujudga kelgan hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarining mazmuni, shakl va vositalarini mujassam etadi, ikkinchidan, u xalqning tajribada sinalgan yuksak ma'naviy-axloqiy xarakter xususiyatlari, tarbiya mezonlarini umumlashtirib ular o'rtasida qadriyat darajasiga ko'tarilgan [1. – B.30].

Xalq qo'shiqlari muhim targ'ibot vositasi hamdir. Ular millatning urf-odatlarini, dunyoqarashi, tuyg'ularini targ'ib qiladi va avloddan-avlodga yetkazadi. Folklor qo'shiqlari badiiy-estetik manbalar sifatida kishi hissiyoti orqali aqlni, aql orqali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir.

Xalq qo'shiqlariga xos xususiyat ham aqliy teranlik, mantiqiy fikrlash asosida ma'naviy fazilatlarining barcha qirralarini ongli ravishda o'zlashtirish orqali aqliy barkamollikka erishishni ta'minlashdan iboratdir. Unda musiqiy qobiliyatni shakllantirishning butun vositasi sifatida o'quvchilarning faoliyati, kundalik muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Folklor qo'shiqlarining qamrov doirasi chegaralanmagan. Ularnikattalar yoki o'quvchilar qo'shiqlari, kichik yoki katta yoshdagi o'quvchilarga mos qo'shiqlar sifatida izohlash nisbiy xarakter kasb etadi.

Xalqimizning qadimiy an'anasiga ko'ra, yil bo'yi mehnat qilib, kuzda dala ishlarini nihoyasiga yetkazgan dehqon va bog'bonlar, shuningdek, o'z suruvini qishlovga qaytarib kelgan chorvadorlarlar qishi bilan turli-tuman marosimlar orqali vaqtning ko'ngilli o'tishini ta'minlaganlar. Yoshi teng bo'lgan kishilar, ya'ni, hamteng, jo'ra, do'st-yorlar «teng-tenggi» bilan yig'ilishib turli xil marosimlarni tashkil etishgan. Tengqur, tengdosh, jo'ra, ulfatlarning qish kunlarida o'rtada mablag' to'plash yoki masalliq yig'ish yo'li bilan o'tkazadigan an'anaviy marosimi «to'kma» deb atalgan. «To'kma» so'zining ma'nosi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham «ulfatlar o'rtaga to'kkan mablag' va masalliq hisobiga, odatda, qish kunlarida o'tkaziladigan o'tirish» [11. – B.233] deb talqin qilingan.

Qish faslida o'tkaziladigan «to'kma» marosimi toshkentlik o'zbeklar o'rtasida ham urf bo'lganligi M.F.Gavrilov tomonidan qayd etilgan [5. – B.4].

«To'kma» qilish an'anasi Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlarida ham mavjud bo'lgan. Bu marosimning o'tkazilish vaqti va davomiyligi gap-gashtakka o'xshab avvaldan qat'iy belgilangan muddat asosiga qurilgan emas. Qish kirishi bilan yosh-yalanglar, yigitlar, o'rta yashar va keksa kishilar har qaysi o'z tengdoshlari – «to'pi» bilan uyushib, o'rtaga mablag' yoki masalliq to'kib bu o'tirishni tashkil qilaverishgan. Jizzaxda «to'kma»ning o'tkaziladigan vaqti qat'iy belgilab qo'yilmagan

bo'lib, ulfatlardan birovining uyiga mehmon kelishi, uzoq safarga ketgan jo'ralardan birining qaytib kelishi yoki o'zaro kelishuvga ko'ra belgilangan kunda o'tirish ishtirokchilaridan birining uyida o'tkazilgan.

Musiqiy asarlarning ichki tuzilish qonuniyatlari bu masalada yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, asosiy vositalarning o'zaro munosabatlarini mezonlardan u yoki bu uslub aniqlanadi. Xususan, «bir ovoqli» yoki «manodan», «ko'p ovoqli», jumladan «garmonik», «polifonik», «gomfonik» nomli uslublar shular toifasiga kiradi. Yirik ijodiy yo'nalish va oqimlar. Masalan, «klassisizm», «romantizm», «impressionizm», «realizm» va boshqalar ham uslub tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Uslub so'zi yana bastakor, kompozitor, dirijor, xonanda va sozandalar faoliyatini ijodiy jihatdan chuqurroq yoritish maqsadida ishlatiladi. Ayniqsa, u birorta mashhur san'atkorning ijodiy qiyofasini, uning farqli, betakror chizgi qirralarini tahlil yoki qiyos ila ko'rsatishda baholi qudrat xizmat qiladi. Shuningdek, «cholg'u uslubi», «maqom uslubi», «yovvoyi» yoki «patnisaki uslub», «badiqa uslubi», zamonaviy uslub singari rang barang ma'nolarni bildiruvchi hollarni kundalik o'quv nazariy va amaliy iste'molda tez-tez uchratib turishimiz mumkin.

Folklor qo'shiqlari yosh avlodning musiqiy qobiliyatini shakllantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi, axloqiy-estetik taraqqiyot darajasiga ko'ra guruhlagan holda maktab «Musiqqa» darsliklariga kiritish ta'lim jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini shakllantirish tiziminitakomillashtirish imkonini beradi. Jizzax viloyatida qo'llanilgan va bugungi kungacha yetib kelgan xalq marosim qo'shiqlari durdonalarini keying avlodga yetkazish, uni asrab-avaylash xalqimizning burchi desak adashmagan bo'lamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Akhmedova M (2021). Psycholinguic features of eastern speech etiquette. E-Conference Globe. Pp. 14-16.
2. Madrimov B. (2021). Faktori nraivstvenno-yestetisheskogo stanovleniya lishnosti budushego professionalnogo muzikanta. Scientific Progress. Vol. 1, issue 5, Pp. 576-580.
3. Khudoynazarovich M.B. (2021). Aesthetic education of schoolchildren of uzbek music and folk songs. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Vol. 1, no. 1, pp. 62-65.
4. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1968.
5. Гаврилов М.Ф. Остатки ясы и юсуна у узбеков. – Ташкент: Главный Среднеазиатский музей, 1929.
6. Кисляков Н.А. Аловхона – «дом огня» у таджиков // Основные проблемы африканистики: К 70-летию Д.Л.Ольдерогге. – М., 1973. – С.86-118.
7. Мирхасилов М.С. Из истории общественного быта узбеков // Сов. этнография. – М., 1963. – №5. – С.116-121.
8. Raximov R.R. «Mujskie doma» v traditsionnoy kulture tadjikov. – М.:Nauka, 1990.



9. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.  
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-tom. – Toshkent, 2006.  
11. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.№1745.  
1980 yilda B.Sarimsoqov yozib olgan.

## **NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI HUDUDLARIDAGI TO‘Y MAROSIMI VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIGI**

**Sharipova Dilfuza Madaminjonovna**  
O‘zDSMI (folklor va etnografiya) ta’lim yo‘nalishi  
1-bosqich sirtqi bo‘lim talabasi  
**Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna**  
“Folklor va etnografiya” kafedrasini o‘qituvchisi  
+998909207444

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada bugungi kundagi Namangan viloyati Chust tumani hududlaridagi to‘y marosimlarning qay tartibda o‘tkazilishi haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** To‘y, tantan, urf-odat, udum, marosim.

### **Аннотация**

В данной статье описывается порядок проведения свадеб в Чустском районе Наманганской области на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** Свадьбы, церемонии, обычаи, ритуалы, церемонии.

### **Annotation**

This article describes the procedure for holding weddings in the Chust district of Namangan region today.

**Key words:** Weddings, ceremonies, customs, rituals, ceremonies.

Dunyodagi ko‘p xalqlar qatori o‘zbek xalqida ham azaldan oila va nikoh muqaddas sanalib e‘zozlangan. Shu bois o‘zbeklar doimo to‘ylarga alohida e‘tibor berganlar. Ajdodlarimiz nikohni Alloh buyurgan shariat qoidalariga qattiq rioya qilgan holda o‘tkazishga intilganlar. To‘y rasm-rusmlari ham nikohni, oilani mustahkamlashga qartilgan. To‘ylar xalqni ma’naviy-ruhiy tomondan tarbiyalovchi vosita bo‘lgan. Chunki to‘ylarda xalq og‘zaki ijodi laparlar, termalar, milliy raqs san’ati, qo‘shiq san’ati ham ravnaq topgan. Keyingi yuz yillikda o‘zbeklar hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar yurtimizning rus iste’lochilari tomonidan bosib olinishi va ular olib borgan ruslashtirish siyosati xalqimizning muqaddas an’alariga, jumladan to‘ylariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida rioya qilib kelgan an’alar, rasm-rusumlar unutila boshladi. XX asrning 60- yillarida “qizil to‘y” keyinroq “komsomolcha to‘y” deb nomlangan “yangicha” to‘ylar paydo bo‘ldi. So‘ngra bu to‘ylar “bazzm” deb atala boshlandi. To‘ylarda milliy kuy, qo‘shiqlar laparlar ijro etish, she’rxonliklar qilish,

yor-yor, alyorlar aytish ko‘pincha unutildi. Shu tarzda to‘ylarimiz ming yillardan buyon bajaruvchi ulug‘ vazifasini, ya‘ni xalqning ijodkorlik qobiliyatini shakllantiruvchilik vazifasi barham topa boshladi.



Biz bugun Namangan viloyati Chust tumani to‘y marosimlari haqida bayon etmoqchimiz. Namangan viloyati Chust tumani 3 ming yillik qadim tarixga ega. Tumandagi aksariyat qishloqlar Chotqol tog‘ tizmalari yon bag‘rida joylashgan. Shu boisdan ular ko‘rkam tabiati, toza havosi, hosildor bog‘lari-yu, dalalari bilan kishini o‘ziga maftun etadi. Chust tumanidagi ana shunday so‘lim go‘shalaridan biri Qoraqo‘rg‘on qishlog‘idir. Chust tumani markazidan 22 kilometr uzoqda joylashgan Qoraqo‘rg‘on qishlog‘i shimol va sharqdan Qirg‘iziston, janubdan Varzik qishlog‘i sharqdan esa Pop tumani bilan chegaradosh. Ushbu go‘zal qishloqni o‘ziga xos urf-odatlarini udumlari bor. O‘zbekistonning barcha hududlarida deyarli sovchilikka borish bir xil bo‘ladi. Ushbu Qoraqo‘rg‘on qishlog‘ida ham nikoh to‘yi sovchilik asosida boshlanadi. Nikoh to‘yi uch kun davom etadi. Birinchi kuni fotiha to‘yi bo‘ladi. Ushbu «fotiha» to‘yi kuni kuyov tomon kelin tomonga patir nonlar solingan savatlar va shirinliklar keltiradi. Shuningdek, to‘yga ketadigan ba‘zi bir mahsulotlar kuyov tomonidan keltiriladi. Shu bilan birga kelinning sarpolari ham shu kuni olib kelinadi. Mana shu kuni kuyov o‘zi bilan birga do‘stlari guvohligida kelin uyida shar‘iy nikohdan o‘tadi. Nikohdan so‘ng kelin va kuyov chimildiqqa olib kiriladi. Kelin tomonidan yoshi ulug‘ momolar kelin va kuyov ustiga bir muddat choyshab yopib o‘tirishadi bu udum **“Kuyov tanishtirish marosimi”** deb ataladi. Kelinning qo‘llariga kuyov tilla uzuk taqadi.

Shu kuni yana bir marosim, kelin tomon kuyov beliga 20ta belbog‘ boylashadi. Nikoh to‘yining ikkinchi kuni **“bazzm”** deb ataladi. Bazzm kuyov tomonida bo‘ladi. Kelin yangalari bilan keladi. Shu kuni **“yuz ochdi” (ro‘kishon)** marosimi bo‘lib o‘tadi. Boshqa ba‘zi bir joylarda bu marosim ikkinchi kuni bo‘lib o‘tadi. Qoraqo‘rg‘on qishlog‘ida bu marosim ikkinchi kuni kechqurun bo‘lib o‘tadi. Kuyov tomon kelinchakni olib kelin tomonga boriladi. Bu marosim **“kelin salom”** deb ataladi.

Keyingi manzilimiz G‘ova qishlog‘i. Bu qishloq tog‘li joy, tabiati so‘lim go‘shalardan biri. Bu joyning ham o‘ziga xos urf-odatlarini bor. Hamma joyda ham sovchilik asosida nikoh marosimi boshlanadi. G‘ova qishlog‘ida ham sovchilik bilan to‘y boshlanadi. Bu qishloqda ham nikoh to‘yi marosimi uch kun davom etadi. Birinchi kuni **“Non yopdi”** marosimi bo‘lib o‘tadi. Shu kuni yopilgan non qo‘ni-qo‘shnilarga tarqatiladi. Bu esa bu xonadonda to‘y boshlanganligini bildiradi. Ikkinchi kuni nikoh bazzmi bo‘lib o‘tadi. Bazzm tugagach kelin tomondan kelgan mehmonlar chimildiqda kelin va dugonalari bilan qolishadi, erta tonggacha qo‘shiq aytib raqsga tushishadi. Bu **“qiz bazzmi”** deb ataladi. Ertasi kuni **“yuz ochdi”** marosimi bo‘lib o‘tadi. Uchinchi kuni kuyov kelinni olib kelinning uyiga boradi. Bu marosim **“chaqirdi”** deb ataladi.

Navbatdagi manzilimiz Varzik qishlog‘i bo‘ladi. Bu hudud ham o‘ziga xos urf-odatlariga boy. Urf-odatlar bu yerda ham sovchilikdan boshlanadi. Sovchilar roziligidan so‘ng **“Belgi berdi”** degan marosimi bo‘ladi. Bu marosim shuni bildiradiki, rozillik belgisi sifatida qiz tomonning tabarruk onaxoni “oqlik” beradi. Yana bir marosim **“Achaxurak”** deb ataladi. Bu marosimda kelin tomonga savatlarda shirmon nondan tortib, qat-qat patir nonlar va kelinga atab sep-sidirg‘alar keladi. Shundan so‘ng kelin va kuyov bir-biriga kiyim olib berishadi. To‘yga yaqin kelin tomonga yuk berishadi. Yukda to‘yga kerakli mahsulotlar keladi. Kelin tomonga kuyov tomondan mehmonlar borishadi. Shundan so‘ng kelinni olib kuyov uyiga kelishadi. Nikoh bazmi boshlanadi. Bazmdan keyin kelin yangalari bilan birga go‘shangada qolishadi. Ertasi kuni tongda kelin va kuyov shar‘iy nikohdan o‘tadilar. Shundan so‘ng **“yuz ochdi”** marosimi bo‘ladi.



Keyingi marosim **“kelin salom”**. Bu marosimda kuyov kelin tomonga mehmonga borishadi.

Chust tumanining chekka qishloqlaridan biri Ariq bo‘yi qishlog‘i. Bu qishloqning aholisi mehmondo‘st va juda shirinso‘z. To‘y tantalari ham 12 kun davom etadi. Sovchilar kelishidan tortib chaqirdigacha har biri uzoq tarixga, hikmatga ega bo‘lgan marosimlarni o‘tkazishadi. Birinchi kuni **“sovchi kutish”** marosimi bo‘lib o‘tadi. Unda qishloqning eng ulug‘lari kelib kuyov bo‘lmish yigitga o‘tin yorib berishini so‘rashadi. Ayollar esa mehmondorchilikka taraddud ko‘rishadi. Ikkinchi kuni **“Maslahat oshi”** marosimi o‘tkaziladi. Bunda ikki tomon keksalari o‘tirib, to‘y maslahatini “bir piyola choy ustida” kelishib olishadi. Uchinchi kuni **“Sarpolar kiyish”** marosimi bo‘lib o‘tadi. Bunda kelin va kuyovga olingan sarpolar bir-birlariga beriladi. To‘rtinchi kuni yigit xonadonida do‘stlari uchun **“Yigit oshi”** o‘tkaziladi. Beshinchi kuni **“qiz bazmi”** bo‘lib o‘tadi. Oltinchi kuni **“mahalla oshi”** o‘tkaziladi. To‘y kuni yigit xonadonida chimildiq ilinib, qo‘sha qarigan momolar chimildiq ichiga to‘shak yozadilar va yotib olishadi. Bu **“Kampir o‘ldi”** marosimi. Bunda onaxonlarga pul, sarpolar beriladi. Onaxonlar duo qilib o‘rinlaridan turadilar. Bu marosimni o‘tkazishdan maqsad kelin va kuyov shu momolarga o‘xshab yurishligi nazarda tutilgan. Chust tumanining 50 dan ortiq qishloqlarida bir biriga o‘xshamaydilar urf-odatlar, an‘analari, udumlar mavjud.

#### Adabiyotlar:

1. S.Maxsudova. To‘ylar haqida o‘ylar. Toshkent. 2015. Guliston, 22 b.
2. O‘zbek nikoh to‘yi marosim, udumlar. Toshkent.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklor. Toshkent. Fan 1986-216.
4. Mo‘minov S. Hududga xos urf-odatlar. Namangan. 2000-110.b.

# O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING FARZAND TARBIYASIDAGI O‘RNI

**Mamatqulova Nigina,**  
O‘zDSMI MSMTEB yo‘nalishi  
4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tashmatova Kamola Abdurashidovna, O‘zDSMI  
“Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada nomoddiy madaniy merosning ertak janrining tarixi, xususiyatlari o‘zbek xalq ertaklarining bugungi kundagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ertak, tarbiya, nomoddiy madaniy meros, maqol, xalq og‘zaki ijodi, shirli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, ijtimoiy maishiy ertaklar.

## **Аннотация**

В данной статье представлена информация об истории и особенностях нематериального культурного наследия жанра сказки и современном значении узбекских народных сказок.

**Ключевые слова:** сказки, воспитание, нематериальное культурное наследие, пословицы, фольклор, волшебные сказки, сказки о животных.

## **Annotation**

This article provides information about the history and features of the intangible cultural heritage of the fairy tale genre and the modern meaning of Uzbek folk tales.

**Keywords:** fairy tales, education, intangible cultural heritage, proverbs, folklore, fairy tales, animal tales.

Inson qadim zamonlardan buyon tabiat kuchlarining mohiyatini anglash, ularni o‘ziga bo‘ysundirish, dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tushunish, adolat, baxt-saodatni orzu qilgan. Barcha xalqlarning orzu-niyatlari aslida, bir-biriga hamohang bo‘lsa-da, ularni har bir xalq o‘zicha ifodalagan. Xalqlarning ana shu orzu-niyatlari ifodasi o‘laroq xalq og‘zaki ijodida ertak janri maydonga kelgan. Xalq ertaklari barcha xalqlar og‘zaki ijodiga xos qadimiy janrdir. Har bir xalq ertaklarida mazkur xalqning dunyoqarashi, milliy «Ahmadjon bilan Luqmonjon» ertagiga ishlangan rasm xarakteri, sinfiy munosabatlari, turmushi ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Ertaklar hayot haqiqatini xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlaganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea-hodisalarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarining g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Asrlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, go‘zal shakllari, sodda va teran mazmuni bilan bizgacha yetib kelgan ertaklarning badiiy kuchi — ularning xalq orzu-umidlari va turmush haqiqatlari bilan uyg‘unligida, kishilarning ruhiyatini o‘zida aks ettirishida, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli, qiziqarli bo‘lishidadir.

“Ertak” atamasi Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrda yozilgan “Devonu lugatit turk” asarida “etuk” shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda ifodalash ma’nosini bildiradi. Ertak so‘zining lug‘aviy ma’nosi — aytish, aytmoq, hikoya qilmoq ma’nolarini bildiradi. Ertak Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida «matal», Buxoro viloyatining ba’zi tumanlarida «ushuk», Toshkent shevasida «cho‘pchak» atamasi bilan nomlanadi. Bundan tashqari, o‘zbeklar orasida ertakning hikoya, afsona, o‘tirik, tural kabi atamaları ham uchraydi. Ertaklar hayvonlar haqidagi ertaklar, bahodirlik ertaklari, sehrli-fantastik ertaklar, sarguzasht ertaklar, tarixiy va ijtimoiy-maishiy ertaklar singari guruhlariga ajratiladi.

O‘zbek xalq ertaklari, odatda, saj‘ (nasrdagi qofiya) usulida yaratiladi va «Bor ekan- da, yo‘q ekan, och ekanda, to‘q ekan...» singari an’anaviy kirish bilan boshlanadi hamda «... murod-maqсадlariga yetibdilar», degan an’anaviy tugallanma (xulosa) bilan yakunlanadi. Ertaklarda xalqning badiiy ijodga, boy taxayyuloti (fantaziyasi)ni ifodalashga intilishi aks etadi. Zero, hayotdagi buyuk kashfiyotlar ham, odatda, to‘qimalardan, ijodiy tasavvurdan yaraladi. «Uchar gilam», «Zangori gilam» kabi mashhur xalq ertaklaridagi qahramonlar bundan minglab yillar oldin osmonga ko‘tarilish, parvoz qilishni orzu qilib, ko‘z ilg‘amas masofalarni uchar gilamlarda bosib o‘tgan edilar. Masalan, uchar mashina — samolyot ayni ana shu sehrli ertak mahsuli, ertaklardagi uchar gilamning hayotdagi aksidir. Albatta, uchar gilam bilan samolyot o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor, lekin bunda insonning ko‘kka parvoz qilish haqidagi asriy orzu- lari ro‘yobga chiqdi.

Shuningdek, ertaklarimizda baxt-saodatli kunlarga erishish, odil podsho, farovon hayot orzusi nihoyatda keng yoritilgan. «Ur, to‘qmoq!» ertagida esa kambag‘al, sodda chol erkin, farovon hayotni qidiradi. Chol oyog‘i singan laylakni davolagani uchun sehrli buyumlar bilan mukofotlanadi. Bu buyumlar cholga yordam qiladi. «Ochil dasturxon» chol bilan kampirni to‘yg‘izsa, «Gazla, gazim» ularni kiyintirish, «Ur, to‘qmoq!» esa zolim podshoni urib, yo‘q qiladi va o‘rniga kambag‘al chol podsho bo‘ladi. Xalq ertaklari o‘zining teran mazmuni (syujeti) va katta-kichikka birday tushunarliiigi, orzularining beqiyosligi va niyatlarining olijanobligi bilan barcha yozuvchilar diqqatini jalb etgan.

«Ertaklar – yaxshilikka yetaklar», deydi xalqimiz. Oilada ota-onalar tomonidan farzandlarga hayot haqida bilim berish, o‘git-nasihat qilish, nutq o‘stirish, mehru e’tiborini amalda ifodalash uchun ertaklar aytiladi. Bola ulg‘aya borgan sari ertaklarning hajmi kengayib, mazmuni va mundarijsi murakkablashib boradi. Ertaklar ta’sirida farzandlarda hayotga muhabbat, oilaga, ota-onaga mehr, do‘stu yorga sadoqat, kelajakka umid, yaxshilik va adolat tantanasiga ishonch hislari kamolga yetadi.

Ota-onasi, buvi va bobolaridan, donishmand keksalardan eshitgan, kitoblaridan o‘qigan ertaklarini eslab qolib, ularni qiziqarli va ta’sirchan qilib hikoya qilib beradigan odamni ertakchi deyish mumkin.

Ertakchilar har bir ertakni tinglovchining diaqqtini tortib, uni mahliyo qiladigan holda taqdim etish uchun maxsus kirish, boshlama va tugallamadan foydalanadilar. Kirish qism ertakchi mahoratini namoyish qiladi, boshlama va tugallama esa ertakning yaxlitligini ta’minlash bilan birga unga sirlilik va an’anaviylik baxsh etadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Afzalov. M Xalq ertaklarining tasnifi. O‘zbek xaqi ijodi. Toshkent.: Fan 1967.
2. Jumanazarov U. O‘zbek folklor va tarixiy voqealilar. Toshkent.: O‘qituvchi,1991.
3. www/Wikipedia/uz
4. www/arxiv/com

## **BOLALARNI MA’NAVIY TARBIYASIDA FOLKLOR QO‘SHIQLARINING O‘RNI**

O‘ZDSMI Kino Tv va radio san’ati fakulteti :  
“Vokal ijrochiligi” mutaxassisligi  
Bakalavr1-bosqich  
**Abdujalilova Dilrabo Islamovna .**  
Ilmiy rahbar dotsent D.M.Malikova  
+998996374063

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada musiqa va qo‘shiqning inson hayotidagi o‘rni, bolalar folklor qo‘shiqlarining ma’naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati va ularda folklor qo‘shiqlari orqali axloqiy dunyosini har tomonlama o‘stirish, oliyjanob fazilatlarini kamol toptirish haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar.** Folklor, urf-odat, madaniy meros, baxshi, bolalar folklori, dutar, doira.

### **Annotation**

This article discusses the role of music and song in human life, the importance of children's folk songs in the spiritual and aesthetic education, and the comprehensive development of their moral world through folk songs, the development of their noble qualities.

**Key words:** Folklore, customs, cultural heritage, children's folklore, dutar, doira.

Folklor san’ati o‘zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi va umrboqiyiligi bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turadi. Xalqimizning turmush tarzi singib ketgan bu san’at insonlarning dunyoqarashi, ruhiy-estetik olami, ichki kechinmalarini aks ettiruvchi azaliy qadriyatdir. Ajdodlarimizdan qolgan bu ulkan meros millat qalbida ezgu niyat va ulug‘ maqsadlarga intilish, ona Vatanga muhabbat va e’tiqod tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosi – bitmas tunganmas xazina. Bizga ma’lumki, ma’naviy merosimiz mazmunida san’at alohida o‘rin tutmoqda. San’at janrlari ichida eng ko‘hnasi bu folklor san’atidir. Folklor san’ati xalqning qiziquvchanlik, iqtidori poydevoriga qurilgan ijodiyot bo‘lganligi sababli, u ham ko‘hna, ham navqiron san’at

turi hisoblanadi. Folklor san'ati aholining barcha yoshdagi kishilariga birdek manzur bo'lgan chinakam xalq san'atidir. Yurtimiz erishgan buyuk ne'mat mustaqillik tufayli folklor san'atiga bo'lgan qarash va munosabatlar yangicha sifat kashf etdi. Folklor san'atini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor kuchaydi.

I "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Folklor himoyaga va muhofazaga muhtojdir. Mana shunday noyob va buyuk san'at bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko'p joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani — bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Bu haqiqat ushbu go'zal va betakror san'atning chinakam fidoyilari sifatida siz, azizlarni hammadan ko'ra ko'proq tashvishga solayotganiga ishonaman" – deganlar [1].

Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san'at turidir. Bu soha o'z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab oladi.

Folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari - me'morchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalarini tushunamiz. Ushbu san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassislar o'zi tanlagan turni folklor deb ataydilar. Xalq bilan birga tug'ilgan bu xususiyatlar xalqning tarixi, madaniyati, turmushi, e'tiqodi va tiliga xos xususiyatlarini milliy o'ziga xoslikni yirik ifoda etadi.

Musiqa san'ati inson ma'naviy olamining ajralmas qismi bo'lib uning badiiy tafakkur estetik did, dunyoqarash shakillanshdagi o'rni va ahamiyati naqadar kattaligi hamda inson hissiy kechinmalarini fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar vositasida aks ettruvchi san'at turlaridan biridir. Mustaqillik yillarda milliy musiqa san'atimizga ham boshqa sohalar singari katta e'tbor qaratildi. Milliy kuy-qo'shiqlarmiz, taronalarimiz biz yoshlarning ongimizga singib sharqona ohanglar ta'sirida kamol topayapmiz.

"Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbob bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishda boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda,"- deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov [2,141].

Xalqimizning musiqa boyliklari juda ko'p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz va folklor namunalari kishiga quvonch, xursandchilik bag'ishlaydi, og'ir damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlarini, his va tuyg'ularni ifodalab beruvchi kuchga egadir. Shu bois respublikamizda o'zbek milliy musiqa folklorini targ'ib qilishda badiiy havaskorlik va professional jamoalari alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimiy an'analarimiz, xalq og'zaki ijodining noyob

namunalarini saqlash, unga sayqal berib, kelajak avlodga yetkazishda hududlarda faoliyat yuritayotgan badiiy jamoalarining o'rnini beqiyos.

Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa va san'atni inson tarbiyasidagi ro'li ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk komil inson qilib tarbiyalashda folklor qo'shiqlarining ro'li shakl shubhasiz kattadir. U bolani musiqiy dunyo qarashining shakllanishi va mustahkamlashi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar yoshlikdan folklor qo'shiqlarini kuylab ko'nikma hosil qiladilar va bundan o'zlariga estetik zavq oladilar, uning yordamida aqliy va jismoniy kamolotga erishadilar. Bu masalada xalq og'zaki badiiy ijodi salmoqli hissa qo'shadi. Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizning idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqbol sharofati bilan milliy -an'anaviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Musiqaning ana shunday o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarini tarbiyalashdagi eng muhim va doim dolzarb bo'lgan vazifalarni biridir.

O'zbek xalq qo'shiqlari mehnatkash xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan va hozirgi kunda o'z qadri va muxlislarini yo'qotmagan. O'zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topshmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga yordam berishga tayyor bo'lishi singari yaxshi sifatlariga egadir. Albatta yosh avlodni qiziqtirishda kompozitorlarni o'rnini ham katta deb o'ylayman. Bolalarni qiziqtirish, ularni musiqaga bo'lgan mehrini yanada oshirishda ularning asarlari juda muhim ahamiyatga egadir. Ana shunday kompozitorlardan biri bo'lgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shermet Yormatov. Bolalar uchun ko'plab bir qancha asarlarni bolalar uchun qayta ishlagan xalq qo'shiqlari bolalarning qalbidan alohida o'rin egallagan. "Bulbulcha" jamoasi repertuarida bolalar xalq qo'shiqlaridan "Oq terakmi, ko'k terak", "Yomg'ir yog'aloq", "Chamanda gul", "Lolacha", "Boychechak", "Laylak keldi", "Bu gulshan soz" kabilar ham o'rin olgan.

Professor Rauf Qodirov "Musiqa pedagogikasi" kitobida bolalar xalq qo'shiqlarining ahamiyatini quyidagicha tasdiqlaydi: "Bolalar qo'shig'ida - asrdan asrga o'tib kelayotgan sayqallangan madaniy merosi va musiqiy-mayishiy an'analarining go'zal tabiati mavjud. Bolalarning bebaho musiqiy materiallarni o'zlashtirishining samaradorligi va uni egallash zarurati musiqiy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir"[3,49]. Shu o'rinda "Tomosha" bolalar folklor ansamblini ko'plab bolalar folklor qo'shiqlarini ijrolarini kuzatish mumkin. Ushbu folklor ansamblining namunali ijodiy faoliyatiga nazar solsak, ma'lumki, ansambl shu davrgacha ko'plab iste'dod egalarini, mashhur xonandalarni, Respublikada xizmat ko'rsatgan artist va madaniyat xodimlarini yetishtirib chiqargan. Ansamblga 1988-yildan buyon Nodira Qurbonova rahbarlik qilib kelmoqda. U nafaqat musiqa rahbari, balki ansambl repertuaridagi ko'plab qo'shiqlar musiqiy spektakl va tomoshalarning ham muallifidir. Ansambl o'zining repertuaridagi bolalarning ajoyib folklor qo'shiqlarini nafaqat O'zbekiston balki juda ko'plab: Gollandiya, Turkiya, Rossiya,



Germaniya, Fransiya va Janubiy Koreyalarda o‘tkazilgan Halqaro festivallarda mahorat ila ijro etib, bolalar folklor musiqasini ommalashtirib, targ‘ib etib kelmoqda. Eng muhimi, ansambl tashkil etilgandan beri 300 dan ziyod bolalar bolalar folklor qo‘shiqlarini bayram va tadbirlarda targ‘ib etib kelgan. Repertuardagi “Kovushim”, “Do‘st yalli”, “Osh”, “Bizning bolalar”, “Beshik”, “Oq terak”, “Hakalakam-dukalakam” va shu kabi bir necha qo‘shiqlari garchi yaratilganiga bir necha yillar bo‘lganiga qaramay, haligacha o‘z ahamiyatini yoqotmagan. Shubhasiz, “Tomosha” bolalar folklor ansambli eng namunali va zamonaviybolalar folklorining targ‘ibotchisidan desak, mubolag‘a bo‘lmas.

O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ilgari surgan beshta muhim tashabbusning birinchisiga binoan yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr san‘at turlariga qiziqishlarini oshirishda iste‘dodlarini yuzaga chiqarish, ma‘naviy immunitetlarini yanada kuchaytirish, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishlari va bo‘sh vaqtlarini sermazmun o‘tkazish borasida ko‘plab fikrlar berilgan. Respublikamizdagi barcha san‘at va madaniyat tasarrufidagi o‘rta maxsus muassasalari, oliygo‘hlarda ushbu tashabbusni qo‘llab quvvatlab an‘anaviy milliy va zamonaviy professional musiqamiz durdonalari ijrosini targ‘ibot hamda tashviqot qilish maqsadida turli kontsertlar taniqli san‘at namoyondalari bilan ijodiy uchrashuvlar o‘tkazilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy madaniy jarayonlar ommaviy madaniyat keng quloch yozishda asosiy vositachi sifatida xizmat qilib asriy urf-odat va an‘analarni zamirida paydo bo‘lgan va rivojlangan xalq milliy madaniyatini keng targ‘ib etish dolzarb masala hisoblanadi, chunki musiqa sohasi shaxs tarbiyasini unib o‘shishda juda muhim vosita hisoblanadi musiqa va qo‘shiqning inson hayotida bu qadar o‘rin olishi, uzoq yashashi o‘tmishdan kelajakka o‘tgani sari sayqal topib borishining muayyan sabablari bor. Chunki qo‘shiq aytib o‘tganimizdek, insonni mehnat qilishga qiyinchiliklarini yengishda, ruhan tetik bardam bo‘lishga, do‘stlarga vafodorlik, dushmanlarga shafqatsiz bo‘lishga undaydi, kindik qoni to‘kilgan ona Vatanni sevishga da‘vat etadi. San‘atning tarbiyasi kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o‘quvchi tomoshabinning qalbiga kirib borishi ularda estetik zavq uyg‘onishidir. Bolalik chog‘laridan go‘zallikni o‘zi uchun kashf etgan bola, umrining oxirigacha yomonlik qila olmaydi. Bolalar folklori janrlari bolalarni komil inson bo‘lib yetishishlarida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Folklor namunalari o‘rganish jarayonida bir-birini tushunish, ko‘maklashish, ahil jamoa bo‘la olish, sahovatli bo‘lish kabi insoniy tuyg‘ular hamda ma‘naviy estetik tarbiya belgilari tarkib topadi. Demakki, bolalar folklorining ham umummilliy, ham zamonaviy ko‘rinishida yuqorida keltirilgan barcha jihatlar va xususiyatlar o‘z qiymatini yo‘qotmaydi, balki zamonaviy ko‘rinishida u yana ham sayqallanib, bolalarni zeriktirmaydi.

### **Adabiyotlar:**

1. I “Xalqaro baxshichilik san‘ati” festivalidagi nutqidan, Termiz shahri, 05.04.2019-yil
- 2.I.A. Karimov “Yuksak ma‘naviyat- yengilmas kuch”. Ma‘naviyat, Toshkent 2008-yil
- 3.R. Qodirov “Musiqqa pedagogikasi” Musiqqa –Toshkent –2009-yil

4.Feruza Asqar “Musiqqa va inson ma’naviyati” “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2000-y

5.T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M.Jo‘rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov “O‘zbek folklori”. Tafakkur bo‘stoni, Toshkent 2020-y

## O‘ZBEK XALQINING FOLKLOR SAN’ATI

**Yoqubova Gulnoza Salohiddin qizi,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Zumriniso Kozimova,**

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalqining folklor san’ati, folklor tarixi hamda folklor yo‘nalishida xizmat qilgan ijodkorlar, folklor atamalari, ularning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, doston, an’anaviylik, qadriyat, folklorshunoslik.

### Annotation

This article depicts information about the folk art of the Uzbek people, the history of folklore and the artists who have served in the field of folklore, folklore terms, and the history of their development

**Key words:** folklore, epic, tradition, meaning, folklore.

### Аннотация

В данной статье рассматривается народное творчество узбекского народа, история фольклора и исполнители, служившие в направлении фольклора, фольклорные термины, история их развития.

**Ключевые слова:** фольклор, эпос, традиция, значение, фольклор.

Mustaqillik va xalq ijodining o‘rganilishi masalalari, mustaqillik davri folklorshunosligining o‘ziga xos xususiyatlarida, folklor – milliy ma’naviyatimizning asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Har bir sohaning o‘z tarixi bo‘lganidek, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o‘z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o‘tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og‘zakii ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo‘lsa bularning bari o‘zbek xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga o‘zining munosib ulushini qo‘shgan. Zero, til millat tafakkurini shakllantiruvchi bir mezon kabi, til va tafakkur bir biriga bog‘liq jarayon. Millatning til ravnaqi, shubhasiz, uning badiiy asarlarida namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi ana shunday tafakkurni shakllantiruvchi folklor asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi. "Alpomish" dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoni joriy etildi. Bu esa milliy manaviyatimizning asoslaridan biri bo'lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi. "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir, – deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi". "Alpomish" dostoniga, balki, butun folklor asariga, milliy ma'naviyatimizga berilgan yuksak bahodir. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyin folklor milliy ma'naviyatimizni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik eng, avvalo, har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma'naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida, maktabgacha ta'limdan to'liq yurtida til o'qitishda, o'rganishda folklarga va yana folklarga qaytib ish ko'rish lozim bo'ladi. Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Og'zakilik, variantlilik folklorning o'ziga xos xususiyati bo'lib u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog'liq ekanligini namoyon etadi, ya'ni folklor asarlariga turg'unlik xos emas, u har galgi ijroda o'zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor – shunchaki so'z san'ati namunasi emas, balki xalqning til zaxirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y basti bilan o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o'zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir.

Folklor asarlarida birinchi navbatda mifologik tafakkurdan poetik tafakkurga o'tish jarayoni aks etgan ekan, demak til tarixini o'rganishda xalq ijodi namunalariga suyanib ish ko'rish lozim bo'ladi. Tildagi hech bir so'z o'zo'zidan paydo bo'lmaydi, u zarurat tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga keladi va yoki o'zlashadi. Qachonlardir mifologik tasavvurni ifodalagan so'z keyinchalik o'zining asl ma'nosini unutib yoki dastlabki ma'no qatlamini xiralashib, keyingi ma'no qatlamini yuzaga keltiradi. Bizdagi mavjud ertak, doston, qo'shiq va boshqa janrlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, folklor asarlarida ko'proq xalqimizning samoviy

jismlar, o‘simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq eng qadimgi tasavvurlari o‘z ifodasini topgan. Bu tasavvurlar tilimizdagi ko‘plab so‘zlarning kirib kelishiga, obrazli badiiy tafakkur tarzining shakllanishiga zamin yaratgan.

Folklor ijod namunalari xalqning boyligi hisoblanar ekan, ularni o‘rganish hamma vaqt dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. Xalq og‘zaki badiiy ijodini o‘rganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristika deb yuritiladi. Shu ma‘noda folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to‘g‘risidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Barcha davrlarning o‘ziga xo‘surf-odat va madaniyati shakllanishi natijasida folklorshunoslik ham darajama daraja o‘sib borgan. Arab xalifaligi hududlaridagi xalqlar ertak va rivoyatlarining yig‘indisi bo‘lmish – “Ming bir kecha” kitobini ham folklor namunalarini yig‘ishda o‘ziga xos tajriba deyish mumkin. Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, “xalq donoligi” degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san‘at namunalari – me‘morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san‘at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni “folklor” deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me‘morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. Dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot”, “og‘zaki ijod” deb yuritilib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarif (1934-35) tomonidan qo‘llanilgan.

O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodida ham ko‘plab janrlardan tarkib topgan og‘zaki so‘z san‘ati namunalari bo‘lib xalq hayoti, tarixi, orzu-intilishlari, dunyo qarashlarini badiiy tarzda o‘zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og‘izdan-og‘izga, avloddan avlodlarga o‘tib keladi. Folklor – sinkritik xususiyatga ega bo‘lib, barcha san‘at turlariga xos elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan, so‘z, kuy va ma‘lum turlarida raqs bilan uyg‘unlikda ijro etiladi. Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag‘zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushunchalardan mukammal diniy e‘tiqodga bo‘lgan tushunchalar tadrijiy ravishda bo‘y ko‘rsatadi. Folklor asarlari so‘z san‘ati sifatida o‘ziga yaqin yozma adabiyot namunalari va san‘atning boshqa turlaridan biri hisoblanadi.

Folklorga xos bu xususiyatlar, avvalo, uning jamoaviy (kollektiv) ijod ekanligida, shu sababli ham folklor namunalarining muallifi xalq ommasi hisoblanadi, ularning aniq ijodkori noma‘lum – anonimlik ularga xos va xalq orasida avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib tarqaladi, og‘zaki ijod etilib, ijro qilinadi, ijro va ijodda an‘analarga rioya etilib, ommaviylik tusini oladi, ijro jarayonida variantlarga va davrlar o‘tib versiyalarga ega bo‘ladi. Ushbu asosga ko‘ra, folklorga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og‘zakilik, an‘anaviylik, variantlilik va versiyaviylik ko‘rsatiladi.

Jamoaviylik – o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Ammo jamoaviylik shaxsiy ijodkorlik imkoniyatini inkor qilmaydi, aksincha, uni zaruriy dastlabki shart sifatida qamrab oladi. Tabiatda tomchilardan jilg‘alar,

jilg'alardan daryolar paydo bo'lishini ko'ramiz, biroq daryodan bir hovuch yoki bir ariq suvni ajratib, bu falon jilg'aning suvi deyish mumkin bo'lmaganidek, an'anaviy xalq qo'shig'I, dostoni yoki ertagidan bir band yoki qismni ajratib biror individual ijodkorga nisbat berish qiyin. Ammo bu ijodkor, albatta, bo'lgan. Xalq ijodi namunalari ana shunday kollektiv ijod mahsuli bo'lganligi uchun asarlarning bosh qahramoni yoki "men"i ham o'z xarakteri jihatidan yozma va og'zaki adabiyotda sezilarli farqlanadi. Folklorning qahramoni tipik holatga kelgan umumiy "men"ga, tom ma'noda xalq ommasiga tengdir. Insonning ma'naviyatini yuksaltirishda xalq og'zaki ijodining o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Onalarimiz, momolarimiz aytgan allalar, ertaklar, tez aytishlar, maqollar va qo'shiqlar bolaning tili va dunyoqarashi shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yosh vakillarini birday qiziqtiruvchi xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, har bir xalqning til boyligi birinchi navbatda, uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning xalq og'zaki ijodini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Alloma Hodi Zarif: Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilanadi – degan edi. Barcha davr tilshunoslarini xalq poetik ijodini o'rganish qiziqtirib kelgan. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kunga qadar xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan bo'lsa, bularning bari buyuk merosni o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan.

Folklorda tur va janrlar. Xalq og'zaki ijodi namunalari ham barcha san'at asarlari kabi tuzilishi, ijro o'rni, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog'liqlik darajasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra muayyan tur, guruh va janrlarga bo'lib qaraladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, folklor namunalari tabiati, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo'lishi, mukammal shaklga kelishi, o'zgarishlarga uchrashi, o'rin almashinishi va inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o'rganish imkonini beradi. Folklor asarlari o'z tarkibiga ko'ra uch turdan iborat ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ularni umumiy shaklda epik, lirik, dramatik turlarga ajratib tasnif etish qabul qilingan. O'z navbatida bu turlar ichki janrlardan tashkil topgan. Epik tur namunalari voqelik keng ko'lamlil, obyektiv syujetli-hikoyaviy shakllarda tasvirlansa, lirik turda subyektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlari, ichki his-hayajonlari aks etadi. Dramada esa personajlarning nutqi va harakatlari orqali voqelik tasvirlari beriladi. Epik tur – doston, ertak, afsona, rivoyat, naql, latifa va boshqa janrlardan, lirik tur – marosim lirikasi, mehnat qo'shiqlari, tarixiy qo'shiqlar, lirik qo'shiqlar, alla, bolalar qo'shiqlari, dramatik tur esa og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya kabi namunalarni o'zida qamraydi. Folklorshunoslikda tur deyilganda voqelikni ifodalash yo'li, usuli tushunilsa (epik, lirik, dramatik), janr deganda badiiy shakl tiplari (doston, ertak, qo'shiq, maqol...) tushuniladi. Ammo har bir janr ham ichki xilma-xilliklarga ega, bu uning mavzu mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, ertaklarning ichkiko'rinishlari sifatida hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar kabi xillari mavjud. Bir qator mutaxassislar maqol

va topishmoqlarni maxsus tur sifatida tilga olib o'tishadi. Folklor janrlarini ijro xususiyatlari va funksiyalariga ko'ra ikki yirik guruhga ajratib tasnif etish keng tarqalgan.

1. Marosim folklori janrlari.
2. Marosim bilan bog'liq bo'lmagan folklor janrlari.

Folklor asarlarining kimga mo'ljallanganligini hisobga olib ham ayrim guruhlariga bo'lish mumkin. Bolalar folklorini alohida olib ajratish shundan kelib chiqqan. Folklorshunoslikda gohi-gohida turlar aro qorishiq holatda uchrovchi namunalarga nisbatan liro-epik qo'shiq yoki ertak afsona singari atamalar qo'llanilsa-da, bu holat umumiy holat emas. Xalq badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi folklor namunalari tadjirida aks etgani kabi u yoki bu janrning yuzaga kelishi, turg'unlashuvida muhim o'rin egallaydi. Insoniyat mifologik tafakkur bosqichidan mifopoetik, so'ngra badiiy estetik tafakkur tadjiriga erishdi. O'zbek folkloridagi aksariyat janr namunalari aynan badiiy estetik tafakkur darajasida mumtoz holatga kelganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham o'zbek mifologiyasi xususida so'z ketsa, xalq dostonlari, ertaklari mag'zida turuvchi mifologik tasavvurlarni, ularning bu asarlar syujeti, yetakchi motivlari va obrazlar qatidan ajratib, tiklab qarash lozim bo'ladi. O'zbek folklori janrlar tarkibi boyligi, xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Bu o'rinda dunyoning barcha xalqlari uchun umumiy bo'lgan – ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar qatorida askiya, lof kabi faqat o'zbek xalq ijodiga xos janrlar mavjudligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbek folklori janrlari xilma-xilligi ijodkorlarning faoliyati va ularning professionallashuvi bilan ham chambarchas bog'liq. Xususan, doston, ertak, og'zaki drama, askiya kabi janrlar ijrosi maxsus tayyorgarlikni, muayyan ustozdan ta'lim olishni talab etadi. Bu janrlar ijrosi maxsus maktablarning paydo bo'lishini, ularning o'z an'analari doirasida shakllanib rivojlanishini ta'minlaydi. O'zbek folklori janrlari ijro usullari, ya'ni yakka ijro, jamoaviy ijro, sozli va so'zsiz ijroga ko'ra ham farqlanadi. Ertak, afsona va rivoyat aytilsa, doston ham kuylash, ham ijro etishga mo'ljallangan. Lapar kuylab va raqsga tushib ijro etilsa, og'zaki drama namunalari so'z (ba'zan kuylab, kuy jo'rligida) va harakat omuxtaligida ko'rsatishga, namoyish qilishga mo'ljallangan. O'lanlar tarafma-taraf kuylangan. Latifa va loflar yakka ijro etilgan.

Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag'zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushunchalardan mukammal diniy e'tiqodga bo'lgan tushunchalar tadjiriy ravishda bo'y ko'rsatadi. Folklor asarlari so'z san'ati sifatida o'ziga yaqin yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan bir qator xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadi. Folklorga xos bu xususiyatlar, avvalo, uning jamoaviy (kollektiv) ijod ekanligida, shu sababli ham folklor namunalari muallifi xalq ommasi hisoblanadi, ularning aniq ijodkori noma'lum – anonimlik ularga xos va xalq orasida avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tib tarqaladi, og'zaki ijod etilib, ijro qilinadi, ijro va ijodda an'analarga rioya etilib, ommaviylik tusini oladi, ijro jarayonida variantlarga va davrlar o'tib versiyalarga

ega bo‘ladi. Ushbu asosga ko‘ra, folklorga xos xususiyatlar sifatida jamoaviylik, anonimlik, og‘zakilik, an’anaviylik, variantlilik va versiyaviylik ko‘rsatiladi.

Jamoaviylik – o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Ammo jamoaviylik shaxsiy ijodkorlik imkoniyatini inkor qilmaydi, aksincha, uni zaruriy dastlabki shart sifatida qamrab oladi. Tabiatda tomchilardan jilg‘alar, jilg‘alardan daryolar paydo bo‘lishini ko‘ramiz, biroqdaryodan bir hovuch yoki bir ariq suvni ajratib, bu falon jilg‘aning suvi deyish mumkin bo‘lmaganidek, an’anaviy xalq qo‘shig‘i, dostoni yoki ertagidan bir band yoki qismni ajratib biror individual ijodkorga nisbat berish qiyin. Ammo bu ijodkor, albatta, bo‘lgan. Xalq ijodi namunalari ana shunday kollektiv ijod mahsuli bo‘lganligi uchun asarlarning bosh qahramoni yoki “men”i ham o‘z xarakteri jihatidan yozma va og‘zaki adabiyotda sezilarli farqlanadi. Folklorning qahramoni tipik holatga kelgan umumiy “men”ga, tom ma’noda xalq ommasiga tengdir. Anonimlik – folklor asarlari muallifining noaniqligianonimligi (grek. Anonymis – noma’lum) bilan ajralib turadi. Folklorda biror-bir muallif yo‘q. Xalq dostonimi, ertakmi yoki marosim qo‘shig‘imi ularni ibtidoda kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan avlodga o‘tar ekan, vaqt va zamon talablariga ko‘ra ma’lum o‘zgartishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi, an’analari o‘zgarishsiz kelaveradi. Folklorda birorbir asarni kimdir dastlab yaratgan bo‘lishi mumkin, lekin bu asar syujeti, tasvir vositalari, ohang yo‘llari xalq og‘zaki ijodi an’analariga tayanilib ijod etilsa, u folklor asari bo‘lib qoladi. Vaqtlar o‘tishi davomida xalq ijrochilari tomonidan yanada ishlov berilib, chinakam folklor namunasiga aylanadi. Folklorshunos Omonilla Madayev ta’kidlaganidek: “Anonimlik xalq og‘zaki ijodida xalq vakillarining o‘z xalqiga xolis, beminnat xizmat qilish namunasi sifatida qadrlanadi”

Og‘zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og‘zaki ravishda avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga ko‘chishidan paydo bo‘ladi. Bu o‘rinda umumfolkloriy bilim va folklor an’analari asos vazifasini o‘taydi. Xotira manbaiy va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo‘lmay, butun bir xalqning bilim va an’analaridan iborat bo‘ladi. Bu bilim va an’analar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug‘dan urug‘ga o‘tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o‘zgarish kiritishi – nimaningdir qo‘shilishi yoki tushirib qoldirilishida bo‘y ko‘rsata

Aytaylik, biror-bir tarixiy fakt unutilishi sababli asardan tushib qolishi mumkin. Yoki dostonidagi qo‘shiq qismining unutilishi uning ertak shaklida yashashini tayin etsa, aksincha, biror-bir iste’dodli ijodkor ijrosi sababli ertak syujeti asosida yangi doston paydo bo‘lib an’ana ko‘rinishini olishi mumkin. Bu holatlar og‘zakilikning jonli harakatdagi jarayoni sifatida folklorning yashash tarziga xos belgilari hisoblanadi. Zotan, folklor og‘izdan og‘izga ko‘chib yashasa, adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og‘zaki ijro etilib kuylansa, adabiyot esa faqat o‘qiladi. Ijrodagi og‘zaki folklor namunasining keng tarqalishiga, ommalashishiga yordam beradi. Biroq mohir ijrochining biror davrada yuksak badiiy mahorat bilan ijro etgan variant, yozib olinmasa, ijodkor vafotidan keyin aynan shu namuna ham

yo'qolishga mahkum bo'ladi. Bu ikki holat og'zakilikning ijobiy va salbiy jihatlaridir.

**An'anaviylik** – folklorning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifoda vositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'analar san'atidir. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining, ijro usullarining og'izdan og'izga o'tish jarayonida nisbatan barqarorliginigina anglatib qolmaydi, balki o'sha asarning avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijroga xos xususiyatlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganini ham anglatadi. An'anaviylik – jamoaviy ijod mahsuli va yashash tarzi, shu bilan birga folklorning folklor asarini jamoaviy holda saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli, omili hisoblanadi. Ommaviylik. Folklor asari xalq orasida ommaviy yashaydi. Folklor asarining ijro etilishi, omma tomonidan qabul qilinishida umumiy folkloriy, epik bilimning o'rni katta. Folkloriy bilimning, xususan, epik bilimning unutilishi xalq og'zaki ijodi namunalarning anglanishida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Ayniqsa, folklorga xos timsollar, ramzlarning omma xotirasidan ko'tarilishi bu namunalarning mazmunini jo'n qabul etilishiga sabab bo'ladi. Variantlilik va versiyaviylik – folklor namunalarning har bir ijrosi o'ziga xos variant hisoblanadi. Folklor asari ijro jarayoni davomida qaytadan yaratiladi, yangi yashash holatiga kiradi va bu holat o'ziga xos variantni paydo etadi. Ya'ni folklor ijro jarayonida xilma xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folklorning yashash tarzi. Variantlilik folklor tabiati, uning yaratilishi va jonli og'zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo'lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazlilik, poetikasi, janr xususiyatlarinilo'la qamraydi.

Variant – ma'lum bir asarning jonli og'zaki poetik an'ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o'zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalaridir. Variantda asar syujeti, motivlar tartibi, qahramonlar harakatida umumiylik bo'lib faqat ularni talqin etishda, tasvirlashda, ifoda shakllarida ma'lum bir farqlar bo'lishi mumkin. Ijodkor vaziyatga ko'ra u yoki bu motiv tasvirini cho'zishi yoki qisqa shaklda kuylashi yoki tushirib qoldirishi mumkin. Xalq turmushining, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi, inson tafakkurining mifologik tafakkurdan mifopoetik va badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonida alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qiziqchilar va boshqa ijodkorlar, ijro maktablari, ustoz va shogirdlik munosabatlari paydo bo'ldi. Xalq orasida o'z iqtidori ijro san'ati bilan ajralib turuvchi: Tilla kampir, Sulton kampir, Jalmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jassoq shoir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin shoir, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Qunduz soqi, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan Jonmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Nurmon Abdivoy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir shoir, Xolyor Abdulkarim o'g'li, Bola baxshi, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir Rahim o'g'li va boshqa namoyandalar yetishib chiqdi. Bu xil ijodkorlarning iste'dodi, iqtidori, mehnatlari tufayli kollektiv dahosi bilan yaratilgan asarlar avloddan avlodga o'tdi, sayqallandi, yuksak badiiy darajaga yetdi, folklorning mumtoz namunalari bizga meros bo'ldi. Ma'naviyat



kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab, to hayotining eng so‘nggi lahzasigacha o‘zi mansub xalqning qadriyatlari, an‘analari ichida ulg‘ayadi, kamol topadi. Hatto o‘zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta‘rifidan mutlaqoyiroq bo‘lgan kishi shu an‘analar ichida ulg‘ayadi, uning ongi, shuuri shu qadim an‘analari ta‘sirida shakllangan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, folklori o‘rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etar ekan, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma‘naviyatini yuksaltirishda ko‘plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Bunday usul va metodlar, birinchi navbatda, so‘z san‘atining ibtidosi sanalgan folklor namunalariga suyanilgan holda amalga oshiriladi. Shu o‘rinda xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so‘z san‘ati hamisha tayanch nuqta bo‘lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir. Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo‘riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir. Bunday islohotlarning tayanchi bo‘lgan “O‘zbek folklori” fanining yangi talablar asosida o‘qitilishi ham ushbu faoliyatining muhim bir qismi hisoblanib, I.Karimovning 2008-yil e‘lon qilingan “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” kitobida: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me‘morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir”.

Folklor asarlarida ham an‘analarining ahamiyatini belgilash, adabiyotshunoslik va xalq og‘zaki ijodining chambarchas bog‘liq ekanligini anglash hamda folklor asarlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ko‘nikmalarini oshirish yo‘lida yurtboshimiz to‘g‘ri ta‘kidlaganlaridek ajdodlarimiz tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma‘naviy xazina hisoblanadi. Bu xazina boyliklarini yosh avlodning ma‘nan kamolot topishi yo‘lida xizmat qildirish soha xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta‘kidlaganidek: “...Tengsiz ma‘naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz san‘atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrabavaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg‘or fikrli olimlar va san‘atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir” deb takidlagan. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikka, umuman ma‘naviyat masalalariga alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Zero, ma‘naviyat masalalari hamma davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan.

## Adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010.
5. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2010.5.  
Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T., 2005.
6. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009.
7. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
8. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
9. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
10. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 1995.
11. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O‘zbekiston, 2012.
12. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006.
13. Introduction to Folklore. London, 2008.

### **TOSHKENT SHAHRI FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARI REPERTUARIDA MAVSUM-MAROSIM QO‘SHIQLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI**

*(“Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi misolida)*

**Sunnatillayev Asatilla Sunnatovich,**  
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrası  
katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi  
[assunnatillayev92@bk.ru](mailto:assunnatillayev92@bk.ru)  
+998998782729

### **Annotatsiya**

So‘nggi yillarda o‘zbek milliy folklor ijrochilik san’ati, folklor-etnografik jamoalarining rivojlanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari, jamoalarning repertuari, ijrochilik mahorati bo‘yicha soha mutaxassislari, folklorshunos olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Ammo Toshkent-Farg‘ona viloyatlari folklor-etnografik jamoalari, ayniqsa, Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalari tarixi, ularning repertuari bilan bog‘liq tomonlari to‘lalgicha o‘rganilmagan. Ushbu maqolada Toshkent shahri folklor-etnografik jamoalaridan “Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi tarixiy-taraqqiyot bosqichlari va repertuari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Folklor, folklor-etnografik jamoalari, repertuar, etnografiya, ijrochilik san’ati.

## Annotation

In recent years, Uzbek national folklore performing arts, stages of development and historical development of folklore and ethnographic communities, repertoire of groups, performance skills have been conducted by experts in the field, folklorists. However, the history of folklore and ethnographic communities of Tashkent-Fergana regions, especially the folklore and ethnographic communities operating in Tashkent, and aspects related to their repertoire have not been fully studied. This article provides a scientific analysis of the historical and development stages and repertoire of folklore and ethnographic group “Buvijonlar” in Tashkent.

**Key words:** Folklore, folklore-ethnographic communities, repertoire, ethnography, performing arts.

Xalq madaniyati va ma'naviyatining eng qadimiy ko'rinishi bo'lgan folklor namunalarida o'sha xalqning turmush tarzi, hayotiy tajribasi, yutuq va muvaffaqiyatlari aks etadi. Shu bois u asrlar osha avlodlardan avlodga o'tib, yoshlar tarbiyasida “hayot maktabi” vazifasini o'tab kelmoqda. Xalqona ruh, betakror samimiyati va qadimiy madaniyatimizning go'zalligini namoyon etuvchi folklor chinakam ma'naviy xazina, tunganmas buloq singari asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitib, ongu tafakkuri va his-tuyg'ularini teranlashtirib kelgan. Ajdodlarimizdan qolgan bu ulkan meros millat qalbida ezgu niyat va ulug' maqsadlarga intilish, ona vatanga muhabbat va e'tiqod tuyg'ularini uyg'otadi.

Milliy ruhni o'zida asrlar bo'yi ortmoqlab kelayotgan, qadimiy an'analarni bugungi kunda ko'z-ko'z etayotgan, o'z ortidan millionlab kishilarni ergashtirayotgan har tomonlama ibrat maktabi bo'lib, omma mehrini qozonayotgan, yoshlar qalbiga ma'naviyat urug'ini singdirayotgan ijodkorlardan biri bu - folklor-etnografik jamoalaridir.

So'nggi yillarda Toshkent shahrida folklor-etnografik jamoalari faoliyati sezilarli darajada o'zgardi. Bir qator folklor-etnografik jamoalari tashkil etildi, ular orasida faol ijodiy faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalari esa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Xalq havaskorlik jamoasi unvoniga sazovor bo'lishdi. “Gavhar”, “Nodirabegim”, “O'zbekoyim”, “Hilola”, “Buvijonlar”, “Durdona” kabi folklor-etnografik jamoalari shular jumlasidandir.

Toshkent shahri folklor-etnografik jamoalar repertuarida milliy qadriyatlar va an'anaviy marosimlarining vositasi bo'lmish mehr-muruvvat, saxovat va insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari shakllandi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshladi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi – Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. “Yil boshi”, “Sumalak pishirish”, “Hashar uyushtirish”, “Lola sayli”, “Gul sayli”, “Muchal to'yi”, “Sunnat to'yi”, “Mehrjon” kabi o'zligimizni tarannum etuvchi qadimiy udum va marosimlarimiz yana hayotga qaytdi.

Toshkent shahrida ana shunday ma'suliyatli vazifalarni sidqidildan bajarayotgan, fidoiy ishtirokchilardan iborat folklor jamoalaridan biri "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosini alohida ta'kidlash lozim.

"Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi 2014-yili Toshkent shahar Mirobod tumani 1-son Madaniyat markazi qoshida tashkil etilgan. Hozirda "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamosiga o'n besh nafardan ortiq turli yoshdagi onaxonlar faol ishtirok etib kelmoqda. Jamoa repertuarlaridan o'zligimizni, milliylikimizni, urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar, udum va marosimlar joy olgan.



Onaxonlar ijrosidagi qo'shiqlar, qo'llaridagi chinni likobchalarni angishvona taqilgan barmoqlari bilan urib, usulga mos raqs harakatlari va qo'shiq ijrolarida hududga xos, o'zgacha bir o'ktamlilik ufurib turadi. Hududga xos dastur va ijodiy chiqishlari ko'p o'tmay bu jamoa soha mutaxassisleri tomonidan e'tirof etilib, turli ko'rik-tanlovlardagi ishtiroki san'atning bu janri ixlosmandlari e'tiborini qozondi.

Jamoa repertuaridan "Shaydini-shaydo", "Hunarmandlar", "Toshkentlik hunarmandlar", "O, layli", "Nurli hayot", "Shundanmikin", "Bahor fasli", "Oynaga qarang", "Sumalak", "Bugun navro'z ekan" kabi o'nlab mehnat va marosim qo'shiqlari joy olib, "Buvijonlar" folklor-etnografik jamaosi bo'lib shakllandi. Folklor jamoalarining viloyat, Respublika ko'rik tanlov va festivallarida faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarga bir necha bor sozovor bo'ldi.

Erishilgan muvaffaqiyatlar, ko'rsatilgan xizmatlari evaziga "Buvijonlar" folklor-etnografik jamosiga 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi buyrug'i bilan "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berildi. Jamoa bir necha bor O'zbekiston televideniylari orqali chiqishlar qilib o'z dasturini xalqqa namoyish etdi.

Folklor-etnografik jamoalarining ijro yo'li, repertuar tizimi va folklor xazinasiga yondashish uslubida an'anaga munosabatlari turlicha. Lekin ularning ijro usullari, badiiy mahorat darajalari, folklor an'alariga munosabatlari o'zlari istiqomat qilib turgan hududga bevosita bog'liq ekanligini ham e'tirof etish lozim bo'ladi.

Folklor-etnografik jamoalari qayerda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha yerlik xalqning milliy an'alarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib, xalqning o'ziga qaytarishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi ham o'z repertuarida Toshkent shahriga xos udum va marosimlar, lapar, yalla, qo'shiqlar o'rin olgan.

Istiqlol tufayli xalq badiiy ijodiyotining barcha tur va janrlari qatori mavsum-marosim folklori qo‘shiqlarining tiklanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Bu imkoniyatlar tufayli asriy qadriyatlar tizimi, bosqichma-bosqich tiklanib, hayotga qaytmoqda. Bu esa mustaqil diyorumizda kechayotgan hozirgi tarixiy-folklor jarayonining muhim qirralaridan biridir. “Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosining repertuarida ayniqsa mavsum-marosim qo‘shiqlari alohida ahamiyatga ega. Jamoaning ijodiy izlanishlari natijasida bir qator mavsum-marosim qo‘shiqlari tiklandi.

Mavsum marosimlarning boshlanishi ham o‘rganilishini ham negadir Navro‘z bayrami boshlab beradi go‘yo. Sharq mamlakatlari hayotida muhim o‘rin tutgan hamda tadqiqotchilar tomonidan turli tarixiy davrlarda keng ko‘lamda o‘rganilgan va turlicha talqin qilingan “Navro‘z” bayramida o‘zbeklarning asrlar davomida shakllanib kelgan falsafiy, tarixiy va milliy qarashlari namoyon bo‘ladi (2,37).

Ma‘lumki, Navro‘z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayramning ko‘p qo‘shiqlari ommaviy ijrochilikka mo‘ljallangan. “Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosining Navro‘z bilan bog‘liq qo‘shiqlarda yurt ozodligi, ma‘naviy qadriyatlarimizning elga qaytish g‘oyasi tarannum etiladi:

*Boychechak chiqibdi bugun navro‘z ekan  
Hamma bir-biriga jigar so‘z ekan  
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan  
Boychechak chiqibdi bugun navro‘z ekan  
Yangi yil muborak bo‘lsin hoy bobo  
Yangi yil muborak bo‘lsin hoy momo  
Yangi yil muborak bo‘lsin onajon  
Boychechak chiqibdi bugun navro‘z ekan (4).*

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil mo‘l bo‘lishini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepgan bobodehqonlarimiz el-u yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar. Bu qo‘shiqlar navro‘z-yilboshi tantanalarining eng nafis qo‘shiqlaridan biri bo‘lgan. Qo‘shiq misralarida el dasturxoniga baraka yog‘ilishi, halol mehnatni ulug‘lash, ezgu umidlarning maysalanishi, to‘kin-sochinlik, oilalar xotirjamligi, yurt boyligi ekanligi g‘oyasi yetakchilik qiladi.

Mavsumiy marosimlarda ham oilaviy marosimlar kabi xalq uni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rgan, marosim uchun turli taomlar pishirilgan. Tabiiyki, har bir mavsumning o‘ziga yarasha shoh taomlari bo‘lgan va bu taomlarga bag‘ishlangan xalq qo‘shiqlari ham dunyoga kelgan. Sumalakni tagi olmasligi uchun qozonni muttasil kovlab turish lozim. Bu ish sharbat qozonga solingan oqshomdan tun bo‘yi davom etadi. Shu boisdan uni tayyorlovchi ayollar tun bo‘yi sumalak qozoni atrofida bazm uyushtirib, zavq-shavq bilan yelib-yugurganlar, sumalakni alqagancha qo‘shiqlarni kuylab raqsga tushganlar (2,38). “Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosi repertuaridagi Navro‘z bayramining shox taomi sumalak haqidagi qo‘shiq ham bamisoli daryoday jo‘shib kuylanadi:

*Sumalak oh, sumalak  
Dardinga darmon sumalak  
Momomdan qolgan sumalak  
Bobomdan qolgan sumalak  
Bolasini risqini so‘rab  
Onadan qolgan sumalak  
Qozonga qaran akasi  
Qozonni kovlang xolasi  
Sumalak tag olmasi  
Toshlarni tashlang tog‘asi (4).*

Gul – yaxshilik, ximmat, go‘zallik ramzidir. Gulni hurmat va ehtirom ramzi sifatida yoru-do‘stlarga taqdim etish, o‘zaro bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatini gul bilan izhor qilish an‘anasi kishilarni ezgu niyat, mehr-oqibat, shafqat va diyonat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Bayram, sayllar va marosimlarni yaratuvchi xalq, har faslning o‘ziga mos liboslar kiyib, tabiatga uyg‘un holda bayramlarni nishonlashgan (3,92). Bahorda lola sayli, qizil gul sayli, boychechak sayli kabi gullar marosimida gullarga monand liboslar kiyishgan va shu kayfiyatga mos qo‘shiqlar ijro etishgan. “Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamaosi repertuaridagi ana shunday qo‘shiqlardan biri “Lola sayli” qo‘shig‘idir:

*O, layli layli layli  
Bizda bugun gul sayli  
O‘zbek elida bayram  
Bahor ayyom tufayli*

*Yurtim chaman bog‘lari  
Lolazoru tog‘lari  
Istiqloli qo‘lida  
Yurakda yo‘q dog‘lari (4).*

O‘zbek folklorida “Lola sayli” bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlari ko‘p uchraydi. Bunga sabab qish qirovli kunlardan zerikkan kishilar, bolalar, yigit-qizlarning yayrab o‘yin-kulgu, shodiyona qiladigan tantana bo‘lganligi deyishimiz mumkin. Ayniqsa bu qo‘shiqlar bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan yigit-qizlarning uchrashuv maydoni bo‘lganligi ham qo‘shiqlarning yanada ommalashishi, ko‘ngillarda chuqurroq qolishiga sabab bo‘lgan (2,41). Qo‘shiqlarda lola elning chiroyi ekanligi, bu gulning ochilishi odamlar diliga faraxbaxsh nur ato etishi, chaqmoqdan, sellardan qo‘rqmay insonlarga ham jasorat, g‘ayrat bag‘ishlashi tarannum etiladi.

Jamoa repertuarini shakllantirish va rivojlantirish ishlari folklor-etnografik jamoa ijodiy faoliyatida muhim va asosiy rol o‘ynaydi. Jamoa tinglovchi hamda tomoshabinlarning mehr-muhabbatini qozonishi yoki o‘z-o‘zidan tarqalib ketishi, ko‘p jihatdan repertuarga, yanada aniqroq qilib aytsak, uning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Folklor-etnografik jamoa ishining g‘oyaviy-estetik yo‘nalishi, ijodiy guruhning

haqiqiy va to'laqonli kamolotga yetishi asosan repertuarni tanlay bilish mahorati va asarlarning o'ziga xos ba'zi jihatlariga bog'liq. Shuning uchun folklor jamoalari va madaniyat markazlarning badiiy rahbarlari repertuarni shakllantirishiga jiddiy masala deb qarashlari va qat'iy tanqidiy munosabatda bo'lishlari zarur. Binobarin, folklor jamoalari o'z oldilarida xalqimizning ko'hna san'atini asrab-avaylash, targ'ib qilish va ijodiy yuksaltirishdek g'oyat ezgu, mas'uliyatli vazifa turganligini yoddan chiqarmasliklari kerak.

### **Adabiyotlar :**

1. Yo'ldosheva S.N. Folklor-etnografik jamoalari uslubiyoti. T.: Navro'z nashriyoti, 2014. 162 b.
2. Sunnatillayev A.S. O'zbek marosim qo'shiqlarining tasnifi va badiiyati. Magistrlik diss. Toshkent: 2018.
3. Mas'ul muh: Yo'ldosheva S.N. O'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar. T.: Navro'z nashriyoti, 2014. 175 b.
4. "Buvijonlar" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi repertuaridan.
5. Yo'ldosheva. S. Folklor-etnografik ansambllari. T.: O'qituvchi NMIU. 2007. 266-b.

## **O'ZBEK XALQINING TURMUSH TARZIDA DINIY MAROSIMLARNING AHAMIYATI**

**Mirboqiyeva Munira Ozod qizi,**  
O'zDSMI, "Folklor va etnografiya" mutaxassisligi  
1-bosqich magistranti  
e-mail address. muniramirboqiyeva4@gmail.com  
Tel:+998946249411

### **Annotatsiya**

Marosim – inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbirdir. Ushbu diniy marosimlarning xalqimiz turmush tarzida tutgan o'rni ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** marosim, folklor urf-odat, diniy marosim, tarix.

### **Annotation**

A ceremony is an event which is aimed to celebrate important occasions in a person, family or a society's life It is an event which is held in a very formal style and followed by some laws that have been accepted by the society. The importance of these kind of events in the life of Uzbek people is scientifically proven

**Key words:** A ceremony, a folklore, traditions, a history.

O'zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'alariga, milliy ruhiyatimizning ko'zgasiga aylangan turfa urf-odat, rasm-rusum va marosimlarni yaratgan. Asrlar davomida ezgulikni o'zida aks ettirib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyanob ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan

qarashlari o‘z ifodasini topgan. Zero badiiy salohiyati g‘oyat yuksak bo‘lgan ajdodlarimiz poetik iqtidorini o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Zukko baxshilarimiz tomonidan kuylab kelingan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” singari buyuk dostonlarda tarannum etilgan bunyodkorlik va yaratuvchilik g‘oyalari hamisha xalqimizga juda katta ma‘naviy quvvat beruvchi qadriyatlar tizimi bo‘lib kelgan. Xalqimiz dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o‘ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi marosim folklori o‘nlab janrlarni o‘z ichiga olgan g‘oyat nodir manbaa hisoblanadi. Marosim qo‘shiqlari va urf-odatlarda ijro etiladigan aytilmalar ona diyorumizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug‘ ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat va marosimlari, qadri baland an‘analari-yu, o‘zbekona samimiyyatini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Xalq og‘zaki ijodiyoti asarlari milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib yangilanib boradigan navqiron qatlami sanaladi. Shuning uchun ham xalqimiz o‘z folklorini hamisha asrab-avaylab ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, takomillashtirib, badiiy jihatdan sayqallantirib keladi [5]. Xalq an‘analari va marosimlari jo bo‘lgan asriy qadriyatlar, ma‘naviyat ko‘z g‘usiga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko‘p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida sayqallanib, barkamollashib kelgan. Bamisoli kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an‘analarini chuqur o‘rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi [2, 3]. Badiiy tafakkurimizning betakror mo‘jizalarini o‘zida mujassamlashtirgan xalq an‘analari, rasm-rusum, marosimlari xalq og‘zaki poetik ijodi namunalari shu muqaddas zaminda minglab yillar yashab kelgan ota-bobolarimiz iqtidorli va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o‘laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatlar. [3, 3]. Mamlakatimiz o‘zining milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgandan boshlab xalqimizning urf-odatlarini, marosimlari va an‘analariga berilayotgan e‘tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodga yetkazish yo‘lida samarali sa‘y-hurakatlar olib borilmoqda. Zero, yurtimizning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni eng avvalo milliy an‘analar, o‘tmishimizga hurmat, tariximiz bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalash masalalariga davlatimiz tomonidan e‘tibor berilishi mamlakat va millat uchun juda muhim [4, 3].

O‘zbek xalqining turmush tarzida milliy marosimlar qanchalik muhim o‘rin tutsa diniy marosimlar ham huddi shunday muhim ahamiyatga ega. Bulardan; “Arafa” – ro‘za va qurbon oylarining oxirgi kunlari, Hayit kunlari boshlanishidan oldingi kun, sayil oldi tayyorgarlik ko‘rish udumi. “Arafa” so‘zi Arabistondagi Arofat tog‘ining nomidan olingan bo‘lib, hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha zulhijja oyining 9-kunida xojilar ana shu tog‘da jam bo‘ladilar va toqqa chiqib namoz o‘qiydilar Hayitdan oldingi kunning “arafa” qilinishi odati ana shundan kelib chiqqan. Arafa kuni barcha xonadonlarda hayitga tayyorgarlik ko‘riladi, bekalar bo‘g‘irsoq cho‘zma-chalpak pishirib is chiqaradilar. Aqiqa – oilada yangi farzand dunyoga kelishi munosabati bilan bola tug‘ilganidan 7, 14 yoki 21 kun o‘tgach o‘tkaziladigan marosim. Bu marosim nomini ifodalovchi aqiqa so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib “yarim qimmatbaho tosh”



ma'nosini bildiradi va ba'zi joylarda "bolaning sochini olish" ma'nosida ham qo'llaniladi. Kokil to'yi – yosh bolalarning sochini olganda orqa tarafida qo'yilgan kokil – "haydar"ni kestirish marosimi. Xorazmda bola 1 yoshga to'lgan kuni yaqin qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar bu oilani qutlash uchun yig'ilishadi. Tantanaga xalq xo'shiqlari garmon va doira jo'rligida mohirona ijro etuvchi hushovoz xalfalar va sartarosh taklif qilinadi. Bolaga qo'yilgan "haydar" sunnat to'yi kuni yoki bu tantanadan bir necha kun avval qirqib olingan "Kokil to'yi" deb atalgan bu marosim odatda oila davrasidan qo'ni-qo'shnilar va qarindoshlar bilan birgalikda o'tkaziladi. Qirqib olingan "haydar" ni devor yorig'iga yoki tol tagiga ko'mishgan. Xalq qarashlariga ko'ra, bolaning sochi tol tagiga ko'milsa o'sha bola tolga o'xshab tez o'sar emish. Sochni oldirganda kokil qoldirish udumi qadimgi turkiylar davrida ham mavjud bo'lgan. Bu odatning bir ko'rinishi Tog'li Oltoyda istiqomat qiluvchi turkiy qavmlarda saqlanib qolgan: ularning udumiga ko'ra, balog'atga yetgan yigitlar sochini oldirganda boshining tepa qismi yoki orqasida kokil qoldiradilar. Sunnat to'yi–o'g'il bolalarning "qo'lini halollash" ya'ni sunnat qilish marosimi. "Sunnat" so'zi aslida arabcha so'z bo'lib "hamma qabul qilgan qoida, odat" ma'nosini anglatadi. Bu marosim ko'pgina joylarda "xatna to'yi" deb ham ataladi. Zero "xatna" atamasi ham arabcha bo'lib "hamma qabul qilgan qoida, odat" degan ma'nolarni anglatuvchi "xatnun" so'zidan olinganligi uchun o'g'il bolalar jinsiy a'zosining uch qismini kesish bilan bog'liq marosim ham "xatna to'yi" deb yuritiladi. Bu marosim mamlakatimizning viloyatlarida "xatna to'yi», "sunnat to'yi", "ummat qilmoq", "xuydo-xuydo qilmoq", "chuk to'yi", "to'yi pisar", "o'g'il to'yi" kabi nomlar bilan ataladi. Mamlakatimizning turli viloyatlarida o'tkaziladigan xatna to'yi o'z tartibiga mansub udumlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Xususan, N.Qurbonovanning fikricha, Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida xatna to'yi "maslahat palovi", "ko'rpa iyma", "bug'doy artish", "un artish", "idish tayyorlash", "xo'may-o'g'ich yo'nish", "cho'pon bichish", "potiya olish", "bola gizlash" kabi udumlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi marosimlar yurtimizning deyarli barcha hududlarida uzoq yillardan beri o'tkazilib kelinadi va xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. O'tmish ajdodlarimizdan me'ros bo'lib qolgan necha-necha asrlar silsilasidan o'tib bizgacha yetib kelgan bu kabi marosimlarni, ma'naviy meroslarni asrab-avaylab kelgusi avlodga me'ros qoldirish biz yoshlarning burchimizdir.

#### **Adabiyotlar:**

- 1 A. Ashirov O'zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari. – T.: 2007. 3-b.
- 2 S. Yo'ldosheva Xalq urf-odat va an'analari . – T.: 2003. 3-bet.
- 3 S. Yo'ldosheva Marosim va udumlarni sahnalashtirish – T.: 2008. 3-b.
- 4 S. Davlatov O'zbek marosim va udimlarining etnohududiy xususiyatlari. – T.: 2019. 3- b.
- 5 M. Jo'rayev L. Xudoyqulova Marosimnoma. – T.: 9,10,57-b
- 6.Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: "Sharq" , 2002. 94-b

## RIVOYAT VA AFSONA JANRLARINING IJTIMOIIY-TARIXIY VOQELIKKA MUNOSABATI

**Sunnatillayeva Nilufar Xusan qizi,**

O‘zDSMI Xalq ijodiyoti: (folklor va etnografiya)  
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Alimov Saidqul,**

O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrası  
dotsenti, fil.f.n  
+998998197897

### **Annotatsiya**

Xalq og‘zaki ijodi umumxalq madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, xalq va millatning shakllanishi, taraqqiyoti, ma’naviy ehtiyojini qondirishda asrlar bo‘yi muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ma’lumki, xalq poetik ijodining o‘ziga xos janrlarining zamirida ko‘hna tariximizning ildizlari yotadi. Ana shu janrlardan biri rivoyat va afsonalarni tadqiq etish ham ma’naviy merosimizning o‘rganish asosidir. Ushbu maqolada rivoyat janrining xalq poetik ijodidagi o‘rni va uning afsona va naqlardan farqli jihatlari, rivoyat va afsonalarning ijtimoiy-tarixiy voqelikka munosabati ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Janr, afsona, rivoyat, tarixiylik, ijtimoiy, munosabat, poetika, ma’naviy meros.

### **Annotation**

Folklore is an integral part of national culture and has played an important role in the formation, development and spiritual needs of the people and the nation for centuries. As you know, the roots of our ancient history lie at the heart of the unique genres of folk poetry. One of these genres is the study of legends and myths, which is the basis of the study of our spiritual heritage. This article provides a scientific analysis of the role of the narrative genre in folk poetry and its differences from myths and legends, the relationship of legends and myths to the socio-historical reality.

**Key words:** Genre, legend, legend, history, social, relationship, poetics, spiritual heritage.

Xalq prozasi janrlari orasida afsona va rivoyatlar salmoqli o‘rin egallaydi. Mazkur janrlar, ularning tematik tasnifi har bir tematik guruhga xos xususiyatlar, umuman, afsonalar, rivoyatlarning o‘ziga xos jihatlari va umumiy tomonlari o‘zbek folklorshunosligida ma’lum darajada tadqiq qilingan. Shunga qaramay, bizning nazarimizda, afsona va rivoyat janrlarining o‘zaro munosabati, ayniqsa, ularning voqelikni aks ettirish prinsiplari, voqelikka munosabatlari jihatidan bir-birlaridan farqlanib turadi. Bunga sabab, birinchidan, zikr qilingan har ikkala mustaqil janrning umumiy va xususiy jihatlarning yetrali darajada konkret yoritilmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan muayyan tematik guruhga mansub faktik materiallarning aniq o‘rin berilmaganligidir. Mana shuni hisobga olib, biz quyida dastavval afsona va rivoyat janrlarining ijtimoiy-tarixiy hayotga munosabati, mazkur janrlarning tarixiylik

prinsiplari va ulardagi real tarixiy materialning berilishiga va soʻngra esa rivoyatlarning tematik tasnifi masalalari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Avvalo, afsona janrining atamasi va funksiyasi haqida ikki ogʻiz soʻz. Maʼlumki, “afson” atamasi fors-tojikcha afsun, yolgʻon, uydirma soʻzidan olingan boʻlib, janr atamasi sifatida uydirma gapga asoslangan hikoyani eslatadi. Demak, afsona folklor janri sofatida oʻtmish haqida xabar beruvchi uydirma xarakteridagi kichik hikoyachalarni eslatadi [1,15]. Turkiy xalqlarda ham ushbu janrni anglatuvchi maxsus soʻz mavjud boʻlib, XI asrning mashhur qomuschisi M.Qoshgʻariy shu haqida xabar bergan.

Afsonalarda aks etgan voqelik, garchi fantastik uydirmalar qobigʻida bayon etilsa ham, ularda real tarix izlari maʼlum darajada saqlanib qoladi. mana shuning uchun ham afsonalar xalq tarixini, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy oʻtmishlarini, dunyoqarashlarini, urf-odatlarini hamda ruhiy kechinmalarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Afsonalar, asosan, informativ (xabar berish) vazifasini bajaradi, binobarin ularda estetik vazifa ikkinchi oʻrinda turadi. Rivoyatlarda-chi? “Rivoyat,- deb taʼriflaydi folklorshunos K.Imomov, - hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi folklorning realistik xarakterga ega boʻlgan alohida turidir” [2,85]. Rivoyat – mezoniy shaklga ega boʻlmagan, oddiy muloqat tilida, maxsus badiiy priyomlarsiz bayon etiluvchi kichik hajmli nasriy hikoyalardan iborat. U ham afsonaga oʻxshab, asosan, informativ vazifani oʻtaydi, lekin unda estetik vazifa juda zaif namoyon boʻladi. U holda rivoyatlar afsonadan nimasi bilan farq qiladi? - degan savol tugʻilishi mumkin. Ushbu savolga bir ogʻiz sozʻ bilan: rivoyat hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida tasvirlashi bilam afsonalardan farqlanadi, deb javob berish mumkin. Afsonada esa uydirma asosidagi voqea tasvirlansa, rivoyatlarda tarixiy voqealar badiiy uydirmalar orqali bayon etiladi.

Demak, rivoyat janrining afsona janridan farqlanuvchi yetakchi belgisi hayotiy voqealarga asoslanishida koʻzga tashlanadi. Mana shuning uchun ham rivoyatda bayon etilayotgan voqelikning realligiga, uning tinglovchi tomonidan real voqelik sifatida qabul qilinishiga alohida eʼtibor beriladi. Binobarin, koʻp hollarda rivoyatda bayon etilgan voqelik real hayotiy uydirma boʻlsa ham, biroq u real hayotiy voqea sifatida qabul qilinadi.

Rivoyatlarda hamma vaqt juda uzoq va yaqin oʻtmishda boʻlib oʻtgan voqealar, ularning koʻpgina axborotchilar orqali yetib kelgan sadolari bayon etiladi. Shuning uchun ham rivoyat aytilishida voqealarning haqiqatligi, koʻpincha, ilgariroq oʻtgan keksalarning xabariga ishora qilinishi orqali tasdiqlanadiki, bu ham mazkur janrning oʻziga xos belgilaridan biri sanaladi.

Rivoyatlarning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri – ularda hamma vaqt kichik, ammo tugal voqealar tasvirlanishi, yaʼni rivoyat obyektini boʻlgan voqealar davomiylikka ega emasligidir. Bu xususiyat bilan rivoyat afsonaga yaqin turadi.

Rivoyat hech qachon tasvirlangan voqelikning shohidlari tomonidan aytilmaydi. Chunki unda oʻtmishda boʻlib oʻtgan voqealar haqida shohidlardan emas, xabarchilar tomonidan dark beriladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, har qanday voqea faqat shohidi yoʻqolgandan keyingina rivoyat obyektiga aylanishi mumkin.

Rivoyat bir planli sujetga ega bo'lib, unda tasvirlanadigan voqea juda sodda, ketma-ketlik bilan bayon etiladi.

Rivoyat og'zaki prozaning mustaqil janri sifatida uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Biroq undagi syujetlarning har biri betakror va tor mahalliy doira bilan chegaralandi. Shunga qaramay, unda asrlar mobaynida shakllangan stilistik klishe elementlari ham ko'zga tashlanadiki, ular mazkur an'anaviy shakliy komponentlarni tashkil etadi.

Afsona kabi rivoyat ham professional aytuvchilar tomonidan emas, keng ommaviy aytiladi. Biroq aytuvchilar yosh jihatidan olib qaralsa, ko'pchilik rivoyatlar faqat keksa kishilar, ya'ni hayotda ko'p narsalarni ko'rgan, eshitgan va bilgan shaxslar tomonidan aytilganligini ko'rish mumkin. Bu qonuniy hol. Chunki rivoyat ham aytuvchining xotirasi, uning hayotiy tajribasi bilan bog'liq holda yashaydi. Biroq ayrim folklorshunoslar rivoyat professional aytuvchilar tomonidan aytilgan va ular roviy deb yuritilgan, deb ko'rsatadilar. Arab tilidan olinga roviy so'zi, umuman, o'zgalarga turli-tuman voqealar haqida xabar beruvchi, hikoya qilib beruvchi kishi ma'nosini ifodalaydi. Chunki, roviylar turli-tuman janrlarga mansub asarlarni ham aytaverishgan. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, faqat rivoyat aytish bilan shug'ullangan roviylar o'zbeklar orasida uchramaydi. Balki bunday professional aytuvchilar o'tmishda bo'lgandir, ammo ular keyinchalik turli-tuman janrlardagi asarlarni ham aytishavergan. Demak, professional aytuvchilarga ega bo'lmaslik, keng ommaviy ijro xarakteriga ega bo'lish xususiyati har ikkala – afsona va rivoyat janrlarining muhim xususiyati hisoblanadi.

Ko'rinadiki, o'zlarining tashqi shakliy, tarkibiy, ijro, struktura va vazifa xossalari bilan afsonalar rivoyatlarga juda yaqin turadi. Mana shuning uchun ham ayrim ilmiy ishlarda, hatto xalq prozasi namunalari jamlangan to'plamlarda afsonani rivoyatdan farqlashda chalkashliklarga yo'l qo'yishadi. Chunki bu ikki janr o'rtasida juda ko'p mushtaraklik mavjud. Aslida, rivoyat ham afsonaga o'xshab rivoyatda ham voqelik keng tarixiy miqyosda, butun muayyan jamiyat miqyosida aks etmaydi.

O'zbek xalq prozasining tadqiqotchisi K.Imomovning rivoyatga bergan ta'rifidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, rivoyat afsonadan hayotiy voqealarni uydirmalar vositasida aks ettirishi bilan farqlanadi. U shunday yozadi: Rivoyat hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi folklorning realistik xarakteriga mos bo'lgan alohida turidir" [1, 74].

Ushbu ta'rifga ayrim tuzatishlar kiritgan holda qabul qilish mumkin. Bu tuzatishlar esa, birinchidan, voqelik hayotiy uydirmalar vositasida aks etiriladi. Ikkinchidan, rivoyatda aks etgan voqelik qay darajada hayotiy bo'lmasin, baribir, tasvirda realistik xarakter emas, romantik xarakter yetakchilik qiladi.

Yuqorida biz afsona va rivoyatlarning bir-biridan farqli jihatlari haqida turli tadqiqotchilarning bildirgan fikrlari bilan tanishib chiqdik. Biz ham ularning ayrim fikrlariga bilan tanishib chiqqan holda quyida shu masala borasida o'zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

Hamma biladiki, adabiy janrlar hayotiy kamroq va poetik sistema yaxlitligi nuqati nazaridan tasnif etib kelinadi. Folklor janrlarini tasnif etishda ana shu ikki predmetga qo'shimcha holda qo'llanilishi o'rni, ijro shakli va musiqaga munosabati ham hisobga

olinishi lozim. Biz ham bu qarashni ma'qullaymiz va afsona bilan rivoyatlarning o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlarini belgilashda ana shu nuqtai nazardan turib ish ko'ramiz.

Hayotiy qamrov jihatidan qaralsa, afsona va rivoyatlarni bir-biridan farqlash qiyin. Chunki ularning har ikkalasida ham o'tmishda bo'lib o'tgan epizodik voqealar, u yoki bu joylarning nomlarini izohlovchi yoki ulkan shaxslar hayotidan muayyan voqealar sof axborot tarzida aks ettiriladi. Bundan tashqari, mazkur ikki janrda ham kichik bir epizodik voqeagina aks etadi, xolos.

Poetik nuqtai nazardan yondashilsa, har ikkala janrning asosiy vazifasi asosan xabar berish bo'lganligidan ularni o'zaro farqlab turuvchi poetik vositaning o'zi yo'q. Binobarin, afsona va rivoyat aytuvchi professional ijodkor ham, ijrochi ham yo'q. Bu ikki janrning ijodkori ham, ijrochisi ham yaxshigina xotira quvvatiga ega bo'lgan shaxslar deyish mumkin. Albatta, bu gapning o'zi nisbiy. Aniqroq qilib aytganda, afsona va rivoyatlar avloddan-avlodga o'tib keladi. O'tib kelayotgan ana shu materialni o'z qiziqishi doirasi bilan xotirada saqlab qolish, uni boshqalarga, keyingi avlodlarga yetkazishda ulkan hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilarning roli katta. Shunda ham ushbu janrlarning professional ijrochisi yo'q. Demak, afsona va rivoyat janrlari poetik tizimining yaxlitligi jihatidan farqlanmaydi.

Janrning maishiy qo'llanishi jihatidan qaralsa, afsona va rivoyatlar oddiy suhbatlarda biror joy yoki narsa, voqea yoki hodisalarni izohlash lozim bo'lganda, ayrim hollarda o'tmishdagi ayrim shaxslarning xatti-harakatlari, qahramonliklari yoxud hayratomuz ishlarini boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish ehtiyoji tug'ilgandagina oddiy, og'zaki bayon qilinadi. Mazkur janrlar maxsus aytiladigan biron-bir marosim yoki tadbir yo'q. Demak, mazkur janrlarning aytilishi o'rni, ya'ni maishiy qo'llanish doirasi juda ham keng va ular bu masalada bir-birlaridan farqlanmaydilar.

Musiqaga munosabat masalasida ham afsona va rivoyatlar o'zaro farqlanmaydi, chunki ularning ikkisi ham kuyga solinmay, oddiy so'zlashuv tilida bayon etiladi.

Afsona va rivoyatlar bir-birlariga ham shakl, ham mazmun jihatidan juda yaqin. Biroq ular mustaqil janr sifatida bir-birlaridan farqlanadilar. Bu farqlar bizning nazarimizda, quyidagilardan iborat:

Epik turga kiruvchi xalq nasri tarixiy-folkloriy jarayonda diffuziya, transformatsiya va muvofiqlashuv hodisalari tarzida o'zaro munosabatga kirishib, rivojlanadi.

Afsona asosida voqelik faqat hayotiy uydirmalar orqali fantastika bilan yo'g'rilgan holda, kuchli mubolag'alashtirilib tasvirlanadi. Rivoyatda esa voqelik hayotiy uydirmalar orqali fantaziyasiz tasvirlanadi. Demak, mazkur janrlarni o'zaro farqlash ehtiyoji nisbatiga ahamiyat berish lozim.

Ma'lumki, bayon etilgan voqelik yo xotira, yo butunlay to'qima sifatida aytilishi mumkin. Ana shu voqelik tinglovchi tomonidan xotira, ya'ni memorta yoki yarim memorta sifatida qabul qilinsa, bu janr o'z-o'zidan rivoyatni tahskil etadi. Gar voqelik o'zining tarixiy asoslaridan uzilsa, bunday material sof fabulatni tahskil etadi. Bu esa afsonani tahskil qiladi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish muhimki, ushbu janrlar o'rtasidagi aloqada afsonalar mudom rivoyatlar hisobiga boyib boradi. Shuning uchun ham N. Hotamov va

B.Sarimqsoqovlar afsonlarga, ko‘pincha rivoyatlar asosida yuzaga keladi, deganlarida haqli edilar. Bunda rivoyatdagi konkret tarixiy elementlar yo‘qolib, ularning o‘rnini hayoliy uydirmalar egallab borish jarayoni kechadi. Boshqacha aytganda, afsona va rivoyat o‘rtasidagi munosabatda memoratning fabulatga aylanish jarayoni yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki, mavjud tarix unutilishiga mahkum, ammo asosi yo‘q uydirmalarning real tarixga aylanishi mumkin emas. Binobarin, rivoyat afsonaga aylansa ham, biroq afsona rivoyatga aylanmaydi. Afsona va rivoyat janrlarining o‘zaro munosabatlariga doir fikrlar, mulohazalarimiz va bu boradagi kuzatishlarimizdan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. O‘zbek afsona va rivoyatlari uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan mustaqil janrlardan bo‘lib, ularning tuzilishi, ijtimoiy-estetik vazifalari o‘zaro yaqinlik kasb etsalar ham, ammo tasvir prinsiplari, voqelikka munosabatlari, obrazlar tizimi hamda tasviriy vositalari jihatidan farqlanib turadilar.

2. Tarixiylik nuqtai nazaridan afsona ham, rivoyat ham o‘zaro yaqinlik kasb etishi shubhasiz. Bu narsa, ayniqsa, tarixiy afsona va rivoyatlarda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Aslida tarixiylik jihatidan bir xil darajada turuvchi bu ikki mustaqil janrning asosiy farqi afsona syujetining hayoliy uydirmalarga, rivoyat sujetining esa hayotiy uydirmalarga asoslanganligida namoyon bo‘ladi.

3. Afsona va rivoyatlarda sof tarix aks etamaydi, balki real tarixiy voqealarning aks-sadolari, ularning g‘oyasi, tarixiy shaxslar, obrazlar, joy va voqealarning nomlari orqali o‘z ifodasini topadi. Umuman, o‘zbek nasrining mazkur janrlari kelgusida to‘planishi va ilmiy-ma‘rifiy jihatdan jiddiy o‘rganilishi lozim.

#### **Adabiyotlar:**

1. Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. T.: O‘zRFA “Fan” nashriyoti. 2008. 251-b.
2. Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. T.: “Fan” nashriyoti. 1981.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi. (O‘zbek folklori ocherklari). T.: Fan, 1988.
4. Alimov S. Tarixiy-folkloriy jarayon va janrlararo munosabat. T.: Fan, 1993.
5. Alimov S. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat. Monografiya. Toshkent-2021. 207-b.

# NAMANAGAN VILOYATI HUDUDIDAGI FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALAR FAOLIYATI VA ULAR REPERTUARLARIDAGI QO'SHIQLARNING O'ZIGA XOSLIGI

**Yuldasheva Mahbuba G'ulomjonovna,**  
O'zDSMI, (folklor va etnografiya) ta'lim yo'nalishi  
1-bosqich sirtqi bo'lim talabasi  
Ilmiy rahbar: **Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna,**  
"Folklor va etnografiya" kafedrasida o'qituvchisi

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada bugungi kunda faol faoliyat olib borayotgan Chust tumani Varzik hududidagi folklor-etnografik badiiy havaskorlik jamoalarining ijodiy faoliyati, rivojlanish tarixi va jamoalarining repertuari hamda ular talqinidagi qo'shiqlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Folklor, repertuar, etnografiya, ijrochilik san'ati, qo'shiqlar.

## **Annotation**

This article analyzes the creative activity, history of development and repertoire of folklore and ethnographic amateur art groups of the Varzik region of the Chust region, which are currently operating, as well as the songs they interpret.

**Key words:** folklore, repertoire, ethnography, performing arts, songs.

Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi. Shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega. Shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san'at turidir. Folklorning, qabila, elat yoki xalqning milliy og'zaki badiiy ijodiyoti bo'lib, o'sha millatning mafkurasi va psixologiyasini aks ettiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Ma'naviyat va ma'rifat hamda madaniyatimizni rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan siyosatidan kelib chiqib milliy ruhni o'zida asrlar bo'yi ortmoqlab kelayotgan qadimiy an'analarni bugungi kunda ko'z-ko'z etayotgan o'z ortidan millionlab kishilarni, yoshlarni ergashtirayotgan insonlar qalbida milliylik tuyg'usini singdirayotgan ijodkorlar bu folklor etnografik jamoalaridir.

Namangan viloyati Chust tumani qariyb 3 ming yillik tarixga ega. Chust tumnada 50 dan ziyod qishloqlar Chust shahri Olmos-Varzik tog'li tekisligida Chust soy atrofida dengiz sathidan 1000-1200 metr balandlikda joylashgan. Chust Namangandan g'arbga tomon 36 kilometr Chust temir yo'l stansiyasidan shimol tomon 13 kilometrda joylashgan. O'tmishda Buyuk ipak yo'li bilan bog'langan ayni paytda Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlarini uzviy bog'laydigan avtomobil (halqa) yo'li o'tgan. Shimoliy tomondan tuman Tyanshan, Chotqol tog'lari bilan chegaralangan shu bois ob-havosi salqin. G'arb tomondan Chust – Pop adirliklari bilan tutashgan, janubda Sirdaryo, Sharq tomondan To'raqo'rg'on bilan chegaradosh [1, 11].

Chust tuman azal-azaldan hunarmandlari, kosiblar, do'ppido'zlari, pichoqchilar, san'atkorlar-u, shoirlarning makoni bo'lgan 4 ming yillik tarixga ega Chustimizda 30 dan ortiq hunar va san'at turlari mavjuddir. Qadimiy hunarlaridan kulolchilik, zargarlik, degrezlik, temirchilik, tunukasozlik, duradkorlik, naqqoshlik atlaschilik, kunchilik, hofizlik, do'ppichilik, kashtachilik, pichoqchilik kabilarni ko'rishimiz mumkin. Chustimizda haqli ravishda quvonadigan yana bir narsa bu qadim-qadimdan ko'chalarga "Bofanda", "Charmgardon", "Do'zanda", "Kunchilik" deb nom qo'yilishidir. "Bibiona" mozoridan topilgan va "Chust madaniyati" deb nom olgan tarixiy atama bungan yaqqol misol bo'la oladi. Bu hududda san'atning boshqa turlari qatorida xalq orasida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan sayqal topayotgan folklor qo'shiqlari ham o'z muxlislariga egadir.

Folklor etnografik jamoalari bugungi kunda xalqimizning qadimiy, noyob xalq ijodiga sayqal bergan holda yana xalqning o'ziga o'z jozibasini saqlagan holatda etkazib beradi. Ana shunday mas'uliyatli vazifani o'z elkasiga olib, o'z ishini sadoqat ila bajarib kelayotgan jamoalardan soni yil sayin oshib ko'payib xalq og'zaki ijodini rivojlantirishga munosib xissasini qo'shib kelmoqda bunday jamoalardan "Omon yor", "Xayrinniso momo", "Rangin Kamon" folklor etnografik havaskorlik jamoalaridir.

Varzik qishlog'idagi turli soha vakillari, faxriy ayollardan tashkil topgan "Xayrinisso Momo" folklor jamoasi o'zining to'y tantana, marosim va mavsum qo'shiqlari bilan yoshlarni milliy qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, san'at namunalarini o'rganishga va ularni yangicha talqinda ijro etishga erishmoqdalar. "Xayrinisso momo" folklor-etnografik havaskorlik jamoasi 1982-yilda Chust tumani Varzik qishlog'ida dastlab "Yor-yor" nomi bilan faoliyat boshlagan. Bu jamoaning tashkilotchilari bo'lmish Mavluda momo Ernazarova, Sojida momo Kalonova hamda Xayrinisso momo Dadabaevalar xalq og'zaki ijodi merosining mohir ijrochilari boshchiligida qishloqning iste'dodli ayollarini jalb etib tashkil etgan. O'sha davrda bu jamoada 22 nafar turli yoshdagi ayollar to'y tantanalarda marosim qo'shiqlarini ijro etib davraga fayz bag'ishlaganlar. Qandibi momo qo'lida doira chalib qo'shiq kuylagan bo'lsa, Sojida momo qo'llariga cho'p qoshiqlarni olib, qo'shiq kuylagan. Mavluda momo qo'llariga angishvona taqib chinni tovoqchalarni barmoqlari bilan chertib, folklor qo'shiqlari ohangiga hamohang kuylarda jo'r bo'lganlar. "Xayrinisso momo" folklor jamoasining o'ziga xosligi shundan iboratki, u nafaqat o'zbek milliy folklor qo'shiqlarini, balki tojik millatining sara qo'shiqlarini hududga xos tarzda ijro etib kelgan. Jamoa repertuaridan "Paxtaoy", "Rais buva", "Qaylarga boray", "Ko'cha changitgan yigitlar", "Anori dona", "Joni shirin" "Yalla-yalla", "Shoxi kuylagim", "Yor yor", "Kelin salom" "Chakra-chaki", "Dilrabo", "Dilbarjon", "Hayda yo, hayda" kabi qo'shiqlar joy olgan. Jamoa o'z qo'shiqlari bilan nafaqat O'zbekiston hududida balki qardosh Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston respublikalarida ham gostrol safarlarda bo'lib o'zbek milliy folklor qo'shiqlarini ijro etib, xalqlar olqishiga sazovor bo'lganlar. Bu jamoa tashkilotchisi mohir ijrochi, jamoa badiiy rahbari Xayrinisso momo vafotidan so'ng, jamoa a'zolari uning xotirasi uchun jamoa nomini "Xayrinisso momo" deb nomlab faoliyat yuritmoqda. Uning repertuarida o'zbek milliy qo'shiqlari bilan birga Varzik qishlog'i aholisini aksariyati tojik millatiga mansubligini inobatga olib jamoa repertuaridan tojikcha qo'shiqlar ham o'rin olgan. Jumladan, "Anori dona",



“Joni shirin”. “Chakra-chaki”, “Dilbarjon”, “Biyo-biyo” qo‘shiqlari shular jumlasidandir:

Boz badeham navbahoron omadast.  
Boz badilam vaqti shodon omadast,

“Omon yor” folklor jamoasi 1989-yilda tashkil etilgan. Jamoaning badiiy rahbari Dildora Karimova. Jamoa tashkil etilgan kundan boshlab, hududga xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari to‘plab tumanimiz aholisiga madaniy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Jamoani tashkil etishda o‘z munosib hissalarini qo‘shgan keksalarimizdan Usmonova Ra‘noxon, Muzaffarov Mansurxon, Xalilov Rustamjon, Mashrabboev Raxmonjon, Nazirova Saodat, Mamadjonova Zulayxolar shular jumlasidandir. Karimova Dildora 1963-yil Namangan viloyati Chust tumanida tug‘ilgan. Uzoq yillardan buyon madaniyat va san‘at dargohlarida samarali mehnat qilib kelmoqda. “Omon yor” folklor jamoasi tarkibida 10 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan yosh havaskor ijrochilar, laparchi momolar, aytimchi bobolar, sozanda-xonandalar, raqqosalar faoliyat ko‘rsatadi. Jamoamiz hududga xos urf-odat va marosimlarni tarannum etuvchi xalq namunalari, lapar, o‘lan, aytishuv qo‘shiqlarini ijro etib kelmoqdalar. Jamoa tumanda va viloyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda xalq sayllarida jumladan: “Navro‘z” umumxalq bayrami, “Mustaqillik”, “Xotin qizlar” bayrami, “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Mehrjon” va ommaviy-madaniy tadbirlarda, hattoki respublika miqqyosida o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlar va festivallarda faol ishtirok etib, xalqimiz olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda. “Omon yor” folklor-etnografik jamoasi 2014- yildagi asosiy bayram dasturlari va madaniy-ma‘rifiy tadbirlardagi faol ishtirokini e‘tirof etgan holda “Diyorimiz ohanglari” viloyat festivalida “Eng go‘zal dastur ijrochilari” nominatsiyasiga munosib deb topilib, viloyat hokimining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi. “Ko‘hna sadolar” viloyat festivalida “Eng faol jamoa” nominatsiyasi g‘olibi diplomi bilan taqdirlandi 2015 yil 26-iyul kuni Namangan shaxar “Arbat” dam olish maskanida Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi hamkorligida Respublika Madaniyat va Ma‘rifat telekanalining “Ona zamin ohanglari” ko‘rsatuviga “Omon yor” folklor-etnografik jamoasini “Hunarmadlar shahri bu”, “Gul diyorum” nomli chiqishlarini tasvirga olish jarayonida faol ishtirok etib madaniyat vazirligining tashakkurnomasini qo‘lga kiritdilar. 2016 yil 25-mart kuni O‘zbekiston xalq artisti Xabiba Oxunova sovrini uchun alla qo‘shiqlari ijrochilarining Respublika festivali viloyat bosqichida faol ishtirok etib, Madaniyat boshqarmasining “Eng yaxshi folklor jamoasi” nominatsiyasi bo‘yicha “Folklor jamoasi” diplomi bilan taqdirlandi. 2020 yil iyunda Respublika milliy telekompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanali bilan hamkorlikda “Qadim qo‘shiqlar ohangida” ko‘rsatuv orqali o‘z dasturlarini namoyish etib madaniyat boshqarmasi tomonidan taqdirlandilar. 2021-yil 16-aprel kuni “Alla aytgan etar murodga” alla qo‘shiqlari ijrochilarining Respublika festivali viloyat bosqichida faol ishtirok etib, Madaniyat boshqarmasining “Eng qadimiy alla ijro etgan jamoa” nominatsiyasini qo‘lga kiritib diplom va esdalik sovg‘alarini qo‘lga kiritdi hamda respublika bosqichida ishtirok etdi. Bugungi kunda “Omon yor” folklor jamoasida yosh xonadalar ham ijod qilib kelmoqda. Ulardan, Dilmurod Temirov,

Askar Raxmiddinov, Farxod Raximov, Jumanazar Tursunov, Saidjon To‘xtaboev, Elyor Axmedov, Saida Axmedova, Gulbaxor Latipova, Ra‘no Abbosova, Dilfuza Sharipova, Barxtiyor Turg‘unov, Avazxon Boltaev, Sevara Marupova, Nurjamol Yo‘ldosheva, CHaman Juraevalardir. Jamoaning liboslariga nazar tashlar ekanmiz, bobolar yaxtagi, beqasam chopon, salla, kovush, maxsi kiysalar, momolari esa ko‘ylak, gijima ro‘mol, kashta gulli ko‘ylak, sirg‘a, zebigardon, tillaqosh, tumor kabi taqinchoqlardan raqqosa qizlar esa o‘z raqslarida mumtoz hamda zamonaviy xalq liboslaridan ham foydalanadilar. “Omon yor” folklor jamoasi repertuarida bugungi kunda unutilib borilayotgan urf-odatlar, marosimlarni o‘zida mujassam etgan milliy kuy-ko‘shiqlar, raqslar bilan bir qatorda mahalliy havaskor ijodkorlarni asarlari ham o‘rin olgan. Jumladan; “Xunarmadlarmiz”, “Chust pichog‘i zo‘r pichoq”, “Ayron”, “Oila”, “Yor-yor”, “Ayron”, “Ko‘k qamish”, “Doirani chaling”, “Qarg‘alar”, “Yallama yorim”, “Qora Mayiz”, “Paxmoq soqol”, “Sumalak sayli”, “Zebixon”, “Murchabibi”, “Biyo-biyo yor” kabi ko‘shiqlar va laparlar o‘rin olgan. Jamoa bugungi kunda xalq namunalarini o‘zida mujassam etgan folklor ko‘shiqlari ustida izlanishda ularga milliy sayqal berib ijro etmoqdalar. “Rangin kamon” folklor jamoasi 2019-yilda tashkil etilgan. Jamoaning badiiy rahbari Maxbuba Yuldasheva. Jamoa tashkil etilgan kundan boshlab, hozirga qadar bu nomga munosib bo‘lishga, jamoalar o‘rtasida yaxshi natijalarga erishishga sidqi-dildan harakat qilib kelinmoqda. Maxbuba Yuldasheva 1985 yil Namangan viloyati Chust tumanida tug‘ilgan. Uzoq yillardan beri madaniyat va san‘at dargohlarida samarali mehnat qilib kelmoqda. “Ranginkamon” folklor bolalar jamoasi tarkibida 10 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan yosh havaskor ijrochilar, laparchi momolar, aytimchi bobolar, sozanda-xonandalar, raqqosalar faoliyat ko‘rsatadi. Jamoamiz hududga xos urf-odat va marosimlarni tarannum etuvchi xalq namunalarini, lapar, o‘lan, aytishuv ko‘shiqlarini ijro etib kelmoqdalar. Jamoa tumanda va viloyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda xalq sayllarida jumladan: “Navro‘z” umumxalq bayrami, “Mustaqillik”, “Xotin qizlar” bayrami, “Hosil bayrami”, “Navro‘z sayli”, “Mehrjon” va ommaviy-madaniy tadbirlarda, xattoki respublika miqyosidagi o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlar va festivallarda faol ishtirok etib, xalqimiz olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda. “Rangin kamon” folklor-etnografik bolalar jamoasi 2019-yil mart oyida “Kelajak” bolalar folklor ijrochilari festivalida ishtirok etib “Eng yaxshi hududga xos folklor ko‘shiqlar ijrochilari” nominatsiyasini qo‘lga kiritdi. 2020-yili fevral oyida tumanda o‘tkazilgan “Ma‘naviyat festivalida” ishtirok etib Chust tuman xokimligining faxriy yorligi va esdalik sovg‘alarini qo‘lga kiritdi. 2021-yil O‘zbekiston Respublikasi milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va ma‘rifat” telekanalining “Tong nafasi” ko‘rsatuvida o‘z dasturlarini namoyish etdi.

Shuningdek, “Saxovatli Namangan qadriyatlarini” viloyat festivalida ishtirok etib viloyat xokimligining tashakkurnomasini qo‘lga kiritdi. 2021-yil noyabr oyida o‘tkazilgan qardosh xalqlar festivalida tojik milliy laparlaridan namunalar ijro etib, Tojikiston Respublikasi elchixonasi tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg‘alarini qo‘lga kiritdi. Bugungi kunda “Rangin kamon” folklor bolalar jamoasida iste‘dodli bolalar ijod qilib kelmoqda. Ulardan: Isokova Farangiz, G‘anieva Gulnoza, Jo‘raeva Feruza, Sayfullaeva Sug‘diyona, To‘xtamurodova Jasmina, Axmadjonova Omina, Ergashalieva Maxliyo, Abdukarimova Nigina, Tuxtanzarova Madina,

Dexkonova Nozima, Dexkonova Munisa, Isokov Firdavslardir. “Rangin kamon” folklor bolalar jamoasi repertuarida bugungi kunda unutilib borilayotgan urf-odatlar, marosimlarni o‘zida mujassam etgan milliy bolalarning sho‘xliklari beg‘uborliklarini namoyon etgan kuy-qo‘shiqlar, raqslar bilan bir qatorda mahalliy havaskor ijodkorlarni asarlari ham o‘rin olgan. Jumladan; “Anori dona”, “Dilbarjon”, “YOroney”, “Joni shirin”, “Maydayo mayda”, “Bahor omad”, “Xakalakam”, “Deydiyo deydi”, “Boychechak”, “Soy bo‘yida”, “Qora Mayiz”, “Kishmish”, “Jo‘rajon”, “Xay,xay yor o‘rtokjon” kabi qo‘shiqlar va laparlar o‘rin olgan. Jamoada bugungi kunda xalq namunalarni o‘zida mujassam etgan folklor qo‘shiqlari ustida izlanishlar olib borib, yaxshi natijalarni qo‘lga kiritishga ijobiy harakat qilib kelmoqdalar.



1-2-rasmlarda. Chapdan 1-Mahbuba Yuldasheva, 2-Mavluda Xoldorova, 3-Basiyajon Xoldorova, 4-Mavluda Oripova, 5-Nazira Dadaboeva, 6- Mahmudaxon Fazliddinova lar ijrosini Namangan bulbuli O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hamid Mallaboev tinglab mahorat darsini o‘tkazayotgan paytidan lavha.



3-rasmda: “Omon yor” folklor jamoasi sumalak sayli tadbirida. Chapdan:

- 1- Zubayda Dadabaeva,
- 2- Nurjamol Yo‘ldosheva,
- 3- Maxbuba Yuldosheva,
- 4- Saida Axmedova,
- 5- Gulbaxor Latippova,
- 6- Chaman Jo‘raeva.

4-rasmda: “Omon yor” folklor jamoasi “Xalqlar do‘stligi festivalida” tadbirida. Chapdan:

- 1-Botir Yo‘ldoshev,
- 2-Sadoqat Shoraximova,
- 3-Dildora Karimova,
- 4- Farxod Raximov,
- 5.Dilfuza Sharipova,
- 6-Gulbaxor Latippova.



5-rasmda: “Omon yor” folklor jamoasi “Maydon tomoshalari” tadbirida.

Chapdan:

- 1-Dildora Karimova,
- 2-Sadoqat Shoraximova,
- 3-Ra’no Parpieva,
- 4-Saidjon Tuxtabaev,
- 5-Gulbaxor Latipova,
- 6-Nurjamol Yo’ldosheva.



6-rasmda: “Omon yor” folklor jamoasi “Folklor jamoalari” ko‘rik tanldov tadbirida. Chapdan:

- 1- Saida Axmedova,
- 2- Elyor Aliev,
- 3- Saidjon To‘xtabaev,
- 4- Ra’no Parpieva,
- 5- Dildora Karimova,
- 6- Sadoqat Shoraximova,
- 7- Farxod Raximov,
- 8- Gulbaxor Latipova,
- 9- Jumanazar ursunov.

### Adabiyotlar

1. S.Soliev “Chust tarixi” Chust shaxri ,1993. 11-bet.
2. Ishandadaev D.Namangan atrof tojik va o‘zbek shevalarida so‘z yasashning ayrim xususiyatlari  
(Tojik va o‘zbek tillari o‘zaro ta’siri masalasiga doir).N.D.A-Toshkent, 1976.-19 b.
3. Mahmud Qoshg‘ari.Devoni Lug‘oti turk (tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutalliboev).-  
Toshkent.1960.-486 b.
4. Azizov J. Chust tarixi va madaniyati . N.-Namangan, 1998. 122b.
5. “Xayrinisso momo”, “Omon yor”, “Rangin kamon” folklor-etnografik jamoalari repertuaridan.

## QASHQADARYO VILOYAT QO‘G‘IRCHOQ TEATRI TARIXIGA BIR NAZAR

**Musinov Ulug‘bek Nuriddin o‘g‘li,**  
O‘zDSMI, “Teatr san‘ati” ixtisosligi  
1-kurs mustaqil izlanuvchi PhD  
[ulugbek.musinov19955@mail.ru](mailto:ulugbek.musinov19955@mail.ru)

Ilmiy rahbar: Qodirova Sarvinoz Muhsinovna  
San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

### Аннотация

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida tashkil topgan Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatrlarining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** qo‘g‘irchoq o‘yin, masxaraboz, repetitsiya, san‘at, teatr, rejissyor, repertuar, madaniyat.

### Аннотация

Данная статья посвящена этапам становления и развития Кашкадарьинского областного театра кукол, который был создан в годы независимости.

**Ключевые слова:** кукольная игра, клоун, репетиция, искусство, театр, режиссёр, репертуар, культура.

### Annotation

This article is devoted to the stages of formation and development of the Kashkadarya regional puppet theater, which was created during the years of independence.

**Key words:** puppet game, clown, repetition, art, theatre, producer, repertoire, culture.

Har bir xalq ajdodlaridan qolgan madaniy merosiga ega bo‘lib, uning ushbu boyligi sirasiga qo‘g‘irchoq teatri ham kiradi. Qo‘g‘irchoq teatri xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni obrazli aks ettirib, ularning hayotiy taassurotlarini, kuzatishlarini, tajriba va hissiyotlarini gavdalantirib, o‘zida so‘z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan. Ana shu sifatlar uni san‘at darajasiga olib chiqqan.

Biz qo‘g‘irchoq teatri faoliyatini o‘rganar ekanmiz, avvalo an‘anaviy teatr namoyandalari – masxaraboz va qiziqchilar san‘ati hamda qo‘g‘irchoq o‘yin o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglab olishimiz zarur. Avvalo, umumiylik jihatlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, masxarabozlar o‘z tomoshalarida niqob ishlatganlarida go‘yo qo‘g‘irchoqqa aylanganlar, sababi goh qotib, goh jonlanib turuvchi sahnaviy qo‘g‘irchoqlar vositalarini ishga solganlar. Zero, xalq aktyorlari niqobsiz o‘ynagan paytlarida ham qo‘g‘irchoq teatriga yaqin turishgan. Sababki, shartlilik, badiha, hajviylik, ekssentriklik, tomoshaviylik kabi ijodiy tamoyillar ikki teatrga ham teng taalluqlidir. Qahramonlaridan biri qo‘g‘irchoq bo‘lgan spektakllarni namoyish qilganlarida esa masxarabozlar ham qo‘g‘irchoqboz, ham korfarmon

vazifasini bajarib, o'ziga xos tomosha qo'yishgan. Faqat bugina emas, kelib chiqishi, mehnat va turmush sharoiti, usta-shogird munosabatlari, jamiyatda tutgan o'rni, vazifa va muddaolari bilan ham masxarabozlar va qo'g'irchoqbozlar qondosh-u, hamdast bo'lishgan. Balki shu sababdan osongina masxaraboz qo'g'irchoqbozga korfarmonlik qilib, qo'g'irchoqboz masxarabozlarning tomoshalariga aralashib ketaverishgan.

Mamlakatimizda esa qo'g'irchoq teatrining vujudga kelishi, uning rivoji bilan bog'liq ilmiy qarashlar qanchalik ko'p bo'lsa, bu hududiy rivojlanishlarga ham birdek aloqadordir. Qashqadaryo viloyatida qo'g'irchoq o'yin bilan bog'liq ma'lumotlar juda oz. O'rta Osiyo xalqlari madaniy tarixi, folklori va etnografiyasi, xususan, tomosha san'ati tizimlariga kiruvchi qo'g'irchoq o'yin haqida ilk marotaba rus olimlari N.Ostroumov, N.Likoshin asarlarida duch kelamiz. Petr Aleksandrovich Komarov o'zbek qo'g'irchoq o'yin tomoshalari bilan maxsus shug'ullangan bo'lib, havaskor etnograflardan edi. M.Gavrilov Toshkent va Chimkent qo'g'irchoqbozlari hamda qo'g'irchoqlar kolleksiyasini to'plagan bo'lsa, L.Perepelitsina Qo'qon, Samarqand, Buxoro shaharlaridagi qo'g'irchoqbozlar va qo'g'irchoq o'yin matnlari, qo'g'irchoqlar ta'rifi haqida ma'lumotlar bergan. T.Obidov ilmiy izlanishlarida O'zbekistonning asosan Xorazm vohasiga taalluqli bo'lgan qo'g'irchoq o'yin talqinlari, og'zaki shakldagi tomosha matnlari, qo'g'irchoqbozlar haqida ma'lumotlar mavjud. Birgina professor, o'zbek qo'g'irchoq teatri san'ati bilan muntazam shug'ullanib kelgan M.Qodirov 1958–1966-yillarda olib borgan ekspeditsion safarlari va ilmiy ishlarida Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysi, Qo'qon, Asaka, Andijon, Quva, Avval, Marg'ilon [1] masxaraboz va qiziqlari hamda qo'g'irchoq o'yinlari, qo'g'irchoqbozlar, qo'g'irchoq teatri tomoshalari matnlari, foto suratlari, kino tasmlarini to'plagan.

Bundan anglashiladiki, mamlakatimizning janubiy hududlari Qashqadaryo va Surxondaryoda an'anaviy shaklda rivojlangan va sekin-asta yo'qolib borgan qo'g'irchoq teatri mavjud bo'lgan ekan. Qadimda iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlardan chiqqan san'atkorlar Buyuk ipak yo'lidagi karvonlarga qo'shilib, ikki yo'nalishda – sharq va g'arb yo'nalishida faoliyat ko'rsatganlar. Mana shu san'atkorlar orasida qo'g'irchoq teatri to'dalari bo'lganligi shubhasiz, albatta.

Biz o'rganishga kirishgan hududda san'atning ushbu turi paydo bo'lishiga bir qancha omillar zamin yaratgan. Qashqadaryo viloyatida professional davlat qo'g'irchoq teatrining shakllanishi mustaqillikning ilk yillarida tashlanganligi o'ziga xos katta qadam bo'lgan. Bunda xalqning azaliy urf – odatlarini tiklash, yoshlar ongida yorug' kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlash kabi g'oyaviy, mafkuraviy qarashlar o'rin olgan. Bundan tashqari, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov mamlakat boshqaruvini qo'liga olgach, avvalo maorif, ma'naviyat, madaniyat masalalariga e'tibor qaratgan. Istiqlol yillarida O'zbekistonning deyarli barcha viloyat markazlarida qo'g'irchoq teatrlarining tashkil etilishi barkamol avlodni ham ma'nan, ham madaniy jihatdan komil inson etib tarbiyalashda katta ahamiyatga moyil edi. Zero, viloyatda bitta katta teatr va bitta qo'g'irchoq teatrining bo'lishi ham tomoshabin ehtiyoji, ham davr talabi edi.

Shu tariqa Qashqadaryo viloyat davlat qo'g'irchoq teatri O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari Vazirligining 1994-yil 15-martdagi № 53-sonli hamda Qashqadaryo viloyat hokimligi Madaniyat ishlari boshqarmasining 1994-yil 26-martdagi 24-sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan va Qashqadaryo viloyat Qo'g'irchoq teatri maqomi berilgan. Teatr dastlab Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomli viloyat musiqali drama teatri binosida ish boshlagan. Ushbu teatr 1995-yilda respublikamizning ko'zga ko'ringan qo'g'irchoq teatr rejissyorlaridan bo'lgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist SH.Yusupov rejissyorlik qilgan, L.Mahmudov muallifligidagi "Dadavoyning sarguzashtlari" spektakli bilan o'z ijodiy faoliyatini boshlagan. Rassom O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Veniamin Akudin. Shundan so'ng teatr ijodida birin-ketin qator spektakllar yaratilib ijodiy jamoaning tom ma'nodagi jonkuyarligi va iste'dodini yuzaga chiqarishda katta xizmat qildi. Dastlabki yillarda teatr ijodkorlari barcha mas'uliyatni o'z zimmalariga olishib teatrning ertasi uchun xizmat qilishga bel bog'lashdi.

Ammo jamoa o'z binosiga ega bo'lmagani sababli, dastlab Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomli viloyat musiqali drama teatri binosida ish boshlagan qo'g'irchoq teatri, keyinroq Qarshi shahrining O'zbekiston ko'chasida joylashgan 219-uydagi viloyat "Barkamol avlod" markaziga qarashli binoning bir qismida ijara asosida faoliyat yurita boshlagan. Teatr uchun ajratilgan umumiy maydon 636 m<sup>2</sup> ni, ma'muriy va ijodiy xodimlar xonalari koridori bilan 18 m<sup>2</sup> bo'lib, tomosha zali o'rindiqlari soni 130 ta bo'lgan. Lekin 1997-yillarda Qarshi shahridagi Temir yo'lchilar Madaniyat saroyi, Said Nasafiy nomli viloyat kutubxonasi binosiga, 1998-2007-yillarda yana Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomidagi viloyat musiqali drama teatri binosiga ko'chishga majbur bo'ladi.

Shu o'rinda o'z-o'zidan savollar tug'ilishi tabiiy. Tayyor bino, iqtisodiy infrastruktura, tayyor kadrlar ta'minoti, repertuar, dekoratsion tayyorgarlik, qo'g'irchoqlar galereyasi bo'lmay turib yaxshi niyatlar bilan tashkil etilgan teatrning bo'lajak rejaları qanday? Ikkilamchi, spektakllar qanday namoyish qilinganligi, moliyaviy muammolarning bartaraf etilishi, muammolar yechimi qay ahvolda? Vaziyat keltirib chiqargan qator muammolarga qaramasdan, ijod to'xtab qolmagan. Teatr o'z spektakllarini maktablarda hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida namoyish etishgan, izlanishgan. Bir joyda muqim ishlay olmagan teatr jamoasi 2008-yilda Qarshi shahridagi bolalar madaniyat va istirohat bog'ida joylashgan binoga o'tishga majbur bo'lgan.

Albatta, bu qo'nimsizlik va tinimsiz ko'ch-ko'chlar teatrning o'z faoliyatini bir tekis va ravon olib borishga halaqit bergan. Izchil ma'lumotlarga ega bo'lgan arxiv ham shakllanmagan. Bozor iqtisodi sharoitiga o'tish haqida esa fikr bildirish juda murakkab. Imkoniyat va sharoitlar taomili turlicha. Teatrning statsionarda tomoshalar ko'rsatish hamda yangi postanovkalar ustida repetitsiyalar qilish, ijodiy izlanishlar olib borish imkoniyati cheklangan. Aslini olganda gap binoda ham bo'lmasligi mumkin. Ba'zan binosi bor teatlarda xotirjamlik, ta'bir joiz bo'lsa boqimandalik, o'zibilarchilik ham kuzatiladi. Boshqa tomondan esa teatrning muqim joyi yo'qligi, qo'g'irchoqlar yasovchi ustaxonalarning bo'lmasligiga, aktyorlar va boshqa sahna ijodkorlarining qo'nimsizligiga olib keladi. Xuddi shu vaziyat Qashqadaryo viloyat davlat qo'g'irchoq

teatri faoliyatida ham kuzatilib, 2009 yilda o'z tarixidagi beshinchi ko'chishni amalga oshirib, viloyat o'quvchilar saroyi binosiga ijara to'lash shartnomasiga asosan ko'chib o'tadi.

Dastlab teatr uchun ajratilgan xonalar zal va bitta xonadan iborat bo'lganligi sabab ishlash va ijod kilish uchun shart-sharoitlar yetarli bo'lmagan. Binoning zal kismida majlislar o'tkaziladigan joy bo'lib, zal va sahnaning pol va parket taxtalari yaroqsiz holatda bo'lib, yog'ing'archilik sharoitida binoning tepa qismidan chakki o'tib, ishlash va mashg'ulotlar o'tkazish uchun imkoniyati umuman bo'lmagan. Binoda bir dona qishki tomoshabinlar zali, bitta ijodiy bo'lim va ikkita ma'muriy bo'lim bor. Bittadan rassomchilik, kostyumlar, grim xonalari mavjud. Binoning tomoshabinlar zali va sahnaning tepa qismlari plastmassadan o'rnatilgan bo'lib, u yerga oldi, orqa, yon pardalar, shtangetlar, har xil turdagi rangli projektorlar o'rnatishga aslo imkoniyat yo'q. Teatr ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu qarovsiz qolgan xonalarni teatr o'z kuchi bilan ta'mirlagan hamda sahna bezaklari, yoritgich asboblari, sahna liboslarini tashkil etishgan.

Mavjud muammolarga qaramasdan, viloyat qo'g'irchoq teatri turli mavzularda yangi spektakllar yaratib, ijodiy izlanishlar olib bormoqda. Sahnaviy talqinlarda rang-barang oqimlar va yo'nalishlar ko'zga tobora yaqqol tashlanmoqda. Shularni inobatga olgan holda Qarshi shahrida zamon talablariga javob bera oladigan yangi Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri binosining barpo etilishi va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora – tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan. Qaror 2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirishga asoslangan bo'lib, unda davlat teatrlari binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda jihozlashning manzilli dasturiga yangi qurilishi va yer maydoni ajratilishi nazarda tutilgan teatrlar ro'yxatida Qashqadaryo viloyati qo'g'irchoq teatri binosi ham bor. Uni qurib bitkazish ishlari 2019-2021-yillarga mo'ljallangan.

Qolaversa, yaqindagina imzolangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6000 sonli farmonida ham qator teatrlari singari Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri binosini qurish, teatrni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ishlari nazarda tutilib, bu ishlar 2021-yilgacha tugallanishi belgilangan edi. Hozirda ham qurilish ishlari jadallik bilan davom ettirilmoqda.

Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri qancha tez o'z binosiga ega bo'lsa, bu faqat teatr rivojlanishi va ijodiy parvozlari uchun imkoniyat yaratib, mavjud muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.



### **Adabiyotlar:**

1. Qashqadaryo va Surxondaryo ekspeditsiyasi materiallari. O‘zFASI fondi, inv.T-307.
2. Speranskiy YE. Aktyor teatra kukol. - M.: VTO, 1965, s. 73.
3. Qodirov M. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi. - T.: Fan, 1963, 124-131 bb.
4. Qodirov M.X. O‘zbek xalq tomosha san’ati. - T.: O‘qituvchi. 1981. 59-b
5. Sayfullayev B, J.Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. - T.: Fan va texnologiya, 2012. 13-14 b.
6. Abdullayev A. Qo‘g‘irchoq teatrida rejissyorlik xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. - T.: 2005. 4-b.
7. Yuldashev.T.I., Ikromov H.I., Muxtarov I.A, M.S.Muxtorova. Teatr va yosh avlod. -T.: 2012 y. 31-bet.
8. O‘rinov E. Qo‘g‘irchoq teatrlarida repertuar masalasi. // Teatr, 2004, №1, 25- bet.
9. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. -T.:Talqin, 2006, 157- b.

### **ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ФОЛЬКЛОРНО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ**

**Каримова Мукаддас Абдисаматовна,**

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана  
1 курс, независимый исследователь в области театрального искусства.

[mukaddas2305@gmail.com](mailto:mukaddas2305@gmail.com)

+998977618971

### **Аннотация**

В данной статье освещено богатое и разнообразное фольклорное наследие узбекского народа, многообразие его этнического состава, пути исторического развития. Речь идет об анализе произведения Махмуда Кашгари «Девону луготит Тюрк», оставившего бесценное наследие в истории собирания образцов фольклора.

**Ключевые слова:** фольклор, этнография, представление, культура, искусство, образ, обычай, ритуал, композиция, сюжет.

### **Annotation**

This article describes the rich and colorful folklore heritage of the Uzbek people, the diversity of ethnic composition and the path of historical development. It left an invaluable legacy in the history of collecting folklore samples - an analysis of the work of Mahmud Kashkari «Devonu lug'otit Turk».

**Key words:** folklore, ethnography, spectacle, culture, art, image, tradition, ritual, composition, plot.

В новой стратегии развития Республики Узбекистан, повышение уровня культуры, науки, литературы, искусства, определено как основное направление развития социальной сферы. Сегодня приоритетными задачами нашего государства становятся повышение культурного уровня населения, в частности

молодежи, приобщение их к лучшим образцам национальной и общечеловеческой культуры, воспитание на этой основе духовно зрелых, гармонично развитых личностей, реализация творческого потенциала молодых талантливых людей. Таким образом, важнейшим духовным богатством являются образцы устного народного творчества, являющиеся источником народной мудрости в воспитании совершенного человека.

Обладание узбекским народом богатым и разнообразным фольклорным наследием, многогранность его этнического состава неразрывно связаны с тем, что путь исторического развития проходил между двумя реками Центральной Азии, являющейся одним из очагов мировой культуры. Так как территория между Амударьей и Сырдарьей издавна служила историческим местом значимых переселений народов, а также взлетов и падений в различных политических, культурных, экономических отношениях. Причина в том, что Великий Шелковый путь почти полностью пересекает эту территорию. Ведь из истории известно, что территории, по которой проходили торговые пути, проходили процессы экономического, политического и культурного развития.

Наиболее древняя и имеющая давнюю историю отрасль искусства художественного слова - фольклор. Усовершенствование опыта человека в процессе труда, развитие его сознания в результате формирования его речи, стремление к изображению своих мыслей-представлений о природе и обществе средствами образов, стимулировали появление фольклорных форм. Произведения фольклора, являющиеся художественной деятельностью одаренных людей в народе, - это искусство слова из видов музыки, цирковых искусств, танца, изобразительного и прикладного искусств. Фольклорные сказания передавались из уст в уста, из поколения в поколение, из эпохи в эпоху и исполнялся в лице талантливых представителей народа. Фольклорные произведения со временем не только сохраняются в том виде, в каком они были изначально созданы, но и перерабатываются, интерпретируются, обогащаются новыми образами, адаптируются к условиям окружающей среды и совершенствуются. Под термином «фольклор» понимается совокупность усовершенствованного, изучаемого и обучаемого народного творчества, основанного на искусстве слова и исполнительском мастерстве. Область науки, которая ее изучает и исследует, называется «фольклористика».

В письменных источниках сохранились образцы фольклора народов Средней Азии с древнейших времен. Эти источники содержатся в книгах по истории, научных трудах, памятниках письменности. В книгах античных историков - Геродота, Ктесия, Полиена, Хереса Митиленского и др. - содержание отдельных аспектов устного народного творчества оставалось повествовательным. В трудах средневековых историков - Хамзы Исфакхани, Табари, Масуди, Беруни и др. - также содержатся ценные материалы и сведения по устной литературе. Такие письменные памятники, как «Авеста», «Бехустун», «Бундахиши», «Денкард», также содержат некоторые образцы устной литературы. В летописях древних китайских историков также сохранились ценные сведения о жизни нашей страны, обычаях, музыке, танцах и песнях

наших народов. В знаменитом произведении Махмуда Кашгари «Девону луг'отит Тюрк» различные образцы древних песен, стихов и пословиц, связанных с нашей территорией, служат письменной основой для исполнения национального фольклора.

Общеизвестно, что факты истории фольклора не до конца объясняются или забываются в силу требований времени, а их исполнение подвержено изменению и путанице. Поэтому исторические события и явления не находят яркого отражения в исполнении фольклорных коллективов. В результате редукция основных частей эпоса может превратить их в сказку или наоборот. Такие события в исполнении фольклора не снижают его идейно-художественной и эстетической ценности. Испокон веков коллективное исполнение фольклорных произведений создало в них постоянную форму - традицию. Например, сказки и былины богатырского типа, хотя и существуют некоторые различия в жанрах, их исполнение имеет художественный стиль, традиционную форму. В обоих произведениях композиция состоит из традиции-пролог, завязка, развитие сюжета, кульминации, развязка, эпилог. В процессе перехода от поколения к поколению она частично видоизменяется, добавляя и обогащая некоторые локальные детали. Однако основной источник традиции сохраняются.

В результате исторического развития некоторые фольклорные произведения изменили свою первоначальную форму. Это означает, что исполнение фольклорных произведений не только традиционно, но и творчески вариативно. Однако все эти изменения являются частью хорошо развитой традиции.

Фольклористы называли территориальное своеобразие в исполнении «вариативность в коллективном исполнении». Отсюда территориальные различия и вариативность устного народного творчества, связанные с коллективным исполнительским процессом. В фольклорном исполнении огромное явление вариативности. Потому что любое фольклорное произведение не повторяется в коллективе, кроме как вовремя его исполнения. Может претерпевать определенные изменения, обновления в силу территориального положения, мастерства исполнителей, экономических возможностей и других причин. Поэтому изменения, произошедшие при переходе фольклорных произведений от эпохи к эпохе, от исполнения к исполнению, отражаются в вариантах. Распространение фольклорных произведений в территориальных вариантах, в разных экземплярах требует отдельного исследования вопроса вариативности.

Варианты в фольклорном исполнении имеют те аспекты конкретного произведения, которые не исключают друг друга, в исполнении могут существовать независимо, опираясь на традицию, проявляя самобытность различных территорий. Например, из разных регионов было записано около 30 вариантов эпоса "Алпомыш", но в народных исполнениях распространено еще больше вариантов. Варианты возникают в основном в результате территориальных условий. Поэт или сказитель вносит изменения в свое исполнение в зависимости от периода, обстоятельств и слушателей, которые

исполняют произведение. Например, сказка на социальную тему, рассказанная взрослым, будет рассказана детям по-другому. Таким образом, появляются различные варианты сказки. Отсюда следует, что время создания, распространения и условия существования каждого фольклорного произведения достаточно сложны, это явление, связанное с социальной и экономической средой, аудиторией слушателя, творчеством и исполнительским мастерством. Поэтому территориальная вариативность-определяет сферу распространения, массовость и народность народного творчества.

Глядя на историю собирания образцов узбекского фольклора, мы видим, что он оставил бесценное наследие- Стоит привести имя Махмуда Кашгари. Потому что в книге нашего великого предка представлены самые важные тексты о состоянии тюркских народов и узбекского фольклора почти тысячу лет назад, относящиеся к видам устного народного творчества. С этой точки зрения, Махмуд Кашгари, живший в XI веке и проявлявший живость в собирании устного творчества тюркских народов, является одним из основателей тюркологической науки и наставником ученых, внесших огромный вклад в развитие этой науки.

Кошгари 15 лет неустанно работал над произведением «Девону луготит Турк», долгие годы странствовал по стране и собирал источники. Работа Кашгари, как он сам утверждал, - «собирала и собирала источник в отдельном порядке, который до этого никто не составлял и никому не был известен. Один за другим он объездил всю территорию, начиная от Верхнего Египта и заканчивая Мавераннахром, Хорезмом, Ферганой, Бухарой». В результате он очень хорошо усвоил быт всех племен, населявших территорию, по которой он путешествовал, и их языки. Свои действия над девонским письмом Кашгари объясняет так: - « я много лет странствовал по городам, селам и пастбищам тюрков, туркмен, огузов, чигилей, ягмов, киргизов, собирал их словари, изучал, определял различные языковые особенности. Я сделал это не потому что не знал языка, но и для того, чтобы выявить все небольшие различия в этих работах. «Я был из их зрелых в языке, из величайших знатоков в добрых делах, из старых племен, из мастеров в боевых искусствах в копьях».Собранные источники дают возможность, во-первых, изучить язык; устное народное творчество; культуру; этнографию; фольклор того времени, а во-вторых, позволяют исследователям делать обоснованные научные выводы.Потому что в нем собраны древние мифы и легенды, связанные с историей тюркских народов, около 300 пословиц и поговорок, более 700 строк стихотворных отрывков. Большая часть стихотворных фрагментов состоит из своеобразных четверостиший в устном творчестве тюркских народов. Из поэтических строк, приведенных в«Девоне», около 150 представляют собой фрагменты, характерные для исламского периода-маснави, касида, газель, Континент, которые Кашгари называет» Бейт».

В книге 7 эпических поэм, романтические песни, хроники, аскетические стихи о сотворении Вселенной, описания природных пейзажей, гимны, философские рассуждения. В образцах тюркской поэзии VIII-XI веков, приведенных в кашгарском Девоне, чувствуется тенденция к переходу в той или

иной степени веса аруза. Веса аруза-раджаз, Рамал, мунсарих, хаджаз, басит, Кариб, мутакариб-использовались в образцах тюркской поэзии, особенно широко они использовались в 44 отрывках из раджаз-бахра. Они широко распространены в тюркской народной поэзии, что, вероятно, связано с тем, что бахрный тон соответствует природе тюркской поэзии.

Трудовые песни, представленные в Девоне, выражают: игры, связанные с трудом; отношение людей к труду; облегчение трудовых трудностей; досуг; помогают приучать и приучать молодежь к труду.

Версии обрядовых песен- посвящены героям, героически сражавшимся и погибшим на поле боя. В них превозносятся мужество, отвага, самоотверженность и положительные качества храбрецов, а скорбь об утрате выражается через траурную скорбь. Известно, что в узбекском фольклоре широко распространена тема марсия. Следовательно, тот факт, что марсианский образец имеет место в “Девоне”, свидетельствует о том, что эта тема является одним из древнейших жанров в узбекском фольклоре.

Также есть сведения о сезонных песнях в Девоне. В ней выделяются песни заданного времени года и песни лирического типа, в которых выражен образ природы. В этих песнях выражено понимание людьми древности явлений природы и их отношение к этим явлениям. Их взгляд на явления природы как на связь с добрыми и злыми духами также очевиден в их представлениях о временах года. Одно время года радует их, а второе-печалит. Те, кто не мог собрать достаточно пищи, корма для зимнего сезона, те, кто испытывал трудности с зимой, положительно относились к весне, те, кто отрицательно относился к зиме, и те, кто с радостью встречал весну, считали зиму временем ужасов и бедствий. В результате в фольклоре отчетливо выражена борьба зимы и весны, которые противопоставляются друг другу в песнях. В этой борьбе, построенной на логике, побеждает весна. Природа словно оживает, берега покрываются буйной зеленью, в горах тают снег и лед, начинается водный поток, появляются различные цветы, дарящие красоту земле. Это обновление природы делает людей очень счастливыми, весенний праздник становится удовольствием людей. В результате создатели воспевают в своих песнях те удовольствия, которые они получают от весны. Традиции такого праздника развивались и приобрели характер праздника Навруз. На этом празднике наряду с песнями и играми широко представлены такие народные игры, как борьба и буффонады. На празднике «Навруз» наряду с обрядовыми и героическими песнями исполнялись песни, созданные на основе романтических, нравственно-образовательных стихов. В них- понятия любви и верности превозносились как человеческие качества, а так же, традиционные песни призывали людей быть благородными, мужественными и честолюбивыми. Ученые отмечают высокий художественный уровень девонских стихотворений как и то, что те, кто их создавал, были очень образованными, обладали тонким и глубоким художественным вкусом.

В работе Махмуда Кашгари карта мира изображена в виде круга. В его центре находится Центральная Азия. Такие города, как Баласогун, Шаш, Узген, Исфиджаб, Маргилан, относятся к этой области. Приложение Карты,

показывающее географическое видение XI-го века, означает что Кашгари был выдающимся знатоком и самым зрелым ученым своего времени. Таким образом, песни, пословицы и поговорки в” Девону луготит Тюрк « являются древним общим литературным памятником узбекского народа наряду с народами, говорящими на тюркских языках.

### **Литература:**

1. Мирзиёев Ш. М. “Янги О’zbekiston Стратегияси” 2021
2. Умаров М. Эстрада ва оммавий томошалар тарихи. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. - 303 б.
3. Махмуд Қошғарий “Девон Луғот ат турк”-Т:Фан 1963 2-жилд
4. М. Муродова “Фолклор ва этнография”-Т.: Алоқачи 2013й
5. Сайфуллаев Б, Маматқосимов Ж.Х. Актёрлик маҳорати. Тошкент: Фан ва технология, 2012. - 388 б.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **QADRIYATLAR QADRLANDI**

**Sanobar Qulmirzayeva,**

O‘zDSMI Kino san’ati tanqidi va tahlilii ta’lim  
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Zumriniso Kozimova,**

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada xalq ijodiyoti namunalari, ularning turlari, shuningdek, respublikamizning turli hududlarda faoliyat yuritib kelayotgan jamoalar xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** ansambl, jamoa, urf-odat, udum, marosim, folklor, xalq og‘zaki ijodi.

### **Аннотасия**

В данной статье рассматриваются образы народного творчества, их виды, а также сообщества, действующие в разных уголках страны.

**Ключевые слова:** ансамбль, община, обычаи, обряды, обряды, фольклор, фольклор.

### **Annotation**

This article discusses examples of folk art, their types, as well as communities operating in different parts of the country.

**Key words:** ensemble, community, customs, rituals, rituals, folklore, folklore.

O‘zbek xalq ijodiyoti boy va qadimiy tarixga ega. An’anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og‘zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi

(musiqafolklori), xalq teatri (tomosha san'ati), xalq o'yinlari (raqs), qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari avloddan-avlodga o'tib shakllanib kelmoqda. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib ustozdan shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator qadimiy namunalari yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlarikabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uy-ro'zg'or buyumlarida saqlanib qolgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'y-fikrlari o'z ifodasini topgan. Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan Xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, masxarabozlar, qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoqlar, naqqoshlar, kulollar, o'ymakorlar, kashtado'zlar san'ati yuzaga kelgan, korfarmon va ishboshilar paydo bo'lgan. Ammo uning yaratilishi va o'zlashtirilishida ko'pchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe bo'lishi saqlanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy xattiharakat, yangilik barqaror an'analar va ustozshogird munosabatlari doirasida ro'y bergan. Bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

Xalq ijodi professional san'atning yuzaga kelishi va rivojida katta o'rin tutadi. O'z navbatida, professional san'at ham Xalq ijodi rivojiga ta'sir ko'rsatib, uni boyitib kelmoqda. Jamiyatda Xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yo'qolganlarini tiklash ehtiyoji o'zining estetik talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga bo'lgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda Xalq ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umumdavlat miqyosidagi muzeylar va qo'riqxonalarning ishlayotganligi, Xalq ijodi namunalarining ilmiy o'rganilishi va nashr etilayotganligi, ko'plab folklor etnografik ansambllarning mavjudligi, badiiy havaskorlikni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning tasdig'idir.

Xalq og'zaki badiiy ijodi (folklor). Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o'z ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson maishati va faoliyatining barcha jihatlarini bilan mahkam bog'langan bo'lib, qadimiy damlarning diniy e'tiqodiy va mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi

tasavvurlarini aks ettirgan. Xalqning yashash va turmush tarzi bilan bog'liq turli-tuman tasavvur va qarashlarida, xalq urf-odatları, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ba'zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida qoldiq holda saqlanib qolgan. So'z san'atining mustaqil turi sifatida folklor ham u bilan birgalikda yonmayon yashab keldi. Chunki kishilik jamiyatining umumiy estetik talabi va ehtiyoji uzoq yillar davomida faqat adabiyot bilan emas, balki folklor bilan ham mustaxkam bog'liq bo'ldi. Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og'zakiligi va unda ko'pchilikning ishtirok etishi (jamoaviylik) xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy xususiyatidir. Uning an'anaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlik, ommaviylik, anonimlik (muallifining noma'lumligi) kabi ko'pdan-ko'p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo'ladi. Folklor namunalari og'zaki yaratilib, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida og'zaki tarqalar hamda ommaviy repertuardan keng urin olar ekan, bunda badiiy shakllarning barkarorligi (turg'unligi), matndan matnga o'tuvchi umumiy o'rinlarning qat'iylashganligi, o'xshash sayyor syujetlarning ko'pligi imkoniyat yaratadi. Har bir ijodkor (kayta ijod) va ijroda an'anaviy asardagi nimalardir o'zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin etiladi, nimalardir qo'shiladi yoki tushib krladi. Bunday o'zgaruvchanlik ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, eshituvchilar talabi va ijrochi (ijodkor) salohiyatiga bog'liq. Lekin har qanday o'zgarish, ijro davomidagi qayta ijod asrlar davomida kagiylashgan puxta an'analar doirasida sodir bo'ladi. Demak, jonli og'zaki an'ana doirasidagi badihago'ylik folklor asarlarining ko'p variantlarida tarqalishiga olib keladi.

Xalq og'zaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turli tuman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba'zan yangilarini ham yarata oladilar. Biroq bunda barkarorlashgan va qat'iylashgan jamoaviylik an'analari yetakchilik qiladi. Ayrim janrlar (mas, topishmoq, maqol kabi) ommaviy xarakterga ega bo'lsa, ya'ni ularning namunalaridan har bir kishi ozmiko'pmi ayta olsa, boshqalarining (mas, doston, og'zaki drama singari) ijrosi muayyan tayyorgarlikni talab qilgan. Shu tariqa xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini yaratish va ijro etishda o'ziga xos kasbiy ijodkorlik yuzaga kelgan. O'zbek folklorida ijodkor va ijrochilarning kasbiylashuvi nihoyatda rivojlangan. Baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrochiligi professional san'at bo'lib, uni egallash uchun bo'lg'uvchi ijodkor maxsus tayyorgarlik ko'rish va muayyan ustozdan ta'lim olishi zarur bo'lgan.

Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, assiya, og'zaki drama va b. lar xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo'lib, ular so'z san'ati namunalari bo'lish bilan birga muayyan ijtimoiymaishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Mas, ho'p mayda, ho'shho'sh, turey-turey, churey-churey kabi qo'shiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo'lsa, yoryor, o'lan, lapar, kelin salom, yig'i, yo'qlov, badik, suet xotin singarilar har xil marosimlar bilan bog'liqdir. Folklor janrlari g'oyaviybadiiy xususiyatlari bilan emas, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, jamoaviy ijrochilik, sozli, sozeiz kabi) jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning biri kuylash uchun, ikkinchisi aytib berish, hikoya qilish uchun, boshqasi ko'rsatish,



namoyish etish uchun yoki ham kuylash, ham o'ynash, ham aytish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Folklor janrlari qanchalik xilma xil, ba'zan o'ta funkcionallashgan va qat'iy vazifador bo'lishiga qaramay, ular yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi.

Folklor janrlari ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq. Xalq hayotidagi tarixiy o'zgarishlarga ko'ra, ular ham o'zgara borgan. Qay bir janrlar yoki namunalar butunlay yo'qolgan, yangilari yuzaga kelgan. Shuning uchun ham ularda ko'p qatlamlilik mavjud bo'lib, uzoq ijro davomida bir necha davrlar o'z izini qoldirgan. Ko'pchilik xalqlarda miflar, urug' va qabilalar haqidagi afsona va rivoyatlar, topishmoq va maqollar, olqish va qarg'ishlar, mavsum marosim folklori namunalari, mehnat qo'shiqlari keng tarqalgan. Keyingi davrlarda esa, ertaklar, eposning arxaik shakllari yuzaga kelgan. Patriarxalurug'chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk davlatlarning shakllanishi davrida qaxramonlik dostonlari yaratilgan. Keyinroq romanik epos, lirik va tarixiy qo'shiqlar, og'zaki drama, latifava loflar paydo bo'lgan.

Xalq og'zaki badiiy ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy qiymatga ega. U xalqning tarixi, maishati, urfodatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, orzu umidlari haqida keng bilim beradi. Unda xalq badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan. Estetik sezgilar rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tili boyliklarini his qilishda uning ahamiyati beqiyosdir. Folklor professional san'at turlari – adabiyot, teatr, musiqa, kino taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Xalq musiqasi (musiqiy folklor) – og'zaki an'anadagi musiqa turi. Ibtidoiy san'atda paydo bo'lgan o'yin usullari, jodu ayimlari, tovushli signallardan tortib xalq ashula va cholg'u kuylargacha kabi shakllardan iborat. Boshqa musiqa turlaridan, asosan, turmush jarayoni (urfodat, marosim, bayram va b.)ga bevosita bog'langanligi bilan ajralib turadi. Aksariyat musiqiy folklor namunalari sof estetik hodisalar ma'nosida emas, kundalik hayot (maishiy, mehnat, marosim va b.) vazifalarini bajaradigan badiiy shakllar sifatida qaror topadi. Ko'pgina xalq musiqasi namunalari sinkretik shakllar bo'lib, bularda kuy ohanglar so'z (ko'shiq, terma, lapar), raqs (o'yinraqs kuylari), tomosha (musiqiy tomosha) bilan uyg'unlashgan holda yuzaga keladi. Muayyan badiiy an'ana va shakl (mas, ohang) andozalariga asoslangan xalq musiqasi namunalari turli davr va sharoitda (mas, tinglovchilar yoki ijrochilar tarkibi, ijro etish vaqgi, joyi va muhitiga qarab) o'zgaradi. Shuning uchun har bir musiqiy folklor namunasining bir necha varianti mavjud bo'ladi. Xalq musiqasida mintaqaviy, milliy va mahalliy uslublar ajratiladi (mas, o'zbek xalq musiqasida Buxoro – Samarkand musiqasi uslubi, Surxondaryo – Qashqadaryo musika uslubi va b.). Musiqiy folklor namunalari badiiy mazmun jihatidan epik (terma, musiqiy ertak, maddohlik, qissaxonlik, afsona kuylari kabi), dramatik (musiqiy tomosha va b.) va lirik (qo'shiq, lapar, yalla, madhiya va b.) turlarga, ijro etish sharoitiga qarab – maishiy, marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari va boshqa turlarga ajratiladi.

Xalq musiqasi namunalari xalq (omma) badiiy ongining mahsuli sifatida hayot kechirib, yakka holda havaskor xonanda (guyanda, xalfa va b.), sozanda (do'mbrakash, dutorchi kabi) tomonidan, shuningdek, ansambl yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Xalq musiqasi milliy musiqa uslubining asosi, bastakor va kompozitorlar ijodi, ommabop

musiqaning muhim manbaidir (Xalq kuylarini qayta ishlash). Musiqiy folklor, o‘z navbatida, professional musiqa san’ati bilan o‘zaro chambarchas aloqada rivojlanadi. Hozirgi davrda xalq musiqa namunalari qadimiy va o‘zgartirilgani, shuningdek, ular asosida yangidan yaratilganlari mavjud.

Xalq musiqa cholg‘u asboblari xilma-xil. Ular bir xalqqa (masalan, qirg‘izlarda ko‘muz, ukrainlarda bandura) yoki asriy tarixiy madaniy aloqadagi turli xalqlarga

(masalan, o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoqlarda dutor va b.) mansub bo‘lishi mumkin. Xalq musiqasi namunalari ijro etish muhiti va b. xususiyatlarini yozib olish bilan musiqiy etnografiya, tadqiq etish bilan musiqiy folkloristika (etnomusiqashunoslik) shug‘ullanadi.

Xalq raqsining qadimgi namunalari kishilarning hayvonot va tabiat olamini kuzatishlarini aks etgiran. Ovchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xalqdarning raqslari yovvoyi va uy hayvonlari, qushlarning xatti harakatlari, qiliqlariga taqlidan yaratilgan: pomircha “Burgut”, “Tulki”, turkmancha (laylak harakatlarini ifodalovchi) “Ximmil”, xorazmcha “Chag‘aloq” (“Baliq qush”), “To‘rg‘ay”, yoqutchi “Ayiq”, Shim. Afrikadagi “Tuya”, Amerika hamda Markaziy va Jan. Afrikada ommalashgan “Ovchilar” raqslari mehnati bilan bog‘liq raqslarda turli mehnat jarayonlari badiiy ifodasini topgan. Hozirda xalq sahna raqsi ansambllari deyarli barcha mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda qadimgi ommaviy (Beshqarsak kabi) o‘yin raqslari bilan birga yakka xalq raqslari ham keng o‘rin olgan (Yalla, Xalfa, Mavrigi). 1920-yillardan boshlab Ashula va raqs ansamblining havaskor va professional jamoalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda xalq ijodiyotining turli yo‘nalishlarini rivojlantirish, targ‘ib etish, xalq ijodi sohasida turli ko‘rik tanlov, festival va ommaviy bayramlarni tashkil etish bilan Respublika xalq ijodiyoti va madaniy ma‘rifiy ishlar ilmiy metodik markazi shug‘ullanadi. Shu jumladan, O‘zbekistonda muntazam ravishda folklor etnografik jamoalari, askiyachi va qiziqchilar, to‘y marosim qo‘shiqlari ijrochilarining Respublika ko‘riktanlovlari, milliy dorbozlar, an‘anaviy sirk san’ati va havaskor qo‘g‘irchoq teatrlarining Respublika ko‘rik-festivallari, “Boysun bahori” xalqaro ochiq folklor festivali o‘tkaziladi. Folklor so‘zi – “bilim, donolik” degan ma‘noni bildiradi. Yurtimizda folklor jamoalarining ko‘pligi xalqimizning azaldan bilim va saviyasi, madaniyatida alohida o‘rin tutganligidan dalolat. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan folklor va xalq etnografik jamoalarining faoliyatini yaxshilashga va ularning ijodini targ‘ib qilish, moddiy texnik bazasini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jamoalarning professional ansabl sifatida ishlashi uchun keng yo‘l ochib berish maqsadida Madaniyat vazirligida “Xalq xavaskorlik jamoasi” hamda “Bolalar namunali jamoalari” ga diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda ilk folklor ansambllari o‘tgan asrning 20-yillarida Muhiddin Qoriyoqubov va Tamaraxonimning bevosita boshchiligida o‘zbek etnografik ansambli mashhur ko‘k ko‘ylak ansambli tuzilgan. Bu ansambl xalq og‘zaki ijodini sahnaga ko‘chirgan ilk folklor ansamblidir. Bugungi kunga qadar Respublikamizda 549 ta folklor jamoalari faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lsa, 2022-yilning 2-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 3-sonli hay‘at majlisida “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda “Bolalar

namunali jamoasi” unvonlarini olish uchun tavsiya etilgan jamoalar faoliyati tizimli ravishda o‘rganilib, faol jamoalarning 48 tasiga unvon berilishi munosabati bilan ularning soni 597 taga yetdi. Vazirlik tizimidagi madaniyat boshqarmalari tasarrufida faoliyat olib borayotgan ko‘plab folklor jamoalar jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Bo‘ston gullari” folklor-etnografik jamoasi “Xalq havaskorlik”, “Bo‘ston zebolari” raqs, Nukus shahar madaniyat bo‘limi

huzuridagi “Aydinlar” ashula va raqs ansambli, “Suv sepser” folkloretnografik “Serbinaz” bolalar raqs, Buxoro viloyati “Bolalar namunali jamoasi”, G‘ijduvon tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Gulrez” bolalar folklor-etnografik, Peshku tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Parvoz” bolalar ashula va raqs ansambli “Jig‘achi jig‘alari” bolalar jamoasi, Qorako‘l tumani madaniyat bo‘limi folklor-etnografik “Davr” yoshlar teatri, “Xalq havaskorlik jamoasi” “Poykent navolari” maqom, G‘ijduvon tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Joziba” raqs, “Oq oltin” folkloretnografik ansambli huzuridagi “Kogonobod” karnay-surnaychilar, “Mumtoz” maqom ansambli, Jizzax viloyati Baxmal tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Baxmal gullari” ashula va raqs ansambli, “Bahor” folklor, “Xalq havaskorlik», Arnasoy tumani madaniyat markazi etnografik ansambli, “Mehrigiyo” folklor, etnografik ansambli Paxtakor tumani madaniyat markazi huzuridagi “Jamalak” bolalar folklor jamoasi, Surxondaryo viloyati Angor tumani madaniyat markazi huzuridagi “Badash” folklor-etnografik ansambli “Xalq havaskorlik jamoasi”, Bandixon tumani madaniyat markazi huzuridagi “Voha gullari” ashula va raqs ansambli, “Ohuva” folklor-etnografik ansambli, “Marvarid” bolalar ansambli, Denov tumani madaniyat markazi huzuridagi “Muborak” ashula va raqs ansambli, Jarqo‘rg‘on tumani Oqqo‘rg‘on madaniyat markazi huzuridagi “Oydinoy” oilaviy folklor-etnografik ansambli, “Surxon yosh tomoshabinlar” qiziqchilar teatri, Oltinsoy tumani madaniyat markazi huzuridagi “Qirmizi” folklor-etnografik ansambli, “Joziba” bolalar cholg‘u ansambli, “Ko‘zmunchoq” “Boychechak” bolalar folklor-etnografik Sho‘rchi tumani Serg‘ayrat madaniyat markazi huzuridagi “Chonqovuz” folkloretnografik ansambli, Boysun tumani madaniyat markazi folklor-etnografik ansambli, Toshkent viloyati Quyichirchiq tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Navro‘z folklor-etnografik ansambli “Xalq havaskorlik jamoasi”, Yuqorichirchiq tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Pomparam” koreys xor jamoasi, Bo‘stonliq tumani tuman madaniyat markazi huzurida “Yosh doirachilar” jamoasi “Bolalar namunali jamoasi”, “Tarannum” maqom, Farg‘ona viloyati ansambli, Farg‘ona shahar madaniyat bo‘limi huzuridagi “Farg‘ona gavhari” folklor-etnografik ansambli “Xalq havaskorlik jamoasi”, “Sado” doirachilar ansambli, Rishton tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “G‘ayratli yigitlar” dorbozlar jamoasi, Dang‘ara tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Donig‘aram” folklor-etnografik ansambli, Buvayda tumani markaziy madaniyat markazi huzuridagi “Zarb” doyrachilar ansambli, “Shodlik” estrada ansambli, Xorazm viloyati Bog‘ot tumani madaniyat markazi huzuridagi “Bog‘ot” qo‘g‘irchoq teatri jamoasi “Xalq havaskorlik jamoasi”, Urganch shahar madaniyat bo‘limi huzuridagi “Joziba” cholg‘u jamoasi, Tuproqqal’a tumani madaniyat bo‘limi huzuridagi “Parvoz” ashula va raqs ansambli, Qo‘shko‘prik tumani madaniyat markazi huzuridagi “Humo”

estrada vokal-cholgʻu ansabli, Toshkent shahri ansambli Sergeli tumani madaniyat markazi huzuridagi “Yangi avlod Erkatoy-Elnur” bolalar vokal va raqs jamoasi, “Bolalar namunali jamoasi”, “Meros” folklor jamoasi “Xalq havaskorlik” jamoalari eʼtirof etildi. Hududlardagi jamoalarning hech biri oʻz-oʻzidan vujudga kelmagan. Har birining yuqoridagi fikrlarimiz isyoti sifatida tarixdan bizgacha zamonaviylashib sayqal topib kelgan. Ularning baʼzilari bilan faoliyati haqida soʻradik:

Nabutullayeva Goʻzal, Nikus shahri “Sarbinaz” bolalar raqs jamoasining badiiy rahbari: Bu jamoa 2005-yil Gulbahor Qabilova tomonidan ochilgan boʻlib, hozirgacha toʻgarak boʻlib kelgandi, Madaniyat vazirligi hayatining qaroriga asosan “Havaskorlik sanʼatini rivojlantirish va milliy qadriyatlarini tiklashdagi faol xizmati, hamda yuksak ijrochilik mahorati uchun” taqdirlandik. Biz uchun juda ham quvonchli boʻldi, eʼtibor uchun vazirlik jamoasiga minnatdorchilik bildiramiz va kelgusida bundanda, samarali mehnat olib borishga bizga kuch bagʻishlaydi.

Manishev Oʻrinboy Qaroqalpogʻistonda xizmat koʻrsatgan artist: Bugungi kunda “Oydinlar” ashula va raqs ansablining badiiy rahbariman. Nafaqaga chiqqanimdan soʻng nafaqadagi sanʼatkorlarni yigʻib ansablni shu ansablni ochdim. Yigirmata qatnashchimiz baxshilarimiz, xalq artistlarimiz, sozandalarimiz bor. Asosan oʻzimizning folklor, doston qoʻshiqlarimiz jonli ijro etiladi. Qancha vaqt oʻtib bu eʼtirofga sazovar boʻldik, oson boʻlmadi. Eʼtibordan xursand boʻldik.

Abdinavi Qodirov Boysun tumani “Boychechak” bolalar ansablini badiiy rahbari: Biz uchun katta eʼtibor boʻldi, ansablda yetti yoshdan oʻn besh yoshgacha boʻlgan 24 nafar bolalar ishtirok etadi. Qiziqarli tomoni olti yoshli bolalar ham bor. Qadimiy qoʻshiqlar, raqslar ijro etiladi. “Shalola”, “Quralay” bolalar ashula va raqs ansablida ishlaganman, “Boysun xalq etnografik” ansablida ishladim, Yunesko grandini oldik. Grand asosida bolalar folklor etnografik maktabini tashkil qildik. Bunday eʼtiroflar bizni samarali mehnat bilan ishlashga undaydi.

Fargʻona shahar madaniyat markazi qoshida tashkil etilgan, “Fargʻona gavhari” folklor etnografik jamoasi badiiy rahbariman, xalq ogʻzaki ijodiyotini yoshlarga oʻrgatib, targʻib qilib kelyapmiz. Maqsadimiz milliyligimizni butun dunyoga koʻrsatish. Bizda faqat Fargʻonacha laparlar emas, tojikcha, ruscha va har xil millatlar laparlarini koʻylaymiz. Jamoada oʻnta ayol bor. Bugungi eʼtibor bizni ruhlantirdi. Kelusida faoliyatimizni kengroq koʻrsatishga yoʻl ochib beradi.

Sharopov Zayniddin Gʻijduvon tumani Sarmijon madaniyat markazida ishlayman. Bugun «Oq oltin» folklor ansabli degan eʼtirofga sazovor boʻldik. Bu uch yillik mehnatimizni samarasi. Kelajak avlodga eski udumlarimizni olib chiqib koʻrsatish maqsadimiz. Bizni yurtimizning har bir goʻshasi sanʼatga boy va alohida tarixga ega. Bizni viloyatdan oltita mana shunday ansabl taqdirlandi. Buxoroning alohida sanʼati bor. Asl sanʼatini targʻib qilishni maqsad qilib qoʻyganmiz. Masalan eski qishloqlarda “boʻyra toʻqish”, “Xolvapazlik” kabi eski anʼanalar sanʼat yordamida koʻrsatib beriladi.

Xorazm viloyati Bogʻot tumani uchun bugun quvonchli kun, bizni viloyatdan toʻrtta jamoa “Xalq havaskorlik» unvonini

oldi. Men Bogʻot tumanida qoʻgʻirchoq teatrini ochdim. Faqat Xorazmga xos boʻlgan adabiyotlar bilan cheklanib qolmay, balki jahon adabiyotidan ham bolalar

uchun spektakllar sahnalashtirish rejamiz bor. Bugungi e'tirof ruhiyatimizni kutardi. Ijodkor uchun e'tibor eng muhim kuch.

Mehriniso Xolmurodova Jizzax viloyati Paxtakor tumani Madaniyat markazining badiiy rahbari: Biz tumanimizda "Jamalak" folklor jamoasini tashkil etib, besh yil davomida yosh aqlodga urf- odatlar milliy qadriyatlar, o'zbek xalq o'yinlari, xalq og'zaki ijodidan o'rgatib kelyapmiz. Qilgan mehnatlarimizni qadrlab, "Bolalar namunali jamoasi" deb e'tirof etilganimizdan boshimiz ko'kka yetdi. Jamoamizga uchta ish shtati ajratildi, endilikda faoliyatimizni kengroq va samaraliroq yo'lga qo'yishimiz mumkin bo'ladi. Bizni tumanda har xil millat vakillari yashaydi. Shuning uchun bizni repurtuarimiz rang-barang. O'z ustimizda ishlab qadimgi termalarni yangicha uslubda olib chiqish harakatidamiz.

Sharof Rashidov tumani madaniyat markaziga qarashli "Mehrigiyo" havaskorlik ansablni badiiy rahbari: Biz uyla o'tirgan uy bekalaridan tashkil topgan jamoada o'n beshta marosim qo'shiqlarini yaratganmiz. Shulardan "Ko'rpa soldi", "Kampir o'ldi", "Kelin qochdi", "Vakil ota" kabi qo'shiqlarimizni yuzga, to'qsonga kirgan onaxonlarimizdan qishloqma-qishloq yurib yozib olganmiz. Bizni jamoada yoshlar juda ham ko'p bo'lib, beshta to'garak tashkil etganmiz. Bu qo'shiqlarni bir eshitsangiz juda ham rang-barang kayfiyatni ko'taradi. Hirgoyi qilib bersam: Meni aynam bir kishi, Aravani tirqishi. Suv jag'alab jo'rganda, Ko'rinib tursin kumushi. Meni oynam hayla Otini tolga boyla. Oti tolda turmasa, Gulxayriga boyla. Gulxayrining guli ko'p, Meni aynamning puli ko'p. Bu pullarga uy solsin, To'rt tarafga gul solsin. Mehmon kelib tursin deb, To'rt tarafga jo'l solsin.

Biz mana shunday xalq laparlarini qishloqlarda yuzdan oshgan momolardan so'rab yozib olib, yig'ib, ijro qilamiz. Biz yanada qo'lni- qo'lga berib unutilayotgan lapar, qo'shiqlarni momolarimizdan olib, yosh avlodga yetkazishda bundanda ko'proq mehnat qilib yosh avlodga berishimiz kerak.

Xalq ijodiyoti katta boylik va ma'naviy kuch.

## FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATIDA FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARINING TUTGAN O'RNI

(Farg'ona viloyati "Qo'qon yor-yori" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi misolida)

*Naima Imomaliyeva,*  
*O'zDSMI Xalq ijodiyoti:*  
*(folklor va etnografiya)*  
*ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi*  
*Ilmiy rahbar: D.Muxammedova*  
*O'zDSMI "Folklor va etnografiya"*  
*kafedrasi dotsenti v.b.*  
*+998332084748*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Qo'qon yallachilik san'ati va "Qo'qon yor-yori" folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi ijodiy faoliyati hamda folklor-etnografik jamoalarning folklor ijrochilik san'atida tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** An'ana, qadriyatlar, urf-odat, xalq ijodi, ijrochilik san'ati, folklor-etnografik jamoasi.

### **Annotation**

This article discusses the art of Kokand folklore and the creative activity of the folklore and ethnographic amateur group "Kokand yor-yori" and the role of folklore and ethnographic groups in the folk art of performance.

**Key words:** Traditions, values, customs, folk art, performing arts, folklore and ethnographic community.

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'ana, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab etadi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajriba va zamonlar, avlod sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar "milliy qadriyatlar" deyiladi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

O‘zbek xalqining asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga ehtirom, o‘z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o‘tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat- ko‘rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushga poklikka alohida e‘tibor berish singari ko‘plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi.

Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlab ko‘chmanchilikdan o‘troq hayot kechirishga o‘tgan, shunday hayot tarziga o‘rgangan. Odamlar o‘zi o‘rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbaalarini qadrlashni, asrashni, avaylashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligining muhim manbai hisoblangan. Bunday o‘troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo‘lib, bir-biriga yelkadosh bo‘lib yashashiga, mehnat qilishi, mehnat mas‘ullarini o‘zaro ayriboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa, qishloq xo‘jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg‘ilon, Termiz va Qo‘qon singari o‘nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o‘lchanishi ham bejiz emas.

Shaharlar rivojlanishi jarayonida insonlar o‘zining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yaxshilab borishgan. Bu jarayonda ular o‘zining ma‘naviy boyligini ham o‘stirib borgan. Ana shu jarayonlardan xalqimizning milliy urf-odatlarini shakllana borgan. Mana shunday an‘analarga misol qilib, to‘y marosimlarimizda ijro etiladigan “yor-yor” qo‘shig‘ini keltirilishimiz mumkin.

“Yor-yor” o‘zbek nikoh to‘ylari folklorining musiqiy janri hisoblanadi. Uning paydo bo‘lishi, janr tabiati va atamasi, qo‘shiqning semantikasi haqida folklorshunoslikda ko‘pgina fikrlar bayon etilgan. Yor-yorlar nikoh to‘ylarining ikkinchi bosqichi - qiz uzatish kechasi aytiladigan qo‘shiqlardan biri hisoblanadi. Yor-yor mavzusi nihoyatda keng bo‘lib, ularda kelin va kuyovning ta‘rif-u tavsifi, ularning ahil yashashi, shirin turmush qurishlariga undash, turmushda bo‘ladigan achchiq-chuchuklarga sabr-qanoat qilishi kabi ohanglar bilan bir qatorda qizning ota-ona bag‘ridan chiqib, sinalmagan xonadonga borishi va shu bilan birga kelin bo‘lishdek baxtga muyassar bo‘lgan qizga dugonalarning va boshqalarning orzu-havaslarini ham bayon etiladi.

“Yor-yor” ijrosining murakkabligi shundaki, yor-yorchi ayollar qo‘shiqni xolis sifatida qizning o‘zi yoki dugonasi tilidan aytishadi. Yor-yor qo‘shiqlari xalq orasida qadim-qadimdan mavjud bo‘lib, ularning namunalarini Muzayyana Alaviyaning “O‘zbek xalq marosimlari qo‘shiqlari” kitobida ham anchagina yoritilgan.

Yor-yorlarning mavzu doirasi juda keng bo‘lib, unda goh hazil, goh quvnoq, goh yengil yumor, goh achchiq hajviya ohanglari uchraydi.

O‘zbek yor-yorlari ijro uslubi va musiqiy tabiatiga ko‘ra, bir necha xillarga bo‘linadi. Hozircha ularning Farg‘ona, Zarafshon, Xorazm yor-yorlari kabi turlari bor. Ularning har biri kuy tuzilishi tartibi, ohang xarakteri, ritmi, ijro uslubi, shevasi va emotsional ta‘sirchanligi bilan farq qiladi.

Yurtimizda o‘zbek folklor san‘atini yoshlar shuuriga singdirishda faol mehnat qilayotgan ko‘pgina folklor ansambl jamoalari: “Bo‘ston”, “Yor-yor” (Namangan

viloyati), “Gulyor”, “Munojot” (Toshket viloyati), “Nozanin”, “Mohi-sitora” (Buxoro viloyati), “Avazxon”, “Doston” (Xorazm viloyati), “Besh qarsak”, “Yor-yor” (Navoiy viloyati), “Gashtak”, “Zomin sayqali” (Jizzax viloyati), “Gavhar” (Toshkent shahri), “Kabutar, “Qo‘qon yor-yori” (Farg‘ona viloyati), “Miras”, “Besparda” (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) [1, 25] misolida o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining azaliy udumlari bo‘lmish oliyjanoblik, insoniylik, ona vatanga sadoqat, mehr-saxovat kabi qadriyatlarini ommalashtirishda, komil insonlarni tarbiyalashda qadriyatlarimizni yoshlar turmush tarziga singdirishda, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazishda barakali va xayrli ijod qilib, o‘z ijodlarini turfa xil ko‘rinishlarda namoyon qilayotgan jamoalarning ish usullarini targ‘ib etish maqsadga muvofiqdir.

Men shulardan Qo‘qonda “Folklorimiz onaxoni” Rahimaxon Mazohidova tomonidan tashkil etilgan “Qo‘qon yor-yori” folklor-etnografik jamoasi haqida o‘z fikr-mulohazalarimni bayon etmoqchiman.

Bu folklor-etnografik jamoa dastlab, 1981-yil “Omon yor” nomi bilan Rahimaxon Mazohidova boshchiligida faoliyat ko‘rsatgan. Hozirda esa “Qo‘qon yor-yori” folklor-etnografik jamoasi 2003-yil Rahimaxon Mazohidova maslahati bilan Xursanoy Qodirova tashkil etgan. Shu yilda Qo‘qon tasviriy va amaliy san‘at kollejida “Novda niholim” folklor to‘garagini ham tashkil etgan. Rahimaxon nomidagi “Qo‘qon yor-yori” folklor-etnografik jamoasiga 2008-yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan “Xalq havaskorlik jamoasi” unvoni berilgan.

Qo‘qon yallachiligi aytimlarining mavzularida ko‘pincha ayollar turmush o‘rtoqlarini maqtasalar, qizlar esa sevgan yorlarini ijobiy xislatlarini, kelishgan qaddiqomati va aqli rasoligini bayon etadilar. Xususan, “O‘ynasin”, “Omon yor”, “Shaydini shaydo”, “Aka dudultoy”, “Do‘qi, do‘qi, do‘q”, “Kel, bo‘yingdan o‘rgilay” va “Do‘st, menga ishonma” yallalari sho‘x, raqsnamo tarzda kuylanib, ayollarning vafodor yorlaridan xursandliklarini aks ettiradi.

Qo‘qon ijodiy maktabining asosiy jihatlaridan biri shundaki, hazin kuy ohanglari nisbatan salmoqli (3/4, 4/4, o‘lchovli) raqs usullari bilan payvasta bo‘lgan ashula sifatida ustuvordir.

#### **“Do‘qi, do‘qi, do‘q” ashulasi:**

Do‘qi, do‘qi, do‘q olamda yo‘q  
Bizday go‘zali dunyoda yog‘a voy doda  
Do‘qi, do‘qi, do‘q olamda yo‘q  
Sizday bezori dunyoda yo‘g‘a yana doda  
Beqasam to‘nlar kiyib man sizni yor  
Kuyduraman-a voy doda  
Marg‘ilon adras kiyib yal-yonib  
Yondiramana voy doda [5, 25].

Bu qo‘shiqda qiz o‘zining chiroyliligini, yorning nozlari bilan, go‘zalligi bilan kuydirishini aytib o‘tyapti. Naqoratida esa o‘zining dunyoda yagona go‘zalligini ta’kidlab o‘tyapti. Yorini esa dunyodagi eng bezori yigitligini ta’riflab o‘tmoqda. Bu “bezori” so‘zi salbiy ma’noda emas, balki yorini “bezori” deya erkalab hazil ohangda



tasvirlayapti. Keyingi qatorda qiz yana o'zini maqtashga o'tib, egnidagi adras ko'ylagini maqtaydi.

“Qo‘qon yor-yori” folklor-etnografik jamoasida hozirgi kunda 48 nafar ishtrokchi faoliyat yuritadi. Ulardan 39 nafari talaba yoshlardir. Jamoa yildan yilga o‘zining repertuarini boyitib bormoqda. “Jamoa xalq ijodining bebaho namunalari bo‘lgan milliy qo‘shiqlarimizni yoshlarda tug‘ilib o‘sgan, voyaga yetgan zaminiga muhabbat, ibratli an‘ana va qadriyatlarimizga xurmat tuyg‘ularini shakllantirishda xizmat qilib kelmoqda”, - deydi “Qo‘qon yor-yori” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi badiiy rahbari Xursanoy Qodirova.

Xalqimizning azaliy turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlarini, ko‘nikmalari, beqiyos badiiy boyliklarini asrashga alohida e‘tibor qaratilayotgani, milliy qadriyatlarimiz, xalq og‘zaki ijodi namunalari tiklash, ezgulik, mehr-muxabbat bilan yo‘g‘rilgan qadriyatlarimizni asrash jarayonida mana shunday folklor-etnografik jamoa va ansambllarining o‘rni beqiyosdir. Mana shuni nazarda tutgan holda, folklor -etnografik jamoalarining ishlarini yana rivojlantirish, ularni moddiy va ma‘naviy- texnik bazalarini kengaytirish, hamda bunday jamoalar, nafaqat kuy-qo‘shiq ijro qilish bilan birga balki, o‘z viloyatining milliy qadriyatlarini o‘rganishi va targ‘ib qilishi kerak deb o‘ylayman. Zero, o‘z tarixini o‘rgangan avlodlar xech qachon kam bo‘lmaydilar.

#### **Adabiyotlar:**

1. S.Yo‘ldasheva. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti. T.: Navro‘z – 2014. 162.
2. Tuzuvchi va mas‘ul muharir: S. Yo‘ldasheva. Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar. Ilmiy seminar materiallari. T.: Navro‘z 2014. 191.
3. Tuzuvchi va mas‘ul muharir: S. Yo‘ldasheva. O‘zbek xalqining milliy folklor san‘ati va etnomadaniy qadriyatlari. Ilmiy to‘plam. T., Navro‘z 2014. – 184.
4. M.Jo‘rayev. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. Toshkent.: “Fan” nashriyoti. 2008. 291-b.
5. “Qo‘qon yor-yori” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi repertuaridan.
6. <http://ziyonet.uz>

## O‘ZBEK MILLIY BOSH KIYIMI DO‘PPINING KELIB CHIQISH TARIXI HAMDA TASNIFI

**Xolmo‘minova Zulnigor,**

O‘zDSMI (folklor va etnografiya) ta’lim yo‘nalishi  
1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna,**  
“Folklor va etnografiya” kafedrasida o‘qituvchisi  
+998909207444

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘zbek milliy bosh kiyimi do‘ppi haqida bayon qilingan bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi, O‘zbekiston hududidagi barcha turdagi do‘ppilar haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** do‘ppi, an‘anaviy, milliy, bosh kiyim.

### **Annotation**

This article describes the Uzbek national doppi headdress, its history and all types of doppi in Uzbekistan.

**Keywords:** doppi, traditional, national, headdress.

O‘rta Osiyoda, xususan O‘zbekistonda erkaklar bosh kiyimining tipik an‘anaviy, qulay va eng keng tarqalgan turi bu do‘ppi. Hozirda ham shunday bo‘lib kelmoqda. Do‘ppining turma-tur shakllari mavjud. “Do‘ppi” deganda biz boshga yopishib turadigan uncha katta bo‘lmagan dumaloq qalpoqchalarni tushunamiz. Do‘ppini 1917-yilga qadar faqat erkaklar kiyganalar (1, 226).

Do‘ppining turlaridan biri arakchin – ichki bosh kiyim bo‘lib, ustki do‘ppi yoki qalpoq – mo‘ynali yoki kigiz qalpoq ostidan kiyiladi. Xorazmda arakchin mo‘ynali shapka ostidan, shuningdek uyda ham kiyilgan shuning uchun ular do‘ppi kabi to‘q qizil rangli bo‘lib, kashta bilan bezatilgan.

L.Budagov Tsenkerga (Sengi-Laxi lug‘ati) tayangan holda bu so‘z turkcha “tube”, “tupe” (cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma‘nosida uning ikki variantini – “Tubetay va tuppi”ni keltiradi. Buxoro, shuningdek, Samarqand voxasida do‘ppini ifodalash uchun tojikcha atama “kallapo‘sh” (“kalla”-bosh va “po‘sh” – “po‘shidan” – kiyimoq berkitmoq fe‘lning o‘zagi) so‘zidan foydalanilgan (1, 227).

Samarqand va Urgutda shahar-tumanning ham tojik, ham o‘zbek aholisi do‘ppini atash uchun turkcha “qalpoq” so‘zini ishlatadi.” Do‘ppi shakli bo‘yicha konussimon, sferik va yassi do‘ppilarga bo‘lish mumkin. Qadimda do‘ppining konussimon shakli ancha keng tarqalgan bo‘lib, bu shakl Toshkent, Samarqand, Shaxrisabz, Qarshi, Buxoro va Surxandaryo do‘ppilariga xos (buni eng avvalo bu mintaqada erkaklarning salla o‘rashi bilan tushintirish mumkin). Do‘ppining sferik shakli uncha keng tarqalmagan (asosan Urgutda). Yassi do‘ppi Farg‘ona vodiysi uchun xos bo‘lgan. Uni tagi dumaloq emas, kvadrat qilib bichilgan, natijada do‘ppida 4ta aniq

qirra hosil bo'lgan. Do'ppining bunday bichimi keyinchalik butun O'zbekistonga tarqalgan va bosh kiyimning umummilliy shakli sifatida shakllanishi uchun asos bo'lgan (1, 227).

Do'ppining konussimon shakli keng tarqalgan bo'lib, uning ildizi chuqur tarixiy an'analariga borib taqaladi. Vaqt o'tishi bilan do'ppi tayyorlash texnikasi takomillashib bordi. Bosh kiyimini yassiroq qilish va balandligini kamaytirishga intilish yo'nalishi ko'zga tashlandi. Hozirda Respublikada keng tarqalgan alohida texnika yordamida ishlab chiqila boshlandi. Ilgari O'rta Osiyoda paxta qaviq (pilta) qo'llanilgan. Uning qog'oz piltaga almashtirilishi faqat XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida mumkin bo'ldi (1, 228).

Do'ppining eng an'anaviy va qadimiy turlaridan biri bu Shaxrisabz do'ppilari bo'lib, unga qog'oz pilta qo'yilmagan. Uning aniq konussimon shakli do'ppining tagi o'ziga xos bichilishi bilan hosil bo'ladi. U tog'ri doira shaklida bichilib, undan bir bo'lak kesib olinadi.

Shaxrisabz do'ppilarining qadimiy namunalarini ancha yangilari bilan qiyoslash ularda yuqorida qayd etib o'tilganidek, qalqonsimon shaklidan voz kechish va uni yassi shapkaga aylantirishga intilishni aniqlash imkonini beradi. O.A.Suxarevaning fikriga ko'ra "O'rta Osiyo do'ppilari badiiy bezatilishi bo'yicha ko'plab mahalliy variantlarga ega bo'lib, ularni ba'zi umumlashtirishlar bilan 5 ta guruhga bo'lish mumkin" (1, 228).

Birinchi guruhni naqshlari do'ppi tepa qismining 4 tominiga joylashtiriladigan va o'zaro hech qanday birlashtirilmagan do'ppilar tashkil etadi. Do'ppi gardishining aniq ajralib turishi uning o'ziga xos tomoni bo'lib, gardish naqshi akasariyat hollarda markaziy maydonning naqshi bilan bog'lanmagan bo'ladi va gardish shaklini aniq ko'rasatib turish uchun hizmat qiladi. Gardish bo'ylab joylashgan naqsh bosh atrofida o'ziga xos toj hosil qiladi. Bu do'ppilarning umumiy belgisi to'q rangdagi asosda, ochiq rangdagi, ba'zida sof oq rangdagi naqshlar tikilishida bo'ladi. Ushbu uslubning barcha belgilari Chust do'ppilarida namoyon bo'lgan. U qora foni va undagi qizil garimdori yoki bodom quzog'ini eslatuvchi 4ta figura shaklidagi naqshi bilan ajralib turadi. Gardishning naqshi bir qator arkachalardan iborat bo'lib, ba'zan ichi mayda gul bilan tikib chiqiladi. Qo'qon do'ppilari huddi shunday, 4ta me'dalon, ba'zida qizil garimdori shaklidagi va bir-biri bilan o'zaro bog'lanmagan hamda do'ppi tepa qismida simmetrik joylashgan figuralar bilan bezatiladi. Bu do'ppilar uchun ham to'q fonda ochiq rangdagi naqshlar o'ziga xos xususiyatidir (1, 232).

Qadimiy Toshkent do'ppilari va uning eng an'anaviy turlari ham shu guruhga kiradi, ularda ham 4ta ochiq rangdagi element to'q asosda joylashtiriladi. Ushbu guruhdagi do'ppilar naqshining eng keng tarqalgan turi bu bodom yoki qizil garimdori quzog'i shaklidagi naqshdir. Uning kelib chiqishi naqshlarda qushlar tasvirlangan davrga borib taqaladi. O'rta Osiyo kashtadozligida keng tarqalgan qizil garimdori yoki bodom quzog'i bilan qo'shib ketgan. Marg'ilon do'ppilari bir oz uzunchoqroq va ingichkaroq bo'lgani bilan Chust do'ppilariga juda yaqin. Toshkent Qo'qonning do'ppilari ham qizil garimdori quzog' naqshining uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Chust do'ppilari bilan birga ikkinchi guruhga kiradigan va yorqin ko'p rangli naqshlari bilan turadigan, odatda, gullayotgan buta shaklidagi naqshlari va asosi butunlay yoki katakchalar hosil qiladigan oq rangdagi nuqtalar bilan tikiladigan do'ppilar keng tarqalgan. Bunday do'ppilarda gardish naqshlari do'ppining tepa qismi naqshlari bilan qo'shib ketadi va undagi butachalarning davomidek bo'ladi. Bunday do'ppilarning o'ziga xos belgilari tepa qismida kesishadigan va gardishda ham davom etadigan 4ta to'g'ri chiziqlarning mavjudligidir. Bunday do'ppilarda qushlar tasviri ham aks ettiriladi.

Do'ppilarning uchinchi guruhi – bu Shaxrisabz va Kitobning gilamnusxa do'ppilari. O'ziga xos konussimon shakli, oldingi turning ko'p rangli va juda quyuq naqshlariga nisbatan umuman o'zgacha bo'lgan yorqin rangli naqshlari hamda uslubi bilan ajralib turadi.

Shaxrisabz do'ppilari boshqa turlardan texnika bo'yicha ham ajralib turadi. U iroqi choki bilan (xoch va yarimxoch) tikiladi va o'zining badiiy tashqi ko'rinishi bilan ham xuddi shunday chok bilan tikiladigan Toshkent va Farg'ona do'ppilariga umuman o'xshamaydi. Shaxrisabz va Kitob do'ppilari gullarning kompozitsiyasi gul tikish texnikasi o'ziga xos xususiyatlari sanab yoki rasmga qarab tikishga bog'liqligi bilan 2 guruhga bo'linadi. Birinchi turi sanab tikiladigan naqsh kompozitsiyasi – “sanama” aksariyat hollarda ularning shakli bilan bog'liq bo'lmaydi. Naqsh bo'ylama qatorlar bo'ylab birin-ketin, elementma-element joylashtiriladi. Agar u butunligicha joylashma, shu buyum bichilgan va tikilgan mato bo'lagining guli kabi oxiriga etmasdan to'xtatiladi (1, 230).

Ikkinchi tur – Do'ppi kompozitsiyasi “chizma” deb ataladi va to'laligicha do'ppining shakliga boysundirilgan bo'ladi hamda doiradagi kompozitsiya kabi tuziladi. U do'ppining tepa qismi atrofida markazlashib va ikki chiziq bo'ylab: markazlashgan doira bo'yicha va vertikal bo'yicha joylashadi.

Do'ppilarning to'rtinchi guruhiga “piltado'zi” usulida naqsh solib bezatilgan do'ppilarni aytishimiz mumkin. Do'ppilarni tikish texnikasi uning usti va astari orasiga qaviq chiziqlari bo'ylab qattiq o'ralgan qog'oz, qadimda esa paxtadan pilta qo'yish natijasida hosil bo'lgan qirralarni to'ldirib gul solib tikishdan iborat bo'lgan. Bunday usulda tayyorlangan do'ppilar yarim ko'chmanchi o'zbeklar yashaydigan tumanlarda, Chelakda, Pasdarg'omda (Samarqand viloyati), Qarshi, Boysun va boshqa joylarda keng tarqalgan.

Beshinchi guruhga qimmatbaho matolar (parcha)dan tayyorlanadigan do'ppilarni kiritish mumkin. Ular, do'ppining chetlarini o'rab turadigan alohida tikiladigan tasmadan tashqari, naqsh solib bezatilmagan. Bunday do'ppilar, asosan, Buxoro va Xorazmda tarqalgan. Yuqorida aytib o'tilgan 5ta guruhdan tashqari ko'p joylarda yuqorida sanab o'tilganlar bilan bir vaqtda do'ppilarning bir qator turlari mavjud bo'lgan.

Buxoroda ikki variantda: erkaklar uchun tepasi uchli, ayyollar uchun tepasi yassi qilib tayyorlanadigan zardo'zi do'ppilarni shunday do'ppilar qatoriga kiritish mumkin. Toshkent shahrida ham do'ppilarni turli xillari mavjud bo'lgan. Ilgarigi mavjud mahalliy madaniyat shakllari o'rniga umummilliy badiiy madaniyatning yuzaga kelishi do'ppining 2 turi: Chust va Farg'ona (Xo'jakent-O'ratepa) turlari ilgarigi mahalliy

turlarni siqib chiqardi. Ular keng tarqaldi va shu bilan bir qatorda hozirda qora atlas, baxmalning to‘q ranglari qo‘llanila boshlandi. Do‘ppining umumilliy jixatdan tan olingan ikkinchi Farg‘ona (Xo‘jakent-O‘ratepa turining naqshlari o‘zgardi. Ko‘p bo‘yoqli naqshlarning rangli gullari kompozitsiya mazmuniga qat‘iy bo‘ysundirilgan va barcha 4ta gulni birlashtirib bitta umumiy markazga ega bo‘lgan holatda joylashadi.

Samarqand, Andijon, Farg‘ona va Toshkent chevarlari o‘z mahoratlarini shunday namoyon etdilarki, do‘ppilar kiritilgan barcha yangiliklarga qaramay o‘zining aniq grafik uslubini yo‘qotmadi.

Do‘ppilarning turlari hamda uslublari yuzaga kelishida Toshkent ham katta rol o‘ynaydi va bu, ayniqsa, XX asrning o‘rtalariga kelib yaqqol namoyon bo‘ladi. Toshkent do‘ppilari turlarining xilma-xilligi, turli-tumanligi, boyligi va katta badiiy mahorat bilan bezatilishi Respublika poytaxti aholisining turmushida yanada to‘la namoyon bo‘ladigan o‘zbek xalqining boy madaniyatini aks ettiradi.

O‘zbek ayollari XX asrning 20-yillarigacha do‘ppi kiyimaganlar. Do‘ppilarni faqat erkaklar hamda har ikki jinsga mansub bo‘lgan bolalar kiyganlar. Qizlar hayotida faqat bir marta - to‘y kuni go‘shangada, ya‘ni yoshlar: kuyov va kelin ikkovlari birgalikda o‘tkazadigan kechada do‘ppi kiyishgan. Go‘shangada kuyov kelina taqdim etgan uzuk va boshqa zeb-ziynatlar uchun minnatdorchilik sifatida kelin unga o‘zi bilan olib kelgan do‘ppini hadya qilgan va kuyov o‘zining do‘ppisini yechib, uni kelinning boshiga kiydirib qo‘ygan (1, 232).

Toshkentda va O‘zbekistonning boshqa shaharlarida satanglar, ya‘ni kiyinish va xulq-atvorda, erkaklarga taqlid qiladigan ayollar ham do‘ppi kiyganlar. Bu ayollarning do‘ppi kiyishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqargan

Oktyabr to‘ntarishidan keyin O‘rta Osiyo ayollari o‘zlarining bosh kiyimlarini tubdan o‘zgartirdilar: ro‘mol o‘rniga har xil naqshlar bilan bezatilgan do‘ppilar kiya boshladilar. XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonning barcha mintaqalarida do‘ppi kiyish rasm bo‘ldi. Bu paytda Toshkent va Farg‘ona vodiysida iroqi chok bilan tikilgan turli rangdagi do‘ppilar keng tarqalgan edi. Do‘ppi aksariyat hollarda Toshkentda yaratilar, tikilar hamda O‘zbekistonning boshqa mintaqalari bo‘ylab tarqalar edi. Toshkent chevarlari tikkan do‘ppilar badiiy uslubining ko‘p qirraligi, yangi texnikasi, yangi kashtachilik usullari bilan ajralib turadi (1, 229).

XX asrning 50-yillarida “Qizil gul” nomi bilan mashxur bo‘lgan do‘ppi ommaviylashgan edi. U ”Chakma tur” deb atalgan do‘ppining bir turi bo‘lib bir qancha umumiy, uslubiy belgilarga ega bo‘lgan. Bu do‘ppi juda quyuq va tiniq, yorqin bo‘yoqlarga boyligi bilan ajralib turgan. To‘p gullar baland qilib, bo‘rttirib gullari to‘ldirib “Iroqi” tikilgan “bunga paxtadan taglik qo‘yishga ham erishilgan” natijada manzarali taassurotga hajmiy taassurot ham qo‘shilgan. Ularning orasi esa keyingi 10 yilliklarda yaratilgan kanda-hayol choki bilan tikib to‘ldiriladi. Bu chok relifli to‘rsimon yuza hosil qiladi. Manzaradorligi, ranglarning yorqinligi va ochiqligi, gulining malina rang tusi barg elementlarining yashil tuslari bilan qo‘shilib ketishi, ochiq yashil va oq asosi hamda to‘q qora duxoba gardishi bilan ”qizil gul” do‘ppilari o‘zbek do‘ppilari ichida badiiy jixatdan eng qiziqarli do‘ppi turlaridan biriga kiradi. Bu davrda Toshkentda xoch usulida tikilgan do‘ppilar keng tarqaldi. Atirgullar to‘q

pushti rang bilan chatishib ketadigan to‘q qizil ipak bilan tikilgan. Keyingi namunalarda atirgul bilan birga do‘ppilarda boshqa mavzular ham tasvirlana boshladi. Shu davrning o‘zida bunday do‘ppilarning rangli kompozitsiyalariga ipak qurti kapalagi tasvirini kiritish boshlandi. Bunday gul “kapalaknusxa” deb ataldi. Kompozitsiyaning asosiy motivi-markazda joylashtiriladigan kattagina gul o‘zgara boshladi: atirgul bilan bir qatorda barglari sariq va binafsha rangda bo‘lgan kapalakgul paydo bo‘ldi. Ushbu texnika bo‘yicha tikilgan do‘ppilar xalq hayotida yuz berayotgan hodisalar aks ettiruvchi yangi tasviriy mavzular ham bor.

Do‘ppininig uslubi va naqshlari malakali, ma’lumotli rassom-manzarachilar (dekoratorlar) ba’zi hollarda shahardan chiqqan ziyolilar tomonidan yaratiladi. Birinchi bo‘lib bunday turdagi do‘ppilar respublikamizning boshqa mintaqalarida Toshkentdan tayyor namunalarni olib chiqish yo‘li bilan tarqaladi. Bu do‘ppilar keng tarqalib urf bo‘lgandan so‘ng ularni boshqa mintaqalarda ham tikish boshlanadi. Surxandaryo va Qashqadaryo, Boysunning kashta tikilgan do‘ppilari o‘ziga xosligi orginalligi bilan ajralib turadi. Boysunning gul tikilgan do‘ppilarining o‘ziga xos jixati - ranglari yorqinligi va bezaklarining o‘ziga xosligidir. Qizil, moviy, sariq ranglarning ko‘pligi Boysun kashtachilarning turli-tuman bosh kiyimlari hamda boshqa buyumlarida mujassamlashgan.

Mintaqa an’anaviy madaniyati kelib chiqishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topgan. Boysunning kashta tikilgan do‘ppilari bir-birini takrorlamaydi, ular uslubning nozikligi, barqaror an’analar va qonun-qoidalarga jiddiy munosabati bilan ajralib turadi. Uning asosiy o‘ziga xos xususiyati hayot bilan xalq urf-odatlarini va tasavvurlari bilan uzviy bog‘liqligida bo‘lib, uni nafis shakllarda aks ettiradi. Yuqorida bayon etilgan kashta tikilgan do‘ppilar – bu turli-tuman do‘ppilarning bir qismi, xolos. Biz ularning faqat keng tarqalgan turlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdik.

Hunarmand ayollarning go‘zallikka mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandchilikdan eng yuqori san’at darajasiga ko‘taradi. O‘zbek do‘ppisi bezagining barcha elementlari – rangi, chiziqlari, rasmlari muhim ma’noga ega, ko‘pincha hayot va o‘lim, yer va Osmon, yorug‘lik va qorong‘ulik, yaxshilik va yomonlik kabi umumiy tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday bosh kiyimni chet ellik sayohlar, g‘ayrioddiy yodgorlik sifatida sotib olishadi, aksariyat insonlar hatto ular bilan o‘z uylarini bezashadi.

Yuqoridagi fikrlardan ilhomlangan holda Muhammad Yusufning “Do‘ppi” degan she’rini yodga oldik:

Do‘ppi kiymay qo‘ydi odamlar  
Bir shoir bir Nosirdan boshqa  
Sochlar silliq  
Silliq qadamlar  
U og‘irlik qilyapti boshga  
Rost do‘ppilar yolg‘on do‘ppilar... (3, 68).

Bu she’rni shoirimiz Muhammad Yusuf bejiz yozmaganlar. Bugungi kunda boshda do‘ppini faqat ayrim holatlarda: oilaviy tantanalar, dafn marosimlari yoki bayramlarda ko‘rishimiz mumkin. Ammo bundan bir necha yil oldin do‘ppi O‘rta

Osiyoda asosiy bosh kiyim turi bo'lgan Uni erkaklar va ayollar, bolalar va qariyalar ham kiyishgan.

2021-yilga kelib esa Madaniyat vaziri O.Nazarbekov ham O'zbekistonliklarni 8-dekabr Konstitutsiya kuni bilan tabriklar ekan, Vazir mazkur tashabbus orqali milliy an'analarni targ'ib etishda, do'ppi namuna bo'lishini ta'kidladi hamda "Do'ppi" chelenchini o'tkazishda bosh qosh bo'lib berdi. Zero, bu tashabbus ila yosh avlod qalbiga milliy qadriyatga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada oshishi uchun bir ko'prik vazifasini o'ta olsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi degan umiddamiz.

#### **Adabiyotlar:**

1. Sodiqova.N., G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX–XX asrlar. Toshkent., "Sharq", 2014. 226-238 b.
2. "Toshkent" telekanali, "Toshkentnoma" ko'rsatuvdagi suhbat.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma: she'rlar. dostonlar. xotiralar. – T.: "Sharq", 2007.

### **BAXSHICHILIK SAN'ATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xaydarova Mohinur Eshmo'minovna**

e-mail address. [Xaydarovamohinur2@gmail.com](mailto:Xaydarovamohinur2@gmail.com)

Tel: +998977475446.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Folklor va etnografiya" mutaxassisligi 1-kurs magistranti

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'zbek folklorining noyob durdonalaridan bo'lgan baxshichilik san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bugungi kunda mazkur san'at turining o'rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Baxshi, shoir, epik ijod, sinkritik ijod, badihago'y, jirov, otin.

#### **Аннотация**

В данной статье рассматривается искусство бакши и его особенности, одного из уникальных шедевров узбекского фольклора. Сегодня высказываются мнения о роли и значении этого вида искусства.

**Ключевые слова:** Бакши, поет, эпическое творение, синкритическое существо, импровизация, жиров, отин.

O'zbek folklorining eng go'zal namunalaridan biri bo'lgan baxshichilik san'ati, juda qadimgi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Og'zaki epik an'analarni davom ettirishda, kelgusi avlodga yetkazib berishda baxshilarning o'rni va ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Shu o'rinda dastlab baxshi so'zining lug'aviy ma'nosi bilan tanishib olsak. " «Baxshi» so'zining «O'zbek tilining izohli lug'ati»da to'rt xil ma'nolari mavjud bo'lib bular: donishmand, dostonlarni kuylovchi, dam solib davolovchi tabib, Buxoro xonligida qurilish mablag'ini nazorat qiluvchi shaxs. Yuqoridagi to'rt ma'nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli.

Chunki xalq orasida baxshi bo'lish uchun inson donishmand, aqlli bo'lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta'kidlanadi. Ikkinchidan, «baxshi» xalq dostonlarining ijrochisi. Uchinchidan, ibtidoda baxshi va shomon yagona tizimda qaralgan va so'zning mo'jizaviy magik fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig' qiluvchi shaxs hisoblangan. O'zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning malumot berishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha «baxsha», «bag'sha» so'zlaridan olingan bo'lib, «ustod», «ma'rifatchi» ma'nolarida qo'llangan" [1].

Bundan ko'rinib turibdiki baxshilar qadim zamonlardan yuksak hurmat, e'tiborga loyiq insonlar bo'lishgan. Xalq doim ularni e'zozlab, ilohiy qudratga ega ekanliklariga ishonishgan.. Ular bir vaqtni o'zida tabib, donishmand, ustod va hattoki folbinlik vazifasini ham bajarganlar va bu jarayon uzoq vaqtlar davom etib kelgan. Keyinchalik esa sekin asta baxshilarga bo'lgan qiziqish pasaya boshlagan. Balki bunga ommaning eposlarimizga bo'lgan qiziqishining susayishi hamda boshqa san'at turlarining rivojlanishi ham turtki bo'lgandir?! Epik asar namunalarini keng omma orasida kuytash, ularni yanada boyitib, xalqqa yetkazishda har doim baxshilar yetakchilik qilganlar.

“Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyan Alaviya, Muhammadnodir Saidov kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, XIX asr va XX asr boshlarida o'zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo'lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzga yaqin (variantlari bilan to'rt yuzdan ortiq) nusxalarini yozib oldilar"[2]. Doston sinkritik san'at namunasi bo'lib, bir kishilik o'ziga xos teatr sanaladi. Baxshilar bir vaqtning o'zida ham sozanda, ham kuylovchi, shu bilan bir qatorda aktyor va rejissyor vazifasini bajaradi. U tinglovchining diqqatini o'ziga jalb qilib, asar voqealari ichiga tortib keta oladi. Tomoshabin dostonni eshitish jarayonida voqealar xuddi ko'z oldida sodir bo'layotgandek tuyuladi. Albatta bularning barchasi baxshining mahorati va badihago'yiligiga bog'liq. U doston ijrosi davomida barcha qahramonlar, personajlar obrazini tomoshabinga mahorat bilan yetkazib beradi. Baxshi keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkordir. Doston ijrochilarini Yetuk baxshilar, badihago'y, epik an'ana doirasida o'zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni yarata bilgan ijodkorlarga nisbatan shoir nisbati ham qo'shib aytilgan. Masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'ltan shoir, Abdulla shoir kabi.

Doston kuylovchilar yurtimizda turli nomlar bilan ataladi. Jumladan: Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim hududlarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, ba'zi joylarda sozanda, Farg'ona vodiysida sannovchi, Xorazmda xalifa, Qoraqalpog'istonning ayrim joylarda jirov, jirchi, yana ba'zi hududlarda esa oqin, oxun deb ham atashadi. Biroq baxshichilik barcha viloyatlarda ham keng tarqalmagan. Asosan Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Xorazm va Qoraqalpog'iston respublikasida anchayin rivojlangan. Bu hududlarda hozirgi vaqtda ham to'y-tomoshalar, bayram va marosimlar baxshilar ishtirokisiz o'tmaydi. Diyorimizning boshqa hududlarida baxshichilik nisbatan kamroq uchraydi. Biroq so'ngi vaqtlarda baxshichilik san'atiga qiziquvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Turli viloyatlarda ushbu san'atni o'rganish maqsadidagi yoshlar ko'paymoqda. Bunga sabab yurtimizda ushbu san'atga bo'lgan e'tiborning ortishidir.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 1 noyabrdagi qaroriga binoan ilk marotaba tashkil etilgan “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivali fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. Darhaqiqat bunday festivalning yaratilishi folklor sohosi vakillarini nihoyatda xursand qildi desak adashmagan bo‘lamiz. Yangidan-yangi ijodkorlar, yuksak qobiliyat sohiblari mazkur tanlovda kashf qilindi. Biz bilmagan, tanimagan baxshilarni xalqqa namoyon qildi. Unutilib borayotgan san’atimizni, an’ana va qadriyatlarimizni tikladi. Bundan tashqari ko‘plab yangi dostonlar va termalarning yozib olinishiga erishildi. Bu esa keyingi avlod uchun folklor manbalarini yanada boyishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

2021-yilda esa Baxshichilik san’ati YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritilishi xalqimiz uchun nihoyatda quvonchli xabar bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur voqea yurtimizda baxshichilik san’ati doirasida olib borilayotgan ishlarning yanada rivojlanishiga, taraqqiyotiga xizmat qiladi desak adashmagan bo‘lamiz. Darhaqiqat ushbu san’at ixlosmandlari soni kun sayin ortib bormoqda, bu esa milliy eposlarimizga bo‘lgan yuksak hurmat, g‘urur-iftixor namunasidir. Yurtimizda ilk bor Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tarkibida alohida “Doston ijrochiligi” kafedrasining tashkil etilishi, mamlakatimizda professional baxshilarni yetishib chiqaradigan katta bir maktabning yaratilishiga asos bo‘ldi. Musiqa va san’at maktablarida joriy qilingan baxshichilik to‘garaklarida esa o‘quvchilar iste’dodli baxshilar tomonidan ustoz-shogird an’analari asosida ushbu san’atning sir asrorlarini chuqurroq o‘rganib kelishmoqda. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki: baxshichilik san’ati xalqimiz uchun hamisha ahamiyatli va qiziqarli san’at bo‘lib kelgan. Bu borada olib borilayotgan ishlar ko‘lamining kengligi esa ushbu san’atga bo‘lgan talabning yanada ortganidan dalolatdir. Ammo bu yetarli degani emas.

Biz o‘sib kelayotgan yosh avlodga milliy eposlarimiz haqida yanayam ko‘proq ma’lumot berishimiz va baxshichilik san’atiga to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz lozim. Sababi so‘ngi paytlarda tele ekranlar orqali ushbu san’atni noto‘g‘ri talqin qilayotgan yoshlar ham uchramoqda. Ular aynan bir doston yoki terma aytmasdan, oddiy lirik qo‘shiqlarni yopiq ovozda kuylab o‘zlarini baxshi deb tanitishmoqda. Bu esa xalq orasida ushbu san’atning tub mohiyatini noto‘g‘ri anglashga sabab bo‘lishi mumkin. Yoshlarimiz ongida yanglish tushunchalar paydo bo‘lishi esa bu san’atni buzilishiga olib keladi. Baxshichilik qadimdan ilohiy qobiliyat hisoblangan. Har qanday kishi baxshi bo‘lavermaydi. Buning uchun unda nihoyatda kuchli xotira, bilim va ishtiyoq bo‘lishi lozim. Alloh tomonidan yuqtirilgan iste’dod bo‘lmasa bu kasbni egallash anchayin mushkul ish sanaladi. E’tibor beradigan bo‘lsak qadimda baxshilarimiz 100 ta 200 ta dostonlarni yoddan bilishgan. Bir dostonni ijro qilish uchun kunlar hattoki oylar sarf qilingan. Bu esa baxshining naqadar yuksak xotira egasi ekanligidan darak beradi. Ushbu san’at tinglovchilari ham oddiy insonlar emas, g‘oyat bilimli hamda madaniyatli kishilar bo‘lishgan. Chunki bir asarni tinglash uchun kunlar mobaynida quloq solib eshita bilish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun inson anchayin sabrli va bilimli bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish va xalqchilligini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarida ham bir qator ishlarni amalga oshirish kerak deb hisobliyman. Xususan,

-o'rta ta'lim maktablarida baxshilar tomonidan mahorat darslari olib borilib, ushbu san'at to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilib, millatimiz uchun baxshichilikning ahamiyati haqida seminarlar o'tkazish;

-“Madaniyat karvoni” loyihasi tarkibida ustoz-shogird an'anasidagi baxshichilik chiqishlarini sonini ko'paytirib, mahallalarda konsertlar uyushtirish;

-Xususiy telekanallarda baxshichilik haqidagi ko'rsatuvlarni ko'proq yoritish.. Sababi davlat telekanallaridan ko'ra xususiy telekanallarning tomoshabini anchayin ko'proq;

-Har chorakda madaniyat markazlarida musiqa va san'at maktablari hamda doston ijrochiligi kafedrası talabalari bilan hamkorlikda gastrol konsert dasturlarini tashkil etish.

Mazkur ishlar amalga oshirilsa xalqimiz baxshichilik san'ati haqida yanada chuqurroq bilimga ega bo'lishlari hamda, millatimiz uchun bu san'atning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglashlarida muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zeroki “Xalq og'zaki ijodining ushbu go'zal va betakror namunasi mamlakatimizda ming yillar davomida rivojlanib, baland cho'qqilarga ko'tarildi. Baxshichilik san'ati yurtimizdagi turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro hurmat, bir-birini tushunish va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash yo'lida beminnat xizmat qilib keldi va bugungi kunda ham bu sharafli vazifani to'la ado etmoqda. Yoshlarni ona yurtga, milliy madaniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni adolat va insoniylikka chorlash, barkamol avlod bo'lib voyaga yetishida ezgulik elchilari bo'lgan baxshi, oqin va jirovlarning o'rni va ta'siri beqiyosdir”[3]. - deb ta'kidladi muhtaram prezidentimiz baxshichilik YUNESKO merosi ro'yxatiga kiritilgani munosabati bilan yo'llagan tabrigida.

#### **Adabiyotlar:**

1. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san'ati an'analari. B.Sayfullayev, S. Yo'ldosheva, J.Eshonqulov, A.Ashirov. O'.Toshmatov. Navro'z-2017 24-25 bet
2. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. T.Mirzayev - T: Fan-1981. 21-37-B
3. Prezident Sh. Mirziyoyev. Baxshichilik YUNESKO merosi ro'yxatiga kiritilgani munosabati bilan yo'llagan tabrigidan.

# FOLKLOR IJROCHILIGIDA QO‘LLANILADIGAN CHOLG‘ULARNING BOSHQA XALQ CHOLG‘ULARIGA O‘XSHASHLIK JIHATLARI

**Hasanov Og‘abek Xurshidjon o‘g‘li,**  
O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti  
Xalq ijodiyoti: (folklor va etnografiya) ta’lim  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: **Davronov Bekzod Diyor o‘g‘li,**  
O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrası  
katta o‘qituvchisi  
+998914747554

## **Annotatsiya**

Musiqqa madaniyatini rivojlanishida musiqqa cholg‘ularining o‘rni katta. Chunki, musiqqa bevosita cholg‘ularni chalish natijasida yuzaga keladi. Har bir yurtda (davlatda) o‘ziga xos, uning madaniyati, tarixiy takomillashuvini namoyon etadigan musiqqa cholg‘ulari mavjud. Bunday cholg‘ular musiqqa madaniyatida o‘z mavqeiga ega bo‘lishi bilan bir qatorda asrlar davomida rivojlandi, takomillashdi. Bir mamlakatda kashf etilgan cholg‘u boshqa hududlarga olib borilib u yerlarda ham yangi-yangi ko‘rinishlarni kasb etdi, rang-barang xususiyatlarga ega bo‘ldi va “qo‘nim topgan” maskanining milliy qirralarini ochib berishga “yo‘naltirildi”. Xususan, Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan qadimiy cholg‘ular jahon musiqqa cholg‘ularining takomillashuviga va yuzaga kelishiga omil bo‘lgan. Shu bilan birga,

**Kalit so‘zlar:** Musiqqa, milliy, orkestr, cholg‘u, folklor, tembr, ansambl

## **Annotation**

The role of musical instruments in the development of musical culture is great. Because, music occurs directly as a result of playing the instruments. Each land (state) has its own, its own culture, musical instruments that demonstrate historical perfection. Such musical instruments have developed, improved over the centuries, along with their status in the culture of music. The instrumental, discovered in one country, was taken to other regions, where it also acquired new looks, acquired colorful features and was “directed” to reveal the National facets of the settlement.

**Keywords:** Music, national, orchestra, musical instrument, folklore, timbre, ensemble

Insoniyat tarixida kuzatilgan turli xil voqea va hodisalar, yil sayin, asrlar sayin hayotga tadbiiq etilgan yangiliklar va o‘zgarishlar jamiyatning yangi qirralar kasb etishiga, xalqlarning o‘zaro tajriba almashishlariga olib keldi. Madaniy rivojlanish, xalqaro aloqalarning yo‘lga qoyilishi natijasida musiqqa cholg‘ulari ham bir xalq madaniyatidan boshqa xalqlar madaniyatiga “ko‘chib o‘tdi”, takomillashdi, yangi-yangi ko‘rinishlarni kasb etdi. Va albatta, musiqqa cholg‘ulari har bir xalqda o‘ziga xos nomlarga ega bo‘ldi.

Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan kamonli torli cholg'ulardan G'ijjak Qo'biz va cholg'usidir.

Qo'biz cholg'usi Markaziy Osiyo mintaqasidan tashqari Ozarbayjonda, Armaniston, Turkiyada keng qo'llaniladi. Markaziy Osiyoda ikki torli qo'biz, qil-qo'biz bo'lsa, Turk, Ozarbayjon, armanlarda uch torli golcha qo'biz mavjud. G'ijjak cholg'usi oilasiga arab rebabi, turk kemanchasi, hind sarangisi, kavkaz xalqlarining kema, chagane, chuniri cholg'ulari, xitoy erxu, banxu va xutsinlari, slovyan jigasi, bolgar gadulkasi, frantsuz pasheti, ispan fideli, britaniya krottasi, yevropa skripkasi kiradi. Bu cholg'ular dastasi pardalarga bo'linmaganligi sababli ijrochiga kuylarni xonish va nolalar bilan maromida ijro etishga imkoniyat yaratadi.

O'zi yangrovchi tilli chertma changqo'biz cholg'usining ham ko'pgina turlari mavjud. U boshqirdlarda umi, totorlarda qo'biz deyiladi. Qo'biz – ko'pgina mamlakatlarda vargan nomi bilan ham mashhur. Kambodjiya angkuti, Oltoy qomusi, Boshqirdiston, totor qo'bizi, Belorus, Bali varganlari, Nepal va Hindiston murchungasi, rus vargani (zubanka), yoqutlar xomusi, Gutsul drimbasi, vender dorombi o'z yurtlarida keng tanilgan. Ular bir-biridan hajmi, korpusining ingichka - yo'g'onligi, tilchasining yumshoq-qattiqligi bilan farqlanadi. Ayrimlarining (Bali varganida) tilchasida torlari ham bor.

T.Vizgoning kitobida Markaziy Osiyo hududidan **surnaysimon** cholg'ularning ham dunyo bo'ylab tarqalganligi haqidagi fikr-mulohazalarni o'qiydiz. Unda surnaysimon Avlos (grekcha nomlanishi) cholg'usi, uning quvur qismi alohida, puflanadigan qismi alohida tayyorlanishi, ya'ni asosiy tovush surnay va goboydagi singari "nay pachoq" qismi bilan bog'liq ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan. Greklarning yana bir damli cholg'usi - Pan fleytasi (grekcha) esa bir-biriga birlashtirilgan quvurlardan iborat bo'lib, ularning har birida alohida tovush hosil qilinishi aytib o'tilgan. Uning nomlanishi grek xudosi Pan nomi bilan bog'liq bo'lib, ushbu Xudo doimiy ravishda mazkur cholg'uni ushlagan holda tasvirlanadi. Farmerning "... greklar Sharqqa bergandan ko'ra ko'proq narsani olgan" degan fikridan, grek mualliflari bu cholg'ular ularning yurtiga Sharq mamlakatlaridan kirib kelgan, degan so'zlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bu ikki cholg'uning asl vatani Markaziy Osiyo ekanligi ayon bo'ladi. Hozirda avlos va Pan fleytasi turidagi cholg'ular Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Koreya, Yaponiya, Turkiya kabi bir qator Sharq xalqlarida uchraydi.

Markaziy Osiyo surnaylarining qarindoshlari orasida hind **shexnayi**, turk, ozarbayjon, armaniston, qurdlar **zurnalarini**, kavkaz xalqlari **dudukini**, yaponlar **xidiriki** va **fuesini** aytib o'tish lozim. Bu cholg'ular o'zining baland va jarangdor yangrashi, yuqori registrlarni chala olishi bilan ajralib turadi. Ular asosan ochiq havoda chalinadi.

Karnay cholg'usi milliy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. U o'ziga xos chaqiriq, xabarchi vazifasini bajaradi. Boshqa xalqlarda ham uchraydigan mana shunday cholg'u **Trembita** deb nomlanadi. Bunday mundshtukli cholg'u ukrain, polyak, venger, xorvat, dalmat, rumin xalqlarida mavjud. Misli karnaydan farqli o'laroq bu cholg'u chaqmoq urgan daraxtlar po'stlog'idan yasaladi. Uzunligi 4 metrgacha, diametrik 30 mm. atrofida bo'lib, kengayib boradi. Trembitaning tor

tomon uchida metal tilcha qo'yiladi. Tilchaning hajmi tovushqatorning balandligini belgilaydi. Alp shoxlari ham bu cholg'uga o'xshaydi.

Qadimgi davrlarda keng tarqalgan urma zarbli musiqa cholg'ularidan biri bu **doyradir**. Markaziy Osiyo xalqlari orasida daff, dapp, deyra, debu, childirma, chirmanda, dov kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Uning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi ikki minginchi yilga borib taqaladi. O'tmish davrdagi doyralarning ko'rinishi va hajmi hozirgi o'zbek doyralaridan juda kam farqlanadi.

Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, Markaziy Osiyoda eramizdan uch ming yil oldin ham cholg'ular chetga tarqalgan yoki chetdan kirib kelgan hollari kuzatilgan. A.Nazarov doyraga sig'inish qadimgi turkiy xalqlar va Xitoy diniy an'analariga xos tog' va qoyalar ruhi bilan bog'liq odat bo'lishi mumkinligini qayd etadi. Haqiqatdan ham, doyra diniy marosimlarning eng muhim jo'rnavozi hisoblanadi. Bu hol ayniqsa shamanlar faoliyati bilan bog'liq. Shamanlar nafaqat Markaziy Osiyo, Xitoy davlatlarida, balki Rossiyaning shimoliy hududlarida ham mavjud.

Markaziy Osiyo doyralariga o'xshash cholg'ularni biz ko'pgina xalqlar madaniyatida uchramiz. Turk doyrasi ikki xil bo'ladi. Bular: gardish atrofida joylashgan kichgina doyrachaki doyra va gardishiga faqat teri tortilgan doyra. Ikkinchi ko'rinishi o'zbek doyralariga yaqindir. Biroq uning gardishi ichida milliy doyrimiz singari temir xalqachalari yo'q.

Nog'oralarning turli shakl va ko'rinishlari dunyo xalqlari musiqa madaniyatidan chuqur o'rin olgan. Xalq orasida qo'llaniladigan nog'oralarni yasash va ularni chalish qiyin emas. Shuning uchun ularning turlari juda ko'p va rang-barangdir. Afrika, Lotin amerikasida nog'oralarning har xil ko'rinishlarini uchratish mumkin. Yaponlarda tayko, xitoylarda bangu, paygu, hindlarda table, mridanga, kavkazlarda dxol, turklarda dumbek, darbuk kabi urma cholg'ulari mavjud.

Qo'sh nog'ora Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatidan tashqari hindistonda, ozarbayjonda keng rivojlangan. Bu cholg'ular hajmining katta-kichikligi, yasash materiali, yuziga tortiladigan teri tulari bilan ajralib turadi. Hind qo'sh nog'orasi barmoqlar va kaft bilan chalinsa, qolgan xalqlarda taxali tayoqchalar bilan chalinadi. Qo'shnog'oraning ovozi baland va jarangdordir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu yuqorida nomlari keltirilgan musiqa cholg'ulari folklor ijrochiligida keng qo'llaniladi. Xozirgi kunda ushbu cholg'ulardan bayramlarda, to'y marosimlarda keng foydalanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov aytganlariday, "Musiqqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi".

#### **Adabiyotlar:**

1. Akbarov II. Musiqqa lug'ati T., San'at 1990.
2. Belyayev V. Musikalniye instrumenti Uzbekistana. M., 1933.
3. Vizgo T. Muzikalniye instrumenti Sredney Azii. Istoricheskiye ocherki. M., 1980.
4. Karomatov F. Uzbekskeya instrumentalnaya muzika (naslediye).T., G. Gulyama, 1972.

5. Karomatov F. Cherti professionalnogo ispolnitelstva na srednevekovom Vostoke. Kultura Srednego Vostoka. Musikalnoye teartalnoe iskusstvo i folklor. T., "Fan", 1992.

6. Saidiy Said Boltazoda. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida). O'quv qo'llanma. T., 2008.

7. Toshmatov O'. Cholg'ushunoslik. T., 2006.

8. Toshmatov O', Turatov S. Ko'hna cholg'ular (Qadimiy milliy cholg'ular ijrochiligi fanidan o'quv-qo'llanma) T., 2012.

### **Internet saytlari**

1. Internet sayti. Vikipediya – svobodnaya ensiklopediya.
2. Internet sayti. "EOMI.ru". Ensiklopediya muzikalnix instrumentov.

## **“QIRQ QIZ” DOSTONI QORAQALPOQ SAHNASIDA**

**Bibinaz Baxiyeva,**

O'zDSMI musiqali teatr aktyorligi  
yo'nalishi 1-kurs magistri

### **Annotatsiya**

Maqolada Qoraqalpoq xalqining sevimli adabiy merosi “Qirq qiz” dostoni mazmuni yoritilgan bo'lib, bu asarning variantlari boshqa turkiy xalqlar ijodida uchramasligi ta'kidlangan, shuningdek, Qoraqalpoq teatr sahnalarida dostonning namoyish etilishi ilmiy tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** “Qirq qiz” dostoni, qahramonlik madhi, oqinlar, jirovlar, Guloyim, Abdulla boy, drama, opera, lirik ohanglar.

### **Annotation**

The article describes the content of the epic "Forty Girls", a favorite literary heritage of the Karakalpak people, noting that variants of this work are not found in the works of other Turkic peoples, as well as a scientific analysis of the performance of the epic on the Karakalpak theater.

**Key words:** epic "Forty girls", heroic hymn, akyns, zhyrovs, Guloyim, Abdulla boy, drama, opera, lyrical melodies.

“Qirq qiz” degan nomni eshitganimizda eng avvalo mard, qo'rqmas, dovyurak, bir so'z bilan aytganda yigitlardan qolishmaydigan 40 nafar qizni va uning dovrug'i yeru-ko'kni larzaga solgan Guloyim ismli sarkardasi ko'z oldimizga keladi. Qoraqalpoq xalq og'zaki yodgorliklaridan biri “Qirq qiz” dostoni “Go'ro'g'li” yoki “Alpomish” kabi boshqa qardosh xalq adabiyotida uchraydigan qahramonlik dostonlaridan farqlanib, faqat Qoraqalpoq xalq shariyatining chinakam boyligidir.

Bu doston 1939-1940-yillari To'rtko'lda yashagan mashhur xalq hikoyachisi Qurbonboy jirav Tojiboyev ( 1876-1958 ) ijrosidan yozib olingan va 1949-yili

bosmadan chiqarilgan. Ko‘p qatlamli adabiy-tarixiy yodgorlik “Qirq qiz”ning bosh qahramonlari o‘z ona-yurtini bosqinchilardan himoya qilish uchun qo‘liga qilich ko‘tarib chiqqan jangchi ayollardir. Doston o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz rus va ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Dostonning xalq yaxshi ko‘radigan meros ekanligini uning rus tilida uch marotaba bosilib chiqqanligi yaxshi dalil bo‘la oladi.

Dostonda vatanparvarlik, adolatparvarlik, xalqlar do‘stligi g‘oyalari yorqin ifodalangan, shuning bilan birga Qoraqalpoq xalqining sirt el (chet, begona) bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashi, xalqning odil, baxtli turmushi uchun intilish tilaklari, tug‘ilgan elga va yerga mehr degan teran yurtparvarlik tuyg‘ulari ko‘rkam uslubda tasvirlangan [1].

Dostonning asosiy g‘oyasi Xorazm xalqlarining do‘stligini jirlashdan iboratdir. “Qirq qiz” dostoni boshqa qoraqalpoq dostonlari kabi belgili tarixiy voqealar negizida paydo bo‘lib, bir necha davrlarni qamrab oladi. Dostonning bosh qahramonlari Guloyim, Sarvinoz, Otbosqan, Arslon siyaqli xalq botirlari hisoblanadi. “Qirq qiz”ning mazmuni asosan quyidagilardan iborat: Alloyor boy qadimiy Sarko‘p nomli shaharda yashagan – uning olti o‘g‘li va bir qizi, ya’ni Guloyim bo‘lgan.

Guloyim o‘n besh yoshida otasidan o‘z mulki bo‘lishi uchun Mevali orolini so‘rab, unga qal’a qurdiradi. So‘ng Guloyim o‘rtoqlarini – qirqta qizni yig‘ib oladi va ularga jang san’ati, ot minish, kamon otish, qilichbozlikni o‘rgatadi. U harbiy jasoratlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rgan, chunki u Qalmoq xoni Surtayshaning Sarko‘pga qarshi urushga borishini uzoq vaqtdan beri o‘ylayotganini bilar edi. Guloyim o‘rtoqlari bilan kimsasiz orolga daraxt ko‘chatlari, gullar o‘tqazib, atrofni gullagan boqqa aylantirgan. Qal’a bekasining noyob go‘zalligi haqidagi shov-shuv mamlakat chegaralaridan tashqarida ham tarqalgan. Ko‘pchilik uning qo‘lini so‘rardi, lekin hamma rad javobini olardi. Qiz tushida unga ko‘ringan qahramon Arslon ismli botirni sevib qoladi. Arslon hayotda yovga qarshi jangdan qaytmagan, do‘stga mehribon timsolida tasvirlanadi. Arslonning bor kuchi xalq baxtiga sarflangan, shuning uchun ham xalq uni hurmat qilib yolg‘iz qoldirishmagan. Dostondagi boshqa qahramonlar ham yuqori xalqlik belgilar bilan tasvirlangan [2]. Dushman qo‘l ostida vaqtincha qullikda yashaganda ular el-xalqini yodidan chiqarmagan, odamiylik orini saqlashga tayyor turgan. Bularni isbotini Guloyimning quyidagi so‘zlaridan ham bilsa bo‘ladi:

Yeng shimarib, belni mahkam tugamiz,  
Ketgan kekni o‘la-o‘lguncha quvamiz.  
Janglarda elning saqlamasak orini  
Odam bo‘lib onadan nega tug‘ildi biz?! [3].

Bu doston Qoraqalpoq teatr sahnasida hozirgi vaqtgacha o‘z o‘rnini saqlab kelmoqda. Doston dastlab hozirgi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida 1965 yili O‘zbekiston qahramoni Ibroyim Yusupov va yozuvchi Amet Shomurodov ssenariysi asosida kompozitor V. Shafrannikov, rejissyorlar G. Abdulov va S. Xojaniyozovlar tomonidan musiqali drama ko‘rinishida sahna yuzini ko‘rdi. 2015 yili teatr bosh baletmisteri A. Sharipov va Z. Nurimbetov, kompozitor Q. Zaretdinov tarafidan balet variantida qo‘yildi. 2019 yili esa libretto avtori shoira Guliston Matyaqubova hamda kompozitor Najimatdin Muxamatdinov rejissyorlar

В.Баймурзайев, М.Усеновлар тарафидан “Гулолим” номли операси намойиш этилди [4].

2021 йили Қорақалпоқистон халқ юзувчиси Кенгесбой Алламбергенов қаламига мансуб “Қирқ қиз” драмаси сахналасhtирилди. Драмани Қорақалпоқистонда хизмат кўрсаткан артист Мархабай Усенов сахналасhtирган. Бoш рoллари О‘збекистон халқ артисти Базорбой Узоқбергенов (Аллояр бой), Қорақалпоқистонда хизмат кўрсаткан артист Жумагул Сагиндикова (Ақсулув) ижро этишган. Саркарда Гулолим рoлини театрнинг юш актрисаси Гулсанам Абатбайева, Арислон образини Aziz Назаримбетовлар ижро этган. Драмдаги оммавий сахналарда О‘збекистон давлат сан’ат ва маданият институти Нукус филиали талаба-қизлари қатнашган. Спектаклдаги жанг сахналарини театр акtyори Aziz Назаримбетов жуда пухта сахналасhtирган. Аynиқса оммавий рақсдаги қирқ қизнинг ҳаракатлари драмага о‘згача кўркaмлик бағ‘ишлаган.

#### **Адабийотлар:**

1. Жирмунский В.М. Узбекский героический эпос. Фан. Т.: 1948.
2. Usmonov K., Jo'rayev Y., Norqulov N. O'zbekiston tarixi. O'qituvchi. 1995.
3. Максетов Қ. Тажимуратов Е. Қорақалпоқ folklori. “Қарақалпақстан” nashriyoti. No'kus.: 1979. -234 б.
4. Қорақалпоқ folklori. Кo'ptomlik. I т. Duzuvshi – Mfmbetnazarov K. “Қарақалпақстан” nashriyoti, No'kus.: 1979. -364 б.

### **МИЛЛАТНИНГ МАВЖУДЛИК БЕЛГИСИ МИЛЛИЙ АХЛОҚ ВА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТДИР**

**Дилноза Ирисбоева**  
ЎзДСМИ маданиятшунослик  
йўналиши 2-курс магистранти

#### **АННОТАЦИЯ**

Ушбу мақола миллий қадрият ва анъаналарга бағишланган бўлиб, унда мазкур масала юзасидан ўзбек миллати учун энг ёрқин хотиралардан жой олган таассуротлар қаламга олинган.

Данная статья посвящена национальным ценностям и традициям и содержит самые яркие воспоминания узбекского народа по этому вопросу.

**КАЛИТ СЎЗЛАР.** Миллат, ўзлик, маданият, маънавият, ғоя, истиқлол, осийё, янги, улуғ, тарих.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.** Нация, идентичность, культура, духовность, идеч, независимость, Азия, новое, великое, история

Агар атрофга назар солсак бизни қуршаб турган оламнинг ҳар бир нуқтаси маданият, инсоният эришган жамики муваффақиятларнинг замирида маданият ётганлигини ва бу ҳаракатларнинг ҳамма-ҳаммаси маданият деб аталмиш улуғ



тушунча асосига қурилган мустаҳкам ғоядан ташкил топганлигини гувоҳи бўламиз. Чунки башарият тарихининг ҳар бир даври кишиларни madaniyatли яшаш тамойилига бирлаштириш мақсадини илгари сурган. Бунда не-не шайхлар, олиму уламолар, фузалолар, улуғ алломалар ва донишмандларнинг машаққатли меҳнатлари ётганлигини бугунги Янги О'zbekistonнинг қадимий тарихи ўтмиш қаъридан ўз нидолари билан садо бериб турибди.

Демак, адабиётшунос олим, академик Академик Иззат Султоннинг буюклар ҳақидаги шундай фикрлари бор: “Буюк тарихий шахсларни буюк даврлар яратади ва бу буюк шахслар ўзларини яратган замонгагина мансуб бўлиб қолмадилар. Ҳар гал инсоният ўз тараққиётида янги, янада баландроқ поғонага кўтарилганида ўтмишнинг тафаккур гигантлари ҳамроҳликка ва ҳамкорликка келадилар. Жамият ўзи янги тарихий довонга толпиниш пайтида ўтмишнинг ўша буюк сиймоларини мададкорликка чақиради”. [1.29]

Миллийистиклол ғоясида ахлоқ ва кадриятлар, анъаналар доимо муҳим аҳамият касб этган. Миллий ахлоқ ва миллий кадрият, анъаналар миллатнинг мавжудлик белгисидир. Шу билан бирга, узбек халкининг ижтимоий-маданий ҳаётида ахлокий тамойиллар доимо устувор ўринга эга бўлган. Бошқа айрим халқларда ишбилармонлик, тадбиркорлик, ғайрат, шижоат кабиларга алоҳида эътибор берилгани каби, ўзбекларда юқоридаги кадриятлар инкор этилмаган ҳолда асосий диққат, устуворлик ахлокий масалаларга қаратилган. Шунинг учун ҳам Усмон Туроннинг таъкидлашича, туркий халқларда миллий madaniyat ва san'atнинг кадрият ҳамда анъаналарнинг устуворлиги доимо сезилиб туради. [2.80]

Миллий ахлоқ ва анъана кадриятлари миллий истиклол ғоясида ор, номус, ўзликни саклаб қолиш, бошқаларнинг камситишига йўл қўймаслик каби муҳим қоидалар билан уйғунлашиб кетгандир. Ўзбек миллий тарихи, madaniyatининг қайси босқичини таҳлил этмайлик — барисида миллатни ерга урмаслик, уни қадрлаш устуворлик килади. Хусусан, Чин манбасида императорга тобе бўлиб қолган Ишпара хоннинг қуйидаги сўзлари эътиборга лойиқдир: «Уғлимни саройингизга юбораман. У сизга ҳар йили келиб чиқиши самовий бўлган отлар тақдим этажак. Эрта-ю кеч амрингизга тайёрман. Аммо кийимимизни олдини ечишга, ўрилган сочларимизни ёзишга, тилимизни ўзгартиришга ва сизнинг конунларингизни қабул этишга келсак, бизнинг урф-одатларимиз жуда қадимий бўлгани туфайли уларни бузишга жасоратим етмайди». [3.123]

Биз юқорида О'zbekiston тарихи, ўзбек халқи тарихи мустақиллик, озодлик, эрк учун кураш тарихидан иборат деган эдик. Дарҳақиқат, шундай мустамлакачилар нима қилиб бўлса-да, уни талон-тарож қилишга ҳаракат қиларди. Бирок улар Ўлкамизга келиб юксак даражада ривож топган madaniyatга дуч келар эдилар. Масалан, Александр Македонский Мароқанд шахрига етиб келиб, унинг деворлари баланд ва мустаҳкам эканлигини кўради. Унинг ичига жойлашган қалъа иккинчи девор билан ўралганди. Александр бу ерда қапа кўшинни қолдириб, ўзи яқин орадаги қишлоқларни ёқиб талай бошлайди. Табиийки, бундай шавқатсизликлар оқибатида ўлка madaniyati, san'ati вайрон қилинди, маънавий-маданий ҳаёт заифлашди.

Александр Македонский юртимиздан шу даражада беҳисоб бойликларни ўзлаштириб олдики, унинг саноғи йўқ эди. Чунончи, биргина сўз ибодатхонасидан қимматбаҳо тиллалар, мўйнали буюмлар ва бошка бойликлар билан бирга 50 минг талант тилла утка олинган. Александр кушчинлари Марказий Осиё madaniyatiga ваҳшийларча муносабатда бўлган. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, душманлар юртимиз madaniyati олдида доимо лол қолганлар. Шунинг учун ҳам, Александр Македонский буйругига асосан сўғдиёналикларнинг урф-одатларини қабул қилганлар, хаттоки, унинг узи ҳам сафарларда Сўғдиёналикларнинг кийимини кийиб юрган. Чунончи, бу кийимлар куркам ва ихчам бўлиб, айникса жанг пайтида жуда қулай эди. Александр македонларнинг кийимини кийиб олса, ёш болага ухшаб колар, уз салобатини йУкотарди. Агар шаркликларнинг кийимини кийса, салобатли ва кўркам булиб, Осиё шоҳларидек улугвор қиёфага кирарди. Юқоридаги таъсирли мисол шундан дарак берадики, мустамлакачилар туркий халқлар madaniyatини йўқ қилишга ҳаракат қилган бўлсалар-да, бироқ унинг уддасидан чиқа олмадилар. Бунинг боиси эса бундай madaniyatнинг буюклиги, таъсирчанлиги ва ҳақчиллигида эди.

Босқинчи-мустамлакачилар доимо юртимизнинг бой маданий-маънавий бойликларини талон-тарож қилиш, йўқ қилишга алоҳида эътибор беришган. Бу билан улар халқимизга хос маънавият, маърифат, мафкура ва халқ онгидан чиқариб ташлашга интилганлар. Бундай ҳол араб истилоси даврида ўзининг мукаммал кўринишига эга бўлди

Бироқ, араб истилосигача бўлган даврда Марказий Осиё халқлари madaniyati гуркираб ривожланган, ўзининг чуқур анъаналарига эга эди. Шубҳасиз, бу даврда мамлакатимиз ҳудудида яшаган кабилалар ва халқлар ўз ёзувигача эга эди, халқ оғзаки ижоди ривожланган, эпик анъаналар мавжуд эди, шунингдек, бадиият нуқтаи назаридан етарли шаклланган туркий тил ва лаҳжалари, бой поэтик услуб, нутқнинг ритмик ва товуш ифодалиги ҳақида ҳам гапириш ўринли. Қисқаси, араб истилочилари юртимизда шаклланган ижтимоий фикр, ўзига хос менталитет, юксак madaniyat ва миллий ахлоққа дуч келдилар.

Истилочилар юртимизни эгаллаш, уз мустамлакачилик сиёсатини амалга ошириш учун юқорида таъкидланган кадриятларни бартараф этишдан бошка чора йўқлигини билар эдилар. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахийнинг «Бухоро тарихи», Херман Вамберининг «Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи» каби асарлари арабларнинг Марказий Осиёдаги босқинчиликлари, маданий ёдгорликларни талон-тарож қилиш йўлидаги хатти-ҳаракатлари ҳақида ишонарли далиллар келтиради. Масалан, Наршахийнинг юқорида зикр этилган асарида айтилишича, Қутайба араблар бухороликлар билан бирга яшаб, уларнинг хатти-ҳаракатларидан хабардор бўлиб турсалар, улар заруратдан мусулмон бўладилар, деган мақсадда Бухоро аҳолисига ўз уйларининг ярмини арабларга беришга ундаб буйруқ чиқаришни ўйлаб топди. Шу йўл билан у мусулмончилиқни ўрнатди ҳамда шарият ҳукмларини бажаришга уларни мажбур этди. Қутайба масжидлар бино қилди, оташпарастлик асарларини ўқитди. У куп жадду-жахд қилиб, ҳар кимданки шарият ҳукмларини бажаришда камчилик содир бўлса, уни жазолар эди. Одамларга жума намозини

ўқишга буйрук берди, токи Худойи таоло бу яхши иш савобини Бухоро аҳолиси учун охират заҳираси қилсин. .

Араблар Марказий Осиёда азалдан ҳукм суриб келаётган анъанавий халқ ижтимоий-маданий турмушини издан чиқардилар, қадимий урф-одатлар унутила бошланди. Ислом динининг кириб келиши билан Ўрта Осиё халқларининг эски дини ва у билан боғлиқ бўлган барча ёдгорликлар вайрон этилди. Қимматбаҳо металлдан ишланган ҳайкал ва амалий san'at асарлари эса кириб ташланди, лойдан ва бошқа хомашёдан ясалган ҳайкаллар парчаланди. Боскинчилар Ислом динини узга халқлар ҳаёти, турмуш тарзига киритиб, шаръий қилишга қапа эътибор бердилар. Мусулмончиликни қабул қилмаган кишиларга «гайридиний» солиғи — жузья солдилар. Истилочилар халқларнинг асрлар давомида яратган жуда қимбат madaniyat бойликларини емириб ташлаб, маҳаллий ёзувларни йўқ қила бошладилар, davlat ишларида араб тили ва ёзувини қуллай бошладилар. Буюк аллома Беруний юртимизга бостириб кирган араб истилочиларининг бошлиғи Кутайба хакида: «Кутайба Хоразм ёзувини билган, Хоразм афсоналарини сақлаган кишиларни, уларнинг орасида бўлган олимларнинг ҳаммасини турли йўллар билан таъкид остига олди ва йўқ қилиб юборди» [4.33] деб ёзган эди. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, ўзбек халқи маънавияти-madaniyati, унинг мафқураси қаби кўп жабр кўрган миллат бўлмаса керак. Бирок, бундай қийинчиликларга қарамасдан, халқимиз ўзлигини йўқотмади, асл кадриятларимиз авлоддан-авлодга ўтиб яшайверди. Гап шундаки, юртимиздаги аҳоли ижтимоий-маданий савияси юксак эди. Илм-фанни ривожлантириш анъанаси ҳамisha диққат-эътиборда бўлган.

Ислом дини ҳам айни Мовароуннаҳрда Фан, таълимот даражасига кўтарилди, ҳадислар яратилди ва дунёга бунёдкор ғоя сифатида тарқатилди. Дарҳақиқат шундай, маънавият, маърифат, мафкура, роя қотиб қолган ақидалар мажмуаси эмас. Биринчи президент Ислом Каримов таъкидлаганидек, бу — узлуксиз жараён бўлиб, ҳаёт давом этар экан, унинг шиддатли суръати туфайли мафқуранинг олдига, миллий истиқлол ғоясининг олдига қўйиладиган янги-янги талаблар ҳам пайдо бўлаверади. Миллий истиқлол ғояси, миллий мафкура бирданига шаклланадиган ижтимоий ходисалар эмас. «Жаҳон тажрибасига назар ташласак, дейди И.Каримов, - миллатнинг мафқураси бир эмас, балки бир неча авлоднинг умри давомида ишлаб чиқилиши ва такомилга эришувига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Бутун халқни бирлаштирадиган байроқ бўлмиш мафқурани шакллантириш учун инсоният тарихининг турли даврларида худонинг узи ақл-заковат, истеъдод, кучкуват ато этган, ёркин тафаккурга эга бўлган буюк шахслар заҳмат чекканини кўрамиз. Мана, Конфуций ва Махатма Гандани, Форобий ва Баҳоуддин Накшбандни олайлик. Бу зотлар умумбашарий тараққиёт миқёсида танилган, теран инсоний ғоялар, маънавий бойликларнинг кадр-қимматини чуқур англайдиган донишманд одамлар бўлган».

Юртбошимизнинг юқорида билдирган фикрларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, миллий истиқлол ғояси узок йиллар, асрлар давомида у ёки бу миллатнинг гуллари томонидан шакллантирилади ва фуқаролар ижтимоий онгига сингдирилади. Бундай нарса, бир томондан, мамлакатда илм-фан

маънавият, маърифатнинг ривожланишига имкон яратса, иккинчи томондан, у мазкур миллатнинг маънавий-мафкуравий бойлигини бойитади, мустахкамлайди.

Ҳар бир халқ, миллатнинг ривожланган, тараккий этган даврлари бўлгани каби, тушкунлик, таназзул боскичлари ҳам булиб туради. О'zbekiston мисолида ушбу ҳолат тамил этиладиган бўлса, ҳудудимизда миллий тараккиёт доимо сезилиб турди. Ҳаттоки, истилолар, мустамлакачилар иқтисодий бухронлар даврида ҳам умумий маънавий-маърифий юксалишни кузатиш мумкин.

Айниқса, мамлакатимиз ҳудудида ўзгача хос тарзда рўй берган уйғониш даври (IX-XV асрлар) шу маънода алоҳида аҳамиятга эгадир. Бу даврда ўзбек миллий madaniyati жуда тез ривож топди, ўша давр алломаларининг жаҳон цивилизацияга қўшган ҳиссаси чексиз бўлди. Ушбу маданий давр юксалишининг ёрқин сиймолари бўлмиш Форобий, Абу Али ибн Сино, Беруний, Рудакий, Махмуд Қошғарий, Юсуф Хос Хожиб каби даҳолар Марказий Осиё madaniyatининг ривожланишида жуда катта ва сезиларли роль ўйнадилар.

### **Адабиётлар.**

- Султонов И. Навоий ва адабий таъсир масалалари. Тошкент. «Фан». 1968.  
Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. — Тошкент, 1995.  
Наршахий. «Бухоро тарихи», «Мерос» туркуми. — Тошкент, 1991.  
Мухаммаджонов А. Кадимги Тошкент. — Тошкент, 1998 йил.

## **ҒАЖИР НАЙ – НОЁБ ЧОЛҒУ**

**Сирожиддин Шомуродов**

ЎзДСМИ, Халқ ижодиёти факультети,  
Фольклор ва этнография йўналиши,  
3-курс талабаси.

**Илмий раҳбар: ф.ф.д., проф. М.Йўлдошев**

**Аннотация.** Ғажир най ноёб чолғулардан биридир. Ғажир изоҳли луғатларда “ўлаксахўр қуш” дея изоҳланади. Найнинг номи ҳам айнан ўша қуш номи билан боғлиқ. Мазкур қуш кўринишидан тасқара деб аталувчи йиртқич қушга ўхшайди. Бироз кўрқинчли ва йирик жуссали ғажир қуши, асосан, Ўзбекистоннинг тоғли ҳудудларида, хусусан, Сурхондарёнинг юксак тоғ тизмаларида учрайди. Шунинг учун ғажир найнинг ватани Сурхондарёнинг тоғли қишлоқлари ҳисобланади. Ҳозирда бундай най йўқолиб бораётган чолғулар сирасига киради. Мақолада ғажир най, ғажир най устаси ва ясашиш жараёни ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлар:** ғажир най, ғажир най устаси, ғажир қуши, най, найчи.

Ҳар бир халқнинг тарихи унинг тили, маданияти ва санъати билан белгиланади. Халқнинг нечоғли қадимийлигини намоён этувчи осори атиқалари орасида чолғу асбобларининг ҳам алоҳида ўрни бор. Ҳозирги кунда туризм мамлакатларнинг энг сердаромад соҳасига айлангани барчага маълум. Туризм

ривожланган давлатларда санъатга, мусиқа ва мусиқа чолғуларига эътибор ҳам юқори эканлиги кузатилади. Хусусан, халқлар чолғу асбоблари ва мусиқа ижролари орқали миллий маданиятини кўрсатиш билан бирга мамлакатининг туристик салоҳиятини ҳам намоёниш этмоқдалар. Бизнинг мамлакатимиз қадимий чолғу ва санъатга алоқадор буюмлар жиҳатидан беҳад бой. Уларни асраб-авайлаш билан бирга мамлакатимизнинг туристик салоҳиятини кўтариш жараёнида мазкур бойликларимиздан ҳам фойдалана олишимиз зарур.

Шу маънода бугунги мақолада ёритиш мақсад қилинган ғажир най ҳам этнографик мазмун ифодаловчи буюмларга қизиқадиган сайёҳларнинг эътиборини тортиши аниқ. Яқинда туркиядан келган бир гуруҳ профессор-ўқитувчиларга шу най чалиб берилди ва унинг ҳикояси айтиб берилди. Меҳмонлар ғажир найнинг ҳикоясига жуда қизиқдилар ва қўлларига олиб турли томондан расмларга олишди. Ижтимоий тармоқларда бу қадимий най ҳақида қайдлар қолдиришди. Шунга кўра ҳам айтиш мумкики, дунё саёҳлари учун бизнинг қадимий чолғуларимиз жуда қизиқ ва мароқли. Хусусан, ғажир най Ўзбекистоннинг тоғли ҳудудларида энг қадимги даврдан то бугунги кунгача ўлмай сақланиб қолган ва деярли ўзгаришга учрамаган ҳолда отадан-ўғилга ўтиб келмоқда. Юқорида қисқача айтиб ўтганимиздек, мазкур чолғунинг “ғажир най” дея номлашининг ўзиёқ кўпчилик учун тушунарсизлиги билан эътибор жалб қилади. Табиийки, шу номдаги қуш борлигини ҳам кўпчилик билмаса керак. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида бу сўзга шундай изоҳ берилган: “ҒАЖИР I Ўлимтиклар билан овқатланадиган, бургут каби катта йиртқич қуш. *Ширинни боғлади тоғнинг тошига, Ғажир эга бўлар, деди лошига.* «Ширин ва Шакар». *Ҳар ўликка қузғун тушиб, Ғажир қўниб тортқилашиб, Тортишди майдон ичинда.* «Равшан».”

Ўзбекистон миллий энциклопедиясининг qomus.uz порталида ғажир найнинг чўпонлар чолғуси эканлиги таъкидланган: “Анъанавий мусиқа чолғулари эса асосан чўпонлар ижодига хос сибизға, ғажир най, аёллар томонидан кенг қўлланиладиган чангқўбиз, бахшиларга жўр бўлган дўмбира (яқин ўтмишда - қўбиз) билан чегараланган.”<sup>8</sup>

Ардоқли шоир Азим Суюннинг бир шеърида шундай сатрлар бор:

Шафақ бағри алвон-алвон,  
Тўралардан ватан вайрон.  
Ғажирдай ғажир бир-бирин,  
Тумшуғи қон, тирноғи қон.  
Ўх, ботирим қайдасан?

Бу шеърда ҳам ғажир қушининг номи билан *ғажимоқ* феъли алоқалантирилган ва таъсирчанлик юқори даражага етган.

*Бадий асарларда ҳам бу қуш ҳақида айрим маълумотларни учратишимиз мумкин: “Тепада тўрт терак бўйи баланд булутсиз жўнжиккан осмон тагида эса тўдасидан ажралиб қолган кекса Ғажир нақ ўтирганлар тепасида кичик доира ясаб айланар, қирнинг орқасидан шошиб чиқиб келаётган ёш овчини кўриб турган бўлса ҳам бу ёқда беғам ўтирган ошиқларни огоҳлантиришига шошилмас*

<sup>8</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/surxondaryo-qashqadaryo-musiq-a-uslub-i-uz/>

эди. Уч кун олдин тонг пайти яқин биродари дўлта бўрининг олмос тишлари ковагида қолган тўнғизвачча гўштининг колдиқларини мўйчинакдай териб егандан бери туз тотигани йўқ. Дўлта бўрининг изидан икки кун саргардон кезди. Фақат иккисига тегшили ов майдонида бирор нарса илинмади. Ноилож қолган дўлта тоғнинг Самарқанд тарафига ўтдию отбокарнинг қопқонига тушди. Ғажир эса қаноти борлигига шуқр қилиб, янада баландроқ кўтарилди-да жанубга — доимий ўришига йўл олди. Бугун насиб қилса ё манови антиқа жуфтдан ё анови ҳаллослаб келаётган овчидан бирор нарса тушиб қолар, деган умид билан ерга олазarak қараганча айланарди.”<sup>9</sup>

“Воҳада кенг тарқалган мусиқа чолғуларидан бири найдир. Найлар қамиш пояси ва ёғочдан ясалган, узунлиги 15-20 см атрофида бўлган. Сибизғи (сибизик) чўпонлар орасида кенг тарқалган. Сибизғи оддий қамишдан ясалган ва пуфлаб чалинган. Бундан ташқари найнинг ғажир най тури ҳам мавжуд бўлиб, бундай найлар воҳанинг Бойсун туманида кўпроқ қўлланилган. Ғажир найлар чўл бургути ғажирнинг суягидан ясалган. Найларда кўпроқ - чўпонча куйлар чалинган. Най шувуллоқ лойдан тайёрланган ва чумчуксимон, найсимон, ғўзачасимон каби турли шаклларда ясалган.”<sup>10</sup>

Ғажир куши айтиб ўтилганидек, ўлаксахўр куш бўлиб, Сурхондарёнинг тоғ тизмаларида яшайди ва кўриниши кўрқинчли ва йирик жуссага эга бу кушқанотининг умумий узунлиги 2 қанотини ёзганда 3 метргача етади. Сурхондарё вилояти тоғли ҳудудларида яшовчи чўпонларнинг айтишича, бу паррандани овлаш анча машаққатли иш бўлиб, камдан-кам ҳолларда овланади. Шу сабабли ҳам бу кушлар ўз ажали билан ўлади. Ғажирни тирик ҳолда овлаган тоғ чўпонлари аҳоли орасида алоҳида эътироф этилади ва эҳтиром кўрсатилади.

Ғажирнинг гўшти ейилмайди. Тирноқлари ва панжаси ҳам бургутларники каби табаррук ҳисобланмайди. На терисидан на патидан бирор буюм ясаб бўлади. Фақат икки қанотининг тахминан 30-35 сантиметрлик суяги учунгина овланади ёки ўлигини топиб ўша суяклари олинади.

Кўпинча, найчи усталар ғажирни овлаш учун чўпонларга буюртма беришади. Бу буюртмани фақатгина ғажир най ясовчи усталар беришади. Ва қанотларига ўқ тегмаслиги танбеҳланади. Қанотлари шикастланган ғажирни найчи усталар сотиб олишмайди. Бу кушнинг яроқли қисми фақат ўша қанотларида холос. Қолган бирор аъзоси фойдаланилмайди.

Ғажир найни яшаш жараёни ҳам ўзига хос. Биз бу борада профессор Ўрозали Тошматов ва Собир Туратовларнинг “Кўҳна чолғулар ижрочилиги” китобидан бу ҳақда маълумот олишимиз мумкин: “Ғажир қанотларини ушлаб турувчи марказий суякнинг диаметри 2-2,5 сантиметрга, узунлиги эса 30-35 сантиметргача бўлади. Гўшти ҳаром қилинган кушни суяги этидан ажратиб олингандан сўнг ботқоқ жойга 40 кун кўмиб қўйилади. Буни оддий халқ ичида “чилла қилиш” деб айтилади. 40 кун давомида балчиқ ичида турган суякка ёпишган гўшт бўлаклари чириб суякдан ажралиши осонроқ кечади. Суякни икки томони очилиб ички томони тозаланади. Ғажирнинг қанот суяги табиатан

<sup>9</sup> Ғози Раҳмон. Ошиқ дунё (хикоя)

<sup>10</sup> Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Махмадиёрова Н.С. Сурхондарё – этнографик макон. –Б. 390. Термиз-2011.

учбурчаксимон ва бир оз букилганроқ тузилишга эга. Юза қисм сифатида нисбатан силлиқроқ ва кенгроқ бўлган томон танланади ва шу томонидан 3 ёки 4 та орқа томонидан 1 дона тешик очилади. Орқа томонидан очиладиган тешик пуфланадиган томонга яқинроқ юза томондаги тешиклар узокроқ масофада бўлади.”<sup>11</sup>

Бундан келиб чиқадики, ғажир най яшаш оддий най яшашдек иш эмас. Балки ўзига яраша мураккаблиги бор. Ҳатто усталар суҳбатидан англаганимиз шуки, баъзан қирқ кун балчиқда сақланган ғажир патини тешиш ёки тозалаш пайти синиб кетиши мумкин. Жуда мўрт бўлади. Уни тозалаш жараёни ҳам анча мушкул иш. Шу боис устадан катта эътибор, диққат ва меҳрни талаб қилади. Шундагина бу кушни осмонларга олиб чиққан қанот суяги ноёб мусиқа чолғусига айланиб тинглаганларни руҳан кўкларга олиб чиқади.

Ғажир найни моҳир уста ясади ҳам дейлик, энди уни ҳаракатга келтириш, унга сеҳрли нафасни юбориш лозим. Бу ҳам алоҳида диққатга шоён мистик жараён ҳисобланади. Чунки қадимгилар айтганидек, “тингла найни не ҳикоятлар қилур, айрилиқдан не шикоятлар қилур.” Ҳар бир най инсон нафаси билан жонга кириб унинг тил билан айта олмайдиган сирларини дoston қилар экан. Хўш, мазкур ноёб мусиқа чолғусидан товуш чиқариш яъни куй ҳосил қилиш қай тартибда бўлишини биласизми? Келинг, фурсатдан фойдаланиб бу ҳақда қисқача тўхталайлик.

Ғажир найда товуш ҳосил қилиш учун ўпкадан келаётган ҳаво оқими нафосат ва майинлик билан най тешигига йўналтирилади. Найни ушлашда ҳам бош ва уч қисмидан енгилгина тугилади. Лабнинг ўнг ёки чап бурчагидаги тишларнинг орасига қаттиқ бостирмасдан қадалади. Сўнгра лабнинг тепа қисми билан ўраб олинади ва нафас ташқарига бир текисда сиқиб чиқарилади. Товуш товланишларини ҳисобга олиб нафас оқишини тезлатиш, босимни кучайтириш ёки пасайтириш мумкин. Энг муҳими уни бутун вужуд билан ҳис қилиш лозим. Ғажир найни ҳис қилмасдан туриб чалиб бўлмайди. Бу оддий ёки бошқа турдаги найлардан ҳассослиги билан фарқланади. Уни ҳис қилсангиз най сизга бутун имконларини тортиқ қилади.

Ғажир най созандалари - нойийлар айтадики, ғажирнайда муайян тайёргарликка эга бўлмаган чолғучи уни ўзлаштира олмайди. Бундан англаш мумкинки, найни шунчаки бир қуш патидан ясалган инструмент деб ўйламаслик керак. У бир пайтлар кўкларда, тоғлару булутлар устида эмин-эркин парвоз қилиб юрган бир маҳобатли қушнинг энг муҳим, бутун юкни кўтариб турадиган қанот суягидан ясалади. Ҳар бир ғажир най созандаси шу буюк ҳақиқатни ҳис қилиб туриши лозим.

Яна бир қизиқ жиҳати шундаки, бу қадимий чолғу устоз-шогирд анъанаси билан эмас, аждод-авлод анъанаси асосида яшаб келади. Отадан-ўғилга, бободан-неварага ўтиши сабабли бу чолғуда оталарнинг, катта авлоднинг орзу-умидлари, хаёллари ҳам яширинган бўлади. Шу боис асрлар мобайнида эъзозлаб, авайлаб сақланади. Айтишларича, чолғучилар ғажир найни бошқаларга чалиб

---

<sup>11</sup> Тошматов Ў., Туратов С. Кўхна чолғулар ижрочилиги. Ўқув қўлланма. -Тошкент: Тафаккур, 2016. –Б. 62-63.

кўришга беришни мақбул кўришмайди. Бунда қадимий асотирлардаги “сирнинг ошкор бўлиши” мотиви англашилади.

Шунингдек, ғажир най созандаларига халқ ичида алоҳида хурмат ва эътибор кўрсатилади. Уларга ноёб хислатли кишилар сифатида қаралади. Бойсунлик Холмирза мерган, омонхоналик Ҳамробобо ва бойсунлик Холмирза мерганнинг набираси Бўрикул Жумаев ана шундай эъзозли кишилар сирасига киради. Таъкидлаш лозимки, ғажир най созандаларининг, деярли ҳеч бири профессионал муסיкий билимга эга бўлмаган деқонлар, чорвадорлар ва чўпонлардир. Ҳар йили баҳор келиши биланок, чўпонлар қишлоқнинг чорва молларини йиғиб қирадирларга, тоғ этакларига олиб кетишади. Улар ўзлари билан дўмбира, чанқовуз, дойра, сибизга каби ташишга қулай чолғуларини ҳам олиб кетишади. Ғажир найни ҳам чўпонлар олиб юргани ва чалгани учун баъзи қишлоқларда уни “чўпон най” деб ҳам аташади.

Яна муҳим бир жиҳати шундаки, ҳозирги кунда бу най кундан-кун йўқолиб бормоқда. Овчилар ҳам тутишни лозим кўришмайди. Чунки бу ғажир куши ҳам борган сари камайиб бормоқда. Бизга етиб келган маълумотларга кўра Бўрикул Жумаев ҳозирги кунда ғажир найни маҳорат билан ижро этувчи ягона созанда экан. Бу киши ҳам ғажир най чалишни тўхтатса, шундоқ ҳам ноёб бўлган бир чолғумиз тарих қаърига кўмилади.

Ғажир найдан куй ичро этадиган созандаларнинг камайиб кетишига асосий сабаб фикримизча, унинг устоз-шогирд анъанасида давом этмаслигидадир. Чунки аждоддан-авлодга, отадан-ўғилга ўтиш даврида ўша инсонларнинг фарзандлари бу чолғуга қизиқмаса, узилиш пайдо бўлади ва ғажир найнинг ижрочилари янада камайиб бораверади ва халқ ёдидан бутунлай ўчиб кетиши ҳам мумкин. Уни сақлаб қолиш ҳам ўз қўлимизда. Ғажир най созандаларини ўрганиш, уларнинг най билан боғлиқ анъанасини қайд этиш, репертуарларини тадқиқ этиш ва китоблаштириш лозим. Олий таълимда халқ чолғу ижрочилиги йўналиши дастурларига киритиш орқали ҳам бу ноёб чолғуни асраб қолишга ҳисса қўшишимиз мумкин. Акс ҳолда, ғажир най ва у билан боғлиқ нодир асотирлар, ҳикоя ва ҳодисалар ҳам нутилишга юз тутади.

Ғажир най қадим ва ноёб чолғуларимиздан бири. Уни сақлаб келгуси авлодларга етказиш учун ҳар ким ўз ҳиссасини қўшмоғи лозим.

#### **Адабиётлар:**

1. Тошматов Ў., Туратов С. Кўҳна чолғулар ижрочилиги. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Тафаккур, 2016. –Б. 62-63.
2. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Махмадиерова Н.С. Сурхондарё – этнографик макон. Термиз-2011. –Б. 390.
3. Ғози Раҳмон. Ошиқ дунё (ҳикоя)
4. qomus.info.surxondaryo-qashqadaryo-musiqa-uslub-uz/



## O‘ZBEK XALQINING TURMUSH TARZIDA DINIY MAROSIMLARNING AHAMIYATI

**Mirboqiyeva Munira Ozod qizi**

e-mail address. muniramirboqiyeva4@gmail.com

Tel:+998946249411

O‘zDSMI "Folklor va etnografiya  
mutahassisligi 1-bosqich magistranti

### **Annotatsiya:**

Marosim – inson, oila, jamoa hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbirdir.[6 94b] Ushbu diniy marosimlarning xalqimiz turmush tarzida tutgan o‘rni ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar: marosim, folklor urf-odat, diniy marosim, tarix**

**Annotation:** A ceremony is an event which is aimed to celebrate important occasions in a person, family or a society`s life It is an event which is held in a very formal style and followed by some laws that have been accepted by the society. The importance of these kind of events in the life of Uzbek people is scientifically proven

**Key words:** A ceremony, a folklore, traditions, a history

O‘zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimiz xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an‘analariga, milliy ruhiyatimizning ko‘zgu-siga aylangan turfa urf-odat, rasm-rusum va marosimlarni yaratgan. Asrlar davomida ezgulikni o‘zida aks ettirib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyjanob ulug‘vor maqsadlarga yo‘naltirilgan qarashlari o‘z ifodasini topgan. Zero badiiy salohiyati g‘oyat yuksak bo‘lgan ajdodlarimiz poetik iqtidorini o‘zida mujassamlashtirgan xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Zukko baxshilarimiz tomonidan kuylab kelingan "Alpomish, "Go‘ro‘g‘li", "Kuntug‘mish" singari buyuk dostonlarda tarannum etilgan bunyodkorlik va yaratuvchilik g‘oyalari hamisha xalqimizga juda katta ma‘naviy quvvat beruvchi qadriyatlar tizimi bo‘lib kelgan. Xalqimiz dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o‘ziga hos tarzda badiiy talqin qiluvchi marosim folklori o‘nlab janrlarni o‘z ichiga olgan g‘oyat nodir manbaa hisoblanadi. Marosim qo‘shiqlari va urf-odatlarda ijro etiladigan aytimlar ona diyorumizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug‘ ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf odat va marosimlari, qadri baland an‘analari-yu, o‘zbekona samimiyatini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir. Xalq og‘zaki ijodiyoti asarlari milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib yangilanib boradigan navqiron qatlami sanaladi. Shuning uchun ham xalqimiz o‘z folklorini hamisha asrab avaylab ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab, takomillashtirib, badiiy jihatdan sayqallantirib keladi. [5] Xalq an‘analari va marosimlari jo bo‘lgan asriy qadriyatlar, ma‘naviyat ko‘zgu-siga aylangan qanotli orzular, folklor ijrochilarining ko‘p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida

sayqallanib, barkamollashib kelgan. Bamisoli kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an'analarini chuqur o'rganish milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi.[2 3-bet]Badiiy tafakkurimizning betakror mo'jzalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, rasm-rusum, marosimlari xalq og'zaki poetik ijodi namunalari shu muqaddas zaminda minglab yillar yashab kelgan ota-bobolarimiz iqtidorli va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatlar. [3 3b]Mamlakatimiz o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab xalqimizning urf-odatlarini, marosimlari va an'alariga berilayotgan e'tibor, ularni tiklash, saqlash va keyingi avlodga yetkazish yo'lida samarali sa'y-hurakatlar olib borilmoqda. Zero, yurtimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni eng avvalo milliy an'analar, o'tmishimizga hurmat, tariximiz bilan g'ururlanish ruhida tarbiyalash masalalariga davlatimiz tomonidan e'tibor berilishi mamlakat va millat uchun juda muhim.[4 3b]

O'zbek xalqining turmush tarzida milliy marosimlar qanchalik muhim o'rin tutsa diniy marosimlar ham huddi shunday muhim ahamiyatga ega. Bulardan; "Arafa"—ro'za va qurbon oylarining oxirgi kunlari,xayit kunlari boshlanishidan oldingi kun,sayil oldi tayyorgarlik ko'rish udumi. "Arafa" so'zi Arabistondagi Arofay tog'ining nomidan olingan bo'lib, hijriy-qamariy taqvim bo'yicha zulhijja oyining 9-kunida xojilar ana shu tog'da jam bo'ladilar va toqqa chiqib namoz o'qiydilar Hayitdan oldingi kunning "arafa" qilinishi odati ana shundan kelib chiqqan. Arafa kuni barcha xonadonlarda hayitga tayyorgarlik ko'riladi, bekalar bo'g'irsoq cho'zma-chalpak pishirib is chiqaradilar. Aqiqa—oilada yangi farzand dunyoga kelishi munosabati bilan bola tug'ilganidan 10 yoki 21 kun o'tgach o'tkaziladigan marosim. Bu marosim nomini ifodalovchi aqiqa so'zi arab tilidan olingan bo'lib "yarim qimmatbaho tosh" ma'nosini bildiradi va ba'zida joylarda "bolaning sochini olish" ma'nosida ham qo'llaniladi. Kokil to'yi—yosh bolalarning sochini olganda orqa tarafida qo'yilgan kokil — "haydar"ni kestirish marosimi. Xorazmda bola 1 yoshga to'lgan kuni yaqin qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar bu oilani qutlash uchun yig'ilishadi. Tantanaga xalq xo'shiqlari garmon va doira jo'rligida mohirona ijro etuvchi hushovoz xalfalar va sartarosh taklif qilinadi. Bolaga qo'yilgan "xaydar" sunnat to'yi kuni yoki bu tantanadan bir necha kun avval qirqib olingan "Kokil to'yi" deb atalgan bu marosim odatda oila davrasidan qo'ni-qo'shnilar va qarindoshlar bilan birgalikda o'tkaziladi. Qirqib olingan "xaydar" ni devor yorig'iga yoki tol tagiga ko'mishgan. Xalq qarashlariga ko'ra, bolaning sochi tol tagiga ko'milsa o'sha bola tolga o'xshab tez o'sar emish. Sochni oldirganda kokil qoldirish udumi qadimgi turkiylar davrida ham mavjud bo'lgan. Bu odatning bir ko'rinishi Tog'li Oltoyda istiqomat qiluvchi turkiy qavmlarda saqlanib qolgan: ularning udumiga ko'ra, balog'atga yetgan yigitlar sochini oldirganda boshining tepa qismi yoki orqasida kokil qoldiradilar. Sunnat to'yi—o'g'il bolalarning "qo'lini xalollash" ya'ni sunnat qilish marosimi. "Sunnat" so'zi aslida arabcha so'z bo'lib "hamma qabul qilgan qoida, odat" ma'nosini anglatadi. Bu marosim ko'pgina joylarda "hatna to'yi" deb ham ataladi. Zero "xatna atamasi ham arabcha bo'lib "hamma qabul qilgan qoida, odat" degan ma'nolarni anglatuvchi "xatnun" so'zidan olinganligi uchun o'g'il bolalar jinsiy a'zosining uch qismini kesish bilan bog'liq

marosim ham "xatna to‘yi" deb yuritiladi. Bu marosim mamlakatimizning viloyatlarida "hatna to‘yi", "sunnat to‘yi", "ummat qilmoq", "xuydo-xuydo qilmoq", "chuk to‘yi", "to‘yi pizar", "o‘g‘il to‘yi" kabi nomlar bilan ataladi. Mamlakatimizning turli viloyatlarida o‘tkaziladigan xatna to‘yi o‘z tartibiga mansub udumlari bilan bir-biridan farqlanib turadi. Hususan, N Qurbonovanning fikricha Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida xatna to‘yi "maslahat palovi", "ko‘rpa iyma", "bug‘doy artish", "un artish", "idish tayyorlash", xo‘may-o‘g‘ich yo‘nish", "cho‘pon bichish", "potiya olish", "bola gizlash", kabi udumlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi marosimlar yurtimizning deyarli barcha hududlarida uzoq yillardan beri o‘tkazilib kelinadi va xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tmish ajdodlarimizdan me‘ros bo‘lib qolgan necha- necha asrlar silsilasidan o‘tib bizgacha yetib kelgan bu kabi marosimlarni, ma‘naviy meroslarni asrab-avaylab kelgusi avlodga me‘ros qoldirish biz yoshlarning burchimizdir.

### **Foydalangan adabiyotlar**

- 1 A. Ashirov O‘zbek xalqining qadimiy etiqod va marosimlari. 2007 Toshkent 3-bet.
- 2 S. Yo‘ldosheva Xalq urf-odat va an‘analari 2003 Toshkent 3-bet.
- 3 S. Yo‘ldosheva Marosim va udumlarni sahnalashtirish 2008 Toshkent 3-bet
- 4 S. Davlatov O‘zbek marosim va udimlarining etnohududiy xususiyatlari 2019 Toshkent 3- bet
- 5 M. Jo‘rayev L. Xudoyqulova Marosimnoma. 2008 Toshkent 9,10,57,
- 6.Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – T.: “Sharq” , 2002. 94-b

## **BAXSHICHILIK SAN’ATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xaydarova Mohinur Eshmo‘minovna**

Oz‘DSMI “Folklor va etnografiya” mutaxassisligi

1-kurs magistranti

e-mail address. [Xaydarovamohinur2@gmail.com](mailto:Xaydarovamohinur2@gmail.com)

Tel: +998977475446

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o‘zbek folklorining noyob durdonalaridan bo‘lgan baxshichilik san‘ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda mazkur san‘at turining o‘rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается искусство бакши и его особенности, одного из уникальных шедевров узбекского фольклора. Сегодня высказываются мнения о роли и значении этого вида искусства.

**Annotation:** This article discusses the art of bakshi, and its features, one of the unique masterpieces of Uzbek folklore. Today, opinions are being expressed about the role and significance of this art form.

**Kalit so‘zlar:** Baxshi, shoir, epik ijod, sinkritik ijod, badihago‘y, jirov, otin.

**Ключевые слова:** Бахши, поет, эпическое творение, синкритическое существо, импровизация, жиров, отин.

**Keywords:** Bakhshi, poet, epic creation, syncritic creation, improvisation, zhirov, otin.

O‘zbek folklorining eng go‘zal namunalaridan biri bo‘lgan baxshichilik san’ati, juda qadimgi san’at turlaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki epik an’analarni davom ettirishda, kelgusi avlodga yetkazib berishda baxshilarning o‘rni va ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Shu o‘rinda dastlab baxshi so‘zining lug‘aviy ma‘nosi bilan tanishib olsak. “ «Baxshi» so‘zining «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da to‘rt xil ma‘nolari mavjud bo‘lib bular: donishmand, dostonlarni kuylovchi, dam solib davolovchi tabib, Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi shaxs. Yuqoridagi to‘rt ma‘nodan uchta bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqlli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Ikkinchidan, «baxshi» xalq dostonlarining ijrochisi. Uchinchidan, ibtidoda baxshi va shomon yagona tizimda qaralgan va so‘zning mo‘jizaviy magik fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig‘ qiluvchi shaxs hisoblangan. O‘zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning malumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha «baxsha», «bag‘sha» so‘zlaridan olingan bo‘lib, «ustod», «ma‘rifatchi» ma‘nolarida qo‘llangan.” [1]

Bundan ko‘rinib turibdiki baxshilar qadim zamonlardan yuksak hurmat, e’tiborga loyiq insonlar bo‘lishgan. Xalq doim ularni e‘zozlab, ilohiy qudratga ega ekanliklariga ishonishgan.. Ular bir vaqtning o‘zida tabib, donishmand, ustod va hattoki folbinlik vazifasini ham bajarганlar va bu jarayon uzoq vaqtlar davom etib kelgan. Keyinchalik esa sekin asta baxshilarga bo‘lgan qiziqish pasaya boshlagan. Balki bunga ommaning eposlarimizga bo‘lgan qiziqishining susayishi hamda boshqa san’at turlarining rivojlanishi ham turtki bo‘lgandir?! Epik asar namunalarini keng omma orasida kuylash, ularni yanada boyitib, xalqqa yetkazishda har doim baxshilar yetakchilik qilganlar.

“Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyan Alaviya, Muhammadnodir Saidov kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr va XX asr boshlarida o‘zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo‘lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzga yaqin (variantlari bilan to‘rt yuzdan ortiq) nusxalarini yozib oldilar.”[2] Doston sinkritik san’at namunasi bo‘lib, bir kishilik o‘ziga xos teatr sanaladi. Baxshilar bir vaqtning o‘zida ham sozanda, ham kuylovchi, shu bilan bir qatorda aktyor va rejissyor vazifasini bajaradi. U tinglovchining diqqatini o‘ziga jalb qilib, asar voqealari ichiga tortib keta oladi. Tomoshabin dostonni eshitish jarayonida voqealar xuddi ko‘z oldida sodir bo‘layotgandek tuyuladi. Albatta bularning barchasi baxshining mahorati va badihago‘ylikiga bog‘liq. U doston ijrosi davomida barcha qahramonlar, personajlar obrazini tomoshabinga mahorat bilan yetkazib beradi. Baxshi keng ma‘noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o‘tkazuvchi san’atkordir. Doston ijrochilarini Yetuk baxshilar, badihago‘y, epik an’ana doirasida o‘zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni yarata bilgan ijodkorlarga nisbatan shoir nisbati ham qo‘shib aytilgan. Masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po‘lkan shoir, Abdulla shoir kabi.

Doston kuylovchilar yurtimizda turli nomlar bilan ataladi. Jumladan: Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim hududlarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, ba'zi joylarda sozanda, Farg'ona vodiysida sannovchi, Xorazmda xalfa, Qoraqalpog'istonning ayrim joylarda jirov, jirchi, yana ba'zi hududlarda esa oqin, oxun deb ham atashadi. Biroq baxshichilik barcha viloyatlarda ham keng tarqalmagan. Asosan Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Xorazm va Qoraqalpog'iston respublikasida anchayin rivojlangan. Bu hududlarda hozirgi vaqtda ham to'y-tomoshalar, bayram va marosimlar baxshilar ishtirokisiz o'tmaydi. Diyorimizning boshqa hududlarida baxshichilik nisbatan kamroq uchraydi. Biroq so'ngi vaqtlarda baxshichilik san'atiga qiziquvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Turli viloyatlarda ushbu san'atni o'rganish maqsadidagi yoshlar ko'paymoqda. Bunga sabab yurtimizda ushbu san'atga bo'lgan e'tiborning ortishidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 1 noyabrdagi qaroriga binoan ilk marotaba tashkil etilgan "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivali fikrimizning yaqqol dalili bo'la oladi. Darhaqiqat bunday festivalning yaratilishi folklor sohasi vakillarini nihoyatda xursand qildi desak adashmagan bo'lamiz. Yangidan-yangi ijodkorlar, yuksak qobiliyat sohiblari mazkur tanlovda kashf qilindi. Biz bilmagan, tanimagan baxshilarni xalqqa namoyon qildi. Unutilib borayotgan san'atimizni, an'ana va qadriyatlarimizni tikladi. Bundan tashqari ko'plab yangi dostonlar va termalarning yozib olinishiga erishildi. Bu esa keyingi avlod uchun folklor manbalarini yanada boyishida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

2021-yilda esa Baxshichilik san'ati YUNESKOning insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishi xalqimiz uchun nihoyatda quvonchli xabar bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur voqea yurtimizda baxshichilik san'ati doirasida olib borilayotgan ishlarning yanada rivojlanishiga, taraqqiyotiga xizmat qiladi desak adashmagan bo'lamiz. Darhaqiqat ushbu san'at ixlosmandlari soni kun sayin ortib bormoqda, bu esa milliy eposlarimizga bo'lgan yuksak hurmat, g'urur-iftixor namunasidir. Yurtimizda ilk bor Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti tarkibida alohida "Doston ijrochiligi" kafedrasining tashkil etilishi, mamlakatimizda professional baxshilarni yetishib chiqaradigan katta bir maktabning yaratilishiga asos bo'ldi. Musiqa va san'at maktablarida joriy qilingan baxshichilik to'garaklarida esa o'quvchilar iste'dodli baxshilar tomonidan ustoz-shogird an'analari asosida ushbu san'atning sir asrorlarini chuqurroq o'rganib kelishmoqda. Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki: baxshichilik san'ati xalqimiz uchun hamisha ahamiyatli va qiziqarli san'at bo'lib kelgan. Bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lamining kengligi esa ushbu san'atga bo'lgan talabning yanada ortganidan dalolatdir. Ammo bu yetarli degani emas.

Har qanday kishi baxshi bo'lavermaydi. Buning uchun unda nihoyatda kuchli xotira, bilim va ishtiyoq bo'lishi lozim. Alloh tomonidan yuqtirilgan iste'dod bo'lmasa bu kasbni egallash anchayin mushkul ish sanaladi. E'tibor beradigan bo'lsak qadimda baxshilarimiz 100 ta 200 ta dostonlarni yoddan bilishgan. Bir dostonni ijro qilish uchun kunlar hattoki oylar sarf qilingan. Bu esa baxshining naqadar yuksak xotira egasi ekanligidan darak beradi. Ushbu san'at tinglovchilari ham oddiy insonlar emas, g'oyat bilimli hamda madaniyatli kishilar bo'lishgan. Chunki bir asarni tinglash uchun kunlar

mobaynida quloq solib eshita bilish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun inson anchayin sabrli va bilimli bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish va xalqchilligini ta‘minlash uchun ta‘lim muassasalarida ham bir qator ishlarni amalga oshirish kerak deb hisobliyman. Xususan,

-o‘rta ta‘lim maktablarida baxshilar tomonidan mahorat darslari olib borilib, ushbu san‘at to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar berilib, millatimiz uchun baxshichilikning ahamiyati haqida seminarlar o‘tkazish;

-“Madaniyat karvoni” loyihasi tarkibida ustoz-shogird an‘anasidagi baxshichilik chiqishlarini sonini ko‘paytirib, mahallalarda konsertlar uyushtirish;

-Xususiy telekanallarda baxshichilik haqidagi ko‘rsatuvlarni ko‘proq yoritish.. Sababi davlat telekanallaridan ko‘ra xususiy telekanallarning tomoshabini anchayin ko‘proq;

-Har chorakda madaniyat markazlarida musiqa va san‘at maktablari hamda doston ijrochiligi kafedrası talabalari bilan hamkorlikda gastrol konsert dasturlarini tashkil etish.

Mazkur ishlar amalga oshirilsa xalqimiz baxshichilik san‘ati haqida yanada chuqurroq bilimga ega bo‘lishlari hamda, millatimiz uchun bu san‘atning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglashlarida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Zeroki “Xalq og‘zaki ijodining ushbu go‘zal va betakror namunasi mamlakatimizda ming yillar davomida rivojlanib, baland cho‘qqilarga ko‘tarildi. Baxshichilik san‘ati yurtimizdagi turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash yo‘lida beminnat xizmat qilib keldi va bugungi kunda ham bu sharafli vazifani to‘la ado etmoqda. Yoshlarni ona yurtga, milliy madaniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni adolat va insoniylikka chorlash, barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishida ezgulik elchilari bo‘lgan baxshi, oqin va jirovlarning o‘rni va ta‘siri beqiyosdir.”[3]- deb ta‘kidladi muhtaram prezidentimiz baxshichilik YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgani munosabati bilan yo‘llagan tabrigida.

#### **Adabiyotlar:**

1. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san‘ati an‘analari. B.Sayfullayev, S. Yo‘ldosheva, J.Eshonqulov, A.Ashirov, O‘.Toshmatov. Navro‘z-2017 24-25 bet

2. Zarifov H. O‘zbek folkloristikasi tarixidan// O‘zbek folklori masalalari. T.: Fan,1970.-264 bet.

3. Putilov B.N. Epicheskoy skazitelstvo.-M.,1997.-str.80

4. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. T.Mirzayev - T: Fan-1981. 21-37-B

5. Sh. Mirziyoyev. Baxshichilik YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgani munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan.

## MUNDARIJA

<i>Doston Haqberdiyev. Maqom teatri – millat ko‘zgusi</i> .....	3
<i>Otabek Anvarov. Qo‘qonlik aktyor rahmonjon po‘latov ijodi</i> .....	6
<i>Kamola Suleymanova. Animatsiya san‘atida milliy qahramon o‘rni</i> .....	9
<i>Yuldashev Izzat Ikramovich. Madaniyat sinkretizmi tuzilishida sintezning o‘rni</i> .....	13
<i>Xursandova Zebo Sherzod qizi. Internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyati</i> .....	15
<i>Nishonova Jumagul Ibrahimjon qizi. Farobi’s work of fozil people, the moral virtues of fozil city and its importance in the education of spiritually developed generation</i> .....	21
<i>Xurramova Kumushxon Doniyor qizi, G‘ulom Narzullayev. Tuman axborot-kutubxona markazining axborot-kutubxona xizmati: muammo va yechim (Surxondaryo viloyati Uzun tumani Axborot-kutubxona markazi misolida)</i> .....	25
<i>Сейтназарова Тарбия Мақсетовна. Ирзамурот айбатовнинг актёрлик ҳамда режиссёрлик фаолияти</i> .....	28
<i>Qurbonova Dilnoza Toxirovna. San‘at va madaniyat sohasida qahramon ayol siyмосi</i> ...	31

### III SHO‘BA. TIL VA ADABIYOT TA‘LIMIDAGI IZLANISHLAR

<i>Rahmonova Dinora, Xamdam Ismoilov. Til taraqqiyotida adabiyotning o‘rni</i> .....	35
<i>Mamadaliyeva Aziza Mansurjon qizi, Malikova Sevar Samatovna. Qo‘shiqchilikda adabiy til va shevaning o‘rni</i> .....	39
<i>Abdullayeva Nasiba Ibrahimjon qizi. Analysis of symbolic images in Alisher Navoi’s friend “Lison ut-tair”</i> .....	41
<i>Abatbaeva Shaxnoza Ken‘esbayevna, Abipova Gu‘lmira Salavatdinova. Alisher Navoiy ijodi talabalar nigohida</i> .....	46
<i>Axmatov Abdulla Odil o‘g‘li. O‘zbek adabiyotida yosh ijodkorlarning harakati</i> .....	49
<i>Ravshanova Gavhar Ixtiyor qizi, Zuxra Berdiyeva. Mutolaaga munosabat va shaxs rivojlanishida mutolaaning o‘rni</i> .....	52
<i>Ro‘zimboyeva Marjona Ulug‘bek qizi, Mamatqulova To‘lg‘anoy. Said Ahmadning nasrida davr va shaxs talqini</i> .....	58
<i>To‘laxo‘jayev Abrorxo‘ja, Mamatqulova To‘lg‘anoy. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy madhi...</i> .....	61
<i>Yoqubova Gulnoza Salohiddin qizi, Zumriniso Kozimova. O‘zbek tili – yoshlar nazarida</i> .....	64
<i>Amirov Bunyod Sadulla o‘g‘li, Mamatqulova To‘lg‘anoy. Muhammad Yusufning vatan haqidagi qarashlariga chizgilar</i> .....	69
<i>Zarina Ma‘murova, Ma‘mur Umarov. G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasining adabiy tahlili</i> .....	76
<i>Turdiqulova Sevara Bahrom qizi. Adabiyot gulshanining boqiy darg‘asi</i> .....	79
<i>Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna. Muhammad Yusuf dostonlarida hikmatli so‘zlar</i> .....	82
<i>Ibrohimov Abdulolib, Marufjon Yo‘ldashev. Darvin nazariyasi haqiqatmi yoki hayolot?</i> .....	88
<i>Shukurov Bumyod Shuhrat o‘g‘li, M.Yo‘ldoshev. КўнгиЛ мулкини тарож айлаган қалб эгаси</i> .....	95

#### IV SHO‘BA. FOLKLOR ETNOGRAFIYA: DUNYO XALQLARINING SHAKLLANISHI VA TAMADDUNI

<i>O‘roqov Sulaymon Xamro o‘g‘li, Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna.</i> O‘zbekistonda gilamdo‘zlik hunarmandchiligining qadimgi turlari (Arab millatining “Jexezi” gilami misolida) .....	99
<i>Qurbonova Husnora Alisher qizi, Kurbanova Umida Shakirovna.</i> Xorazm xalfachilik san‘atining ijrochilik an‘analari performing traditions of Khorezm khalfa crescent art .....	101
O‘zbek musiqa san‘atining yuksalishida maqom san‘atining o‘rni .....	104
<i>Asqarova Shirin Inomxodjaevna, H.M. Turgunova.</i> Кўқон аёллар яллачилик san‘ati (“Омон-ёр” фольклор-этнографик халқ жамоаси мисолида) .....	107
<i>Xolmo‘minova Zulnigor, Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna.</i> O‘zbek milliy bosh kiyimi do‘ppining kelib chiqish tarixi hamda tasnifi .....	111
<i>To‘rayeva Maftuna Gulomjonovna.</i> Xalq marosim qo‘shiqlari (Jizzax viloyati misolida) .....	117
<i>Sharipova Dilfuza Madaminjonovna, Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna.</i> Namangan viloyati Chust tumani hududlaridagi to‘y marosimi va ularning o‘ziga xosligi .....	121
<i>Mamatqulova Nigina, Tashmatova Kamola Abdurashidovna.</i> O‘zbek xalq ertaklarining farzand tarbiyasidagi o‘rni .....	124
<i>Abdusalilova Dilrabo Islamovna, D.M. Malikova.</i> Bolalarni ma‘naviy tarbiyasida folklor qo‘shiqlarining o‘rni .....	126
<i>Yoqubova Gulnoza Salohiddin qizi, Zumriniso Kozimova.</i> O‘zbek xalqining folklor san‘ati .....	130
<i>Sunnatillayev Asatilla Sunnatovich.</i> Toshkent shahri folklor-etnografik jamoalari repertuarida mavsum-marosim qo‘shiqlaridan foydalanish masalalari (“Buvijonlar” folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi misolida) .....	138
<i>Mirboqiyeva Munira Ozod qizi.</i> O‘zbek xalqining turmush tarzida diniy marosimlarning ahamiyati .....	143
<i>Sunnatillayeva Nilufar Xusan qizi, Alimov Saidqul.</i> Rivoyat va afsona janrlarining ijtimoiy-tarixiy voqelikka munosabati .....	146
<i>Yuldasheva Mahbuba G‘ulomjonovna, Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna.</i> Namanagan viloyati hududidagi folklor-etnografik jamoalar faoliyati va ular repertuarlaridagi qo‘shiqlarning o‘ziga xosligi .....	151
<i>Musinov Ulug‘bek Nuriddin o‘g‘li, Qodirova Sarvinoz Muhsinovna.</i> Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri tarixiga bir nazar .....	157
<i>Karimova Muqaddas Abdusamatovna.</i> Историческое развитие фольклорно-этнографических представлений .....	161
<i>Sanobar Qulmirzayeva, Zumriniso Kozimova.</i> Qadriyatlar qadrlandi .....	166
<i>Naima Imomaliyeva, D. Muxammedova.</i> Folklor ijrochilik san‘atida folklor-etnografik jamoalarining tutgan o‘rni ( <i>Farg‘ona viloyati “Qo‘qon yor-yori”</i> <i>folklor-etnografik xalq havaskorlik jamoasi misolida</i> ) .....	174
<i>Xolmo‘minova Zulnigor, Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna.</i> O‘zbek milliy bosh kiyimi do‘ppining kelib chiqish tarixi hamda tasnifi .....	178
<i>Xaydarova Mohinur Eshmo‘minovna.</i> Baxshichilik san‘ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari .....	183



<i>Hasanov Og‘abek Xurshidjon o‘g‘li, Davronov Bekzod Diyor o‘g‘li.</i>	
Folklor ijrochiligida qo‘llaniladigan cholg‘ularning boshqa xalq cholg‘ulariga o‘xshashlik jihatlari .....	187
<i>Bibinaz Baxiyeva. “Qirq qiz” dostoni Qoraqalpoq sahnasida .....</i>	190
<i>Дилноза Ирисбоева. Миллатнинг мавжудлик белгиси миллий ахлоқ ва миллий қадриятдир .....</i>	192
<i>Сирожиддин Шомуродов, М.Йўлдошев. Ғажир най – ноёб чолғу .....</i>	196
<i>Mirboqiyeva Munira Ozod qizi. O‘zbek xalqining turmush tarzida diniy marosimlarning ahamiyati .....</i>	201
<i>Xaydarova Mohinur Eshmo‘minovna. Baxshichilik san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari .....</i>	203